

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUXAMIDOVA DILAFRUZ ABDUXABIROVNA

**QARINDOSH-URUG‘CHILIK BILAN BOG‘LIQ YAPONCHA
BIRLIKLARDA “家-UY” KONSEPTI**

Monografiya

Toshkent-2024

Abduxamidova, Dilafruz.

Qarindosh-urugʻchilik bilan bogʻliq yaponcha birliklarda “家-uy” konsepti: monografiya / D.Abduxamidova. – Toshkent:2024. – 146-bet.

УДК 811.521(075.4)

ББК 81.2

A 13

Mazkur monografiya yapon tilida qarindosh-urugʻchilik bilan bogʻliq birliklarda “家-uy” konseptining tadqiqiga bagʻishlangan. Unda qarindosh-urugʻchilik bilan bogʻliq til birliklarning nomlanishi va qoʻllanishiga taʼsir etuvchi ichkari va tashqari oppozitsiyasi hamda soʻzlovchining nigohining koʻchishi kabi omillar tahlil qilingan. Qarindosh-urugʻchilik bilan bogʻliq til birliklarining uydan tashqaridagi jamoalarda qoʻllanishi hamda qarindosh-urugʻchilik bilan bogʻliq yapon maqollarida “家[ie]-uy” konseptining reprezentatsiyasi tadqiqi orqali bu til birliklarining “家[ie]-uy” bilan bogʻliqligi aniqlangan. Ushbu monografiyadan tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi foydalanishi mumkin.

Masʼul muharrir:

Omonov Qudratulla Sharipovich
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Safarov Shaxriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor
Xalmurzayeva Nodira Tashmurzayevna
filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, dotsent

*Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4-sonli majlisi bayoni asosida
nashrga tavsiya etilgan.*

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

KIRISH

Jahon tilshunosligida keyingi yillarda antroposentrik tadqiqotlarga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Antroposentrik tadqiqotlarda inson omili eng kuchli kognitiv-pragmatik vosita hisoblanadi. Tilga kognitiv yondashuvda lisoniy ma'noning shakllanishida til egasi sifatida ma'lum bilim va tajribaga ega shaxs hamda olamning lisoniy manzarasida kuzatuvchi sifatidagi inson muhim omil ekanligiga e'tibor qaratiladi. So'nggi yillarda olamning lisoniy manzarasi konseptga oid tadqiqotlarda jadal o'rganilmoqda. Konseptlar tarkibidagi obrazlar strukturasining xalq milliy madaniyati, yillar mobaynida shakllangan dunyoqarashi bilan bog'liqligi mazkur millatning tafakkuri, mentaliteti haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Dunyo tilshunosligida qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq birliklar oila kategoriyasi sifatida turli yondashuvlar asosida tadqiq qilingan. Biroq yapon tilidagi qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq til birliklarining “家[ie]-uy” konsepti bilan bog'liqligi tahlil qilinmagan, “家[ie]-uy” konsepti freym strukturasida kuzatuvchining diqqat-e'tibori nuqtayi nazardan o'rganilmagan. 家[ie] yaponlar uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos dunyoqarash va milliylikni o'zida aks ettiruvchi madaniy dominant tushunchadir. 家[ie] oilani yoki uy xo'jaligini anglatishi ziddiyatli hodisa bo'lib, ilmiy ishlardagi yondashuvlarda yakdillik kuzatilmaydi. Qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq birliklar yapon tili lug'at tarkibining muhim qismini tashkil etishiga qaramasdan, uning semantik ko'lami va qo'llanishi tadqiqida qator bo'shliqlar mavjud.

Hozirga qadar yaponshunoslikda qavm-qarindoshlikka oid birliklar “家[ie]-uy” konseptidan alohida ravishda antropologik, sotsiologik, madaniyatshunoslik, pragmatik masalalar doirasida yoki qiyosiy aspektda o'rganib kelingan. Mazkur monografiya qavm-qarindoshlikka oid birliklarni “家[ie]-uy” konsepti bilan bog'liq holda o'rganishga yo'naltirilgan birinchi ishdir. Mazkur monografiya qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq til birliklarining semantik maydonida ichkari va tashqari oppozitsiyasi, ularning qo'llanishida so'zlovchi nigohining

ko‘chishi, 母[haha] *ona* so‘zining semantik modellari ko‘rsatib o‘tilishi barobarida, Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining uydan tashqaridagi jamoalarda qo‘llanishining o‘ziga xosligi hamda qarindoshlik bilan bog‘liq yapon maqollarida “家[ie]-uy” konseptining reprezentatsiyasi tahlilga tortilgan. Yapon olamning lisoniy manzarasida makon sifatidagi aniq tushuncha bo‘lgan uy nishonda qavm-qarindoshlik birliklari, ijtimoiy munosabatlarni anglatishi yoritilgan.

YAPON LISONIY TAFAKKURIDA “家[IE]-UY” KONSEPTINING ILMIY TAVSIFI

Konseptning freym strukturasini o‘rganishdagi zamonaviy yondashuvlar

Dunyo tilshunosligida keyingi yillarda antroposentrik tadqiqotlar markaziy o‘rin tutmoqda. Antroposentrik tadqiqotlarda asosiy e’tibor obyektga emas subyektga qaratilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishi nazarda tutiladi. Buning dalili sifatida E. Benvenistning inson va til haqida mulohazalarini keltirish mumkin: “Aynan tilda va tilning sharofati bilan inson subyekt sifatida shakllanadi, chunki faqat til voqelikni, uning borliq xususiyatiga ega bo‘lgan haqiqatni ya’ni- “Ego”- mening o‘zimni ifodalaydi.”¹ Demak, bu nutq faoliyati va olamni anglash jarayonida inson markaziy o‘rinni egallashini anglatadi. I.A. Boduyen de Kurtene aytganidek “Til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual tafakkurda, inson qalbida va inson psixikasida mavjud bo‘ladi”². Zamonaviy tilshunoslikda til tizimini antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmalingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslikka oid tadqiqotlarda amalga oshiriladi. Inson va uning tafakkur jarayonini asosiy omil sifatida tadqiq qiluvchi tilshunoslik yo‘nalishi kognitiv tilshunoslik sanaladi.

Til va tafakkur birligi masalasi esa tilshunoslarning har doim diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sh.Safarov “Kognitiv tilshunoslik” risolasida shunday yozadi: “Til, inson tafakkuri, inson psixologiyasida umumlashgan tahlil tizimini ta’minlovchi “tayanch” g‘oyani topish fan rivoji uchun muhim. Keyingi yillarda, tilshunoslar bunday “tayanch”ni kognitologiyadan topganday bo‘lishmoqda”³. Demak, kognitiv tilshunoslik insonning bilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Kognitiv tilshunoslik doirasida tilni ta’riflashning asosiy tub maqsadi–inson miyasidagi kognitiv tasavvurlar, lisoniy tafakkur va ongdaagi olam manzarasini o‘rganish bilan til o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlashdan iborat.

¹ Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: URSS, 2010. – С.293.

² И.А.Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию. – М.: АН СССР, 1963. – Т.I. – С. 6–20.

³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006. – В.9.

Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo‘lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu fanlarda konsept har bir millatning dunyoqarashi va mentaliteti, madaniyati orqali olam manzaralarini yaxlit tarzda tasavvur qilish deb tushuniladi. Y.M.Lotman konseptni inson tafakkuridagi madaniy muhitning yig‘indi quyqasi deb ta’riflaydi⁴. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan konsept inson psixikasida aks etgan butun borliq manzarasi, miyaning konseptual sistemasi va tili, mental leksikon hamda xotiraning tezkor tarkibiy birligini nazarda tutadi⁵. Unda dunyo, borliq haqidagi ma’lumotlar mujassamlashgan bo‘ladi. Konsept asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi. Psixikada konseptual ma’lumotlar turli obrazlar, ya’ni manzara, rasm, sxemalar tarzida namoyon bo‘ladi. “Til-inson-tafakkur” uchligi kognitiv tilshunoslikda xarakterlidir.

S.A.Askoldev konsept o‘rinbosarlik vazifasini bajarishini aytadi: “Konseptning tabiatini aniqlashtirish uchun eng avvalo, uning bilish jarayoni uchun xizmat qiluvchi vosita sifatidagi muhim jihatiga e’tibor qaratish kerak. Bu jihatni o‘rinbosarlik vazifasida ko‘rish mumkin. Konseptning o‘rinbosarlik vazifasi kishilar o‘rtasidagi muloqotning osonlashishiga, o‘zaro tushunmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi⁶.

S.G.Vorkachev lingvokognitiv tadqiqotlar tipologik yo‘nalishga ega bo‘lib, mental tasavvurlarni shakllanishidagi umumiy qonun-qoidalarini aniqlashni nazarda tutishini yozadi⁷. Bundan tashqari, konseptning maydon modeli ma’lum bo‘lib, unga ko‘ra konsept yadro-prototip qatlamdan, dastlabki eng yorqin obrazdan tashkil topgan bo‘lib, periferiya-yadrodan uzoqroq joylashgan mavhum belgilar qismi va interpretatsion (sharhlovchi, izohlovchi) maydon – turli kognitiv belgilar asosidagi xulosalar ham uning tashkiliy qismidir.

⁴ Степанов Ю.С. Концепт. 2010 [Электронный ресурс] <http://ec-dejavu.ru/c/Concept.html>

⁵ Солохина А.С. Концепт “свобода” в английской и русской лингвокультурах: Дисс. ...канд. фил. наук. – Волгоград, 2004. – С.23.

⁶ Аскольдов С.А. Концепт и слова. // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под.общ.ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. С.267-279.

⁷ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. // Филологические науки, 2001. – №1. – С.64-72.

V.I.Karasik madaniy konseptga tushunchaga oid, obrazli va qadriyatlik(qiymatga ega) jihatlarga ajratiladigan keng qamrovli ma'noviy tuzilishga ega deb qarash kerak ekanligini aytadi. Tushunchaga oid jihati konseptni tilda aks etishi, ma'no anglatishi, alomati, tavsifi, belgili tuzilishi, shu konseptning u yoki bu qatordagi boshqa konseptga nisbatan taqqoslash xususiyati tushuniladi. Obrazli jihati – ma'lum ko'rinishda inson ongida aks etgan voqea, hodisalar, predmetlarning ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish kabi tavsifidir. Konseptning qadriyatga oid jihati, shu tuzilishning individ uchun ham, jamoa uchun ham birdek ahamiyatliligi, muhimlik xususiyatini ko'rsatadi⁸.

Konsept bilan ma'no bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ancha farqli jihatlari bor. Tilda ifodalash murakkab bo'lgan narsalar ham bor. Masalan, odam yuzidagi vizual tasavvurlar, hid sezgisiga oid, beysbolda berilgan zarbalarning yuzaga teginishi natijasidagi tovushni tuyish kabilardir. Insonning olam bilan to'qnashishi natijasida qalbda tug'iladigan "o'y-fikr"lar konseptdir⁹. Xuddi shu fikrni D.S.Lixachov va V.A.Maslova ham aytadi: "Konsept semantik tuzilma, u so'z ma'nosidan bevosita kelib chiqmaydi, balki so'z lug'aviy ma'nosining inson shaxsiy tajribasi va xalq tajribasi bilan birlashuvi natijasidir¹⁰. Konseptga berilgan ushbu tavsif uning mazmunini aniq aks ettiradi. Konsept bu shunchaki belgi emas, til va etnik talqin va izohlar ustma-ust joylashgan mental tuzilma. D.S.Lixachov insonning madaniy tajribasi qancha keng ko'lamli va boy bo'lsa, konseptning yashirin imkoniyatlari shuncha keng va ko'p bo'ladi"¹¹ deb ta'kidlaydi. Haqiqatan ham so'zning tushunilishi, ma'nosi va konseptni inson ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki har bir shaxsning so'z ma'nosi va konseptining qay darajada boy yoki qashshoqligini(bir ma'nolilik) belgilovchi o'zining individual madaniy tajribasi, bilim va ko'nikmalarining ko'lamini, o'ziga xos tushunchalari, o'zining assotsiatsiyalar doirasi mavjud bo'ladi. Konsept kontekst doirasida aniqlanadigan chegara-lang'anlik xususiyatiga egadir. D.S.Lixachyov alohida shaxsning so'z

⁸ Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Монография. – Волгоград: Перемена, 2002. – С.430-431.

⁹ 児玉徳美 (2002) 「意味論の対象と方法」 くろしお出版 – P.277.

¹⁰ Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: уч. пособие. – М., 2004. – 296 с.

¹¹ Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка//Известия РАН. Серия литературы и языка. – М.,1993. – Т.52, №1. – С.153.

boyligida aniqlanib, butun til uchun ochiladigan yashirin imkoniyatlar yig'indisi konseptosferani tashkil qilishini yozadi. Konseptosfera bu – mental tasvirlardan iborat konseptlarning majmuidir. Konseptosfera butun millat madaniyati (adabiyot, ilm-fan, san'at, folklor, tarixi va ayniqsa dini) ning boyligini belgilovchi mezondir¹².

Konseptni o'zbek tilshunoslari O'.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, A.E.Mamatov, N.Mahmudov, B.R.Mengliyev, D.U.Ashurova, Z.T.Xolmonova, D.Xudayberganova, D.Baxronova, D.Agzamova, M.Rahmatova kabi olimlar turlicha ta'riflashgan¹³. D.U.Ashurova barcha tushunchalarni ham konsept deb atab bo'lmashligini, balki olam va milliy madaniyat muhitida muhim rol o'ynaydigan tushunchalargina konsept bo'la olishini yozadi¹⁴. B.Abdirasulov ham o'z maqolasida konseptni mental tuzilma ekanligini, konseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini aytadi. Konsept shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lmashdan, balki mazmunli hodisadir. Subyekt obrazning oddiy shaklini ko'rmaydi yoki uning mazmunini idrok etmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi. Xuddi shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi va bu belgi ma'nosining o'zagini tashkil qiladi¹⁵.

A.Abdiazizov "...so'zlarni turli guruhlariga ajratib, ma'nolarini "semantik maydon"larda tahlil qilish va o'z navbatida ularni alohida

¹² Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка//Известия РАН. Серия литературы и языка. – М.,1993. – Т.52, №1. – С.153.

¹³ Маматов А. Тилда когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада?//Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари: проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212-220. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. №5. – Б.3-16. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: "Сангзор" нашриёти, 2006. – 92 б. Менглиев Б., Холмонова З. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Т., 2016. – 145 б. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фанлари док. ...дисс. автореф. – Т., 2015. – 102 б.; Бахронова Д. Антропозооморфизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2018. – Б.65-72.

¹⁴ Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов о современных направлениями лингвистики//Филологиянинг долзарб масалалари: Маъруза тезислари. – Т., 2008. – С. 56.

¹⁵ Abdirasulov B.A. Konseptning lisoniy voqelanish jarayoni// "Science and education" ilmiy jurnali. – 2020. №1, 9-nashr. – Б.297.

konseptlar sifatida qarash lozim”¹⁶ligini aytadi. M.Rahmatova semantik maydon – yadro, markaz va periferiyadan tashkil topib, ular o‘zaro pog‘onali aloqaga egaligini yozadi. Yadro umumlashgan mazmunni, markaz aniq ma’nodagi birikmalardan tashkil topadi va periferiya boshqa semantik maydonga ham taalluqli bo‘laveradigan, ko‘p ma’noli birliklarni o‘z ichiga oladi. Ma’lum bir maydonga nisbatan “yadro” hisoblangan leksik birliklar boshqa bir maydonda “markaz” yoki “periferiya” vazifasini o‘tay oladi¹⁷. Semantik maydonlarni konsept sifatida qarash o‘rinli, biroq bu maydonda konsept atrofidagi tushunchalar tarqoq ko‘rinishda bo‘lib, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rinmaydi. B.R.Mengliyev, Z.T.Xolmonovalar¹⁸ fikricha: “Bilimlar sistema xarakteriga ega bo‘lmas ekan, u tasavvurligicha qoladi. Sistemalashgan bilimlar konsept tabiatiga ega bo‘ladi.” Voqelikning inson ongida aks etish jarayoni juda murakkab hodisa. Voqealarni sezish, tuyish, idrok etish, ular haqida tasavvur, bilish va nihoyat, tushuncha hosil qilish jarayoni ketma-ket sodir bo‘ladi. Tushunchaning sezgi, idrok, tasavvur va konseptdan farqi shundaki, u muayyan jihatlarni emas, balki konseptdagi eng umumiy, eng muhim umumlashmalarnigina saqlab qoladi. Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘xshatish mumkin. Bunda konsept aysberg bo‘lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir¹⁹. D.Agzamovada konsept insonning psixik hayoti qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida mavjud bo‘lib, dinamik xarakterga ega perseptiv-kognitiv-affektiv hosila sifatida beriladi²⁰. Bu fikr asosli, chunki konsept sezgi, idrok mahsuli bo‘lib dinamiklik xususiyatiga ega. M.Galiyevaning tadqiqotida konseptning tushunchaga oid, obrazli va qadriyatlik tarkibi umumiy olganda olamning konseptual manzarasining, xususiyliganda

¹⁶ Абдуазизов А. Тилшуносликнинг истиқболлари// Филология масалалари. – Т., 2011. – №3. – Б.22-25.

¹⁷ Раҳматова М.М. Инглиз,ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Бухоро, 2019. – Б. 63.

¹⁸ Менглиев Б.Р., Холмонова З.Т. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Т., 2016. – 145 б.

¹⁹ Пименова М.В. Предисловие./ Введение в когнитивную лингвистику. – Кемерово, 2004. – С. 7. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультрема атамалари хусусида// Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. –Т., 2011. – Б.49-55.

²⁰ Агзамова Д.Б. “Хотира” концептининг умумий ва ўзига хос хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Т., 2012. – 164 б.

olamning milliy manzarasining muhim komponenti sanaladi²¹ deb ta'kidlanadi.

Kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasi hamda olamning konseptual manzarasi tushunchalarini farqlash kerakligi aytiladi. Chunki bu manzaralar bir biriga mos kelmaydigan turli 2 holatni ifodalaydi. Olamning konseptual manzarasi global va keng qamrovli tushuncha bo'lib ma'lum obrazdagi konseptlar yig'indisidir. Tilga obyektiv yondashuvchi tadqiqotchilar olamning lisoniy manzarasini quyidagi sxema asosida ifodalaydilar: inson→nutq tafakkuri→anglash→obyektiv olam. Inson obyektiv olamni tafakkur orqali anglaydi va bu tilda aks etadi. Boshqacha aytganda, til tafakkurni ifodalaydi, tafakkur esa obyektiv olamni anglash orqali gavdalaniriladi. Sh.Safarov til hodisasi tabiati bilan qiziqqan har qanday tilshunos ongda kechayotgan lisoniy tafakkur jarayonlarini kuzatish imkoniga egaligini²²yozadi. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotda yaponlarning ongida kechayotgan “家[ie]-uy”ga oid lisoniy tafakkur jarayonlarini aniqlashga kirishildi. A.Y.Mamatov inson tilning yaratuvchisi va tarqatuvchisi, olamning asosiy harakat qiluvchi shaxsi bo'lganligi uchun olamning lisoniy manzarasida inson markaziy hal qiluvchi figura sifatida gavdalanishi²³ni ta'kidlaydi. O.A.Kornilov o'z navbatida inson nafaqat fikrlaydi va anglaydi, balki real dunyoda mavjud bo'lmagan narsalarni his qilib, baholaydi, tasavvur qiladi, ruhiy kechinmalarni boshdan o'tkazishini ta'kidlaydi. Shu tariqa yuqoridagi sxemani kengaytirishni taklif qiladi: inson→tafakkur→anglash→obyektiv olam→olamning lisoniy manzarasi. Olim inson til yordamida tabiatni kuzatadi xayolga cho'madi, his qiladi va fantaziya orqali yangi narsalarni kashf qiladi deb tushuntiradi²⁴. Bugungi rivojlangan kognitiv tilshunoslikda til fenomeni faqat tafakkurni aks ettiruvchi deb ko'rilmaydi, balki tafakkurni shakllantiruvchi vosita, kognitsiyani ta'minlovchi muhim element sifatida ko'riladi. Asosiysi obyektiv olam inson tafakkurida ko'zgudagidek emas, har bir individning o'ziga xos

²¹ Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/cўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира. Дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 2010. – 153 с.

²² Сафаров Ш. Семантика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б.92.

²³ Маматов А.Е. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада?//Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари: илмий амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212.

²⁴ Корнилов О.А. Языковые картина мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 345 с.

olam manzarasi shakliga aylangan holda gavdalanadi. Aynan shu ikkilamchi o'ziga xos olamning aksi olamning lisoniy manzarasi hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik sxema, freym, ssenariy kabi konsept turlarini aniqlashga urinadi. Konsept mazmunini ochib berishda oxirgi yillarda "freym" tahlilidan keng foydalanilmoqda. "Freym" tushunchasini tilshunoslikka birinchilardan bo'lib Ch.Fillmor tatbiq etdi²⁵. Ch.Fillmor talqinida "freym" tushunchasi ancha tor ma'no kasb etadi. Uning talqinicha, freym tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma bo'lib, ushbu tuzilma lisoniy birliklar vositasida shakllanadi hamda konseptning negizini tashkil qiladi.

Ma'noni ma'lum bir vaziyat (ssena) bilan bog'lab izohlanadigan semantikaning yo'nalishi **freym semantikasi** deb nomlanadi. M.Yamanashining yozishicha, predloglarni tanlashda o'z (tashqi yaqqol ifodalangan vaziyat) va ko'chma (ichki, anglash mushkul vaziyatlar) ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslabgina qolmay, balki shu paytgacha yetarli tadqiq qilinmagan ko'p ma'nolilik va pragmatik kontekstdagi muammolarning mos yechimini topishda, hamda shu yo'nalishlarni muvaffaqiyatli boshqarishda tub burilish qilgan nazariya sifatida taklif qilingan²⁶. Freym semantikasi tadqiqotlari so'zning tushunilishiga zarur sistematik bilimni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Freym bu biror narsa yoki hodisa haqidagi tushunchaning bir qismini tushunish uchun, uning butun strukturasini tushunish uchun zarur bo'ladigan, shunga organik bog'langan tizimli bilimlar tuzilmasidir. Masalan, Ch.Fillmor ko'rsatgan misolida ingliz tilida "Yer" ma'nosini bildiruvchi 2 so'z *land* va *graund* ni ma'noviy farqini tushunish uchun, u so'z qaysi nuqtayi nazardan ko'rilyotgan yer ekanligini, nima bilan taqqoslanayotgan yer ekanligini tizimli anglash kerak bo'ladi. *Land sea(dengiz)* bilan taqqoslangandagi yer bo'lsa, *graund* esa *air(havo)* bilan taqqoslangandagi yer ma'nosidir. Bu vaziyatda so'zning tushunilishi taqqoslash hamda qaysi nuqtayi

²⁵ Fillmore C.J., Baker C.F. Frame semantics for text understanding. / Proceedings of WordNet and Other Lexical Resources Workshop, NAACL, 2001. – P.52-92.

²⁶ 山梨正明 (2008) 「概念化と意味の世界—認知意味論のアプローチ」 研究者. – P.28.

nazardan yondashilayotganligiga bog‘liqligini tushunish mumkin²⁷. M.Rahmatova sumalakdan topilgan tosh o‘zbek milliy madaniyatining realiyasi ekanligini yozadi. Bu esa tosh freymining yana bir slotini o‘zbek ongida shakllantirishini aytadi. U o‘zbek olam milliy manzarasini yaratadi, bilim sifatida shakllanib, mental qurilmalar orqali lisonda ifodalanadi²⁸. Demak, insonning yillar mobaynida urf-odatlar, an‘ana va milliy madaniyatidan orttirgan tajribalari milliy ongni shakllantiradi. Mana shu tajribani avloddan avlodga yetkazish jarayonida bilimlar sistemasi freymlar yaratiladi.

D.Lee umumiy olganda freym so‘zning ma’nosi emas, ammo so‘zning tushunilishiga eng zarur vosita hisoblanadi deb yozadi. Masalan, おじ[oji] (amaki, tog‘a) qarindoshlik munosabatini tushunishda 父[chichi](ota), 母[haha](ona), 伯母[oba] xola, amma kabi so‘zlar bilan aloqasini inkor etib bo‘lmaydi. Bu qavm-qarindoshlik so‘zlarining ma’nolari bir-biridan butunlay farq qilsa-da, bitta freym doirasida bog‘lanadi. 母-Onaning ma’nosi bitta konsept doirasida 父 ota, 娘 qiz, おば xola, 妹 singil(yoki 姉 opa) kabi so‘zlarning kontrastidan tashkil topgan degan fakt orqali aniqlashtirilsa, bitta bir xil freym ichida mavjud bu so‘zlar bilan onani farqlab olish va tushuntirish oson bo‘ladi²⁹. Chunki ona so‘zi bilan uning atrofidagi so‘zlar bir ildizga borib taqaluvchi ma’noviy kelib chiqishga ega. D.Lee freym tushunchasi 前景化[zenkeika] figura tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini yozadi³⁰. Freym terminini ishlatilsa-da, alohida bir so‘zning ma’nosi uchun freymning bir qismi bo‘ladigan unsur bilan bunday bo‘lmagan unsur o‘rtasida aniq chegara chizig‘i bor deb bo‘lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi wicket so‘zini kimdir kriketni bilmaydigan odamga tushuntirayotgan paytda, qay darajada batafsil tushuntirishi subyektiv tanlovga bog‘liqdir. So‘zlovchi darvozabon (wicket keeper), maydon o‘yinchisi (kriket to‘pini uloqtiruvchi) ketcher (kriket to‘pini ushlab oluvchi) va yana aut kabi tushunchalarni tushuntirish ancha murakkablik tug‘diradi. Ushbu tamoyildan kelib chiqsak, so‘zlovchi shu

²⁷ Fillmore C.J., Baker C.F. Frame semantics for text understanding. / Proceedings of WordNet and Other Lexical Resources Workshop, NAACL, 2001. – P.52-92.

²⁸ Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD) дисс. – Бухоро, 2019. – Б.16.

²⁹ デイウイッド・リー (2006) (訳: 宮浦国江)「実例で学ぶ認知言語学」大修館 [David Lee “Cognitive linguistics: An introduction. Oxford University Press 2001] – P.10.

³⁰ O‘sha manba. – P.10-11.

narsa haqida biladigan hamma ma'lumot shu bir so'zga tegishli freymning bir qismi bo'ladi³¹. Mana shu bilimlar tizimining ichida ham bir qismi boshqa qismlariga nisbatan alohida bir so'zga to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'ladi.

Yuqoridagilardan freym tushunchasi serqirra ekanligini tushunish mumkin. Masalan, D. Lee *mother* "Irsiy" freym va "Ijtimoiy" freym kabi turli xil freymlarga tegishliligini yozadi: *Did you know that Sue is Johns mother?* (スーがジョンのお母さんだっけ知っていたの-Sue Jonning onasi ekanligini bilganmiding?) deb aytilganda biologik aloqadorlik nazarda tutilayotganligi uchun *mother*-ona so'zi ishlatiladi va bu vaziyatda "Irsiy" freym funksiyasi ishlayotganini ko'rish mumkin. Bunga nisbatan, *Sue is not really cut out to be a mother* (スーって母親向きじゃないな-Sue ona bo'lishga unchalik loyiq emas.) misolida esa *Sue biologik ona bo'la olmaydi* deb aytilmayapti. Aksincha, *ona* degani o'ziga xos xulq-atvorga ega shaxs bo'lishi kerakligi nazarda tutilib "Ijtimoiy" freym funksiyasi ishlayotganini yaqqol ko'rish mumkin³². Xuddi shu vaziyatni keyingi misolda ham ko'rish mumkin.

メアリはジョンが赤ちゃんの時に養子にしており、彼の実の母親ではない、しかし実際のところ彼女は彼にとって実にいいお母さんだ。*Meri Jonni chaqaloqligida asrab olgani uchun uning haqiqiy onasi emas, ammo haqiqatda Meri unga juda mehribon ona.*

Yuqoridagi gapda a) *Meri Jonni onasi emas* b) *Meri Jonning onasi*, ikki qarama-qarshi fikr keltirilyapti. Biroq birinchi gapdagi ona "Irsiy" freym ichida bo'lib, ikkinchi gapdagi ona "Ijtimoiy" freymi ichida qo'llanilayotganligi uchun gap bir-biriga qarama-qarshi emas.

K.Sullivan konseptual metafora nazariyasida (Conceptual Mapping Theory: CMT) manba domen(source domain) va nishon domeni(target domain) da tasvirlanadigan birlik freym bo'ladi deya tadqiq qiladi. Nishon domeni asosan *hayot (life)* so'zi kabi mavhum tushunchalar hisoblanadi, bunga nisbatan manba domen esa odatda *kun(day)* so'zi kabi aniq tushuncha hisoblanadi. K.Sullivan metafora aniqroq domen haqidagi konseptual strukturani mavhum bo'lgan nishondagi domenga eksport qilish, tashish imkonini berishini yozadi³³.

³¹ デイウィッド・リー (2006) (訳: 宮浦国江)「実例で学ぶ認知言語学」大修館 [David Lee "Cognitive linguistics: An introduction. Oxford University Press 2001] – P.11.

³² O'sha kitob. – P.10-11.

³³ Sullivan K. Frames and constructions in metaphoric language. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company. – 2013. – P.26.

K.Sullivan tadqiqotida domenga ko'pgina freymmlarning yig'indisi deb ta'rif beradi. Masalan, *in sunny mood* metaforik iborasini tushunishda *sunny* so'zining ma'nosini tushunish uchun *light* (yorug'lik)ni domen qilib oladi. *Sunny* yorug'lik domenini tashkil qiluvchi freymning biri sanalib, *happiness* (baxt) ni ifodalaydi deb ta'kidlaydi³⁴. R.Langeker "til hodisasiga "oriyentatsiya ya'ni mo'ljall strukturasi" deb nomlangan mental boshqaruv katta ta'sir ko'rsatadi" deb ta'kidlaydi. Bu oriyentatsiya ya'ni mo'ljall strukturasi olamni konseptuallashtiruvchi shaxs ma'lum nishon tushunchaga diqqat qaratmoqchi bo'lsa-yu, ammo bu tushunchaga to'g'ridan-to'g'ri ulanish mushkul bo'lgan vaziyatda, avval e'tibor qaratish oson bo'lgan tayanch nuqtaga qarab mo'ljall olinadi va shu orqali nishonga nigoh yo'naltiriladi, diqqat qaratiladi. Mo'ljall olinayotgan tayanch nuqta nishonga qaraganda yaqqol ko'zga tashlanadigan mavjudlik hisoblanadi³⁵. Buning sababi, butunlik qismga nisbatan yaqqol ko'zga ko'rinadi, "家[ie]-uy" aniq narsa bo'lgani uchun yaponlar uyga qarab mo'ljall oladilar va shu orqali mavhum tushunchalarni, qarindoshlik munosabatlari oila va ijtimoiy munosabatlar jamoani nazarda tutadilar. Bunda aniq narsa mavhum narsaga nisbatan, ko'zga ko'rinib turuvchi narsa ko'zga ko'rinmas narsaga qaraganda yaqqol ko'zga tashlanishi bilan izohlanadi.

N.Boldirev freym doimo bilimning strukturaga ega birligi sanalishini ta'kidlab, "freymda ma'lum tarkibiy qism yoki qismlar o'rtasidagi aloqa alohida ajratib ko'rsatiladi. Shu ma'lum bir takrorlanuvchi vaziyat haqida ma'lumot beruvchi bilim yoki fikr kognitiv model hisoblanadi." deb yozadi³⁶. Demak, freym semantikasi nuqtayi nazaridan til birliklari ma'nosini shakllantirish freym strukturasi shu so'z bilan bog'liq bilimning ma'lum tarkibiy qismini ajratib ko'rsatish natijasida amalga oshiriladi. Ch.Fillmorning fikricha, so'zning leksik ma'nosi shu so'z freymi bilan bog'liq strukturadagi bilimning ma'lum qismini ajratib ko'rsatish, undagi alohida unsurlarga diqqat-e'tibor yoki fokusni qaratish orqali shu bilimlarga tegishli muayyan vaziyatga ishora qiladi. Masalan, ingliz

³⁴Sullivan K. Frames and constructions in metaphoric language. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2013. – P.27.

³⁵Langacker R.W. Reference-Point Constructions. // Cognitive Linguistics, 1993. –№ 4. – P.1-38.

³⁶Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – №1. – С.30.

tilidagi *buy* fe'lida fokus xaridor va tovarga qaratilgan bo'ladi, *sell* fe'lida sotuvchi va tovarga, *pay* fe'lida xaridor va pulga, *charge* da esa sotuvchi va xaridorga qaratilgan bo'ladi. Bular bari bir xil *oldi sotdi* freymi unsuri sanaladi³⁷. Bir so'zni turli ma'noda analogik qo'llanishi fokus yordamida yoki shu freym turli qismlarini ajratib ko'rsatish orqali aniqlanadi, izohlanadi. Freymning alohida qismiga diqqatni qaratish, turli tarkibiy qismlariga yo'naltirish freymning har qaysi qismini, qolaversa bilimning har qanday qismini faollashtirish imkonini beradi³⁸. Shu tarzda tahlil qilib ko'rilsa, freym tushunchasi konseptual jihatga hamda madaniy jihatlariga ega ekanligi ko'rinadi. Demak, konsept strukturasini freym tahlili asosida o'rganilishi so'zning tushunilishiga zarur sistematik bilimni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Freym bu biror narsa yoki hodisa haqidagi tushunchaning bir qismini tushunish uchun, uning butun strukturasiga oid bilim, tushunchaga ega bo'lishni taqozo etuvchi organik bog'langan sistematik bilimlar strukturasidir.

B.Glozman "Uy" haqidagi tasavvurlar konsept sifatida insonda u jamiyat bilan tanishishidan ancha oldin paydo bo'lganini ko'rsatgan. Bu konseptning hamma keyingi ma'nolari (korxona, muassasa, odamlar guruhi) ancha keyinroq ijtimoiylashuv, jamoaviy hayotni boshlanishi natijasida va undagi turli ijtimoiy rollar (oilal boshlig'i, fuqaro) bajarilishi kabilarni o'zida qamrab olganligi natijasida kirib kelgan³⁹. B.Glozman rus tilidagi "uy" konseptini freym tahlili asosida tadqiq qiladi, u freymni geshtaltlar yig'indisi tarzida qo'llaydi, ammo u tadqiqotida freymda kuzatuvchining fokusiga e'tibor qaratmaydi.

Shunday qilib, olam manzarasi obyektiv olamning subyektiv ko'rinishga o'tishi va bu belgili shakllarda namoyon bo'lishi sanaladi. Atrofimizni o'rab turgan voqelik bilan aloqada bo'lgan qancha tajriba ishtirokchilar bo'lsa, shu ishtirokchilar soniga teng olam manzarasi yuzaga keladi. Har bir tajriba ishtirokchisi tafakkurida olam manzarasi biror vosita yordamida paydo bo'ladi. Mana shu vosita olam modeli bo'ladi. Olam modeli tilda aniqroq gavdalanadi. Ushbu tadqiqotda

³⁷ Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс, 1988. – С.52-92.

³⁸ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – №1. – С.30.

³⁹ Глоzman Б.Г. Лингвокультурный аспект изучения фразеологических единиц, репрезентирующих концепт "Дом" в русском языке: Дисс. ...канд.фил. наук. – Оренбург, 2010. – С.38.

Ch.Fillmor, N.Boldirevning freym tahliliga oid nazariyalari asosida yaponlar tafakkuridagi “家[ie]-uy” modeli yaratiladi.

Yapon tilida qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarning o‘rganilishi

Til qatlamining qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq birliklari shu tilning qon-qoniga singib ketgan tushunchalardir. Chunki qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarda xalq ongi, millat tafakkuri, mentaliteti va madaniyati aks etadi. Qarindoshlik bir avlod-ajdodga mansub bo‘lgan kishilarning biri boshqasiga nisbatan tushuniladigan munosabat shakllari demakdir⁴⁰. Qarindosh-urug‘chilik terminlari insoniyat tarixining eng qadimgi davrida paydo bo‘lib to bugungi kungacha qo‘llanilib kelayotgan leksik birliklar hisoblanadi. Bu birliklar insoniyat turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan, jamiyatdagi qarindoshlik munosabatlari haqidagi umumiy va keng qamrovli tushunchalarni ifodalaydi. Qarindosh-urug‘chilikka oid tadqiqotlarni boshlab bergan antropolog L.Morgan “Qarindosh-urug‘chilik munosabatlari deganda shajaraviy munosabatlar asosida o‘rnatilgan aloqalar tushunilib, nomlarga ajratish asosida o‘rganiladi” deb ta’kidlagan⁴¹. Sh.Iskandarova ma’lum bir avlodga mansub bo‘lgan kishilar nomini ifoda etuvchi birliklardan tashkil topib, “qarindosh” umumiy semasi ostida birlashadigan leksemalar **qon-qarindoshlik belgilovchi shaxs nomlari** sirasiga kirishini yozadi⁴².

O‘zbek tilshunosligida bu yo‘nalishda I.Ismoilov, M.Narziyeva⁴³-ning maxsus ishlari mavjud. O‘zbek tilidagi qarindosh-urug‘chilik terminlarini ilmiy jihatdan birinchilardan bo‘lib I.Ismoilov o‘zining “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari (o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur tillari misolida” nomli ilmiy tadqiqotida ko‘rib chiqdi⁴⁴. Mustaqillikdan keyingi davrlarda M.Saidova⁴⁵,

⁴⁰“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B.249.

⁴¹ 渡辺欣雄(1982)『親族の社会人類学』, 現代の文化人類学 (3), 東京, 至文堂、47 卷 4 号 – P.168-178.

⁴² Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). филол.фанлари док. ...дисс. – Т. 1999. – 167 б.

⁴³Нарзиева М. Ўзбек тилида шахсни ёш жиҳатдан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби. Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Бухоро, 1992. – 131 б.

⁴⁴ Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – T.: Fan, 1966. – 152 b.

⁴⁵ Saidova M. Singil termini haqida//O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2000. 5-son.– B.61.

Sh.M.Iskandarova⁴⁶, R.Y.Madaminova⁴⁷, Z.U.Dauletmuratova⁴⁸, Y.Ibragimov⁴⁹ kabilar bu borada izlanish olib bordilar. M.Saidova⁵⁰ ning nomzodlik ishida nikohgacha bo‘lgan qarindoshlik terminlari va nikohdan keyin hosil bo‘lgan qarindoshlik terminlarini etimologik jihatdan tadqiq qilinib, terminlarning leksik-semantik xususiyatlari ham tahlilga tortilgan. Sh.M.Iskandarova⁵¹ doktorlik ishida qarindoshlikni anglatuvchi leksik birliklarni qon-qarindoshlikni belgilovchi shaxs nomlari sifatida olib, uni shaxs mikromaydoni nuqtayi nazardan tadqiq qiladi.

I.Ismoilovning yozishicha, o‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari o‘zining kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra asosan uch katta leksik-semantik guruhga bo‘lib o‘rganilmoqda:

1. Qon-qarindoshlik terminlari; 2. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari; 3. Yaqinlik nomlari

1.Qon-qarindoshlik terminlariga o‘zbek tilida *ona, ota, aka, uka, tog‘a, xola, bobo (bobo), buvi, amma, nevara (nabira)* kabi ma’nolarni ifodalovchi terminlar kiradi.

2. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlarini *er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, quda, quda xola, quda bobo, o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay bola, o‘gay o‘g‘il, o‘gay qiz* singari terminlar tashkil etadi.

3. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruhga kiruvchi terminlar yuqoridagi ikki guruhga mansub terminlar oldidan “tutingan” so‘zini va egalik qo‘shimchalarini keltirish bilan hosil qilinadi: *tutingan ota+m, tutingan ona+m, tutingan qiz+im, tutingan o‘g‘li+m* kabilar⁵².

⁴⁶Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол.фанлари док. ...дисс. – Т., 1999. – 167 б.

⁴⁷ Madaminova R.Y. The kinship terms of the Uzbek and Karakalpak nations (on the example of Uzbek dialects of Karakalpakstan)//Eurasian scientific Herald. Vol.8. May, 2022. – P.35-37.

⁴⁸Даулетмуратова З.У. Қорақалпоқ тилида қариндошлиқ атамалари. Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Нукус, 2010. – 20 б.

⁴⁹Ибрагимов Ю.М. Ареальная терминология родства и некоторые вопросы этнического формирования узбеков Южного Приаралья//Материалы международной конференции “Устойчивое развитие Южного Приаралья”. – Нукус, “Илим” – 2011.– С.117-118.

⁵⁰ Саидова М.Ш. Наманган шеваляридаги қариндошлиқ терминларининг лексик-семантик таҳлили. Филол.фан.номз...дисс. Т. 1995. – 130 б.

⁵¹ Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш(шахс микромайдони). Филол.фан.док... дисс. Т. 1999. – 167 б.

⁵²Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлиқ терминлари. (Ўзбек, қозоқ, қирғиз, туркман, уйғур тиллари мисолида) –Т., Фан, 1966.– В.11.

N.Jalilova asosan etimologik nuqtayi nazardan qon-qarindoshlikni o'rganadi. U o'zbek tilidagi qon-qarindoshlik terminlarining yaratilgan davridan to shu kunga qadar tarixiy taraqqiyotini 3 guruhga ajratadi: a)tarixiy terminlar; b)qadimiy terminlar; v)yangi terminlar-tilning sinxronik normalari shakllanishi davrida paydo bo'lgan qon-qarindoshlik terminlari⁵³.

Yapon tilida qarindoshlik deganda aynan bitta qondoshlik aloqalariga mansub hamda nikoh rishtalari bilan bog'langan insonlar munosabati tushuniladi ⁵⁴ . Yapon tilida qavm-qarindoshlik munosabatlari ikkiga bo'linadi:

1. Tug'ishgan qondoshlik aloqalari; 2. Qonuniy qondoshlik aloqalari.

Tug'ishgan qondoshlik aloqalari avloddan avlodga o'tib kelayotgan qavm-qarindoshlik shajarasini hamda uzoq qarindoshlik aloqalarini anglatadi. Qonuniy qondoshlik aloqalari esa yuridik qonunning qoidalariga asoslanib o'rnatilgan munosabatlar demakdir. Yaponiyaning hozirgi kundagi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq qonuniy nikohda asrab olingan bola ham qonuniy qarindosh hisoblanadi. Yapon tilidagi qarindoshchilik aloqalari borasida T.Vatanabe, T.Suzuki, X.Toshimasa, Y.Vatanabe , Chin Tsuyu, L.B.Lui, F.Okutsu, M.Xolnazarov ⁵⁵ kabilar izlanish olib bordilar. T.Vatanabe Yaponiya Fuqarolik kodeksining 725-moddasida qondoshlik aloqalari, er-xotinlik aloqalari asosidagi qarindoshlik va qondosh bo'lmagan qarindoshlik aloqalariga ajratilib ko'rib chiqilganligini ta'kidlaydi va qavm-qarindoshlik terminlarini quyidagi 2 guruhga bo'ladi:

⁵³Жалилова Н. Ўзбек тилида қон-қариндошлик терминларининг пайдо бўлиш даврига кўра типологияси. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRK LAD). – Туркия, 2018. Volume 2, Issue 1. – Б.468-472.

⁵⁴ 北原保雄 (2010) 「明鏡国語辞典」大修館書店 –1954 p.

⁵⁵ 渡辺友左 (1968) 「社会構造の言語の関係についての基礎的研究－親族ごと社会構造－」(1)国立国語研究所– 101 p. 渡辺欣雄 (1982)『親族の社会人類学』, 現代の文化人類学 (3), 東京, 至文堂、47 卷 4 号 - P.168-178. 陳露 (2001) 「現代日中両言語における親族呼称の対照研究」『千葉大学社会文化科学研究』5. - P.21-31. 劉柏林 (2001) 「中日親族呼称について」『言語と文化』愛知大学 No.5. – P.61-78. 奥津文夫 (2005) 「日英語対応語義範囲のズレと文化的背景－家族内の人間関係を示す語を中心に」和洋女子大学紀要、人文系編, 第 38 集. – P.11-23. Halnazarov M. (2017) 「親族における呼称について－ウズベク語と日本語との対照的観点から－」日本語、日本語学研究第 7 号. – 330 p.

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri (nasldan-naslga o‘tadigan) qarindosh-urug‘chilik: ota-ona, o‘g‘il-qiz, kelin, qaynота, nikohsiz tug‘ilgan farzand, aka-ukalarning rafiqalari, bobо-buvi, nabira kabilar.

2. Yon shajara – aka-uka, opa-singillar, kuyov, singilning eri, qaynag‘a, qaynini, jiyan, xolavachcha, amakivachcha, amma-xola, amaki-tog‘a va b⁵⁶.

T.Vatanabe qondoshlik munosabatlari hamda nikoh orqali bog‘langan munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanishini ta’kidlaydi. Shaxslararo ijtimoiy birlashuvni umumiy qilib mavhumlashtirilgan paytda yuzaga keladigan lingvistik ma’noni “qarindosh-urug‘chilik” deb ta’riflab, shu lingvistik ma’noni ifodalash vazifasini o‘taydigan so‘zlarni “qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlar” deb nomlaydi, ushbu so‘zlar yig‘indisini esa “qarindosh-urug‘chilik leksikasi” deb ta’riflaydi ⁵⁷. Xuddi shu tushunchani T.Shibata “Qarindosh-urug‘chilik nomlari” deb ataydi⁵⁸. T.Suzuki, I.Ismoilov, N.Jalilova⁵⁹ ushbu munosabatlarni “Qarindosh-urug‘chilik terminlari” deb ataydi⁶⁰. Saito qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarni tartibiy tuzilishga ega(tizimli) qarindoshlik terminlari deb nomlaydi. Z.U.Dauletmuratova⁶¹ qarindoshlik atamalari tarzida qo‘llaydi. Sh.Iskandarova, M.Isayeva ma’lum bir avlodga mansub bo‘lgan kishilar nomini ifoda etuvchi birliklardan tashkil topib, “qarindosh” umumiy semasi ostida birlashadigan leksemalar **qon-qarindoshlik belgilovchi shaxs nomlari** sirasiga kirishini yozadi ⁶². Yevropalik olimlar kishilik olmoshlari, kishilik(shaxs) nomlari, qavm-qarindoshlik terminlari (Befu, Norbek 1958, T.Vatanabe 1968, T.Shibata 1966, T.Suzuki 1973)

⁵⁶渡辺友左 (1967)「社会構造と言語の関係についての基礎的研究 1 親族語彙と社会構造」国立国語研究所論集3「言葉の研究」- P.65.

⁵⁷渡辺友左 (1979)「各地方言親族語彙の言語社会学研究(1)」国立国語研究所報告64. - P.15.

⁵⁸柴田 (1978)「日本方言の語彙: 親族名称・その他」東京、三省堂. - P.20.

⁵⁹ Жалилова Н. Ўзбек тилида қон-қариндошлик терминларининг пайдо бўлиш даврига кўра типологияси. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKCLAD). – Туркия, 2018. Volume 2, Issue 1. Б.468-472.

⁶⁰鈴木孝夫. (1967)「トルコ語の親族用語に関する二、三の覚え書」言語学会. – P.1-15.

⁶¹ Даулетмуратова З.У. Қорақалпоқ тилида қариндошлик атамалари. Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Нукус, 2010. – 20 б.

⁶² Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол.фанлари док. ...дисс. – Т., 1999. – Б.45.

ijtimoiy maqomni bildiruvchi terminlar (Minami 1976, Fisher 1964) tarzida ta'riflab o'rganganlar.

Qavm-qarindoshlik terminlaridagi murojaat shakllari borasida T.Suzuki ⁶³, A.Tanaka, R.Shivabayashi, A.Sepexri Badi ⁶⁴, O.Yoshimidzu ⁶⁵, Chin Tsuyularning tadqiqoti diqqatga sazovordir. Xitoylik tadqiqotchi Chin Tsuyu yapon-xitoy tillaridagi qarindoshlik so'zlarida murojaat shakllarini ikki tilda ifodalanishini solishtirgan. T.Shibata **dialektga** doir leksikologik tadqiqot olib borib, mamlakatning har bir hududida qo'llanuvchi qarindosh-urug'chilikka oid leksik birliklar nomlarini o'ziga xosligini tadqiq qildi⁶⁶.

Y.Komori qarindosh-urug'chilik terminlarini qondoshlik aloqalari bilan bog'langan qarindoshchilik hamda nikoh orqali bog'langan qondosh bo'lmagan qarindoshlik aloqalariga ajratadi. Shu tariqa, qarindoshlik munosabatlarini yoshiga qarab farqlab, bobodan oldingi avlod, bobo avlod, ota avlod, bola avlod deya 4 guruhga ajratib tadqiq qiladi va so'zlovchi va tinglovchidan boshqa 3 shaxsni ifodalovchi 他称詞[tashōshi] ni tadqiqot obyekti sifatida oladi⁶⁷. U qavm-qarindoshlik so'zlari 3 shaxsga nisbatan ishlatilganda tinglovchining fokusidan turib qo'llanilmaydi, balki so'zlovchining gap ketayotgan shaxs bilan munosabati muhim sanalishini aytadi. 3 shaxsga ishora qilib qo'llanilganda suhbat mobaynida mavzu sifatida olinayotgan shaxsning o'rnidan turib yondashish yoki shu pozitsiyadan yondashilmasligi til birliklarini tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi deya xulosa beradi. O'zga shaxsning o'rnidan turib gapirishda o'sha shaxsning yoshi va yaqin uzoqlik munosabati asosiy mezon sanaladi.

I.Kanako qarindosh-urug'chilikka oid leksik birliklarga quyidagicha ta'rif beradi: "O'zi bilan qarindoshlari o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish uchun qo'llanuvchi so'zlarini **qarindosh-urug'chilik nomlari (shaxs otlari)** deb nomlanib, shu so'zlardan so'zlovchining o'zi(o'zining qarindoshlari)ni ko'rsatish uchun qo'llanuvchi birliklar so'zlovchining o'ziga ishora qiluvchi **qarindoshlik**

⁶³鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」岩波書店 – 206 p.

⁶⁴ アザム セペフリバディ(2011)「現代日本語における家族から呼ばれるときの呼称」一橋大学国際教育センター紀要第2号. – P.57-71.

⁶⁵尾崎喜光(2018)「現代日本語における親族呼称の時代変化と加齢変化」ノートルダム清心女子大学紀要. 外国語・外国文学. 編, 文化学編 Vol. 42 No. 1. – P.53-77.

⁶⁶柴田(1978)「日本方言の語彙:親族名称とその他」東京、三省堂. – 616 p.

⁶⁷小森由里(2013). 親族間で用いられる他称詞の運用—話題の人物を捉える視点と表現形式-社会言語科学, 16 (1). – P.109-126.

otlari (terms for self), suhbatdoshning qarindoshlariga ishora qiluvchi **qarindoshlik** otlari (address terms), 2 shaxs o‘rtasida qarindoshlarni suhbat mavzusi sifatida olib unga ishora qilinganda qo‘llanuvchi 3-shaxs qarindoshchilik nomlari (reference terms) deb yuritiladi. Bundan tashqari, qarindoshlarga murojaat qilinganda qo‘llanuvchi **qarindosh-urug‘chilik** murojaat birliklari ham mavjud⁶⁸.

Aslida qarindosh-urug‘chilik munosabatlari antropologik tadqiqotlarning o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan. Ushbu tadqiqotlarda qarindosh-urug‘chilik quyidagicha darajalanadi: Yapon antropolog tadqiqotchilari qarindosh-urug‘chilikni quyidagicha pog‘onalashtiradilar⁶⁹:

1.1-jadval

Qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarni pog‘onalashtirish

	To‘g‘ridan-to‘g‘ri qarindoshlik aloqasi		Yondosh qarindoshlik aloqasi			
	erkak	ayol	erkak	ayol	erkak	ayol
3 avlod yuqori	ソ ー ソ フ [sōsofu] <i>katta bobo</i>	ソ ー ソ ボ [sōsobo] <i>katta buvi</i>	ソーソハクフ [Sōsohakufu] <i>amaki bobo</i>	ソーソハクボ [Sōsohakubo] <i>xola buvi</i>		
1 avlod yuqori	ソ フ [sofu]- <i>bobo</i>	ソ ボ [sobo] <i>buvi</i>	オ ー オ ジ [oooji] <i>katta amaki</i>	オ ー オ バ [oooba] <i>katta xola</i>	オ ー オ ジ [oooji] <i>katta amaki</i>	オ ー オ バ [oooba] <i>katta xola</i>
1 avlod yuqori	チ チ [chichi] <i>ota</i>	ハ ハ [haha]- <i>ona</i>	オ ジ [oji] <i>amaki, tog‘a</i>	オ バ [oba]- <i>xola, amma</i>	オ ジ [oji] <i>amaki, tog‘a</i>	オ バ [oba] <i>xola, amma</i>
O‘z avlodi	エゴ（自分）[ego] <i>(jibun)-o‘z</i>		ア ニ [ani]- <i>aka</i> オ ト ー ト [otōto] <i>uka</i>	ア ネ [ane] <i>opa</i> イ モ ー ト [imōto] <i>singil</i>	イ ト コ [itoko] – <i>amakivachcha, xolavachcha</i>	
1 avlod quyi	ム ス メ [musume] <i>qiz</i>	ム ス コ [musuko] <i>o‘g‘il</i>	オ イ [oi] <i>jiyan (o‘g‘il)</i>	メ イ [mei] <i>jiyan (qiz)</i>	イトコのコ[itoko no ko]– <i>amakivachcha, xolavachchaning bolasi</i>	

⁶⁸伊藤加奈子(2017)「親族名称の他称用法に関する現代中日対照比較：“她妈”が「妻」となるときとは」信州大学人文学部. – P.155.

⁶⁹ 鷺山真澄(1993)「親族名称の分析について」自然言語処理. – P.1-7.

2 avlod quyi	マゴ[mago] - <i>nabira</i>	テッソン [tesson] - <i>nabira</i> <i>jiyan</i>	ジュウテッソン [jyūteson])(<i>amakivachcha</i> , <i>xolavachchaning nabirasi</i>)
3 avlod quyi	ヒマゴ [himago]- <i>evara</i>		

Ushbu jadvalda to‘g‘ridan-to‘g‘ri(qondosh) qarindoshlik aloqasi va yondosh qarindoshlik aloqasi o‘zidan 3 avlod yuqori va 3 avlod quyi pog‘onadagi qarindoshlik nomlari o‘zaro munosabati hamda jinsiga qarab ajratilgan. Bolalar ota-onasiga nisbatan birinchi darajadagi; nevara bobosi va buvisiga nisbatan, shuningdek, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillar – ikkinchi darajadagi; evara katta bobosi va katta buvisiga nisbatan, shuningdek, tog‘a va amaki, amma va xola o‘z jiyanlari bilan-uchinchi darajadagi; tog‘avachcha, amakivachcha, amnavachcha va xolavachchalar-to‘rtinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.

O.Takafumi murojaat birliklarini kategoriyalashtirish borasida tadqiq qilib, murojaat birliklarini kelib chiqish jarayonini aniqlashtirishni maqsad qiladi. U ham qarindosh-urug‘chilik nomlarini ingliz tilidagi 1 shaxs 2 shaxs va 3 shaxs otlari kabi so‘zlovchi, tinglovchi va so‘zlovchi va tinglovchidan boshqa 3 shaxsni ifodalovchi birliklarga ajratadi. Ammo 1,2,3 shaxs deb qo‘llamasdan, I.Kanako kabi guruhga ajratib so‘zlovchini ko‘rsatuvchi 自称詞[jishōshi], tinglovchini ko‘rsatuvchi 対称詞[taishōshi], 3 shaxsni ifodalovchi 他称詞[tashōshi]tarzida qo‘llaydi⁷⁰. O.Yoshimidzu “Zamonaviy yapon tilidagi qarindosh-urug‘chilikka oid murojaat birliklarining davrga va yosh o‘tishiga qarab o‘zgarishi”⁷¹ nomli tadqiqotida qarindosh-urug‘chilikka oid murojaat birliklarining hozirgi kundagi qo‘llanuvi, qadimdan bugungi kungacha qanday o‘zgarishga uchraganligi 1985 yildan 2013-yilgacha olib borilgan tadqiqotlar orqali aniqlashtiriladi. Bunda aksentdagi o‘zgarishlar ham hisobga olingan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, qarindosh-urug‘chilikni olimlar har biri o‘z nuqtayi nazardan so‘z, leksika, termin, atama, shaxs nomi kabi turlicha ta’riflashgan. Ushbu tadqiqot ishida qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklari tarzida qo‘llaniladi.

⁷⁰ 緒方隆文 (2015)「呼称のカテゴリー分析－自称詞、対称詞、他称詞－」筑紫女学園大学・筑紫女学園大学短期大学部。－P.1-13.

⁷¹ 尾崎喜光 (2018)「現代日本語における親族呼称の時代変化と加齢変化」ノートルダム清心女子大学紀要. 外国語・外国文学. 編, 文化学編 Vol. 42 No. 1. – P.53-77.

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarini “家[ie]-uy” konseptida freym semantikasi nuqtayi nazardan o‘rganishda fokusning ahamiyati

Kognitiv tilshunoslik psixologiyaning izidan borib, makon (jism) ga qarab mo‘ljall (oriyentatsiya) olish bilan dunyoni til orqali anglash o‘rtasidagi bog‘liqlik tabiiyligini aniqladi⁷². (J.Lakoff va M.Jonson, T.Suzuki taklif qilgan “embodiment” tushunchasi). Tilshunoslikda Yevropa, yapon va rus olimlari tomonidan oriyentatsiya, fokusga oid ancha tadqiqotlar olib borilgan. Fokusga yapon katta izohli lug‘atida ko‘z qarashi, nigoh qaratilgan joy hamda narsa-hodisalarni ko‘rish, tafakkur qilish pozitsiyasi tarzida ta’rif berilgan⁷³, u 2 ma’noda ishlatiladi. Birinchisi qaysi joy(nuqta)dan qaralayotgani, ya’ni obyektga qaragan paytda turgan nuqtani anglatga, ikkinchisi qayerga qaralayotganini, ya’ni e’tibor qaratilgan nuqtani nazarda tutadi⁷⁴. Kognitiv tilshunoslikda fokus tushunchasi “perspective, nuqtayi nazar” terminlari ostida ko‘p o‘rganilgan. Bu tushunchalar o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lsa-da, biroz farqli jihatlari bor. Tadqiqot ishida asosiy e’tibor yapon tilining o‘ziga xos xususiyati so‘zlovchi va tinglovchi uchun asosiy mezon bo‘lgan 内 ichkari va 外 tashqari fokusi⁷⁵ga qaratiladi. Bu ko‘pincha tilshunoslikda subyektiv va obyektiv termini orqali ifodalanadi. Chunki yapon tilida 家[uchi] uy(ichi) doimo 外[soto] tashqaridagi munosabatlarga nisbatan qo‘llanilib, bu oppozitsiya bir birini taqozo qiladi. V.A.Maslova dunyodagi hech bir til borliqqa to‘la-to‘kis mos kelmasligini ta’kidlab “Har bir til sohibi borliqni “milliy nigoh asosida qabul qiladi, borliqning milliy tasvirini o‘z ongida “chizadi”, til ana shu tasvirga mos keladi”⁷⁶ deya haq fikrni aytadi. Aynan olamni kuzatib anglovchi inson so‘zlovchi sifatida ma’lum tilda ma’noni shakllantiradi va tayyor holda tilda ifodalaydi. Aynan so‘zlovchi u yoki bu vaziyatni tasvirlashda tildagi ifoda vositalarini

⁷² Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. University of Chicago Press, 2003. – 242 p.
鈴木孝夫 (1998) 「言語文化学ノート」大修館書店 – 207 p.

⁷³ 松村明 (2023) 「国語辞書デジタル大辞泉」小学館

<https://dictionary.goo.ne.jp/word/%E8%A6%96%E7%82%B9/>

⁷⁴ 澤田治美 (1993) 『視点と主観性—日英語助動詞の分析—』 ひつじ書房. – P.133.

⁷⁵ 長谷部 陽一郎 (2012) 「内からの視点と外からの視点:認知言語学に基づく英語教育に関する試論」同志社大学グローバルコミュニケーション学会. – P.1-27.


⁷⁶ Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – С.94.

ongli ravishda tanlaydi⁷⁷. Y.Morita “yaponlar “o‘z”i (yoki “men”) markazda holda ichki e’tibor fokusidan “tashqari” dagi vaziyatni tasvirlaydi” deb ta’kidlaydi. Yaponlarning “o‘z”ining ko‘zi bilan o‘zgalarini va tashqi olamdagi voqea hodisalarni qabul qilishi, anglashga urinishi “o‘zi” va “o‘z”ini o‘rab turgan borliq o‘rtasida bog‘lovchi chegaraviy chiziq o‘tkazishni taqozo qiladi. Shu tufayli tashqi obyektlarni “o‘zi”dan xoli bo‘lgan, “mening” sifatimdan farqlanuvchi mavjudlik deb qabul qiladi, natijada yaponlarda “o‘zi”ni “tashqi ta’sir ostida qoluvchi, ta’sirga uchrovchi”, ya’ni o‘zini qabul qiluvchi nuqtayi nazardan ko‘ruvchi dunyoqarash yuzaga kelgan. Yaponlar uchun “onore” – o‘z bu “men” bo‘lib, “soto” – tashqari esa “jamiyat” ni anglatadi, fokus jamiyatning ichidan olinmaydi, yaponlar “o‘zi”ni jamiyatning ichiga kiritmaydi. “Jamiyat” ya’ni tashqaridagi shaxslar bilan o‘zi o‘rtasidagi munosabat yaponlar uchun juda muhim bo‘lib, shu munosabat sababli ular olamni 世の中[yo no naka] (*olam(jamiyat)ning ichi*) sifatida qabul qiladi⁷⁸. Qadimdan 男は敷居を跨げば七人の敵あり *erkak kishi ostonadan o‘tsa yetti dushmanga duch keladi* deyilishida ham aynan shu masalaga e’tibor qaratiladi. Ostona ichkari va tashqarini bog‘lovchi vosita bo‘lib, ostonadan o‘tilsa tashqi dunyo boshlanishini anglatgan. Bunda “jamoat” bilan “men” o‘rtasida aniq chegarani belgilovchi to’siq mavjud bo‘lib, “jamoat” va “men”ni aralashtirib yuborish odobsizlik sifatida tushuniladi. “Men” (ichkari) ni “jamoat” (tashqari)dan berkitish, o‘zini old figura sifatida qo‘ymaslik dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lib, bu yopiq madaniyatni shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bu madaniyatda o‘zgalar e’tiborini jalb qilmaslik, ichkarini iloji boricha orqa planga qo‘yish, kishi ko‘ziga tashlanmaslikka urinish bilan bog‘liq. Bunga nisbatan “tashqari”, ya’ni “old” planda “jamoat” bo‘lgani uchun o‘zini old tarafga qo‘yish hurmatsizlik sanaladi, shu bois shaxslararo munosabatlarga jiddiy e’tibor beriladi. Yapon tilining o‘ziga xos qavm-qarindoshlikka oid birliklar ham mana shunday kognitiv zaminda shakllangan. Quyida Y.Moritaning “men” ga nisbatan “shaxs”lararo munosabatlarni ifodalovchi xorijliklar va yaponlarning olamni anglashiga doir chizmasini keltiramiz.


⁷⁷ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – №1. – С.24.

⁷⁸ 森田良行 (2002)「日本語文法の発想」ひつじ書房. – P.6-7.

1.2-jadval



1.3-jadval



Demak, yaponlar chet elliklardan farqli ravishda “o‘zi”ni odamlar orasida emas, “o‘zi”ning belgilangan makonidan turib tashqaridagilarni o‘zga shaxs sifatida ko‘radilar.

Fokusga oid tadqiqotlarda fokus ko‘chishi kognitiv boshqaruv yetakchiligida til shakllarida tizimli namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Bunda uning til unsurlariga ta’siri fokusga qarab shaklning o‘zgarishi nazarda tutiladi. Masalan, biror ko‘p burchakli shaklga qaralganda, shakl shu qarash nuqtasi fokusning o‘zgarishiga qarab turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Fokus joyiga qarab shakl olti burchak yoki kvadrat bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Bir nuqtadan qaralganda yaqindagi manzara to‘siq sabab berkilib qolib ko‘rinmay qolgan bo‘lsa-da, fokusni turli tomonga o‘zgartirish orqali shu ko‘rinmay qolgan bo‘lakning mavjudligini aniqlab olish mumkin⁸⁰. Tog‘ yo‘lidan yurib ketilayotganda shu paytgacha ko‘rinib turgan tog‘ manzarasi biror to‘siq sabab ko‘z o‘ngimizdan berkilib qolishi mumkin. Ushbu holatda tog‘ yo‘qolib qoldi deb emas, fokus harakatlandi deb tushuniladi. H.Savada “Biz real hayotda o‘zimizning nuqtayi nazarimiz, nigohimizgagina egamiz” – deydi, ammo nutqda ma’lum jarayonlarni ifodalash jarayonida o‘z nigohini boshqa fokusga ko‘chirish orqali turli ifoda vositalarini qo‘lga kiritish mumkin⁸¹. Tasavvurimizdagi jarayonlarni ifodalashda ma’lum bir shaxsning ko‘rish nuqtasidan olib,

⁷⁹ 森田良行 (2002) 「日本語文法の発想」 ひつじ書房。 – P.6-7.

⁸⁰ 宮崎清孝・上野直樹 (1985) 『視点』 東京大学出版会、認知科学選書。 – P.53-54.

⁸¹ 澤田治美 (2006) 『視点と主観性—日英語助動詞の分析—』 ひつじ書房。 – P.133.

mana shu nuqtadan gap ketayotgan shaxsni nomlash, fokusni boshqa nuqtaga ko‘chirish ham mumkin.

Yapon tilidagi qarindosh-urug‘chilik nomlari tizimida “家[ie]-uy” konseptining ahamiyatini jamiyat strukturasi jihatdan ilk bora E.Norbek va X.Befu⁸² tadqiq qildi. Antropolog olim J.Embree yapon tilidagi qarindoshchilik nomlarining o‘ziga xosligi sifatida shu nomlar oldidan ウチノ[uchi no] *uyning* aniqlovchi so‘zini qo‘shib qo‘llash bilan ushbu qarindoshchilik nomini qo‘llashda farzand asosiy mezon bo‘lishiga urg‘u bergan. E.Norbek esa bu tarzda qo‘llanishining mezoni sifatida, shaxsning o‘z nuqtayi nazardan emas, “家[ie]-uy” nuqtayi nazardan ekanligini ta’kidlaydi⁸³. Ammo J.Kornell⁸⁴, T.Vatanabe o‘z rafiqasini うちのお母さん-[uchi no okaasan] tarzida emas, balki murojaat birligi お母さん[okaasan] *onaning* atash tarzidagi qo‘llanishi o‘zining nuqtayi nazardan emas 3 shaxs, ya’ni uyning eng kichik bolasini atash mezoni qilib olinsa-da, bunda shaxsga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilinmayapti deb hisoblab, bunday qo‘llaniluvni o‘zgaruvchan teknonim (modified teknonym)⁸⁵ deb nomlaydi. Bunga nisbatan, E.Norbek va X.Befu⁸⁶ o‘z rafiqasini kachちゃん[kachan] kabi murojaat qilgandek qo‘llanishini soxta, ya’ni qondosh bo‘lmagan butunlay begona kishilarga nisbatan qo‘llanuvi deb belgilaydi. J.Kornellning taxmin qilgan gipotezasi 3-shaxsni uyning eng kichik farzandi fokusidan emas, “家[ie]-uy” nuqtayi nazardan olib qaralsa, barcha o‘ziga xosliklarni anglash mumkin deb asoslab, yapon tili qavm-qarindoshlik nomlarida “Uy” konseptining dolzarbligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Xuddi shu nuqtayi nazardan

⁸² Norbeck E., Befu H. Informal fictive kinship in Japan//American Anthropologist, 60:University of California, Berkeley, 1958. – P.49.

⁸³ 上杉富之「「イエ中心」から「自己中心」へ—新潟県横根力言の親族語彙の特徴とその通時的変化—」『民俗学研究』56-1、日本民族学会 – P.67-91.

⁸⁴ Cornell J.B. A Japanese Mountain Community. Two Japanese villages: Matsunagi. Ann Arbor:University of Michigan Press, 2004 – P.113-232.

⁸⁵ Anropologiya sohasida bolaning ismi bilan ota-onani chaqirib murojaat qilish odatini teknonim deb ataladi. Bu termin grekchadan “bola” ma’nosidagi “teknon” bilan “nom” ni anglatuvchi “onoma” so‘zlari birikishidan yasalgan yasama so‘zdir. 鈴木孝夫（1998）

「言語文化学ノート」大修館書店 – P.190.

⁸⁶ Befu H., Norbeck E. Japanese usages of terms of relationship//Southwestern Journal of Anthropology, 14. The University of Chicago Press, 1958. – P. 66-86.

T.Takeuchi⁸⁷, R.Beardsley⁸⁸, H.Kitaoji⁸⁹ M.Tanaka⁹⁰, U.Tomoyuki⁹¹ S.Kim⁹² lar ham qo‘llab-quvvatlab, muammo sifatida olinayotgan qarindosh-urug‘chilik so‘zlarini ijtimoiy mavqeni anglatuvchi terminlar deb asoslaydilar. Yuqoridagi tadqiqotchilar terminlarni qo‘llanuvda uyning eng kichik bolasi nigohidan qarab qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, shaxsning o‘z nuqtayi nazari mezon sifatida olinmasdan, “Uy” tushunchasi asosiy mezon qilib olinishi kerakligini ta’kidlaganlar. Yuqoridagi fikrlar o‘rinli hamda ishonchli asosga ega. Bunga nisbatan J.Fisher oila a’zolari o‘rtasidagi so‘zlovchi 自称詞[jishōshi] va tinglovchi 対称詞[taishōshi] ni ko‘rsatadigan shaxs otlarini tadqiq qilib, ularni ijtimoiy xususiyatga ega sotsiosentrik hodisa ekanligini, ma’lum jamoani mo‘ljallab qilib olib (group oriented), shu nuqtayi nazardan ishlatilsa-da, qarindoshchilikni nomlash mezonni oilaning eng kichik farzandi bo‘lishini ta’kidlagan⁹³. Ammo qavm-qarindoshlikka oid birliklarning jamoa doirasidagi qo‘llanuvda bola mezon bo‘lmaydi, bu ish joyidagi jamoaning oilaga o‘xshatilishi xalos. Bunda ularning uydagi yoki jamoadagi nufuziga asosiy e’tibor qaratiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ko‘rinadiki, 家[ie] yashash joyini ifodalaydimi yoki oilani ziddiyatli hodisadir. Qarindoshlikka oid birliklar ham shu kungacha oilaga tegishli kategoriya sifatida tahlil qilingan. Yapon tilining qarindosh-urug‘chilik nomlarining o‘ziga xosligi haqida tadqiq qilgan yevropalik antropolog olimlar J.M.Bachnik, Tamanoi⁹⁴ Yaponiyaning oila va qarindosh-urug‘chilik strukturasini

⁸⁷ 竹内利美 (1954) 「親族呼称」 日本民俗学協会 (編) 『日本民族辞典』 第 2 巻 735 – 737 頁. 東京:誠文堂 – P.735 – 737.

⁸⁸ Beardsley R.K., Hall J.W. and Ward R.E. Village Japan. Chicago: University of Chicago Press, 1959. – 498 p.

⁸⁹ Kitaoji H. The structure of the Japanese family//American anthropologist. The Australian national university, 1971. – P.1036.

⁹⁰ 上杉富之「「イエ中心」から「自己中心」へ-新潟県横根力言の親族語彙の特徴とその通時的変化-」『民俗学研究』56-1、日本民族学会 – P.67-91.

⁹¹ 上杉富之「「イエ中心」から「自己中心」へ-新潟県横根力言の親族語彙の特徴とその通時的変化-」『民俗学研究』 56-1、日本民族学会 – P.67-91.

⁹² 金世朗(2002)「家族観の呼称表現における通時的的研究ー子供中心的用法に注目してー」現代社会文化研究No.24 – P.269-286.

⁹³ Fisher J.L. Words for Self and Others in Some Japanese Families//American Anthropologist. – 1964. № 66 (6) . – P.115-126.

⁹⁴ Bachnik J.M. Recruitment strategies for household secession: Rethinking Japanese household organization. Man, 1983. New series 18. – P.160-182.

o‘rganganlar. T.Hirota Meyji davrida oila tushunchasining shakllanishi, uning maydoniga kiruvchi qarindosh-urug‘chilik munosabatlari, shu terminlarning oila konsepti doirasida shakllanishi Yaponiyaning Oila kodeksi va uyga egalik haqidagi huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilingan⁹⁵. K.Shinmining “Uy konsepti va yapon qadimiy oilasining tadqiqi”⁹⁶ da uy tushunchasi ostidagi yaponlarning tasavvurlari va oilaviy munosabatlarning insonlar ongida qanday aks etishi borasida tarixiy tahlillar keltirilgan. Yuqoridagi tadqiqotchilar 家[ie] ni oila tarzida tadqiq qilganlar, ammo Tsukuba universiteti tadqiqotchisi V. Gil 家[ie] ni o‘ziga xos madaniy stereotip tushunchalar asosida shakllangan konsept ekanligini aytib, unga “japanese house” –“yapon uyi” tarzida ta’rif beradi hamda“ 家[ie]-uy” konsepti ma’lum bir makonda bir xil maqsadda birlashgan shaxslar guruhini ham anglatishini yozadi⁹⁷. U yapon milliy qilichbozlik san’ati kendo sporti misolida etnografik-antropologik tadqiq qilib, ma’lum guruhlari orasida qavm–qarindoshlikka oid birliklar metafora asosida qo‘llanuvini sanalishini va u o‘zida shaxslararo iyerarxik munosabatlarni aks ettirishini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida qarindoshlikka oid birliklarning qo‘llanishida bola mezoni, jamoani mo‘ljallab olish kabi atamalarni ishlatadi va asosan sotsiologik, antropologik tahlil olib boradi. Ularning ishida fokus yondashuvi haqida gap ketsa ham, bu termin to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanmaydilar. Ammo T.Suzuki qarindoshlikka oid birliklar qo‘llanishini fokus yondashuvi asosida chuqur tahlil qilib, xulosalar beradi, fokus ko‘chishi nazariyasini ishlab chiqadi. Unga ko‘ra, xotinning erga *dada*(si) deb murojaat qilishi aslida eriga bolasining nigohi bilan qarashidir. Bunda u o‘zi ishlatayotgan *dada* so‘zi nuqtasini bolaning ko‘rish fokusiga o‘zgartirmoqda va shaxs bolaning mavqeyiga o‘zining mavqeyini tenglashtirmoqda. T.Suzuki urning o‘z xotiniga カチャン *kachan* (onasi) deb murojaat qilishi mezoni イエ-uy emas, uydagi eng kichik farzand bo‘ladi deb hisoblagan, ammo uy konsepti qarindoshlik nomlarining umumiy asosini(common

⁹⁵ 広田照幸 (2002)「家族の概念－明治前期の家族と親族」教育開発研究所。－P.18-19.

⁹⁶新見吉治 (1948)「家の概念と日本古代の家族研究」ジャーナル オープンアクセス. 15 巻 1 号。－P. 13-44.

⁹⁷Vicenta G. Ethnography in ancient Japan:a theoritical essay about Kinship//Ido movement for culture. Journal of Martial arts Anthropology. – 2016. – Vol.16, no.2. – P.20-31.

footing) tashkil qilishini, ya'ni イエ -uy chegaralangan sfera (circumscribed sphere) doirasida muhim unsur ekanligi ko'rsatiladi. Aynan shu nuqtayi nazardan qarindosh-urug'chilik terminlari qo'llanishini yangidan 「オイコニミー」 *oykonimi* (oikonymy, "oikos" -grek. Uy "nomy" — nom) deb nomlaydi⁹⁸.

Yapon tilida qavm-qarindoshlikka oid birliklar kishilik olmoshlari sanaladi. Kishilik olmoshlari (ayniqsa 2 shaxs olmoshi)ning qo'llanilish doirasi chegaralanganligini kuzatish mumkin. Masalan, o'zining ota-onasi, aka va opalariga, umuman uydagi yoshi kattalarga あなた[anata] *sen* yoki siz kabi kishilik olmoshlarini ishlatilishi deyarli kuzatilmaydi. O'zini ko'rsatish uchun qo'llanuvchi so'zlardagi kabi suhbatdoshni ko'rsatishda ham qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar ko'p qo'llanadi. Masalan, do'konda aylanib yurgan ayol qiziga (qo'lidagi narsaga ishora qilib) 「要らないならママにあげなさい」 [iranai nara **mama** ni agenasai] *Kerak bo'lmasa oyingga ber.* — deya o'zini "menga" tarzida emas, qarindoshlik nomi bilan "oyingga" deb ataydi. O'zbek tilida bunday vaziyatda "men" kishilik olmoshi ishlatiladi. Shu nuqtayi nazardan qavm-qarindoshlikka oid birlik kishilik olmoshi vazifasini bajaradi deyish asosli bo'ladi. お父さん [otōsan] *ota*, *dada*, お母さん [okaasan] *ona*, お祖父さん [ojiisan] *bobo*, 伯母さん [obasan] *xola*, 兄さん [niisan] *aka* kabi turli xil shaklda, erkalash va qisqartirish shakllarini olgan holda olmoshlar o'rnida qo'llaniladi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar qavm-qarindoshlikka oid birlikning kishilik olmoshi sifatida qo'llanishida yosh jihatdan farqlar borligini ko'rsatmoqda. T.Suzuki, yapon tilidagi qavm-qarindoshlik nomlarining asosiy qismi, ijtimoiy mavqega oid terminlar va bir qancha kasb nomlarining bari kishilik olmoshlari ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, so'zlovchining o'zini ko'rsatuvchi shaxs otlari 自称詞 [jishōshi] (*terms of self*), suhbatdoshni ko'rsatuvchi shaxs otlari 対称詞 [taishōshi] (*address terms*), suhbat jarayonida paydo bo'luvchi (tilga olinuvchi) 3 shaxsni ko'rsatuvchi shaxs otlari esa o'zga 3 shaxs oti deb nomlanishini ko'rsatadi⁹⁹. 自称詞 [jishōshi] so'zlovchi o'zini atab gapirganda ishlatiluvchi so'zlarning barchasi o'zida jamlovchi

⁹⁸ 鈴木孝夫 (1998) 「言語文化学ノート」 大修館書店 – P.203.

⁹⁹ 鈴木孝夫 (1973) 「言葉と文化」 東京、岩波書店 – P.146.

tushunchadir. 1 shaxs olmoshlari esa o‘z-o‘zidan 自称詞[jishōshi]ning bir qismi hisoblanadi.

T.Uesugi¹⁰⁰Niigata dialekti qarindoshlik terminlarini diaxronik aspektda tadqiq qilib, urushdan keyin adabiy tilning rivojlanishi bilan qarindoshlikka oid birliklarning qo‘llanuvi “oykosentrik”, ya’ni “uy” asosiy mezon sifatidagi qo‘llanuvidan “Egosentrik” shaxsning “o‘zi” asosiy mezon bo‘lgan qo‘llaniluvga o‘tganligini aniqlaydi. Bu ishda dialektdagi so‘zlar adabiy tilga ta’sir qilganligi aytiladi, ammo iyerarxik munosabatlarnigina anglatuvchi qarindoshlik birliklari tanlab olinib, birgina dialekt asosida tahlil qilinib yuqoridagi xulosa berilgani adabiy til uchun yetarli emas.

Yapon tilshunoslik maktabi vakili S.Kimning “Oiladagi murojaat birliklariga oid diaxronik tadqiqot”i¹⁰¹ da qarindosh-urug‘chilik terminlarining qo‘llanuvi asosida diaxronik nuqtayi nazardan bola fokusidan yondashib qarindoshlik birliklari qo‘llanishi qadimdan mavjud til an‘analaridan birimi yoki Yaponiyada modernizatsiya davrida Yevropadan kirib kelgan an‘anami muammoli ekanligini aytib, umuman bunday qo‘llaniluvning tag ildizi qaysi davrga borib taqalishini aniqlaydi. Yaponiyaning Edo davri (XVII — XIX asrlar) Meyji va Shōva davri (1868-1914) hamda zamonaviy davrda kimning fokusidan qanday murojaat birliklari qo‘llanilganini tadqiq qilib, har bir davrning murojaatidagi o‘ziga xoslikni aniqlaydi. Hozirgi kunda qo‘llanuvchi “bola” fokusidan yondashuv tendensiyasi Edo davrigacha mavjud bo‘lgan qadimiy yapon til an‘analariga borib taqalishini, qadimda “bola” fokusidan tashqari “ijtimoiy mavqe, tabaqaviy, yoshga doir” ko‘pgina unsurlar oiladagi munosabatlarda murojaat birliklarini tanlashda asos bo‘luvchi unsurlar vazifasini bajargan, ammo bu davr o‘tishi bilan soddalashib hozirgi kundagi ko‘rinishga kelgan. Shunga qaramay uydagi murojaat birliklari har qaysi davrda qaysi unsur asosida qo‘llanilgan bo‘lmasin, murojaat birliklarini qo‘llanishi asosi yagona bo‘lmay “uy markaziy o‘rinda” bo‘lgan til an‘anasi bilan birga qo‘llanilib kelinganini xulosa sifatida beradi. Tadqiqotchi ishida fokus terminidan foydalanmay, otasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatni bevosita

¹⁰⁰ 上杉富之(1991)「「イエ中心」から「自己中心」へ—新潟県横根力言の親族語彙の特徴とその通時的変化—」『民俗学研究』56-1、日本民族学会 – P.67-91.

¹⁰¹ 金世朗(2002)「家族観の呼称表現における通時的研究—子供中心的用法に注目して—」現代社会文化研究 No.24. – P.269-286.

qo‘llanuv, er-xotinning o‘zaro bola fokusidan 「お父さん」「お母さん」 tarzida qo‘llanuvini bilvosita qo‘llanuv deb ataydi.

3-shaxs qarindosh-urug‘chilik nomlarini tadqiqot obyekti sifatida olgan Y.Komori¹⁰² so‘rovnoma o‘tkazib, yozib olingan ovozi materiallaridan qarindoshlik nomlarini yig‘ib, oilaviy munosabatlar va yoshga doir tadqiqotlarini birlashtirib sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilgan. Tadqiqotchi tadqiq natijalari asosida 4 asosiy xulosani beradi: 1. So‘zlovchi gap borayotgan shaxs haqida so‘zlovchi nuqtayi nazardan, tinglovchi nuqtayi nazardan va 3 shaxs nuqtayi nazardan olib 3 xil fokusdan yondashadi. 2. So‘zlovchi va tinglovchidan boshqa 3 shaxs haqida gapirganda qo‘llanadigan shakl sifatida qarindosh-urug‘chilik terminlari va ism qo‘llanilib, kam hollarda familiya ishlatiladi. 3. Qaysi nuqtayi nazardan, qarindosh-urug‘chilik leksik birligining qay biri tanlanishi so‘zlovchi, tinglovchi yoki mavzu qilib olinayotgan 3 shaxsning avlodidagi farq va qondosh munosabatlariga bog‘liq. 4. Tinglovchining yoshi kichik bo‘lsa, so‘zlovchi tinglovchining yoshini hisobga olib gap mavzusi bo‘lgan shaxsni qaysi fokusdan olish kerakligini belgilaydi. I. Kanako zamonaviy xitoy va yapon tillarida qarindosh-urug‘chilik nomlariga oid chog‘ishtirma tadqiqot olib borgan. U qarindoshlik nomlari ichidan 3-shaxs qarindosh-urug‘chilik nomlari(reference terms)ni tanlab olib, ularning xitoy va yapon tilidagi qo‘llanuvidagi farqli jihatlarini oydinlashtirgan. U Y.Komoridan farqli ravishda, badiiy adabiyot tili materiallariga asoslanib, qaysi fokusdan, qanday shakldagi 3-shaxs qarindosh-urug‘chilik nomlari tanlanganligini tadqiq qiladi¹⁰³.

T.Suzuki, Y. Fujii¹⁰⁴, Y. Komori, O. Takafumi, I. Kanakolar qavm-qarindoshlik terminlarini 1-, 2-, 3-shaxsni ko‘rsatuvchi shaxs otlari sifatida fokus yondashuvi asosida kishilik olmoshlari bilan sotsiolingvistik, pragmatik aspektda tadqiq qilishgan. Biroq bu tadqiqotlarda birliklarning

¹⁰² 小森由里 (2013) 「親族間で用いられる他称詞の運用—話題の人物をとらえる視点と表現形式—」 社会言語科学会学会誌編集委員会編 16 (1) . – P.109-126.

¹⁰³ 伊藤加奈子 (2017) 「親族名称の他称用法に関する現代中日対照比較: “她妈”が「妻」となるときとは」 信州大学人文科学論集 4. – P.155-173.

¹⁰⁴ 藤井洋子 (2011) 「日本語の親族呼称・認証氏に見る自己と他者の位置づけ—相互行為の「場」における文化的自己観の考察—」 日本女子大学紀要、文学部 60. – P.73-86.

qo‘llanishiga asosiy e’tibor qaratilgan hamda “家[ie]-uy” bilan aloqadorligi jihati e’tiborga olinmagan.

M.Kojima 「うちの」 [uchino] *uyimizning* so‘zi biror uy, xonadon yoki oilaga tegishlilikni anglatuvchi ibora bo‘lib, uni 1 shaxs olmoshi 私[watashi] *men*+ たち[tachi] ko‘plik qo‘shimchasi+の[no] *ning* orqali yasalgan 「私たちの」 [watashitachi no] *bizning* tushunchasi bilan almashtirib qo‘llash mumkinligini aytadi. U shunday xulosa qiladi: “「私たちの」 [watashitachi no] *bizning* tushunchasi *men* (1 shaxs) va mendan boshqa shaxslarni, masalan suhbatdosh, suhbat mobaynida ishtirok etmayotgan 3 shaxs va boshqa pozitsiyadagi shaxslarni ham o‘z ichiga oladi. Xuddi shunday 「うちの」 [uchi no] *uyimizning* tushunchasida ham ayni shu vaziyatda 「うちの」 [uchi no] oilaning barcha a‘zolari bo‘lsa ham, bo‘lmasa ham suhbat chog‘ida mazmun to‘g‘ri tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan 「私たちの」 [watashitachi no] *bizning* so‘zining ma’nosi bilan mos tushadi. Shu tufayli suhbat jarayonida ularni almashtirish mumkin. Faqat ular o‘rtasidagi farq, 「私たちの」 [watashitachino] o‘z ichiga kim bo‘lishidan qat’iy nazar hammani qamrab oladi. Bunga nisbatan 「うちの」 [uchi no] har kimni ham o‘z ichiga qamrab olmaydigan tushuncha. Chunki 「うちの」 [uchi no] *uyimizning* so‘zi “*men*”ga tegishli oiladan boshqasini ko‘rsata olmaydi, u o‘zining uy ichi, oilasidagilarni qamrab turuvchi tushunchadir. 「私たちの」 [watashitachi no] esa o‘z uyi, oilasidan boshqa begonalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan 「私たちの」 [watashitachi no] 「うちの」 [uchino] ga qaraganda ancha keng qamrovli tushuncha”¹⁰⁵. Ammo M.Kojima bu o‘rinda 「うちの」 ning oiladan tashqari korxona, ma’lum guruhlar va jamoa doirasida qo‘llanishini e’tibordan chetda qoldirgan.

Rus olimlaridan V.M.Alpatov, T.Gurevich, E.L.Frolova, A.D.Palkin qarindoshlik terminlarini turli yondashuvda o‘rganganlar. V.M.Alpatov hurmat kategoriyasi nuqtayi nazaridan tahlilga tortadi.

¹⁰⁵ 小島衛(2019)「日本語親族名称の前提条件—テクノニミーとオイコニミー」成城大学 – P.13-14.

V.M.Alpatov zamonaviy yapon tilidagi qarindosh-urug‘chilik so‘zlari tizimi juda boy ekanligini qayd etadi. Hech kim o‘z xotinini 奥さん [okusan] deb chaqirmaydi, balki so‘zlovchining xotinini ko‘rsatish uchun bir necha so‘zlar ishlatiladi: 家内[kanai], 妻[tsuma] va boshqalar. U ko‘pgina yapon olimlari “家[ie]-uy” madaniyati yaponlarning o‘ziga xos madaniyati ekanligini va uy o‘z-o‘zga munosabatiga qarab so‘z va iboralar farqlanishi g‘oyat muhimligini ta’kidlaydi¹⁰⁶. V.M.Alpatov ham T.Suzuki kabi yapon tilida qarindosh-urug‘chilik oid birliklarning qo‘llanishini yoshga qarab farqlaydi. Uy ichida bu birliklarni qo‘llanishini quyidagi qoidasini keltiradi: Qavm-qarindoshlik birliklari faqatgina o‘zidan yoshi kattalarga nisbatan ishlatiladi. Bu qoida nomlash uchun ham murojaat uchun ham tegishlidir. Masalan, qiz yoki o‘g‘il otasiga お父さん[otosan], onasiga お母さん[okasan] tarzida shu birlikni qo‘llaydi. Uka yoki singil opasiga 姉さん [neesan], akasiga esa 兄さん [niisan] deya murojaat qiladi. Xuddi shu tarzda yoshi kichiklar kattalarga nisbatan お祖父さん[ojiisan] *bobo*, お祖母さん[obaasan] *buvi*, 叔父さん[ojisan] *amaki,tog‘a*, 伯母さん[obasan] *xola,amma* kabi birliklarni ishlatadi. Bu so‘zlar er yoki xotinning qarindoshlariga nisbatan ham ishlatiladi. Uyning so‘zlovchidan yoshi katta a‘zolarini(erdan tashqari) atashda yapon tilida olmoshlarni ishlatib bo‘lmaydi. Yaponiyada boshqa tillardagi kabi 3 shaxs olmoshlarini qarindoshlarga hurmat bilan ishlatish yapon odatiga to‘g‘ri kelmaydi. Faqatgina xotin eriga murojaat qilganda 2 shaxs olmoshi あなた[anata] ni qo‘llashi odatiy hol, ammo bu ham uydan tashqarida bo‘lgandagina kuzatiladi¹⁰⁷.

T.Gurevich 家-[ie] ruhiyati hanuzgacha bola tarbiyasi, xulq-atvor normalarida oilaviy munosabatlarda sezilarli darajada ekanligini ta’kidlab, 内[uchi] – o‘z (ichkari) va 外[soto] - o‘zga(tashqari) munosabati jihatdan tadqiq qilgan¹⁰⁸. E.L.Frolova qavm-qarindoshlik terminlarining kelib chiqishini o‘rganib, genderga oid farqlarni tahlil

¹⁰⁶ Alpatov V.M. Words of kinship in Japanese. Kinship in Altaic world: proceedings of the 48th Permanent international Altaistic conference, Moscow 10-15 July, 2005. – P.7-13.

¹⁰⁷ O‘sha manba. – P.110.

¹⁰⁸ Гуревич Т.М. Лингвокультурологический анализ концептосфера человек в японской языковой картине мира.//Дисс. ...док. култ. – Москва, 2006. – С.102-103.

qiladi¹⁰⁹. A.D.Palkin rus va yaponlarning lisoniy manzarasida ona obrazini assotsiativ eksperiment asosida o'rganadi hamda yapon tilida ona mehribonlik bilan assotsiatsiyalanishini aniqlaydi¹¹⁰.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, dastlab qarindosh-urug'chilik borasidagi tadqiqotlarni olib borgan yevropalik antropologlar uchun o'z xotinini カチャン *kachan*(*onasi*) deb chaqirilishi birmuncha ajablanarli tuyulgan. Bu turdagi qo'llaniluvni tadqiq qilish davomida yapon tilidagi qarindoshchilik nomlarida “家-uy” konsepti muhim jihat ekanligi oydinlashgan. Biroq, bu turdagi qo'llanuvni shaxsning uydagi o'rniga ishora qilinyaptimi yoki uyning eng kichik farzandi nuqtayi nazardan olib qarindoshlik munosabatlariga ishora qilinyaptimi, bu jihat hanuzgacha aniq yechim topmay, shu ikki qarashga ajralganicha qolmoqda. Bu tarzda qo'llanuvining asosiy mezonu uymi yoki eng kichik farzand nuqtayi nazardan qaralayotgan shaxsmi, yoki shaxsning o'zimi ancha munozarali masala. Bundan tashqari, qarindoshchilik nomlarining bu tarzda qo'llanuvini uy mezon sifatida olinadigan ijtimoiy mavqe, ijtimoiy holat, maqomini bildiruvchi nomlar (positional terminology, social status) sifatida, yoki o'zini markazda qo'yib aniq ma'nodagi qarindoshlik nomlar (kinship terminology), o'zgaruvchan teknonim(modified teknonymy), オイコニミ – oykonim (oikonymy, oikos (イエ) uy asosiy mezon sifatida olinishida ham yakdillik kuzatilmaydi. 家[uchi]ning o'rganilishi zarur ko'p jihatlari hamon ochiqlicha qolmoqda.

¹⁰⁹ Фролова Е.Л. Термины родства в функции обозначения супругов японской семьей//Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 11, выпуск 4: – 2012. – С.129-139.

¹¹⁰ Палкин А. Д. Образ матери в языковой картине мира русских и японцев//Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2020. Т. 18, № 1. – С. 71–83.

Yapon xalqining lisoniy tafakkurida “家[ie]-uy” tushunchasining tadrijiy o‘zgarishi

Til insonning ongi, tafakkuri, yashash tarzi, dunyoqarashi hamda amaliy faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Til yordamida turli bilimlar, tajriba o‘zlashtiriladi. Til yordamida tafakkurda aks etgan voqea-hodisalar tushunchalar ifodalanadi. Til o‘zida voqelikni aks ettiradi. Sh.Safarov inson va voqelik munosabatida til vositachilik rolini o‘ynashini yozadi. Voqelikning o‘zi milliy xarakterga ega, milliylik tilda dunyoni o‘ziga xos ko‘rish va idrok etish natijasida namoyon bo‘ladi¹¹¹. Turli xalqlar borliqni tulicha idrok etadi. Demak, har bir xalqning o‘z milliy nigohi bor. Mana shunday o‘ziga xos milliylikka ega, xalqning dunyoqarashini o‘zida aks ettiruvchi tushunchalardan biri “uy” dir. Yevropalik olim J.Befu yapon sotsiologik tadqiqotlarida “家 [ie]” ning ma’nosi borasida so‘z yuritib, “家 [ie]” “oila” tushunchasiga mos keladimi yoki “uy” tushunchasigami, ular o‘rtasidagi farqlar ko‘pincha noaniqligicha qolayotgani aytadi. U “家[ie]” – uy sifatida uy xo‘jaligi, yashash joyini anglatuvchi so‘z deb ta’kidlaydi, bunda uyning a’zolari oila bo‘lib birga yashashlari, birga uy xo‘jaligini yuritishlari nazarda tutiladi¹¹². Oila esa odatda birga yashashi shart bo‘lmagan yaqin qarindoshlar guruhini anglatadi. Qadim-qadimdan “家[ie]” Yaponiyaning an’ana va udumlarini o‘zida shakllantirib qarindosh va qarindosh bo‘lmagan munosabatlarni o‘z ichiga olib, ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini o‘zida namoyon qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar obyekti bo‘lib kelgan “家[ie]” qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lgan. Bu munozaralarda asosiy e’tibor “家[ie]” uyni atrofidagi qondosh bo‘lmagan shaxslarni qanday munosabatda ko‘rilishiga qaratilgan. Chunki “家[ie]” tushunchasining mohiyatini tadqiq qilgan K.Aruga “家[ie]-uy”dagi hayotning ajralmas bo‘lagi, zarur a’zosi sanalgan shaxs qondosh bo‘lmagan shaxslar bo‘lsa-da, uyning a’zosi sifatida qaralishi tabiiy holat ekanligini ta’kidlaydi¹¹³. “家[ie]” bolalar soni ko‘p bo‘lgan va avlodlar o‘rtasida uzviy aloqaga ega, patriarxat tizimiga qat’iy amal qilinadigan strukturaviy model hisoblanadi. “家[ie]” ni ko‘pincha “oila”

¹¹¹Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006. – Б.62.

¹¹² Befu H., Norbeck E. Japanese usages of terms of relationship//Southwestern Journal of Anthropology, 14. The University of Chicago Press, 1958. – P.60.

¹¹³有賀喜左衛門(1970)「家族と家」有賀喜左衛門著作集 IX」未来社. - P.17-51.

deb tarjima qilishadi, ammo “家[ie]” “*oila tartibi, uy xo‘jaligi, hovli, bir uyda yashovchi kishilar*” kabi ma’nolarni anglatuvchi ingliz tilidagi *household* so‘zida ancha aniq ma’noni ifodalaydi. Etimologik jihatdan “家[ie]” “*uy o‘chog‘i*” tushunchasini ramziy ifodalaydi ¹¹⁴. Y.Banananing “Kitchen” qissasida bosh qahramon Mikage “家[ie]-uy” ni uning a‘zolari yig‘ilib, jamuljam bo‘ladigan maskan sifatida tushunadi. “家[ie]-uy”ning eng asosiy bo‘g‘ini uning uchun oshxona sanaladi. “家[ie]-uy” unda oila a‘zolar yashagandagina tirik. Bosh qahramon buvisi bilan yashagan uyini buvisi vafotidan keyin tark etadi. Shunda u “祖母が死んで、この家の時間も死んだ。¹¹⁵ [Sobo ga shinde, kono ie no jikan mo shinda] *Buvim vafot etgandan keyin bu uyning umri tugadi*”- deydi. Demak, uy uning a‘zolari shu uyda yashagandagina mavjud va tirik. Uy a‘zolarining uyda yashamasligi uyning mavjud emasligini anglatadi.

Yapon tilidagi “家[ie]-uy” so‘zining ma’no taraqqiyoti quyidagi omillarda ko‘rinadi. Masalan, hamma uchun quvonchli hodisalardan biri to‘y marosimini misol tariqasida olaylik. Hozirda ancha kam kuzatilayotgan bo‘lsa-da, to‘y xabarini berib kishilarga ma’lum qilinayotganda “Suzuki Taro va Tanaka turmush qurishmoqda” deb emas, balki 「鈴木家と田中家との間にご婚儀相整い」 [Suzukike to Tanakake tononaidani kongi aitotonoi] “*Suzuki xonadoni va Tanaka xonadoni o‘rtasidagi to‘y marosimi... tarzida ikki uyning familiyasiga “uy” so‘zi qo‘shib qo‘llangan holda to‘y marosimida nutq so‘zlanadi. Bunda 家 iyeroglifi familiyaga qo‘shilib Suzukike to Tanakake tarzida [ke] o‘qilishiga ega bo‘ladi va Suzuki va Tanaka xonadonlari deya shu uy tarkibiga kiruvchi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan guruhga ishora qilinadi. Shunday deya e‘lon qilinib, ziyofat boshlanadi, taklif qilingan mehmonlar esa 「ご両家の繁栄...」 [Go ryoke no hanei] “Ikki xonadonning baxt-kamolini tilab” tarzida tabriklaydi. Yuqoridagi keltirilgan ikki oilaga ishora qilib ikkala oilaning baxt kamoli, gullab yashnashini tilab mehmonlar ham ushbu so‘zni qo‘llashadi. Demak, bu familiya ortidan 家 iyeroglifi kelishi to‘y marosimi aynan qaysi xonadon*

¹¹⁴語源由来辞典 <https://gogen-yurai.jp/ie/>

¹¹⁵吉本ばなな(2002)「キッチン」新湖文庫 - P.33.

vakillariga tegishli ekanligidan dalolat beruvchi belgidir ¹¹⁶. Binobarin, bu soʻzni tabrik soʻzlarida uyga ishora qilib qoʻllanishi xususiyatidir.

Hozirgi kunda ham yaqqol koʻzga tashlanadigan holatlardan biri yaponlarning qabridagi yozuvdir. Yaponlarda 「祖先代々の墓」 [sosen daidai no haka] – “*ajdodlarning qabri*” yoki 「渡辺家の墓」 [Watanabeke no haka] “*Vatanabe xonadoni qabri*” tarzida yozilishini kuzatish mumkin. Bu holat din bilan bogʻliqdir. Buddizm dinida alohida shaxsga nisbatan emas, bitta “uy” ga nisbatan joyni belgilanishi holatlari koʻp kuzatiladi. Uy egasi oʻzi va avlodlarini koʻmish uchun joy sotib oladi va barcha shu “uy” ga tegishli aʼzolar shu yerga koʻmib boriladi. Shu sababli bu qabrga yuqoridagi kabi uyning nomi yozib qoʻyiladi. Bunda “家[ie]-uy” soʻzi shu uy aʼzolarining qabriga ishora qiladi, yaʼni mazkur makon faqat shu uydagilarga tegishli ekanligini koʻrsatadi.

Tokugava sulolasi hukmronligining oxirgi yillarida (1853-1867)¹¹⁷ syogunat vassallari kemada Amerikaga suzib borishadi. Ular Jorj Vashingtonning qabrini ziyorat qilishganida bir yapon vassal “Hozir Vashingtonning *avlodlari* nima qilishyapti?” deb savol beradi (*uyidagi davomchilari* maʼnosida 家 uy soʻzini qoʻllaydi). Shunda bu haqida biladigan birorta ham odam topilmaydi. Vassal “Vashingtonning bolalari nima qilishyapti?” deb savolni oʻzgartirib bergan taqdirda ham bu haqida hech kim bilmaydi va hech kim javob berolmaydi. Biz yaponlar “Oʻzimizning davlat tarixiy davriga oid maʼlumot boʻlsa masalan, Sengoku davrining(1467-1573) buyuk sarkardasi Takeda(1521-1573)ning avlodlari, farzandlari Uesugi, Mori taqdiri nima boʻlganligi haqida ozmuncha boʻlsa ham maʼlumotga egamiz. Amerikaliklar oʻz “Uy”iga nisbatan befarq odamlar ekan” deya hayratlanib tanqid qilgan ekanlar ¹¹⁸. Bundan koʻrinib turibdiki, yaponlarda oʻz va oʻzga munosabati yaqqol koʻzga tashlanadi. Oʻzga mamlakat Amerika tarixi ularning ajdodlarini bilmasliklari tabiiy hol, ammo oʻz mamlakati Yaponiyani oʻz “uy” i sifatida psixologik yaqin tasavvur qilgan yaponlar oʻzining tarixiy ajdodlarini “uy” i aʼzosi

¹¹⁶ 金田一 春彦 (2005) 「日本語の特質」 日本語放送出版協会. – P.154-155.

¹¹⁷ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) Davlat ilmiy nashriyoti. (elektron manba) 5.11.2022.

¹¹⁸ 金田一 春彦 (2005) 「日本語の特質」 日本語放送出版協会 – P. 167.

sifatida hisoblab, ularning ismlari-yu, kelajak taqdiri, tarixiga befarq emasliklarini ushbu voqeadan anglab olish qiyin emas. Demak, 家[ie] o‘z tarixi, ajdodlari, qadriyatlari ma’nosini ham anglatib o‘zbek tilidagi “o‘zlik” so‘ziga ham mos keladi. 家 ota bobolari qilgan kasbni davom ettirayotgan oilaga nisbatan shu kasb egalari xonadoni ma’nosida qo‘llanishini ham kuzatish mumkin. Bunda “家 uy” so‘zi orqali kasb davomchilari bir oila tushuniladi.

Til sohiblarida olamni bilish jarayonida tafakkur va tildagi olam modelining muntazam o‘zgarishi ro‘y beradi. Yaponlar qadimdan jamoaviylik mafkurasiga amal qilib kelganlar. Jamoaviylik doirasida odob-axloq me’yorlari shakllangan. Yaponlarning qilayotgan har bir harakati shu mafkuraga bog‘liq holda ro‘y bergan. Vaqt o‘tishi bilan yaponlar bu jamoaviylikka bog‘liqlik hissidan ancha uzoqlashishdi. Ular endi jamiyat, korxona, davlat uchun o‘z xotirjamligidan voz kechishni xohlamasdilar. Mana shu o‘zgarish jarayoni haqida quyida keltiriladi ¹¹⁹. Yaponlar dunyoqarashida keyingi yuz yilda jiddiy o‘zgargan tushunchalardan biri “家[ie]-uy” konseptidir.

2-jahon urushgacha bo‘lgan davrda uyga bog‘liq barcha moddiylik va qarashlar Edo davrining tabaqalanish tizimi, ijtimoiy kelib chiqish holatiga qarab qat’iy belgilanardi. Samuraylar davrida uyning qurilishi, xonalar joylashuvi, darvozaning ko‘rinishi, xonaning sonigacha cheklovlar bor edi. Umuman olganda “家[ie]-uy” degan maskan shu uyda yashovchi shaxsning shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasi edi. Demak, qadimda katta oila tizimi ostidagi “家 uy” an’anasini qadrlab, oilaning tayanchi sifatida qarab himoya qilib kelishgan. Uy tizim sifatida oila a’zolari hayoti kafolati rolini bajargan. Uy xo‘jayini erkak kishi bo‘lib, barcha haq-huquqlar erkakka berilgan, ayol kishi uyda hech qanday huquqga ega bo‘lmay uning martabasi quyi qo‘yilgan.

Meyji davriga kelib cheklovlar yo‘qoldi, ammo qarashlar shundayligicha qoldi. Uy asosan mehmonlarga ko‘rsatish uchun

¹¹⁹ Biz bu o‘zgarish dinamikasini Yaponiyaning Tsukuba universitetida olib borgan tadqiqotlar asosida aniqlandi. Material sifatida universitet elektron ma’lumotlar bazasidagi 1960-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan gazeta maqolalari asos qilib olindi. Asahi va Yomiuri gazetalaridan foydalanildi, umumiy 105 ta maqola tahlilga tortildi.

mo'ljallab qurilgan bo'lib, bo'yra-tatami¹²⁰ va pardevor-shoji¹²¹ dan iborat arxitekturaga ega bo'lgan. Uy deganda ota boshchiligidagi katta oila nazarda tutilardi. 1960- yillargacha uy tizimining qoldiqlari, alomatlari saqlanib qolgan. Uyda otaning mas'uliyati kuchli, haq-huquqlari ustun qo'yilardi. G'arblashish tendensiyasi nafaqat qarashlarga ta'sir qildi, balki uyni bildirish uchun ingliz tilidagi so'zlardan foydalanila boshlandi. Natijada 1968-yillarga kelib *mening uyim* ma'nosini bildiruvchi マイホーム[mai homu], マイハウス[mai hausu] so'zlaridan keng foydalanila boshlandi. Avvallari oila uchun uy qasr saroyga teng edi. Shaxs shu saroyni qura olsagina hayoti mustahkam bo'ladi deb ishonilgan. Bu joy bir umr yashashga mo'ljallangan joygina emas, balki farzanddan nabiraga avloddan avlodga o'tib davom etuvchi nom ham edi. Keyinchalik bu dunyoqarash o'z kuchini yo'qotib bordi. Yashash joyi sifatida kichik ko'p qavatli uylar アパート[apato], マンション[manshon] kabilar paydo bo'lib, 家[ie]-uyning vazifalari hayot, davr o'zgarishiga qarab torayib borib, uyning saroy sifatidagi tasavvurlaridan ancha uzoqlashib ketadi. Yuqorida keltirilgandek, g'arblashish jarayoni jadallashib マイホーム mening uyim yer maydonlarida zichlikni ortishiga oid g'oyalar bilan almashdi. Ota-ona, farzand va nabira ko'rinishidagi katta oilalar kamayib, er-xotin va ularning farzandlari yashovchi 核家族[kakukazoku] kichik oilalar ko'paydi. Uy shaklan qisqarib, tuzilishi ham soddalashdi. 1964 –yillarda yashash uchun mo'ljallangan *uy-joy* ma'nosida 住宅[jūtaku], mashhur *nomdor uy* ma'nosida 家柄[iegara] birligi, *oila* ma'nosida 家同士[iedōshi], 1968-yillarda qondoshlik aloqalari ega kishilarning kichik jamoasi, oila ma'nosida マイホーム

¹²⁰ Yapon arxitektura namunasi. Yapon uylarida pollarni qoplayadigan to'shama bo'yra. Tatami asosan igus qamishlaridan to'qilib ichi guruch somoni bilan to'ldirilgan bo'ladi. Hozirgi kunda guruch somoni o'rniga sintetik paxtadan ham foydalaniladi. Tatamining uzun qirralari mato bilan qoplanadi. Odatda tatamining 4 qirrasi bir nuqtada kesishmaydigan qilib yotqiziladi. Shunday joylashuv muvofiq sanaladi. Dafn marosimi va motam paytida tatamini aksincha burchaklar bir-biri bilan kesishadigan qilib joylashtiriladi. Shuning uchun tatamining noto'g'ri joylashuvi uyga baxtsizlik keltiradi deb hisoblanadi. Tatami qat'iy maydon va shaklga ega bo'ladi. Yaponiyada xona maydonlari an'anaviy tatamida o'lchaniladi va uy qurilishida shu hisobga olinadi.

¹²¹ An'anaviy yapon arxitekturasida bu yog'och romga yorug'lik va havo o'tkazuvchi yarim shaffof yapon qog'ozini biriktirib yasalgan ikki tomonga suriladigan eshik, oyna yoki uyning ichki qismini ajratib turuvchi pardevor. An'anaga ko'ra shoji uchun *vashi* yapon qog'ozini ishlatiladi.

[mai homu]、マイハウス[mai hausu]、核家族[kakukazoku] birliklari qo‘llanishi ko‘zga tashlanadi. Oiladagi inoq munosabatlarni anglatuvchi 仲の良い家庭[naka no yoi katei], *uylanish, oila qilish* ma’nosidagi 一家を構える[ikka o kamaeru]、家庭を築く[katei o kidzuku] birliklari, *qarindoshlikni* anglatuvchi 肉親[nikushin], だんなさん[dannasan] *er*, 奥さん[okusan] *rafiqa*、ママさん[mamasan] *ona*, 嫁[yome] *kelin*, しゅうとめ[shūtome] *qaynona*, 主婦[shufu] *uy bekasi* birliklari uy tushunchasi atrofida qo‘llanuvchi so‘zlar sifatida namoyon bo‘ladi. Er-xotin va ularning farzandidan iborat kichik oila 核家族[kakukazoku]larning mustaqilligi ko‘zga tashlansa-da, xalq tafakkurida 家[ie] ga oid tizim, vorislikka oid tushuncha va dunyoqarash saqlanib qoladi. *Osoyishta xonadon, totuv mehr-muhabbatga to‘la uy* ma’nosini beruvchi 円満な家庭[enman na katei], *sog‘lom quvonchga to‘la uy* ma’nosida 健康で明るい家庭 [kenko de akarui katei] iboralari keng qo‘llanilganini kuzatish mumkin.

1970-yillarga kelib 家[ie]-uyni bildirish uchun asosan マイホーム birligidan foydalaniladi. Uy tizimiga oid tushunchalar hanuz saqlanib, uy tizimida avloddan avlodga o‘tib davom etuvchi *vorislik, merosxo‘r* ma’nosini bildiruvchi 家を継ぐ[ie o tsugu], ma’lum bir *oilaviy kasbni davom ettirish* ma’nosidagi 家業を受け継ぐ[kagyō o uketsugu] iboralari, *uy shajara boshi, xo‘jayin* ma’nosidagi 家元[iemoto], 家主 [yanushi] birliklarining gazeta maqolalarida jonli qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Er-xotin munosabatlarida uyda erning ustunligini anglatuvchi tafakkur 内助の功[naijyo no kou] (“Erkak ko‘chada bemalol ishlashi uchun xotin uyda bo‘lib, uni qo‘llab-quvvatlasa muvaffaqiyatga erishiladi”) maqollarda anchagina ko‘zga tashlanadi.

1976-yillarga kelib “家[ie]-uy” atrofida yangi tushunchalar paydo bo‘ladi. Chunki bu davrga kelib yapon jamiyatida qariyalar soni ortib, yoshlar sonining kamayishi tendensiyasi kuzatiladi. Shuning uchun kichik oilalar ichida qariyalardan iborat xonadonlar ko‘payadi. Shu bilan bog‘liq *qariyalardan iborat kichik xonadonni* anglatuvchi 高齢者世帯[kōreisha setai] tushunchasi paydo bo‘ladi. Demak, 高齢者世帯[kōreisha setai] 60 yoshdan oshgan er-xotinlar xonadonini anglatish uchun qo‘llanila boshlandi.

1980-yillarga kelib uyda erkak va ayolning roli borasida munozaralar kelib chiqib, ishlash bilan birga xotiniga uy ishlari va farzand tarbiyasida yordamlashuvchi erkaklarga nisbatan 家庭的 [kateiteki] *uybop, xonaki erkak* soʻzi keng qoʻllanila boshlandi. 80-yillarga kelib ayolning jamiyatda faolligi ortadi. Ham jamiyatda faoliyat yuritib, biror sohada ishlab ham uy ishlari bilan band ayolga nisbatan “*mutaxassis uy bekasi*” 専業主婦[sengyō shufu] iborasi keng qoʻllanila boshlanadi. Endi ayollar yoki ishni yoki uyni tanlashiga toʻgʻri keladi. Uydan tashqariga chiqib ishlovchi ayollar koʻpayib *xotin, rafiq* maʼnosini bildiruvchi 奥様[okusama] (soʻzma-soʻz “uy ichkarisidagi xonim”) endi uy ichidagi ayol emas, 外様[sotosama] “*uy tashqarisidagi xonimga*” aylandi ¹²². Bu qoʻllaniluvda ham yaponlarning oʻziga xos 内 oʻz(ichkari) 外 oʻzga(tashqari) munosabati yaqqol koʻzga tashlanadi.

Oʻsha davr yoshlar tafakkurida ideal uy obrazi 「夫は仕事、妻は家庭の役割分担」 “*erkak ishlab, xotin uy ishlari bilan mashgʻul, uyda vazifalar taqsimlangan*” oila gavdalanardi, shu tufayli oʻsha davrda yaponlar dunyoqarashida マイホーム[mai homu] oʻz uyiga (yaʼni oʻzi egalik qiluvchi sotib olingan uy nazarda tutiladi) intilish koʻzga tashlanadi.

Turmush qurayotgan 「家」 [ie] uymi yoki ikki yoshmi? Turmush qurilayotganda shu shaxsning qaysi uyga tegishliligi, shu xonadonning ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasi jamiyatdagi oʻrni, nasl-nasabiga qarab ajratilgan. Toʻy oʻtkaziladigan zalga ikki oilaning nomi 「～家、～家」 tarzida yoki 「～、～ご 両家披露宴」 “*～lar xonadonining toʻy marosimi*” tarzida yozib qoʻyilishi, turmush qurayotgan shaxsning nomi, mehr-muhabbati, xohish-istagidan koʻra 家[ie]-uyning nomi, nasl-nasabi asosiy ahamiyat kasb etishini namoyon etuvchi yapon uy tizimiga oid stereotip tasavvurlari hosilasidir.

80-yillar oxiriga kelib jamiyatdagi xonadonlar “farzand markazida birlashgan” 「子供中心」 uylardan 「夫婦中心」 “*er-xotin markazida birlashgan*” oilalarga oʻtish davri boʻldi. Uy maydoni ham

¹²² 朝日新聞「家庭と女性」1981年3月4日東京朝刊11版 – P.15.

torayib kichik uylarga nisbatan ウサギの小屋[usagi no koya] “*quyon katalagi*” metaforaviy iborasi keng qo‘llanila boshlandi.

Fuqarolik kodeksiga o‘zgartirish kiritilganiga 40 yil o‘tgan bo‘lsa-da, 家[ie] tizimi asosidagi tafakkur, qarashlar xalq ongida mustahkam o‘rnashib qolgan edi. 1990-yillarga kelib Yaponiyada sezilarli darajada qarilardan iborat xonadonlar ko‘payib tug‘ilish soni kamaydi. Buning ortidan bolalar sonining kamayishi sezildi. 家[ie] atrofida 高齢化[kōreika] *qarilashish* so‘zidan tashqari, 少子化[shōshika] *tug‘ilishning kamayishi* so‘zi ham yaqqol ko‘zga tashlanuvchi tushuncha sifatida paydo bo‘ldi. Endi 家[ie] ni shu 2 tushunchasiz tasavvur qilib bo‘lmasdi. 90 yillar o‘rtalariga kelib yashash joyini anglatuvchi birliklar qatori bir muncha kengaydi: 我が家[wagaya], マイホーム[mai homu], 持ち家[mochiya], 住まい[sumai], 一戸建て家庭[ikkodate katei], 住宅[jyūtaku]¹²³. 90-yillar o‘rtasiga kelib yolg‘iz farzandli oilalar ko‘payib 少子化[shyoshika] *kam tug‘ilish* sabab bolalar soni kamayishi jamiyat muammosi darajasiga yetadi. Uy haqidagi tasavvurlar ham birmuncha o‘zgaradi. Jamiyatda yaqin orada おじ amaki, おば xola kabi munosabatlar yo‘qoladi degan fikrlar paydo bo‘ladi. Yolg‘iz bola jamiyati shaxslararo munosabatlarning qisqarib borishiga olib keladi.

「家」[ie] iyeroglifi aslida odamlar jamuljam bo‘ladigan maskan ma’nosini anglatadi. 「家」 belgisi uy hayvonlari boqiluvchi katalak joyni anglatib, tom tagida 「冢」cho‘chqa majoziy ma’noni anglatadi. Yaponlarning uy xo‘jaligida cho‘chqa eng asosiy chorva hisoblangan, uyning qurilishi ham oila, ham chorva mollari yashashiga mo‘ljallab qurilgan. Shuning uchun ham tomning tagidagi cho‘chqa va u ko‘p bolalagani uchun ramziy ma’noda odamlar to‘planadigan joyni, ya’ni uy ma’nosini bildirgan.¹²⁴ Bu davrga kelib kichik oila ko‘rinishidagi 核家族[kakukazoku] tabiiy holga aylangan jamiyatda endi haqiqiy tom ma’nodagi 「家」 [ie] uyning ma’nosi yo‘qolib borayotgandek edi.

1990-yillar oxiriga kelib o‘z uyida yashovchi yaponlar ancha kamaydi, endi yaponlar muntazam uyni ijaraga olish tizimiga

¹²³朝日新聞「家を持つとは借家とは『我が家のイメージは家屋ではなく住んでいる人』」東京朝刊 1996.4.27.

¹²⁴ Abdukhmidova D. The semantic development of the word Ie “home” in Japanese.//Asian Journal of multidimensional research (AJMR). India, 2021. Vol 10, Issue 5, May. – P.558.

o'tgandilar. Bu yaponlar endi uyi, uning obro'si, nasl nasabi, uyni davom ettirish tushunchalaridan uzoqlashgani va o'zining shaxsiy manfaatlari uchun yashay boshlaganini anglatadi. 2000-yillarga kelib yaponlar tafakkurida mustahkam ildiz otgan 家制度 “*uy tizimi*” 少子化 [shōshika] to'liqini bilan qorishib ketgandi. Urushdan keyingi dunyoqarashda ulg'aygan qariyalar hanuz uyni davom ettiruvchilari haqida qayg'urar, agar uyda yolg'iz o'g'il bo'lsa vorislikni olib, naslni davom ettirib, uy an'analarini asrab avaylashi talab etilardi.

2003-yil 16-avgustda “Asahi” gazetasida chiqqan “So'zlar fayli ota uy- ota va ona kutuvchi Vatan” nomli maqolada 家 [ie]ga bog'liq birliklar haqida qiziqarli faktlar keltiriladi¹²⁵. Unda 実家[jikka] *o'z tug'ilib o'sgan uyi*, 生家[seika] *tug'ilgan makonini bildiruvchi so'z bo'lib*, u asosida *o'z bolasi*「実子」, *tuqqan ona*「実母」 birliklari yuzaga kelganligi aytiladi. 1945-yildagi Fuqarolik kodeksiga muvofiq 実家[jikka] “Turmushga chiqqan qizning yoki asrandi bola sifatida boshqa xonadonga kirgan shaxsning tug'ilgan uyi” ma'nosi ko'rsatilgan. Shuning uchun 実家[jikka] ga antonim so'z 婚家[konka] *turmushga chiqqan uyi*, 養家[yōka] *asrab olingan uy* kabilar hisoblanadi. 2 jahon urushidan keyin “shaxsga hurmat” “gender tengligi”ga asoslangan yangi Kodeksda 実家[jikka] ning ma'nosi biroz o'zgardi. Endi u “kelin hamda asrandi bolaning tug'ilib o'sgan uyi”ni anglatardi. Endi 実家[jikka] tug'ilgan ota uyida ota-onasi bilan birga yashaydigan oilalarda shu 家[ie] dan ham ko'ra shaxsiy manfaat va baxtga oid qarashlar ustunlik qilardi. Demak, bu jamiyat butunlay umumiylikdan xususiylikka, individuallikka o'tganligini, uy atrofidagi tushunchalar hanuz saqlanib qolgan bo'lsa-da, ma'nosi, tushunilishi o'zgarganini anglatadi. Davr o'tishi bilan lisoniy tafakkur ham o'zgarib borayotganini ko'rish mumkin. 2011-yillarga kelib gazetalarda 3 avlodli ota-ona, farzand-nabira ko'rinishidagi 親世帯[oyasetai] *ota-onasi bilan birga yashovchi xonadonlar ko'paygani kuzatiladi*. Uy atrofidagi 世帯[setai] *xonadon*, 世帯主[setainushi] *xonadon egasi*, 家庭[katei] *uy*, 少子高齢化[shōshikoreika] *tug'ilish kamayib qarilashish*, 父子帰省[fushi kisei] *ota bola ota uyiga qaytishi* kabi birliklar faol

¹²⁵ 朝日新聞「[ことばのファイル]実家 父や母が待つ、ふるさと」東京朝刊、解説、13 頁。
2003.08.16. – P.13.

tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda va uyda tug‘ilish kamayib borar va Yaponiya qariyalar jamiyati ekanligi ta’kidlanardi.

Demak, “家[ie]-uy” jamiyat a’zolarini tabaqalashtirishga mo‘ljallangan tizim sifatida paydo bo‘lgan tushuncha bo‘lib, u avval boshida o‘z uyiga, nasl- nasabi, kelib chiqishiga nisbatan g‘urur, iftixor tuyg‘usi sifatida namoyon bo‘lgan, Meyji davriga kelib Uy tizimida ayol kishi ancha past pog‘onaga tushirib qo‘yiladi. Keyinchalik Fuqarolik kodeksiga kiritilgan o‘zgarish hamda davr o‘zgarishi asosida jamiyat ham o‘zgardi, biroq uyga oid stereotip tafakkur saqlanib qoldi. Uning asosiy sababi sifatida turmush qurilgach er va xotin bitta familiyada bo‘lishi kerakligi qonun bilan mustahkamlangani, har bir oila o‘zining uy ro‘yxat daftarini ochishi va bu majburiy tizim sifatida hanuz saqlanib qolganidadir. “家[ie]-uy” eski uy tizimiga oid stereotip tushunchalarni o‘zida namoyon qiluvchi, jamiyat a’zolari ayniqsa ayol va erkak tengsizligini o‘zida aks ettiruvchi tasavvurlarga aylanganini ko‘rish mumkin. Ayniqsa yaponlar lisoniy tafakkurida qarindosh-urug‘chilikka oid birliklar “家[ie]-uy” tizimiga oid stereotip tushunchalari o‘zida aks ettirgani bois qo‘llanuvida noqulaylik his qilinishi aniqlandi. Bu tendensiya ayniqsa yoshlar orasida kuzatilib, yosh qatlam tafakkurida 家-uy jamiyat a’zolarini tabaqalashtiruvchi, ijtimoiy kelib chiqishiga urg‘u beruvchi, psixologik boshqaruv hamda bo‘ysunish munosabatlarini ayol va erkak tengsizligini o‘zida aks ettiruvchi so‘z sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda”家[ie]-uy” obrazi o‘zida gender muammolarini ham aks ettiradi.

**YAPON TILIDA “家[IE]-UY” KONSEPTI BILAN BOG‘LIQ
QARINDOSH-URUG‘CHILIK BIRLIKLARINING
NOMINATIV MAYDONI VA QO‘LLANISHI**
**Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining semantik
maydonida ichkari va tashqari oppozitsiyasi**

Jamiyatning rivojlanib borishi hamda insondagi bilim doirasining muttasil ravishda kengayib turishi tilda bu jarayonlarning doimo yangi atama (nom)lar bilan ifodalanib turishini talab qiladi. Bir xil moddiy olam birliklari dunyo tillarida turlicha nomlar bilan ataladi. L.Xudayberdiyeva va M.Budikova o‘z maqolasida tilning barcha sathlari nominatsiya jarayonida faol ishtirok etishini yozib shunday ta’kidlaydi: “So‘z yasash hodisasi ham o‘z navbatida atash (nominatsiya) jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Atash aktida narsa va predmetlarni umumiy xususiyatlariga ko‘ra bir turkumga jamlash yoki alohida belgilariga ko‘ra ularni ajratib ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi. Inson o‘zining sezgi a’zolari yordamida olamdagi narsa-hodisalarning o‘ziga xos belgi-xususiyatlarini kashf etadi, yangi belgilariga duch keladi hamda buni o‘z tilida aks ettiradi. Tilning atash (nominativ) tabiatida bu hodisani yaqqol kuzatish mumkin ¹²⁶. Sh.Safarov “So‘z semantik strukturasining markaziy qobig‘ini egallaydigan tushuncha mundarijasi va ko‘lamiga nisbatan, xuddi ma’noning o‘zi kabi milliylikka moyildir”¹²⁷ deya ta’kidlaydi. Har bir xalq o‘z milliyligiga ega, bundan ko‘rinadiki, turli tillarda narsa-hodisalarning lisoniy nomlanishida farqlar kuzatiladi. Qarindosh-urug‘chilik nomlari ham shu xalqning milliy madaniyati, turmush tarzi va an’analarini o‘zida aks ettiruvchi nomlar hisoblanadi.

“家 [ie]-uy” konsepti yapon xalqining tafakkurida qadim-qadimdan mavjud stereotip tushunchalarni, madaniy mentalitetga xos obrazlar strukturasini aks ettirishini yuqorida ko‘rib chiqdik. Yaponlarda barcha ijtimoiy munosabatlar u xoh oilaviy, xoh shaxslararo munosabat, xoh bir jamoa o‘rtasidagi munosabat bo‘lmasin, うち o‘z(ichkari) 外 o‘zga(tashqari) zidlanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham uydagi munosabatlar sanoat, sport kabi turli ijtimoiy

¹²⁶ Худайбердиева Л. Будикова М. Тилнинг аташ ва гносеологик вазифаларидаги ўзаро муносабатлар//Сўз санъати ҳақаро журнали. – Т., 2020. №1, 3 жилд. – Б.28.

¹²⁷ Сафаров Ш. Семантика. – Т.: ЎЗМЭ, 2013. – Б.29.

guruhlar doirasiga ham xos bo‘lib, shu guruhlar ichida ham qavm-qarindoshlikka oid birliklar qo‘llaniladi. Bu yaponlarga oila birdamligini anglashga to‘sqinlik qilmaydi. Chunki yaponlar o‘zining oila a‘zolari bo‘lgan uyga ishora qilganda 家の人 [uchi no hito] - *uydagilar* birikmasini qo‘llaydi va bunda [uchi]-uy iyeroglifi bilan ifodalanadi. Oilasiga tegishli bo‘lmagan shaxslar guruhiga ishora qilganda esa bu munosabatlar u uchun 内の人 [uchi no hito]-*ichkaridagilar(biznikilar)* hisoblanib, 内 [uchi](*ichkari*) iyeroglifi ishlatiladi. Shunday bo‘lsa-da, bu oila a‘zolarining jamoadagi hamkasblaridan ustunligini anglatmaydi. 内 [uchi] 家 [uchi] haqida gapirganimizda bu ikki so‘z omonim emas, bir so‘zning ma’nolari ekanligi va bunda iyeroglif ikkilamchi ahamiyatga egaligini tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi. Xususan, M.Terasava 内 iyeroglifi bilan yoziluvchi *uchi* 家 iyeroglifi bilan yoziluvchi [uchi] ning aynan o‘zi ウチ (内) はウチ (家) である」- deydi¹²⁸. Shuni ta’kidlash joizki, yapon tilida “家[ie]-uy” tizimi nafaqat oilaviy munosabatlarni ifodalash uchun, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda ham keng qo‘llaniladi. Shu xususiyatiga ko‘ra “家[ie] tushunchasi 家族 [kadzoku] – oila tushunchasiga qaraganda ancha kengroq ma’noni anglatadi. Demak, 2 bobdagi tahlilda asosiy e’tibor shu jihatlarga qaratiladi.


Kognitiv tilshunoslikda makon (jism)ga qarab mo‘ljal (oriyentatsiya) olish bilan dunyoni til orqali anglash o‘rtasidagi bog‘liqlik tabiiyligi aytiladi. (J.Lakoff va M. Jonson, T.Suzuki taklif qilgan “embodiment” tushunchasi). T.Suzuki qavm-qarindoshlik nomlarining bari egotsentrik ekanligini, ya’ni o‘z nuqtayi nazardan yondashiladi deb ta’kidlaydi. Masalan, bir erkak kishi bor deb faraz qilaylik. Bu kishi o‘z bolasi uchun 父 [chichi] *ota* hisoblanadi, ammo xotini uchun 夫 [otto] *er* bo‘ladi. Yana shu kishining otasi tarafdan qaralsa 息子 [musuko] *o‘g‘il* sanaladi. Shu yo‘sinda shu erkak bilan qarindoshlik munosabatiga ega turli shaxslarning mavqeyiga qarab aynan bir shaxsni har xil nomda atash mumkin¹²⁹.

← 田中義男 (私) → 長男・長女 / 子 → 子

Tanaka (men) katta o‘g‘il, katta qiz/farzand

¹²⁸ 寺沢正晴(2002)「日本人の精神構造」東京、晃洋書房。- C.171.

¹²⁹ 鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」東京、岩波書店 - P.151.



Ma'lumki, soʻz maʼnolarini tahlil qilishda eng asosiy manba sifatida leksikografik manba boʻlgan izohli lugʻatlardan foydalaniladi. Aynan izohli lugʻatlarda u yoki bu konseptning yadro strukturasi tarkibi taʼriflangan boʻladi. Leksikografik manba konseptning eng oddiy tarkibiy komponentlarini aks ettirib, konseptual tarkib haqidagi barcha uchun umumiy tushunchalarni oʻzida namoyon qiladi. Shu sababli tadqiqotning ushbu faslida izohli lugʻat asosida qavm-qarindoshlikka oid birliklarning maʼnolarini koʻrib chiqiladi. Bundan tashqari, qavm-qarindoshlikka oid yasama va qoʻshma soʻzlar Yaponiya milliy tilshunoslik institutining *Balanced Corpus of Contemporary Written Japanese: BCCWJ* korpusidagi misollar asosida tahlil qilinadi. Yapon tilidagi soʻzlarning transliteratsiyasini berishda xalqaro lotin tilidagi transkripsiya standarti “Hepburn lotin transkripsiya tizimi”dan foydalaniladi.

Yapon tilidagi qon-qarindoshlik terminlarini yapon tilining katta izohli lugʻati asosida tahlil qilinadi. Yapon tilida qon-qarindoshlik terminlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin. Avval tugʻishgan qondoshlik aloqalarini koʻrib chiqiladi:

2.1-jadval

Yapon tilidagi tugʻishgan qondoshlik aloqalarini tizimlashtirish

Yapon tilidagi qarindosh-urugʻchilik nomlari	Maʼnosi	Yapon tilidagi qarindosh-urugʻchilik maʼnolari
1	2	3
1.祖父[sofu]	Bobo	otaning yoki onaning otasi
2.祖母[sobo]	Buvi	ota yoki onaning onasi
3.親[oya]	Ota-ona	Farzandi bor shaxslar (ota va ona) ni koʻrsatuvchi nom.
4.父[chichi]	Ota	farzandi bor erkak kishi, ota-onalardan erkak kishisiga nisbatan ishlatiladi.

5. 母[haha]	Ona	farzand tug‘ib uni tarbiyalab o‘stirgan ayol, ota-onalardan ayol kishisiga nisbatan ona termini qo‘llaniladi.
6. 兄[ani]	Aka	aka-ukalarning ichida yoshi katta o‘g‘il bola
7. 弟[otōto]	Uka	aka-ukalarning ichida yoshi kichik o‘g‘il bola
8. 姉[ane]	Opa	opa-singillarning ichida yoshi jihatdan katta qiz
9. 妹[imōto]-	Singil	opa-singillarning ichida yoshi jihatdan kichik qiz
10. 子[ko]	Bola	Ota-onadan tug‘ilgan farzand. Asrandi bola, o‘gay farzand, tug‘gan farzandi bilan teng bo‘lgan shaxs, bola
11. 息子[musoko]	O‘g‘il	Ota-onalarga nisbatan erkak farzand
12. 娘[musume]	Qiz	Ota-onalarga nisbatan ayol farzand
13. 孫[mago]	Nabira	O‘g‘il yoki qizning farzandi (bobo, buviga nisbatan)
14. 曾孫[himago]	Evara	Nabiraning farzandi (bobo, buviga nisbatan)

Yuqoridagi jadvalda qon-qarindoshlik aloqalari orqali shajaraviy davom etib kelayotgan qon-qarindoshlik munosabatlarigina ko‘rib chiqildi. Bobodan boshlab shajaraviy tarzda evaragacha davom etib kelgan qon-qarindoshlik nomlari 14 ta ekanligini ko‘rish mumkin. Yapon va o‘zbek tillaridagi qon-qarindoshlik nomlari va munosabatlari bir-biriga mos kelar ekan. Biroq birgina ota-ona nomi xuddi rus tilidagidek (родители) yapon tilida bitta so‘z - 親[oia] bilan ifodalanishi oydinlashdi. O‘zbek tilida esa bu nomni ifodalashda juft so‘z ota-onadan foydalaniladi.

Yapon tilida ham o‘zbek tilidagi kabi aka-uka, opa-singil kabi yosh va jins jihatdan farqlanib qo‘llanuvchi so‘zlar 4 ta alohida so‘z bo‘lib, munosabat shakllari ham mos.

	erkak	ayol
yoshi katta	兄 aka	姉 opa
yoshi kichik	弟 uka	妹 singil

Bundan tashqari, bola nomi yapon tilida nafaqat o‘z tug‘gan bola ma’nosini, balki asrandi bola, o‘gay farzand, tug‘gan farzandi bilan teng bo‘lgan shaxs, bola ma’nosini anglatadi. Yapon tilidagi bu hodisa Yaponiyaning qonun hujjati bo‘lmish Oila huquqida “Asrandi bola va o‘gay bola qonuniy asrab olingandan keyin shu ota-onaning o‘z tug‘gan bolasi bilan tenglashtiriladi”-deya qabul qilingani bilan bog‘liq. Qolgan qondoshlikni anglatuvchi 14 nom so‘z, ma’no hamda munosabat shakllariga asoslanib tizimlashtirilganda o‘zbek tilidagi kabi bir xil so‘z ishlatilishi, bir xil ma’no anglatishi hamda munosabat shakllari mos kelishi aniqlandi¹³⁰.

Endi tug‘ishgan qondoshlik aloqalarini anglatuvchi yuqoridagi har bir leksik birlikning semantik ma’nolari ko‘rib chiqiladi. Leksik birliklarning semantik tadqiqida komponent tahlil metodi yaxshi samara beradi. Komponent tahlil usulining asosiy maqsadi leksik birlikning ma’nosini semalarga bo‘lib o‘rganishdir. Chunki leksik birliklar ma’no strukturasining asosini xuddi shunday semalar tashkil qiladi. Bu usul so‘z lug‘aviy ma’nosining tarkibini aniqlashda qo‘l keladi. Demak, quyida tug‘ishgan qondoshlik aloqalarini anglatuvchi birliklarni yuqori pog‘onadan boshlab tahlil qilinadi.

祖父[sofu] - *bobo* hamda 祖母[sobo] - *buvi* birliklari bir xil 祖 – [so] morfemasiga 父 -ota 母 – ona iyeroglifining qo‘shilishi natijasida yasalgan bo‘lib, o‘zidan 2 avlod yuqori avlodni, ota-onaning ota-onasi ma’nosini anglatadi. 祖父母[sofubo] bobo-buvi tarzida qo‘shma so‘z bo‘lib ham qo‘llaniladi. 祖 – [so] morfemasi lug‘atda ikki xil [so] hamda [oya] tarzidagi fonetik o‘qilishga ega 祖 – [so] 2 ma’noni anglatadi: 1.Ajdod 2.Asoschi 祖 – [oya] o‘qilishida esa ota-ona hamda asoschi ma’nolarini anglatadi. 祖父[sofu] - *bobo* hamda 祖母[sobo] -

¹³⁰ Абдухамидова Д.А. Япон ва ўзбек тилларида қариндош-уруғчиликни ифодаловчи лексик birlikларни системалаштиришга оид//“Шарқшунослик” илмий журнали. ТошДШУ, 2020. 2-сон. – Б.160.

buvi, 祖先[sosen] – ajdod kabi birliklarda 祖 – [so] bosh ma’nosida qo‘llanilmoqda. 祖 – [so] morfemasi 語 - [go], 国 – [koku] morfemalari bilan qo‘shilib, 祖語[sogo] – *bobo til*, 祖国 – [sokoku]– *bobo yurt* ma’nolarini anglatadi. Demak, 祖 [so] aslida asoschi ma’nosini anglatuvchi iyeroglif morfema bo‘lib, 祖語 [sogo] – *bobo til* biror tilning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan til, 祖国 [sokoku]– *bobo yurt* bobokalonlar yaratgan va shu yerda yashab kelayotgan zaminga nisbatan qo‘llanishi 祖 [so] iyeroglifining ma’no kengayishi asosida yuzaga kelgan so‘zlardir.¹³¹ Bundan tashqari, 祖父[sofu]-*bobo* hamda 祖母[sobo]-*buvi* birliklari oldiga 外[soto](tashqari) iyeroglif morfemasining qo‘shilishi natijasida 外祖父[gaisofu] – *ona tomondan bobo* 外祖母[gaisobo]– *ona tomondan buvi* kabi so‘zlar yasaliib, qarindoshlik munosabatining ota yoki ona tomondan ekanligini bildiradi. Bundan tashqari, 母方[hahakata] – *ona tomon* 父方[chichikata] – *ota tomon* qarindosh-urug‘chilikka oid birliklar oldidan kelib qondoshlik aloqasi ota yoki ona tomondan ekanligini anglatadi. Ushbu misollarda uyning ichidagilar 内[uchi]- *o‘ziniki*, uydan tashqaridagilar 外[soto] - *o‘zga* qarama-qarshi munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ya’ni “家[ie]” – uyning ichidagi odamlar, bundan tashqari, shaxsga ham biologik, ham psixologik jihatdan yaqin insonlar 内[uchi] – *o‘ziniki* deb qabul qilinadi. Ham biologik, ham psixologik jihatdan uzoq bo‘lganlar esa uydan tashqarida deb tushunilib begona sanaladi. Demak, yapon tilida uy xo‘jayini erkak kishi sanalib, u shu uy, ya’ni avlod davomchisi sifatida oila qurib farzandlarini shu uyda tarbiyalaydi. Ota-onasi, xotini farzandlari bilan shu uyda yashaydi. Shu jihatdan nabiraning otasining ota-onasi (ota tomondan bobo-buvi) uyning ichida u bilan birga yashab, psixologik yaqin bo‘lgani uchun 内祖父母 – [uchisofubo] – o‘zining (ichkaridagi) bobo-buvisi deb tushuniladi, bunga nisbatan 外祖父[gaisofu], 外祖母[gaisobo] birliklari nabira yashayotgan uydan tashqaridagi material uzoq munosabatni anglatgani uchun ona tomondan bobo-buvi 外[gai](tashqari) old morfemasi qo‘shilishi bilan berilmoqda ¹³². Ko‘rinadiki, qavm-

¹³¹ 松村 明 (2021) 「国語辞書デジタル大辞泉」 小学館 (Elektron manba)

¹³² Yapon tilida ierogliflarning 2 xil yaponcha(*kunyomi*) va xitoycha(*onyomi*) o‘qilishi mavjud. Bir ieroglif boshqasi bilan birikib yangi so‘zni ifodalaganda aksariyat hollarda uning xitoycha o‘qilishi ustun bo‘ladi.

qarindoshlik birliklarining farqlanishida uyning ichi va uyning tashqarisi, umuman, o‘z va o‘zga munosabati katta ahamiyatga ega.

Endi 親[oya] – *ota-ona* birligining lug‘atdagi ma’nolar tahlil qilinadi. 親[oya] ning izohli lug‘atda 9 ta sememasi keltirilgan.

親[oya] – <i>ota-ona</i> birligining ma’nolari	
1-semema	Farzand dunyoga keltirgan inson, o‘zganing bolasini o‘z bolasi sifatida asrab olgan shaxs. Ota bilan onaning umumiy nomini anglatish uchun yoki ulardan birini ko‘rsatish uchun ham ishlatiladi. Bolani asrab olgan shaxslar hamda odamdan boshqa hayvonot dunyosiga nisbatan ham qo‘llaniladi
2-semema	Ajdod, bobokalonlarni anglatuvchi so‘z
3-semema	Biror narsa-hodisaning boshi, narsa-hodisaning yuzaga kelishiga asos bo‘luvchi narsa. Bir xil turni ko‘paytirish uchun asos bo‘ladigan daraxt, ildiz 親木 [oyaki]
4-semema	Bosh, eng birinchi asoschi shaxs. 国の親となりて [kuni no oya tonarite] – <i>yurtboshi bo‘lib</i>
5-semema	Bir xil turdagi narsalarning ichida asosiy ahamiyatga egasi. Boshqalariga solishtirganda muhim rol o‘ynovchi ichida eng yirigi, eng oldingisi. 親会社 [Oyagaisha] – <i>bosh korxona</i> 親指 [oyayubi] – <i>bosh barmoq</i>
6-semema	Karta o‘yinida kartani tarqatib, o‘yinda asosiy bo‘lib yurituvchi shaxs. 親を決める [Oya o kimeru] – <i>boshliq(otaboshi)ni tanlash</i>
7-semema	O‘zaro yordam ko‘rsatishda tashabbuskor shaxs
8-semema	O‘yinda yurishni eng birinchi boshlovchi shaxs
9-semema	Savdoda sotuvchi xo‘jayin

親[oya] – *ota-ona* birligining yuqoridagi 1-sememasi hamda ota bilan onaning umumiy nomini bildiruvchi yoki ulardan birini ko‘rsatish uchun qo‘llaniluvchi ma’nolari uning denotativ ma’nosidir. Bundan tashqari, *asos*, *asoschi*, *boshqaruvchi*, *yurtboshi*, *tashabbuskor*, *otaboshi* kabi ma’nolari uning ma’no ko‘chishi asosida yuzaga kelganini ko‘rish mumkin. O‘zbek tilida tana a’zosi *bosh* yordamida ifodalanuvchi birliklar yapon tilida qavm-qarindoshlik nomi 親[oya] bilan ifodalanar ekan.

Yapon tilida *ota-ona* birligini anglatish uchun 両親[ryōshin], 父母[fubo] birligi ham qoʻllaniladi. 両親[ryōshin] yapon tilining izohli lugʻatida ota va onaning ikkalasini koʻrsatuvchi soʻz sifatida beriladi. 両[ryō] morfemasi *ikkala* maʼnosini anglatadi, 親[oya] morfemasiga qoʻshilib [ryōshin] tarzida xitoycha oʻqilishi orqali talaffuz qilinadi va ota-onaning ikkisini koʻrsatuvchi yasama soʻz hosil qiladi. 親[oya] birligi esa ota bilan onaning umumiy nomini anglatish uchun ham yoki ulardan birini koʻrsatish uchun ham ishlatiladi. 父母[fubo] birligi esa oʻzbek tilidagi kabi ota va ona soʻzlarini ketma-ket (ota-ona) yozuvda aks etishi orqali yasalgan juft soʻzdir. Yapon tilining katta ensiklopedik lugʻatida 父母[fubo] birligi qondoshlik aloqasi mavjud oʻz tugʻgan ota-onasi sifatida tushunilishi yoziladi, ota-ona jamiyatda er-xotin sifatida tan olinganda, yaʼni er-xotinning nikohi rasmiy qayd etilganida ularga jamiyatda qonuniy 両親[ryoshin] ota-ona sifatida mavqe beriladi¹³³. Bundan tashqari, bu soʻz ota va onaning ikkalasini koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. 親[oya] esa ulardan birini koʻrsata olishi jihatdan farqli boʻlib, bolaga nisbatan biologik ota-ona maʼnosini anglatish bilan birgalikda, shu sharoit asosida ijtimoiy munosabatlar belgilanishini anglatadi. Demak, 父母[fubo] tugʻishgan qondoshlikni anglatuvchi ota-ona, 両親[ryoshin] rasmiy maqomga ega ota-ona mavqeyini, 親[oya] esa farzandiga genetik maʼlumotlarni oʻtkazuvchi ham biologik, ham ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi ota-ona ekanligini anglatadi. Aniq misollar asosidagi tahlil bu birikmalar maʼnosini yanada batafsil tushunishga yordam beradi. 「父母の恩は山よりも高し」¹³⁴[Fubo no on va yama yori takashi] “*Ota-onaning yaxshiligi togʻlardan-da baland*” maqolida ifodalangani kabi 父母[fubo] yozma nutqqa xos, kitobiy uslubdagi birlik sanaladi. 父母会[fubokai]- ota-onalar majlisi birikmasida bolaning vasiysi boʻlgan shaxs maʼnosini anglatayotganligi uchun 父母[fubo] qoʻllaniladi. Shuning uchun bu yuqoridagi misollarda 父母[fubo] ni 両親[ryoshin] bilan almashtirib boʻlmaydi. 「両親に早く死別する」[**Ryoshin** ni hayaku shibetsu suru] “*Ota-onasidan erta judo boʻlmoq*”, 「ご両親によろしくお伝えください」[**goryoshin** ni yoroshiku

¹³³「世界大百科事典 第2版」(1998)株式会社平凡社、東
<https://kotobank.jp/word/%E4%B8%A1%E8%A6%AA-659343>

¹³⁴鈴木 棠三 [新編](1992)「故事ことわざ辞典 ハードカバー」小学館。- 819 p.

otsutae kudasai] “*Ota-onangizga salom ayting*” misollarida 1 gapda 両親 birligi neytral ma’noda, keyingi gapda hurmat ma’nosida (ご[go]-hurmatni anglatuvchi prefiks qo‘llangani uchun) 対称詞[taishōshi] 2 shaxsning ota-onasi nazarda tutilmoqda. 1 gapni 「父母に早く死別する」 [fubo ni hayaku shibetsu suru] tarzida 父母 [fubo] ga almashtirish mumkin, 死別する [shibetsu suru] fe’li “*yaqin insonidan ayrilish, o‘lim sabab yaqinini yo‘qotish*” ma’nosini anglatadi. Demak, bu misolda yaqin qarindoshidan ayrilish ma’nosida, gap kitobiy yozma uslubda bo‘lganligi uchun 父母[fubo] ga almashtirish mumkin. Ammo 「ご父母によろしくお伝えください」 [gofubo ni yoroshiku otsutae kudasai] gap kitobiy yozma uslubda emas, balki so‘zlovchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaratilgan bo‘lib, so‘zlovchi o‘z uyidagi ota-onasini emas, tashqaridagi o‘zganing ota-onasini nazarda tutib hurmat shaklni ishlatmoqda. Shuning uchun ham bu gapda ご父母[gofubo] g‘aliz(ご+父母 shakli [fubo] qat’iy kitobiy uslub bo‘lgani bois ご hurmat shakli bilan qo‘llanilmaydi) tushunarsiz birlikni hosil qilganligi uchun ご両親[goryoshin] birligi o‘rniga almashtirish noto‘g‘ri hisoblanadi. Uning o‘rniga 「お父様、お母様によろしくお伝えください」 [otōsama, okaasama ni yoroshiku otsutae kudasai] “*Otangiz va onangizga salom ayting*” tarzida ota va onani anglatuvchi alohida hurmat shaklidagi so‘zlarga almashtirish to‘g‘ri va tushunarli bo‘ladi. Demak, 父母[fubo] sof qat’iy uslubni anglatib, o‘zganing ota-onasiga nisbatan ishlatilmaydi, so‘zlashuv doirasida chegaralangan, 両親[ryōshin] hurmat ma’nosini o‘zida mujassamlashtiradi.

親[oya] birligini qonuniy nikohda bo‘lgan er-xotindan tug‘ilgan farzandni bildiruvchi 嫡出子[chakushutsushi] qonuniy farzand va 庶出子[shōshutsushi] *noqonuniy farzand* so‘zlari bilan aniqroq tasavvur qilish mumkin. Qonuniy nikohdan tashqarida tug‘ilgan bolani ota yoki onaning biri tan olgan taqdirda, bu bolaga tan olgan taraf 親[oya] bo‘la oladi. 親[oya] irsiy ma’lumotni bolaga o‘tkazuvchi shaxs sifatida biologik munosabatni, ham ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi ota-onani anglatishi shunda o‘z aksini topadi. Demak, 親[oya] birligi irsiy freym sanaladi.

O‘zbek tilida *uydagilar* so‘zi orqali oilaning a’zolari, ota-ona tushuniladi. Yapon tilida 親[oya] birligi o‘rniga 家の人[uchi no hito]

yoki hurmat ma'nosiga ega 家の方[uchi no kata] birikmasi qo'llash orqali 親[oya], 両親[ryōshin] – ota-ona nazarda tutiladi, uydagi kattalar tushuniladi: 「しかし、若いから、これで待機療法だけにするわけにもいかず、とにかく手術するつもりで、二度目のときに、家の方に来てもらいました」. 「家の方が来ましたか？」驚いて、真一がきき返した。」 [Shikashi, wakaikara, kore de taikiteki ryouho dake ni suru wake ni mo ikazu, tonikaku shujutsu suru tsumori de, futatabime no toki ni, **uchi no kata** ni kite moraimashita. -**Uchi no hito** ga kimashita ka? Oodoroite, Shinichi ga kiki kaeshita.]

Ammo yosh bo'lganim uchun rejali muolaja bilan cheklanmay, baribir operatsiya qildirish niyatida 2-martasida uyimdagilar kelishdi. – Uyingdagilar(ota-onang) kelishdimi? - deb Shinichi hayron bo'lib qayta so'radi.

親[oya], 両親[ryōshin] – ota-ona birligini ham bevosita, ham uy ichidagi yaqinlarini nazarda tutib, 家の人[Uchi no hito] kabi bilvosita anglatish mumkin. Bundan tashqari, yapon tilida 親元[oyamoto] birligi mavjud bo'lib, 親[oya] ota-ona birligi ishtirokidagi so'z tug'ilib o'sgan *ota* uyni anglatadi. Demak, 家-uy “qavm-qarindoshlik so'zlari” ma'nosida yoki aksincha qarindoshlikka oid so'z “uy” ma'nosida qo'llanar ekan.

父[chichi] – *ota* birligining yapon tili lug'atida 3 ma'nosi keltirilgan:

1-semema	Farzandi bor er kishi, ota-onalardan erkak kishisiga nisbatan ishlatiladi. O'z otasi, o'gay ota, asrab olgan ota.
2-semema	Xristian dinida xudo, yaratganga nisbatan ishlatiladi. 神父 [shinpu] — <i>avliyo ota</i>
3-semema	Biror yangi harakatning eng birinchilardan boshlagan shaxs, asoschi. Buyuk rahnamo. 現代物理学の父 [gendai butsurigaku no chichi] – <i>zamonaviy fizikaning otasi</i>

Farzandi bor er kishi, ota-onalardan erkak kishisi ma'nosi uning denotativ ma'nosidir. お父さん- [otōsan], 父上- [chichiue], お父様- [otōsama], 父君[chichigimi], 親父[oyaji] kabi birliklar “ota”ning sinonimlari bo'lib, bu birliklar 父[chichi] asosiga qo'shimcha morfemalar qo'shilishi natijasida yasalgan yasama so'zlardir. Yapon tili

sinonimlar lugʻatida otaning 35 ta sinonimi berilgan¹³⁵. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi 歴史の父[rekishi no chichi] – *tarix otasi*, 工業の父[kōgyō no chichi] – *sanoat otasi*, 独立の父[dokuritsu no chichi] – *mustaqillik otasi*, 開発の父[kaihatsu no chichi] – *kashfiyot otasi*. Mehribon boshliq, rahnamo 親父 – [oyaji], el-yurtga boshchilik qiluvchi yoshi yoki mansabi ulugʻ zot haqida gapirilganda qoʻllanuvchi 建国の父[kenkoku no chichi]-*davlat asoschisi* kabi ifodalar 父[chichi]ning konnotativ maʼnosidir. “家[ie]-uy” va 父[chichi] soʻzlarining qoʻshilishi natijasida hosil boʻlgan 家父[kafu] birligi begonalarga oʻz otasi haqida gapirganda qoʻllanuvchi, *uydagi otam* maʼnosini anglatuvchi soʻzdir. 親父[oyaji] birligi ham qoʻllaniluv doirasi keng uning sememalari quyidagilar:

1-semema	Oʻz otasini erkalab, boshqalarga hurmat tariqasida otasi haqida kamtarlik bilan gapirganda qoʻllaniladi.
2-semema	Oʻrta yoshli yoki qari erkak kishiga nisbatan hamda begonalarning otasiga nisbatan qoʻllanuvchi soʻz.
3-semema	Savdo (bozor, doʻkon), xizmat koʻrsatish joyining boshligʻi.
4-semema	Korxonada, jamoada qoʻl ostidagi ishchilar boshliqni otadek yaqin olib qoʻllovchi soʻz.
5-semema	Ota-onaning otasi, bobo

Koʻrib turganimizdek, 親父[oyaji], 父[chichi] birligiga qaraganda qoʻllaniluv doirasi keng va koʻp maʼnoli soʻzdir. 親[oya] va 父[chichi] soʻzlarining birikuvidan hosil boʻlgan. Bundan tashqari, 親父[oyaji], 父[chichi] birligiga nisbatan hissiy ekspressiv boʻyoqqa ega soʻzdir. Oʻz otasini erkalab, uydan tashqarida begonalarga hurmat tariqasida, oʻz otasi haqida kamtarlik bilan qoʻllanishi hamda bobo maʼnosida ishlatilishi 親父 [oyaji] ning denotativ maʼnosi boʻlsa, begonalarning otasiga, savdo (bozor, doʻkon), xizmat koʻrsatish sohasidagi boshliq, korxona boshligʻini ishchilar tomondan 親父[oyaji] deb atalishi otaning konnotativ maʼnosi hisoblanadi. Yuqoridagi 親父[oyaji]ning 2,3,4 sememasi jamiyatning turli jabhalarida qoʻllanuvchi 親父[oyaji]ning uydagi qarindoshlikni anglatuvchi mavqeyi maʼnosidan ijtimoiy munosabatlargacha kengayishi asosida yuzaga kelgan.

¹³⁵ 大野晋、正人浜西 (1981) 「類語新辞典」 角川書店 – P.352.

兄[ani] birligining izohli lug‘atda 5 ta ma’nosi berilgan. 1.Uyning katta o‘g‘il farzandi, ota-onasi bir farzandlar ichida yoshi katta o‘g‘il bola. 2.Er yoki xotinning aka-ukalari, er va xotindan yoshi katta erkak¹³⁶. Bundan tashqari opaning eriga nisbatan ham qo‘llaniladi: 義兄[gikei] *qaynog‘a, kuyov, boja*. 3. to‘ng‘ich o‘g‘il. 4. Boshqalarga nisbatan yoshi katta erkak kishi. 5. Kattalar yosh yigitni o‘ziga yaqin tutib, erkalab chaqiruvchi so‘z.

Opa-singillarni anglatuvchi 姉[ane] 妹[imōto] birliklari juft so‘z sifatida qo‘llanilib 姉妹[shimai] maktab, nashriyot kabi bir tizimga mansub va bir turga oid narsa va hodisalarga nisbatan ham ishlatiladi va bir turdan tarqalganligini anglatadi: 「姉妹語」[shimaigo] *qardosh tillar*, 「姉妹都市」[shimai toshi] *qardosh shaharlar*, 国語辞典の姉妹編」[kokugo jiten no **shimai** hen] *Izohli lug‘atning qardosh nashri*. 「A 高校とB 高校とは姉妹学校である。」[A koukou to B koukou tova **shimai** gakko de aru] *A katta maktabi bilan B katta maktabi qardosh maktablar sanaladi*. 「Demak, bir asosga ega, bitta turga xos, o‘zaro bog‘liqlikka ega tushunchalarning qardoshligi qarindoshlikka oid birliklar bilan ifodalanadi.

子[ko] – ota-ona o‘rtasida tug‘ilgan farzand, o‘z farzandi yoki asrab olingan bolaga nisbatan qo‘llaniladi. うちの子は3歳です。[**Uchi no ko** va san sai desu] *Uydagi bolam 3 yosh*. 子[ko] birligi oldidan kelgan うち[uchi] aslida uyni anglatadi. の[no] esa qaratqich kelishigi ~ning bo‘lib, 2 otni bir-biriga bog‘laydi hamda egalikni ham anglatadi. Ammo gap *uyimdagi bolam* tarzida emas, *mening bolam* deb tarjima qilinadi va うち[uchi] bo‘lganligi sababli buning ortida so‘zlovchi begonaga o‘ziniki, psixologik yaqin qarindoshi bo‘lgan shaxs haqida gapirayotgani tushuniladi. Bu vaziyatda o‘zinikini begona toifasiga kiritish holati kuzatiladi. Bu holatda masalan, yaponlar 家[ie] uy ichidagi onasini 「お母さん」[okaasan] degan paytda 「私のお母さん」[watashi no okaasan] *mening onam* 「お前のお母さん」[omae no okaasan] *sening onang* deb emas, 「うちのお母さん」[uchi no okaasan] *uydagi onam yoki mening onam* ma’nosini anglatadi. Demak, うち[uchi] *uy, ichkari* qarindosh-urug‘chilikka oid birliklar bilan qo‘llanilib, o‘z

¹³⁶ 松村 明 (2021) 「国語辞書デジタル大辞泉」小学館 (Elektron manba)

uyidagi psixologik yaqin insonlariga ishora qilib shaxsning o‘zini, o‘ziga tegishli makonni anglatar ekan. Bunda 家 [ie] birlik sifatida obyektivlashib, o‘zining alohida ma’noga ega unsur sifatidagi xususiyatidan mustaqil bo‘lib olmoshga to‘g‘ri keladi va 家の誰々 [uchi no daredare] *uydagi kimdir* tarzida shaxsning oila a‘zolariga ishora qiladi.

内[uchi]– o‘z 外[soto] – o‘zga munosabati nabirani bildiruvchi 内孫[uchimago], 外孫[sotomago] birliklarida ham ko‘zga tashlanadi. 家 [ie] – uyning voris farzandidan tug‘ilgan bola uyning ichidagi nabira deyiladi. Yaponlarda asosan uy davomchisi o‘g‘il bola hisoblanadi va shajaraning davomchisi sifatida shu uyda ota-onasi bilan birga yashaydi. Bunga nisbatan, boshqa uyga kelinlikka uzatilgan qizning bolasi ota-onaning o‘z uyiga nisbatan tashqari, boshqa uyda yashaganligi uchun 外孫[sotomago] *tashqaridagi nabira* hisoblanadi. Bu bobo va buvining fokusidan qarab yondashuvga asoslangan nomdir.

Endi quyidagi jadvalda yon shajaradagi qavm-qarindoshlik terminlaridagi tafovutlar ko‘rib chiqiladi:

2.2-jadval

Yapon tilidagi yon shajara qarindoshlik aloqalarini tizimlashtirish

Yapon tilidagi qarindosh-urug‘chilik nomlari	Yapon tilidagi qarindosh-urug‘chilik nomlarining ma’nolari	O‘zbek tilidagi qarindosh-urug‘chilik nomlari	O‘zbek tilidagi qarindosh-urug‘chilik nomlarining ma’nolari
Yon shajara qavm-qarindoshlik aloqalari (傍系関係) Ota-onaning aka-uka, opa-singillari			
伯父 おじ [oji] 叔父	Otaning akasi Onaning akasi	Amaki	Otaning akasi yoki ukasi (jiyanga nisbatan)
	Otaning ukasi Onaning ukasi	Tog‘a	Onaning akasi yoki ukasi (jiyanga nisbatan)
伯母 おば [oba] 叔母	Ota yoki onaning opasi	Amma	Otaning opasi yoki singlisi (jiyanga nisbatan)
	Otaning singlisi Onaning singlisi	Xola	Onaning opasi yoki singlisi (jiyanga nisbatan)

Yuqoridagi jadval shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida ota-onaning aka-uka, opa-singillarini nomlashda ota tomondan qarindosh va ona tomondan qarindosh kabi ajratilib alohida nomlanish holati kuzatiladi. Ya'ni otaning aka-ukasi *amaki*, onaning aka-ukasi *tog'a* deyiladi. Onaning opa-singillari *xola*, otaning opa-singillari *amma* shaklida nomlanadi va bu ayni paytda murojaat shakli ham hisoblanadi, yoshiga qarab farqlanish holati kuzatilmaydi. O'zbek tilida ota tomondan qarindosh aka-uka, opa-singil hamda ona tomondan qarindosh aka-uka, opa-singilga nisbatan 4 ta alohida so'z qo'llaniladi. Biroq yapon tilida ota tomondan qarindosh va ona tomondan qarindosh kabi ajratilib alohida nomlash holati kuzatilmaydi. Yapon tilida otaning ham onaning ham aka-ukalariga bitta nom おじ[oji] birligi qo'llaniladi, otaning ham onaning ham opa-singillari bir xil おば[oba] shaklida nomlanadi.

2.3-jadval

Yon shajara qarindoshlik aloqalaridagi tafovut

	Ota tomon qarindoshlik aloqalari:	Ona tomon qarindoshlik aloqalari:	Ota tomon qarindoshlik aloqalari:	Ona tomon qarindoshlik aloqalari:
Yapon tili	おじ[oji]		おば[oba]	
O'zbek tili	Amaki	Tog'a	Amma	Xola

Demak, o'zbek tilidagi 4 munosabat shakli yapon tilida 2 ta qarindoshlik munosabatini ifodalaydi.

2.4-jadval

Yon shajara qarindoshlik aloqalarida jins va yoshga doir tafovut

O'zbek tili			Yapon tili		
Ota tomondan qarindoshlik aloqalari: Otaning aka-uka, opa-singillari	Ama ki	Amma	おじ [oji]	Ota yoki onaning akasi	伯父 [oji]
				Ota yoki onaning ukasi	叔父 [oji]
Ona tomondan qarindoshlik aloqalari: Onaning aka-uka, opa-singillari	Tog'a	Xola	おば [oba]	Ota yoki onaning opasi	伯母 [oba]
				Ota yoki onaning singlisi	叔母 [oba]

Demak, yapon tilida jins jihatdan ajratilib 2 ta soʻz qoʻllanilar ekan. Shu oʻrinda yapon tilining oʻzbek tilidan farqli jihati, yozuvda yoshga nisbatan (yoshi katta yoki kichikligiga qarab) tafovutning mavjudligidir.

2.5-jadval

Yapon va oʻzbek tilidagi tafovut

	amaki, togʻa	amma, xola	
yoshi katta	伯父 Oji	伯母 Oba	Ota-ona tomondan qarindosh
yoshi kichik	叔父	叔母	

	おじ	おば	
Amaki	Amma	ota tomon	
Togʻa	Xola	ona tomon	

Ota-onaning aka-ukalariga nisbatan おじ[oji] nomining qoʻllanishi talaffuzda farq qilmasa-da, yozuvda ota-onaning akasi 伯父[oji], ota-onaning ukasi 叔父[oji] shaklida, ota-onaning opasi 伯母[oba], ota-onaning singlisi 叔母[oba] shaklida aks ettiriladi. Demak, yapon tilida ota yoki ona tomon munosabati yon shajarada farqlanmaydi, ammo oʻzbek tilidan farqli ravishda (oʻzbek tilida *katta* yoki *kichik* aniqlovchi soʻzlari qavm-qarindoshlik birligidan oldin qoʻyilib, yosh jihatidan boʻlgan farqlar koʻrsatiladi: *katta togʻa*, *katta xola* tarzida¹³⁷) yapon tilida yoshdagi farq muhim boʻlib, yon shajara aloqalari yozuvda 4 shakl(iyeroglif)da ifodalanadi.

¹³⁷Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – T.:Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B.333. Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. Монография. – Т.: Фан, 1966. – Б.84.

2.6-jadval

Yapon va o‘zbek tilida ota-onaning tug‘ishgan aka-uka, opa-singillarining bolalarini ifodalovchi birliklardagi tafovut (傍系 yon shajara)

Yapon tilida ota-onaning aka-uka, opa-singillarning farzandlari	Ma’nosi va munosabat shakli	O‘zbek tilida ota-onaning aka-uka, opa-singillarning farzandlari	Ma’nosi va munosabat shakli
いとこ 従姉[itoko]	Ota, onaning akasi yoki ukasi, opa-singlisining farzandi, qiz bola, yoshi jihatdan kattasi	Amakivachcha	Aka-ukalarning o‘g‘il-qizlari(bir-birlariga nisbatan)
いとこ 従妹[itoko]	Ota, onaning akasi yoki ukasi, opa-singlisining farzandi, qiz bola, yoshi jihatdan kichigi	Tog‘avachcha	Onasining akasi yoki ukasining farzandlari, tog‘aning bolalari
いとこ 従兄[itoko]	Ota, onaning akasi yoki ukasi, opa-singlisining farzandi, o‘g‘il bola, yoshi jihatdan kattasi	Ammavachcha	Otaning opasi yoki singlisining farzandlari (o‘g‘il-qizlari)
いとこ 従弟[itoko]	Ota, onaning akasi yoki ukasi, opa-singlisining farzandi, o‘g‘il bola, yoshi jihatdan kichigi	Xolavachcha	Opa-singillarning farzandlari (bir-birlariga nisbatan)
甥[oi]・姪[mei] Jiyan(傍系)			
甥[oi] – o‘g‘il jiyan	Aka-uka, opa-singillaridan tug‘ilgan farzand, o‘g‘il bola	Jiyan	Aka-ukalarning, opa-

姪[mei] – qiz <i>jiyan</i>	Aka-uka, opa- singillaridan tug‘ilgan farzand, qiz bola	singillarning farzandi (tog‘aga, amakiga, xolaga, ammaga nisbatan)
------------------------------	---	--

Ota, onaning akasi yoki ukasi, opa-singlisining farzandlarining nomlanishi hamda munosabat shakllari o‘zbek va yapon tillarida mos kelmaydi. Yapon tilida ota, onaning aka-uka, opa-singillarning farzandlari uchun いとこ[itoko] nomi qo‘llanilib, bu so‘z talaffuzda bir xil, ammo yoshi, jinsiga qarab yozilishida farqlanadi. Ya’ni qiz bola yoshi jihatdan kattasi 従姉[itoko], qiz bola yoshi jihatdan kichigi 従妹[itoko], o‘g‘il bola yoshi jihatdan kattasi 従兄[itoko], o‘g‘il bola yoshi jihatdan kichigi 従弟[itoko] bo‘lib yozuvda 4 ta turli xildagi ko‘rinishida aks etadi. Yosh va jins jihatdan shaklda farqlansa-da, shakl anglatayotgan munosabatda farq kuzatilmaydi. Yapon tilidan farqli ravishda, o‘zbek tilida ota tomon qarindoshligi hamda ona tomon qarindoshligi farqlanadi. Ota-onaning aka-uka, opa-singillarini anglatuvchi *amaki, tog‘a, amma, xola* so‘zlariga ~*vachcha* (bacha) so‘zi qo‘shilib yangi so‘z hosil qilinadi. Bu nomlar o‘zbek tilida jins va yosh jihatdan farqlanmaydi. Demak, ikki tildagi nom shakllari mos kelmaydi va munosabat shakli ham turlicha. Yozuvda yosh jihatdan farqlanish xususiyati yapon tilida, yapon madaniyatida katta teng va kichik kabi iyerarxik munosabatlar qat’iy farqlanishi bilan bog‘liq.

O‘zbek tilidagi *jiyan* nomi aka-ukalarning, opa-singillarning farzandiga nisbatan qo‘llaniladi. Yapon tilida ham *jiyan* nomi aka-ukalarning, opa-singillarning farzandiga nisbatan qo‘llanuvchi nom bo‘lib, munosabat shakli o‘zbek tili bilan bir xil. O‘zbek tilida *jiyan* nomi yoshi va jinsi jihatdan farqlanmaydi. Biroq yapon tilida *jiyan* nomiga mos keluvchi ikki so‘z qo‘llaniladi. Bu 甥[oi]-o‘g‘il bola *jiyan* va 姪[mei]-qiz bola *jiyan* nomlari bo‘lib, ular aka-ukalarning, opa-singillarning farzandlarini jins jihatdan farqlashga xizmat qiladi.

Yapon tilida nikohdan keyin shakllangan qavm-qarindoshlikka oid til birliklari semantikasi

Ushbu faslda yapon tilidagi nikohdan keyingi qavm-qarindoshlik birliklari tahlilga tortiladi. Ilovadagi jadvalda nikohdan keyingi qavm-qarindoshlik birliklari 20 ta ekanligini ko‘rish mumkin. (Ilova 1 va 2 ga qarang).

Qadimda 家[ie] inson yashashi hamda shu yerda savdo qilishi uchun mo‘ljallangan joy hisoblangan. 家[ie] – uy sifatida uy xo‘jaligi, yashash joyini anglatuvchi so‘z bo‘lib, bunda uyning a‘zolari birga uy xo‘jaligi, savdoni yuritishlari nazarda tutiladi. *Janob, xo‘jayin* ma’nosini bildiruvchi 主人[shujin] qadimda zodagonlar orasida uy va savdo umuman katta xo‘jalikni boshqaruvchi shaxs sifatida tushunilgan. Hozirda yaxshi sifatlarga ega uy xo‘jayini, turmush o‘rtoq, er ma’nosini anglatuvchi so‘zga aylanib xotin tomonidan turmush o‘rtog‘ini ko‘rsatish uchun qo‘llanilib, ma’nosi birmuncha toraygan. Izohli lug‘atda 主人[shujin] ning 4 ma’nosi keltirilgan: 1. Uyning xo‘jayini, oila boshlig‘i; 2. Korxona egasi, ish beruvchi, xo‘jayin; 3. Xotin o‘zgalarga nisbatan erini ko‘rsatish uchun qo‘llanuvchi nom; 4. Mehmonlarni qabul qilib, kutib olib uyida mehmon qiluvchi mezbondir¹³⁸. Ko‘rinib turibdiki, bu 4 ma’no 家 uyga borib taqaladi. Uy xo‘jayinisiz uy mavjud emas, korxona boshlig‘i xo‘jayin ma’nosini anglatishida ham ishxona “Uy” sifatida qabul qilinishini anglatadi. Xotin uydagi xo‘jayinini ko‘rsatish uchun 主人[shujin]ni qo‘llaydi, bunda u uyda eri ustun ekanligini anglatadi. Ayol o‘z eri haqida o‘zgalarga gapirganda yoki aksincha er uyidagi rafiqasi haqida boshqalarga gapirganda 内の人[uchi no hito] *uyimdagi odam* iborasini qo‘llaydi. 内¹³⁹[uchi] 家 iyeroglifi bilan ifodalanib er va xotin ma’nosini anglatadi. Bunda o‘zgalarga hurmat ma’nosini ifodalovchi evfemizm sifatida keladi: 家に相談したからにします。[Uchi ni soudanshita kara ni shimasu] “*Xo‘jayinim bilan maslahatlashib qilaman*”. Bunda 家-uyning “qavm-qarindoshlik so‘zlari” ma’nosida qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

¹³⁸松村 明 (2023)「国語辞書デジタル大辞泉」小学館

<https://dictionary.goo.ne.jp/word/%E4%B8%BB%E4%BA%BA/>

¹³⁹ https://dictionary.goo.ne.jp/word/%E5%86%85_%E2%8E%81%86%E3%81%A1%29/

Izohli lugʻatda 主人[shujin]ning sinonimlari sifatida 夫[otto] 亭主[teishu] 旦那[danna] kabilar berilgan. Hozirgi zamonaviy Yaponiyada uyda, umuman jamiyatda gender tengligi nuqtayi nazardan xotin oʻz erini 主人[shujin] deyishi birmuncha eskirgan va ayollar huquqlarini cheklovchi birlik sifatida baholansa-da, bu soʻz hali hanuz oʻz qiymatini yoʻqotmagan. 2017-yilda oʻtkazilgan tadqiqotda oʻz eriga nisbatan ayollar 夫[otto] va 主人[shujin] birligini eng koʻp qoʻllashlari aniqlangan. 旦那[danna] esa 20-30 yoshlilar oʻrtasida qoʻllanuvchi nom boʻlib, foydalaniluv doirasi nisbatan kam¹⁴⁰. Koʻpincha ayollar uyda er va xotinning teng huquqliligi nuqtayi nazardan *xoʻjayin* maʼnosidan xoli 夫[otto] birligini atash uchun ishlatadilar.

Yapon tilida xotin maʼnosini anglatish uchun bir nechta sinonim birliklar ishlatiladi. Bular 妻[tsuma], 嫁[yome], 女房[nyōbō] 家内[kanai], 奥さん[okusan] kabilardir. 妻[tsuma] bu sinonimlarning ichida eng qadimgisi Nara davrida yozilgan eng qadimiy yozma manba “Kojiki” da uchraydi. Oʻsha davrda hozirgidek nikoh tizimi mavjud boʻlmagan. Oʻsha paytda ota-onaning roziligi asosida birga yashaydigan ayolini 妻[tsuma] deb chaqirilgan. Faqat Meyji davriga kelib hozirdagi kabi nikoh tizimi joriy qilingan va nikohdagi juftini rasmiy 妻[tsuma] xotin deya atalgan.

嫁[yome] – kelin termini 3 ta maʼnoni anglatadi: oʻgʻilning xotini, kelin va xotin. Aslida 嫁[yome] xitoy tilidan olingan soʻz boʻlib, 嫁[totsugu] iyeroglifi feʼl turkumiga oid soʻzdir. 女[onna] *ayol* va 家[ie] *uy* iyerogliflarining birikuvidan hosil boʻlgan 嫁[totsugu] ayol(qiz)ning tugʻilgan uyidan erining uyiga borishi, turmushga chiqishini anglatgan¹⁴¹. Yapon tiliga ham 嫁[yome] ot soʻz turkumi tarzida, ham 嫁[totsugu] feʼl tarzida oʻzlashgan. 嫁[yome] soʻzi [yobime] soʻzidan kelib chiqqan, 嫁[yome] soʻzma-soʻz *qiz(ayol)ning uydagi ismi* maʼnosini anglatadi. Demak, bu birlik oʻz uyini tashlab begona uyga ishlash, nabiralarni dunyoga keltirish, turmush oʻrtogʻining ota-onasiga gʻamxoʻrlik qilish uchun kelgan qizni anglatgan. Shu jihatdan 家-uyga bogʻliq deyish mumkin. 「嫁をもらう」 [yome o morau] *kelin olish, kelin*

¹⁴⁰ 光美水元 (2017) 「他人の配偶者の新呼称を探るアンケート調査—「ご主人」「奥さん」から「夫さん」「妻さん」への移行の可能性—」日本語とジェンダー第 17 号. — P.17.

¹⁴¹ 『広漢和辞典上巻』 (1981) 大修館書店[Elektron manba]<https://kotobank.jp/word/%E5%AB%81-146494>

tushirish iboralari ortida ham uy tasavvuri yotadi. Bunda 嫁ぐ[totsugu] turmushga chiqib, familiyasini o‘zgartirib butunlay begona uyga kelin bo‘lib kirish dunyoqarashi yotadi va kelinga shu uyni davomchilari bo‘lgan o‘g‘illarni dunyoga keltirish vositasi sifatida qaralardi. Bu qarashlar ayol kishini quyi pog‘onaga qo‘yilishi bilan bog‘liq edi.

女房[nyōbō] asl kelib chiqishi “*xizmatkor ayol*” ma’nosiga borib taqaladi. Heyan davrida zodagonlar uyi saroylarida xotinidan boshqa osh-ovqat va uy yumushlariga qarashuvchi xizmatchi ayolni yollaganlar va u ham saroyda yashagan. Mana shu xizmatchi ayolning yashash xonasi 女房[nyōbō] deb atalgan. Keyinchalik shu xona nomi xizmatchi ayolni atash uchun qo‘llanilib, murojaat nomiga aylangan. Demak, bu nom ham uyning bir qismi xona ma’nosidan shaxs ma’nosiga ko‘chgan.

奥さん[okusan] rafiqani bildiruvchi muloyim uslubga ega leksika. Muromachi davri 1562-yilda yozilgan 『北条幻庵覚書』 – *Hōjō genan memorandum*i manbasida 奥さん[okusan] ning kelib chiqishi 奥方[okugata] so‘ziga borib taqalishi yozilgan¹⁴². Edo davridagi savdogar oilasi yashaydigan Uyning qurilishi o‘ziga xos rejalashtirilgan bo‘lib, keng bo‘lmagan fasad va uy bo‘ylab ichkarigi kiriladigan qilib qurilgan. Uyning old qismi savdo ishlari va mijozlar uchun, uyning eng orqadagi ichkari 奥[oku] qismida oila yashagan. Agar er uy old qismi (eshikdan kiraverish)da savdo bilan shug‘ullangan bo‘lsa, ayoli uyning ichkari qismida yumushlar bilan mashg‘ul bo‘lgan¹⁴³. Shuning uchun yaponlar tasavvurida darvozadan kirish hali uyning ichiga kirish hisoblanmaydi. Darvozadan kirilgach uzun yo‘lak bo‘lgan. Shu yo‘lakdan o‘tilgach ichkari tarafda uy bo‘lgan. Qadimda imperator rafiqasining xonasi saroyning eng ichki 奥[oku] qismida joylashgan. Shu xonaning joylashuvi asosida 奥[oku] morfemasiga ~さん[san] suffiks morfemasi qo‘shilishi natijasida 奥さん[okusan] *rafiqa* so‘zi kelib chiqqan. 奥さん[okusan] asosan suhbatdoshning rafiqasiga nisbatan qo‘llanuvchi hurmat uslubiy bo‘yog‘iga ega birlik sanaladi. So‘zlovchi o‘z xotiniga nisbatan bu so‘zni qo‘llamaydi, balki o‘z uyidagilariga 妻[tsuma], 家内

¹⁴² 語源由来辞典 <https://gogen-yurai.jp/okusama/>

¹⁴³ Фролова Е.Л. Термины родства в функции обозначения супругов японской семьей//Вестник НГУ. Серия: История, филология. Том 11, выпуск 4: – 2012. – С.136.

[kanai] ni ishlatadi. Bunda ham imperator ayolining, xo‘jayinning xotini yashagan joy qarindoshlikni anglatuvchi nomga ko‘chishi orqali ma’no kengayganini kuzatish mumkin.

家内[kanai]- iyeroglifga e’tibor berilsa, 家[ka]-uy va 内[uchi] – uyning ichi ma’nosini anglatib, bu birlikning kelib chiqishi Meyji davriga borib taqaladi. Meyji davrida Yaponiyada 会社制度[kaisha seido] *korxona tizimi* paydo bo‘lib, keng miqyosida yoyildi. Bunda erkak uydan tashqarida korxonada ishlar, ayoli esa uy bekasi sifatida uy xo‘jaligiga asosiy e’tiborni qaratgan. Uydan tashqarida ishlaydigan erkaklar turmush o‘rtog‘ini “*uyning ichidagi ayol*” ma’nosida 家内[kanai] deb nomlay boshladi. Bunda xotin “uy ichida” bo‘lishi haqidagi qarashlarga asoslanardi. Ammo bu 1948-yildagi konstitutsiyaviy o‘zgarishga asosan er-xotin teng huquqli bo‘lgan jamiyat uchun, zamonaviy yaponlar uchun ancha eskirgan stereotip tushunchaga aylangan. Aslida bu birlikning lug‘atda 3 ma’nosi berilgan, bular uyning ichi, oila hamda xotin ma’nolaridir. Hozirda 3-shaxs bilan muloqotda o‘z xotinini bildirish uchun qo‘llaniladi. “Er-xotin” ma’nosini anglatuvchi ushbu birliklar o‘rnida bugungi kunda 家(内)[uchi] birligini ishlatiladi. Bunda tashqaridagi o‘zga shaxsga nisbatan o‘zinikilar nazarda tutiladi. Masalan, quyidagi misolda xotin erini 旦那[danna] deyishdan qochib 家[uchi] demoqda:

旦那様に「家が、家が」と言われたくないなら自分が言わないことです。あなたも旦那様のことを「うちの旦那」と言わないほうがいいです。(知恵袋、2015 メンタルヘルス) [dannasamani “**uchiga, uchiga**” to iwaretakunai nara jibun ga iwanai kotodesu. Anatamo dannasama no koto o “**uchi no danna**” to iwanai hōga iidesu.] *Xo‘jayiningiz sizni “uyimdagi, uyimdagi” deyishini xohlamasangiz, o‘zingiz ham aytmasligingiz kerak. Siz ham xo‘jayiningizni “uyimdagi erim” demaganingiz ma’qul.*

Bu misollardan xo‘jayinini atamaslik ichkaridagi munosabatni tashqaridan berkitish, o‘zgalarga nisbatan andisha yuzasidan o‘z va o‘ziga tegishli shaxslarni old o‘ringa qo‘ymaslik maqsadida 家 ishlatilmoqda. Demak, 家 evfemizm sifatida ham qo‘llaniladi. 2015- yillarda 嫁、主人、奥さん、だんなさん、家内 kabi qarindoshlikni anglatuvchi birliklar eski uy tizimini eslatuvchi so‘zlar bo‘lganligi uchun uy tizimiga oid dunyoqarash yashiringani uchun bu birliklarni ishlatmaslik, ular o‘rniga uy tizimini

bog‘liq bo‘lmagan boshqa so‘zlarni tanlash zarurligini yozadilar¹⁴⁴. Qiz bola turmushga chiqsa tug‘ilgan uyining uy ro‘yxatidan chiqib, erining uyi ro‘yxat daftariga kiradi. Familiyasini o‘zgartiradi, shu uy vorislarini dunyoga keltiradi. Turmushga chiqqan uyi uchun ishlovchi ayolga nisbatan murojaat va atash birligi bo‘lgan kelin ma’nosidagi 嫁[yome] aynan yuqoridagi tafakkur mavjudligi uchun ham, xotin ma’nosidagi 奥さん[okusan], 家内[kanai], 女房[nyōbō], turmush qurib boshqa uyga kirish ma’nosidagi 嫁ぐ[totsugu] so‘zi, xo‘jayin ma’nosidagi 主人[shujin], 旦那さん [dannasan] (sanskrit tilidagi “danapati” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, avvalida “sadaqa beruvchi odam” ma’nosini bildirgan. Ammo keyinchalik xizmatkor xo‘jayinini chaqirishda, qo‘l ostidagilarining hayotdagi qiyinchiliklarini ko‘rib turuvchi boshliqqa ayol kishi murojaat qilganda qo‘llanuvchi birlikka aylanib tarixan boshliq va unga itoat qiluvchi shaxs tasavvuri sifatida 主人[shujin] bilan bir xil ma’nodagi so‘zga aylangan) birliklari shu birliklarni qo‘llovchi va uni qabul qiluvchilar tomonidan zamonga to‘g‘ri kelmaydigan, noqulaylik tug‘diruvchi birliklar sifatida baholanmoqda. Bu uy doirasida emas, begonalarning uyidagilari haqida gapirganda ayniqsa namoyon bo‘ladi¹⁴⁵. Bundan tashqari, xizmat sohasida ham “mehmon”, “mijoz” deya ishlatmasdan ご主人[goshujin] 奥様[okusama] yoki korxona vakillari o‘zaro yoshi kattaroq erkakni お父さん[otōsan] yoki ayolni お母さん [okaasan] deb chaqiradi. Jamiyatda gender tengligi bo‘lib turgan paytda 奥様[okusama] deb tilga olinganda uyning xo‘jayini ご主人 bo‘lgan erkak kishi uchungina uyning ichkarisida faqat uy yumushlari bilan band ayol obrazi gavdalanadi. Xususan, gender lingvistikasida sezilarli ilmiy izlanishlar qilgan sotsiolingvist olimi M.Nakamura uy tizimini esga soluvchi 主人[shujin] xo‘jayin o‘rniga 夫さん[ottosan] *er*, おつれあいさん [otsureaisan] *turmush o‘rtoq*, ご主人様[goshujinsama] *xo‘jayiningiz* o‘rniga ご夫君[go ottokun] *eringiz*, おつれあい様[otsureaisama] *turmush o‘rtog‘ingiz* birliklarini ishlatish zarurligi 1970-yillardan beri aytib

¹⁴⁴ 読売新聞「(フォーラム)嫁、主人、家はいま:2 結婚したら」朝刊オピニオン 2021 年 09 月 12 日. — P.22-23.

¹⁴⁵ Abdukhmidova D. Dynamics of change of the concept of “家 ie-home” in the linguistic consciousness of the japanese people//International Journal Evaluation and Research in Education(IJERE). Institute of Advanced Engineering and Science. – 2023. ISSN: 2252-8822. – Vol 12. № 3. – P.203. (Scopus)

kelinayotgan bo‘lsa-da, jamiyat hamda uning a‘zolari tomonidan bu yangi so‘zlar qabul qilinmagani, qo‘llanuvi ommalashmaganini yozadi¹⁴⁶. Ayniqsa yosh avlod vakillari zamonaviy konstitutsiyada nikoh ikki mustaqil shaxsning xohishiga ko‘ra bog‘lanuvchi rishta bo‘lib, “ayol boshqa uyga kiradi degani emas” deb hisoblaydilar. Ular har bir so‘z va birlikda shu so‘zni ishlatuvchi shaxs yoki ishlatmayotgan shaxsning dunyoqarashi mujassamlashgan bo‘lishini barcha tushunishini xohlaydi.

婿[muko] qizning eri, qizning umr yo‘ldoshi sifatida oila a‘zosiga aylangan erkak. 花婿[hanamuko] birligi 花[hana] *gul* va 婿[muko] *kuyov* morfemalarining birikuvidan hosil bo‘lib, endigina uylangan yangi kuyov ma’nosini anglatadi.

Erning qarindoshlarini ifodalashda o‘zbek tilida *qayin*~ old affiks morfemasining qavm-qarindoshlikka oid birliklarga qo‘shilishi natijasida yasalsa, yapon tilida ham 義[gi] old morfema sifatida qarindoshlikka oid birliklarga qo‘shiladi va qondosh bo‘lmagan qarindoshlik munosabatini anglatadi. 義[gi] old morfemasi qo‘shilishi orqali o‘gaylik munosabati ham tushuniladi. 義母[gibo] -*qaynona*, o‘gay *ona*, 義父[gifu] – *qaynota*, o‘gay *ota*, 義兄[gikei] – *qaynog‘a*, o‘gay *aka*, 義弟[gitei] – *qaynini*, 義姉[gishi] – *qaynegachi*, 義妹[gimai] – *qayin singil* kabi qo‘shma so‘z tarzida yoki 義理の叔父[giri no oji] – *pochcha*, 義理の伯母[giri no oba] – *kelinoyi* kabi qarindoshlik birligi oldidan qonuniy qarindoshlik munosabatini anglatuvchi 義理の[giri no] birikmasining so‘z oldidan kelishi natijasida so‘z birikmasi ko‘rinishida aks etishini ko‘rish mumkin. 義[gi] va 義理の[giri no] birikmasi o‘zbek tilida *qayin*~ old affiks morfemasiga nom jihatdan mos kelsa-da, ma’no va munosabat shakli jihatdan nomutanosiblik kuzatiladi. Masalan, 義母[gibo] ham o‘gay *ona*, ham *qaynona* ma’nosini, 義兄 [gikei] va 義弟[gitei] er va xotinning aka-ukasi *qaynog‘a*, *qayinini* ma’nosini anglatishdan tashqari, opa singilning eri *pochcha*, *kuyov* ma’nosini ham anglatadi. 義姉[gishi], 義妹[gimai] er va xotinning opa-singlisi *qaynegachi*, *qaynsingil* ma’nosini anglatishdan tashqari, aka-ukaning xotini *kelinoyi*, o‘gay *opa* kabi ma’nolarni ham anglatadi. Demak, 義[gi] va 義理の[giri no] birikmasini olgan qavm-qarindoshlik birliklari o‘zbek tilidagi kabi bir ma’noli emas, balki 2 va undan ortiq ma’noni, ya’ni qondosh bo‘lmagan qarindoshlik va nikohdan

¹⁴⁶ 中村桃子 (2022) 「言葉は関係を作る一家族、パートナーの呼び方」中村桃子さんに聞く // 女性の広場」2022 年 7 月号 – P.64.

keyin paydo bo‘lgan munosabatni anglatar va bir necha munosabat shaklini ifodalar ekan.

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining qo‘llanishida so‘zlovchi nigohining ko‘chishi

Suhbatdoshga bo‘lgan munosabat hamda shu vaziyatga qarab nomlarni belgilanganligi sababli yapon tilida 呼称[koshō] *murojaat birliklarining* bir turi hisoblanadi. O‘zgaralar bilan muomalaga kirishganda qo‘llanuvchi turli xil birliklar mavjud. T.Kunixiro¹⁴⁷ to‘g‘ridan to‘g‘ri chaqirib murojaat qilish va qila olmasligiga nuqtayi nazardan “murojaat” va “atash” tushunchasini quyidagicha izohlaydi: “Murojaat birliklari deganda so‘zlovchi suhbatdoshga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqirib murojaat qilish vazifasini bajaruvchi so‘zlar tushuniladi. Atash birliklari deganda so‘zlovchi suhbatdoshga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqirib murojaat qilish funksiyasini bajarmaydigan so‘zlar tushuniladi.”

a お父さん, 新しい自転車を買ってくれない? (呼称語)

Dada, yangi mashina olib bermaysizmi? (murojaat birligi)

b お父さんは新しい自転車を買ってくれました。(他称)

Dadasi yangi mashina olib berdi. (3 shaxs oti)

c お父さんが新しい自転車を買ってあげよう。(自称)

Dadang yangi mashina olib beradi (1 shaxs oti)

Demak, yuqoridagi *a* misolda qarindoshlik nomini qo‘llab murojaat qilinyapti. *b* va *c* misollarda qarindoshlik atash birligi sifatida qo‘llanilmoqda.

O‘zbek va yapon tillaridagi murojaat birliklariga oid birinchi chog‘ishtirma tadqiqot 2019-yil M.Halnazarov tomonidan Tokio chet tillari universitetida amalga oshirildi. U qarindosh-urug‘lar o‘rtasidagi suhbatda suhbatdoshni to‘g‘ridan-to‘g‘ri chaqirganda hamda atash uchun qo‘llanuvchi turli birliklar mavjud bo‘lib, ular kishilik olmoshlari *sen, siz*, qavm-qarindoshlik nomlari 父[chichi] *dada* 祖母[sobo] *ena*, ism yoki erkalash nomlari Guli→Gulchehra kabi birliklar ekanligini ta’kidlagan¹⁴⁸.

¹⁴⁷ 国広哲弥 (1990) 「呼称の諸問題」『日本語学』明治書院 vol.9. – P.4-9.

¹⁴⁸ Halnazarov M. (2019) 「親族語を中心としたウズベク語の呼称について-日本語と対照的観点から-」博士学位論文、東京外国語大学. – P.16.

Ammo bu ishda asosan qo‘llanuviga e‘tibor berilib, o‘zbek tilidagi qismida Chinoz aholisi shevasi asosida tahlil olib boriladi.

Avvalgi faslda izohli lug‘atlar asosida tahlil qilindi. Lug‘at umumiylik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bilim va tafakkurning individual va shaxsiy unsurlarini o‘zida aks ettirmaydi, konsept strukturani tavsiflashda yetarli bo‘lmaydi. Shu bois ushbu faslda qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarning qo‘llanilish va murojaat maydonlarini tadqiqida Yaponiya milliy tilshunoslik institutining BCCWJ korpusidagi misollarga murojaat qilinadi.

Yuqoridagi tahlillarda keltirganidek ko‘p yapon tadqiqotlarida 1,2,3-shaxs deb emas, balki 自称詞[jishōshi] so‘zlovchi, 対称詞[taishōshi] tinglovchi va 他称詞[tashōshi] 3-shaxsni ko‘rsatuvchi shaxs otlari tarzida qo‘llaydilar. Tadqiqotchilar murojaat birliklarini alohida tarzda yoki boshqa tillar bilan qiyosiy tahlil nuqtayi nazardan, hurmat kategoriyasi hamda statistik nuqtayi nazardan tadqiq qilishgan. (T.Suzuki 1973, T.Kunixiro 1990, 三輪 2005, 2010, O.Takafumi 2015) Qadimdan yaponlarda shaxsga ismini aytib murojaat qilish hurmatsizlik sanalgan. Bu madaniyat uydagi munosabatlarda ham o‘z aksini topgan. O.Takafumi ¹⁴⁹ avvalgi tadqiqotlarda muhim jihatlarga e‘tibor berilmaganligini aytadi. Bulardan biri masalan murojaat shakllari mustahkam bo‘lmay, vaziyatga qarab o‘zgaruvchan bo‘lishidir. Er-xotin munosabatlarini oladigan bo‘lsak hamisha ham bir xil shaxs otlari qo‘llanavermaydi. Yaponlarda uyda bola tug‘ilishi bilan uyda oila a‘zolarini atash va murojaat shakllari o‘zgaradi. Er-xotin ikkisi bo‘lganda xotin eriga「まーくん」[Ma-kun] ismga erkalash-kichraytirish qo‘shimchasini qo‘shish orqali, qaynona-qaynotaning oldida「まさるさん」[Masarusan] ismga ~さん suffiksini qo‘shib aytish orqali, bolalarining oldida「お父さん」[otōsan] *dadasi* deya murojaat qiladi, xotin do‘stlarining oldida erini「だんな」[danna] *erim* deb ataydi. Yapon tilida bir kishiga oid murojaat shaklining bu tarzda o‘zgarishi odatiy holatdir. Bunda turli mavqedagi shaxslar bilan muomala-munosabatga kirishganda bitta qarindoshlikni anglatuvchi murojaat birligining turlicha so‘zga o‘zgarishini kuzatish mumkin. Tashqi munosabatlardagi vaziyatlardan tashqari, shaxsning ichki psixologik-emotsional holatiga qarab ham


¹⁴⁹緒方隆文 (2015)「呼称のカテゴリー分析:自称詞・対称詞・他称詞」筑紫女学園大学・筑紫女学園大学短期大学部紀要 – P.1-2.

murojaat birliklari o'zgaradi. Masalan, bolaga murojaat qilganda odatda 「たっくん」[Takkun] ismni qisqartirib ismga erkalash-kichraytirish qo'shimchasi ~くん[kun] ni qo'shish orqali, jahli chiqqan paytda to'liq ismni aytib「たかし」[Takashi] tarzida, bolaga nasihat qilib ukalariga o'rnak bo'lishi kerakligini uqtirib tarbiyalayotgan paytda「お兄ちゃん」[oniichan] *akasi* tarzida hurmatni anglatuvchi ~お prefiksi va shaxs otlaridan keyin qo'shiluvchi ~ちゃん[chan] kichraytirish erkalash suffiks morfemasini qo'shish orqali emotsional holatga qarab murojaat shakli o'zgarib boradi. Avvalgi tadqiqotlarda bu kabi vaziyatlar hisobga olinmay, hatto sharhlanmagan. O.Takafumi¹⁵⁰ murojaat birliklari chizmasi (呼称マップ) tushunchasini kiritib, uni 自称詞マップ – *so'zlovchini ifodalovchi shaxs otlari* chizmasi, 対称詞マップ – *tinglovchini ifodalovchi shaxs otlari* chizmasi va 他称詞マップ – *3-shaxs otlari chizmasiga* ajratadi. Quyidagi 2 chizma bog'liqlikka egaligini va qarindoshlik munosabatlari, so'zlovchi bilan munosabatga qarab belgilanib, katta-kichik munosabati so'zlovchi (tinglovchi yoki 3-shaxs)ning o'rnini ko'rsatadi.

2.7-jadval

Murojaat birliklari chizmasi

So'zlovchini ko'rsatuvchi shaxs oti Tinglovchi ko'rsatuvchi shaxs oti



Demak, chizmadan shuni tushunish mumkinki, so'zlovchi o'zidan yoshi kattalarga o'zini kishilik olmoshlari orqali atab gapiradi, yoshi kichiklarga nisbatan o'zini qarindoshlik nomlari bilan ataydi.

¹⁵⁰ 緒方隆文 (2015) 「呼称のカテゴリー分析：自称詞・対称詞・他称詞」筑紫女学園大学 – P.3.

Suhbatdoshga murojaat qilganda esa agar u o‘zidan yoshi katta bo‘lsa, qarindoshlik nomlari ishlatiladi, kichik bo‘lsa ismi bilan murojaat qilinib qarindoshlik nomlari ishlatilmaydi¹⁵¹. Shuning uchun qarindosh-urug‘chilikka oid birliklar ko‘pincha kishilik olmoshlari bilan birga yoki kishilik olmoshlari sifatida tadqiq qilingan. Yuqori o‘rinlarda qilinganidek, qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarni qo‘llaganda so‘zlovchi har doim ham o‘zini mezon sifatida olmaydi, har doim ham so‘zlovchining fokusidan gap ketayotgan shaxs olinib unga nom berilmaydi. Tinglovchining fokusidan olinishi yoki so‘zlovchi va tinglovchidan boshqa suhbat chog‘ida tilga olinayotgan 3 shaxsning fokusidan olib ishlatilishi mumkin. Demak, so‘zlovchi avval kimning fokusidan yondashishni belgilaydi. Keyin shu fokus nuqtasiga asoslanib aynan qaysi qarindosh-urug‘chilik nomi (ifoda shakli) ni tanlaydi. Ushbu faslda fokus nazariyasi asosida birliklar tahlili olib boriladi.

Yapon tilida qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarning nominativ shakli va murojaat birligi shakli bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, so‘zlovchi o‘zining qarindoshlari haqida gapirganda qo‘llanuvchi birlik o‘zga begona shaxsning qarindoshi haqida gapirganda qo‘llanuvchi birlik shaklidan tubdan farq qiladi. Buning sababi yuqorida keltirganidek, yaponlarning o‘ziga xos 内 [uchi] 外[soto] an‘anasi, hamda so‘zlovchiga nisbatan hurmatni ifodalanishidir. Quyidagi jadvalda ushbu farqni ko‘rish mumkin.

2.8-jadval

Qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarni atash va murojaat shaklidagi farqlari

Qarindoshlik nomi	O‘z qarindoshlari haqida gapirganda	O‘zganing qarindoshlari haqida gapirganda
ota	父 [chichi]	お父さん [otōsan]
ona	母 [haha]	お母さん [okaasan]
aka	兄 [ani]	お兄さん [oniisan]
opa	姉 [ane]	お姉さん [oneesan]

¹⁵¹ 緒方隆文 (2015)「呼称のカテゴリー分析：自称詞・対称詞・他称詞」筑紫女学園大学 – P.4.

Qarindoshlik nomi	O‘z qarindoshlari haqida gapirganda	O‘zganing qarindoshlari haqida gapirganda
uka	弟 [otōto]	弟さん [otōtosan]
singil	妹 [imōto]	妹さん [imōtosan]
bobo	祖父 [sofu]	おじいさん [ojiisan]
buvi	祖母 [sobo]	おばあさん [obaasan]
Amaki/tog‘a	叔父/伯父 [oji]	おじさん [ojisan]
Xola/amma	叔母/伯母 [oba]	おばさん [obasan]
er	夫 [otto]	ご主人 [goshujin]
xotin	妻 [tsuma]	奥さん [okusan]
o‘g‘il	息子 [musuko]	息子さん [musukosan]
qiz	娘 [musume]	お嬢さん [ojōsan]

Ushbu jadvalda ko‘rinib turganidek o‘zining va o‘zganing qarindoshlarini ko‘rsatishda deyarli bir xil o‘zak morfemadan foydalaniladi. O‘zga shaxsning qarindoshlarini ifodalashda o‘zak morfema oldiga hurmat ifodalovchi お~ [o] ご~ [go] old morfemalari va ~さん [san] suffiks morfemasi qo‘shiladi. Ba‘zan esa so‘z butunlay almashadi: お嬢さん, 奥さん, ご主人, おじいさん kabi. Masalan, o‘zining qizi haqida: お休みで娘が帰ってきました。[Oyasumi de **musume** ga kaette kimashita] *Dam olish kuni bo‘lgani uchun **qizim** qaytib keldi.*

Boshliqning qizi haqida gapirganda qarindoshlik nomi butunlay o‘zgaradi:

そこには、貿易会社の社長のお嬢さんが待っていました。[sokoniwa, bōeki kaisha no shachyō no **ojōsan** ga matte imashita] *U yerda savdo firmasi boshlig‘ining **qizi** kutib turgandi.*

Birinchi gapda uyning ichidan turib o‘zining fokusidan qarab gapirilayotgan bo‘lsa, ikkinchi gapda tashqari fokusidan yondashayotgani uchun お嬢さん [ojōsan] qo‘llanmoqda.

2010-yilda oʻtkazilgan tadqiqotda ota-onaga murojaat qilganda eng koʻp qoʻllanuvchi birliklar お父さん[otōsan] *dada* お母さん[okaasan] *oyi* boʻlib, 58% ni tashkil qilgan, keyingi oʻrinda esa パパ[papa], ママ[mama] qoʻllanishi aniqlangan(28%), bundan tashqari, おやじ[oyaji], おふくろ[ofukuro] kabi birliklar ham qoʻllanilish doirasi keng soʻzlar ekanligi aniqlangan (X.Nozomi 2010, Y.Ozaki 2018)¹⁵². 2006-yilda professor Yorifuji tomonidan Xonshū orolida 488 ta respondentlar orasida oʻtkazilgan anketa soʻrovnomasi natijalari farzandli 70% ayol va 60% erkak er-xotinlar bir-birlariga uydagi rollari orqali お父さん[otōsan] *dada* お母さん[okaasan] *oyi* kabi murojaat qilishlari aniqlangan. Shuning uchun ham bolalari bilan suhbat chogʻida hamda 3-shaxsga oʻzi haqida gapirganda shunga mos ravishda ota-onalar oʻzlarini お父さん[otōsan] *dada*, お母さん[okaasan] *oyi* deb ataydilar¹⁵³. Bunday murojaat esa ota va onaga oʻziga yarasha masʼuliyat yuklaydi. Erkakning oʻz ayolini お母さん[okaasan] *oyisi* deyishi yapon jamiyatiga juda xos boʻlib, bunda erkakni bir umr ayol gʻamxoʻrligi oʻrab turishini anglatadi. お母さん[okaasan] *oyisi* birligining uyda oʻz xotiniga ishlatilishida bolalar tarbiyasi uchun hamda erining badastir yashashi uchun javobgar masʼuliyatli shaxs tushuniladi. Oʻz navbatida お父さん[otōsan] *dada* birligi zamirida kuchli moliyaviy qaramlikni, turmush oila mustahkamligining garovi sifatidagi erkakning uydagi roli tushuniladi.

Oʻz xotinini カチャン[kachan] *ona* deb chaqirib murojaat qilinishi, eng kichik farzand nuqtayi nazardan qoʻllanishi sanaladi. Yapon tilidagi qarindoshlik terminlarini tadqiq qilgan T.Suzuki avval qarindosh-urugʻchilik nomlarini oʻz nuqtayi nazardan (egotsentrik) qoʻllanuvchi birliklar deb koʻrsatgan. U uy anʼanasi markaziy oʻrinda boʻlgan davrlarda maʼlum uyning eng kichik oʻgʻli yoki qizi katta oʻgʻilning farzandlari tomonidan オジ[oji] (amaki, togʻa) オバ[oba] (xola, amma) deb murojaat qilinishi, soʻzlovchi oʻzini nuqtayi nazarni katta oʻgʻilning bolalari (hali tugʻilmagan boʻlsa ham) bilan teng qoʻyib, shu nuqtadan oldidagi qarindoshiga オジ[oji] (amaki, togʻa) オバ[oba] (xola,

¹⁵² 平松希望 (2010)「一人称と家族呼称-日本語人称代名詞の現在を日本語教育実践へ取り入れる-」- P.75-76.

¹⁵³ 寄藤昂(2006)家族内における両親の自称・相互呼称における非対称性—アンケート調査の結果から—日本語ジェンダー学会誌6号. - P.14-15.

amma) deb murojaat qiladi deb hisoblagan¹⁵⁴. T.Suzuki 対称詞 [taishōshi] (*address terms*)ning kishilik olmoshi kabi qoʻllanishini alohida koʻrsatadi. Bola onasidan jahli chiqqanda masalan, ingliz tilida *I hate you*, oʻzbek tilida *men **sizni** yomon koʻraman* deb kishilik olmoshini qoʻllasa, yapon tilida 母なんて嫌いよ [haha nante kirai yo] ***ona** yomon koʻraman* tarzida qarindosh-urugʻchilikni anglatuvchi birlikdan foydalaniladi.

Shu munosabat bilan T.Suzuki quyidagi xulosalarni beradi:

1. Yapon tilida soʻzlovchi oʻzidan yoshi katta qarindoshlari (yuqori qatlam)ga kishilik olmoshlarini qoʻllab murojaat qila olmaydi. Kishilik olmoshlari bilan atab gapirilmaydi. Masalan, oʻz otasiga あなた [anata] (sen, siz) deyishi noodatiy boʻlib, この本あなたの? [Kono hon **anatano**?]

*bu kitob **siznikimi**?* deb boʻlmaydi. (Bu oʻrinda この本はお父さんの *bu kitob **otamnikimi*** tarzida qoʻllaydi). Soʻzlovchi oʻzidan yoshi kichik qarindoshlari (quyi qatlam)ga nisbatan kishilik olmoshlari bilan murojaat qila oladi.

2. Yapon tilida soʻzlovchi oʻzidan yoshi katta qarindoshlari (yuqori qatlam)ga qarindosh-urugʻchilikka oid birliklarni qoʻllab murojaat qiladi: Oʻzining onasini お母さん [okaasan] ***ona**, oyijon* deb atab, bobosiga お祖父さんのひげは長いね [**ojiisanno** hige va nagaine] ***bobo soqollaringiz uzun a?*** deb murojaat qiladi. Ammo oʻzbek tilidan farqli ravishda yapon tilida soʻzlovchi oʻzidan yoshi kichik qarindoshlari (quyi qatlam) ga qavm-urugʻchilikka oid birliklarni qoʻllab murojaat qila olmaydi: Masalan, oʻz ukasiga おい弟 [oi otōto] *hoy uka* yoki 娘はどこに行くの? [musume va doko ni ikuno?] *qizim qayoqqa ketyapsan?* – deyolmaydi.

3. Soʻzlovchi oʻzidan yoshi kattalar(yuqori qatlam)ga ismini aytib toʻgʻridan- toʻgʻri murojaat qila olmaydi. Bunga nisbatan, soʻzlovchi oʻzidan yoshi kichiklar(quyi qatlam)ga ismini aytib murojaat qila oladi.

4. Soʻzlovchi oʻzidan yoshi kattalar(yuqori qatlam)ga oʻzining ismi bilan atab gapirishi mumkin, ammo oʻzidan yoshi kichiklar(quyi qatlam) ga bunday qilolmaydi. Masalan, qiz onasi bilan gaplashganda oʻzini *Ryoko* deb atab 『良子これ嫌いよ』 [Ryōko kore kirai yo] *Ryoko*

¹⁵⁴ 鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」東京:岩波書店 – P.158-178.

buni yoqtirmaydiku ishlatadi, ammo ona qiziga nisbatan o‘z ismini atab ishlata olmaydi.

5. So‘zlovchiga o‘zidan yoshi kichik qarindoshlari (yuqori qatlam) suhbatdosh bo‘lgan vaziyatda o‘zini suhbatdoshning pozitsiyasidan turib, uning nuqtayi nazar bilan qarindosh-urug‘chilik nomlarini qo‘llay oladi, biroq yoshi kichik suhbatdosh (quyi qatlam) bunday nuqtayi nazardan gapirolmaydi: masalan, aka ukasi bilan suhbatlashganda o‘zini 兄さん[niisan] *akang* deb atab ishlatadi, bunga nisbatan uka akasiga nisbatan o‘zini 弟ちゃん[tōchan] *ukangiz* deb ishlatolmaydi¹⁵⁵.

Yapon tilidan farqli ravishda, o‘zbek tilida bu vaziyatda yoshi kichik qarindoshning fokusidan ham yoshi katta qarindoshi fokusidan ham, qarindoshlik nomlari qo‘llanadi. *Bu ishni ukangizga ishonavering.* Bundan tashqari, o‘zbek tilida o‘zidan kichiklarga erkalatish yoki hurmat bilan murojaat etish shakli sifatida *akasi* ishlatiladi: **Akasi men bugun ishga chiqa olmaydiganga o‘xshayman.**

Shunday qilib, 父母[fubo] *ota,ona*, 祖父[sofu] *bobo*, 祖母[sobo] *buvi*, 兄姉[keishi] *aka,opa*, おじ[oji] *amaki yoki tog‘a*, おば[oba] *xola yoki amma* kabi tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar so‘zlovchining o‘zini ko‘rsatuvchi shaxs otlari 自称詞[jishōshi] (*terms of self*) bo‘la oladi. Biroq o‘zidan yoshi kichiklar(quyi qatlam) ni bildiruvchi 子[ko] *bola*, 孫[mago] *nabira*, 弟[otōto] *uka*, 妹[imōto] *singil*, 息子[musuko] *o‘g‘il*, 娘[musume] *qiz*, 甥[oi] *o‘g‘il bola jiyan*, 姪[mei] *qiz bola jiyan* kabi tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar so‘zlovchining o‘zini ko‘rsatuvchi shaxs otlari 自称詞[jishōshi] (*terms of self*) bo‘la olmaydi. Demak, yuqoridagi 1,2,3 qoidalar suhbatdoshni ko‘rsatuvchi shaxs otlari 対称詞[taishōshi] (*address terms*)ga tegishli bo‘lsa, 4,5 qoidalar 自称詞[jishōshi] (*terms of self*)ga tegishlidir. So‘zlovchini ko‘rsatuvchi shaxs otlarida ham, suhbatdoshni ko‘rsatuvchi shaxs otlarida ham yoshining katta yoki kichikligi juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qavm-qarindoshlik nomlari asosan yoshi kichiklik nuqtayi nazardan olib qo‘llanishini tushunish mumkin. So‘zlovchini ko‘rsatuvchi shaxs otlarida so‘zlovchining o‘zi yoshi katta bo‘lgan taqdirda, yoshi kichik suhbatdoshga nisbatan uning nuqtayi nazardan yondashib o‘zini 「お父さん」(*dada*) 「叔父さん」(*amaki*) 「兄さん」(*aka*) deb atab qavm-qarindoshlik nomlarini ishlata olar ekan.

¹⁵⁵ 鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」東京:岩波書店 – P.158-178.

O‘zbek tilida so‘zlovchi gapirayotganda o‘zini ko‘rsatish uchun *men* kishilik olmoshini, suhbatdoshini ko‘rsatish uchun *sen(siz)*ni qo‘llaydi. Ammo yapon tilida bu holat butunlay farq qiladi. T.Suzuki qarindoshlik nomlarining voqelanishini quyidagicha tushuntiradi. Masalan, hozirgi yapon tilida otaning uyda bolasi bilan gaplashayotgan paytda o‘zini *men* deb emas 「お父さん」 [otōsan]-*dadang* 「パパ」 [papa]-*otang* tarzida ishlatish holatlari ko‘p uchraydi:

お父さんの言うこと聞きなさい。[**Otōsan** no iu koto kikinasai] *Dadangni aytganiga quloq sol* tarzida bo‘ladi, 僕(または私)の言うことを聞きなさい。[**Boku**(watashi)no iu koto o kikinasai] *meni aytganimga quloq sol* deyilmaydi¹⁵⁶.

E’tiborli tomoni shundaki, 「お父さん」 [otōsan]-*dadang* 「パパ」 [papa]-*otang* tarzidagi qarindoshlik nomlari o‘zbek tiliga tarjimada egalik qo‘shimchasi (~ng, ~ngiz) bilan ifodalanmoqda, ammo aslida yapon tilida qarindoshlik nomlari hech qanday qo‘shimchasiz keladi. Qiyoslang: 「お父さん」 [otōsan]-*dada* あなたのお父さん [anata no otōsan] – *dadangiz*.

Jiyanlari kelgan paytda esa bu gal o‘zini おじさん *ojisan(amaki)* deb ataydi:

クリスマスに叔父さんが自転車をプレゼントしよう。¹⁵⁷

[kurisumasu ni **ojisanga** jitensha o puredzento shiyo]

Rojdestvoga amaking velosiped sovg‘a qiladi.

Yana bobo va buvilar nabiraga ishora qilib, o‘g‘li va keliniga nisbatan o‘zlarini 「お祖父さん」 [ojiisan] *bobong* 「お祖母さん」 [obaasan] *buving* deb atab gapiradilar:

おい、お祖父さんの肩を揉んでくれないか。

[oi, **ojiisan** no kata o monde kurenayka]

Hoy, bobongni yelkalarini uqalab qo‘ysang-chi.

Yuqoridagi misollarda o‘zining nuqtayi nazardan qaraganda eri (yoki o‘zi) bo‘lgan shaxsni bolaning nuqtayi nazar bilan qarab ifodalayapti. U o‘zi ishlatayotgan ota so‘zi nuqtasini bolaning ko‘rish fokusiga o‘zgartirmoqda.

¹⁵⁶鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」東京:岩波書店 – P.170.

¹⁵⁷鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」東京:岩波書店 – P.170.

Umuman yapon tilida jamiyatda murojaat birliklarini tanlashda yoshning katta kichikligiga e'tibor beriladi, jins hisobga olinadi, **o'ziniki va o'zga munosabati, yaqin uzoqlik munosabati, ijtimoiy mavqe jihatdan quyi va yuqori darajadagi munosabat, ijtimoiy mavqe, vaziyat (rasmiy yoki norasmiy)** kabi turli omillar hisobga olinadi. Bu kabi shart-sharoitlarni hisobga olishda so'zlovchi bilan suhbatdosh orasidagi "masofa" munosabat darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shunga qarab hurmat uslubi qo'llanishi yoki oddiy uslub ishlatilishi belgilanadi. T.Suzuki o'zining til va madaniyatga oid tadqiqotida qavm-qarindoshlikka oid murojaat birliklari yoshning katta yoki kichikligiga qarab ishlatilish qoidalarini belgilaydi va qavm-qarindoshlikdagi murojaat birliklariga oid qoidalar jamiyatdagi vaziyatlargacha ma'nosi va qo'llanuvchi kengayganligini ta'kidlaydi. Yapon tilida uyda onaning otaga(ya'ni xotin eriga) お父さん[otōsan], パパ[papa] *dada* deb murojaat qilishi kabi fokus ko'chishining aniq sababini izohlash birmuncha mushkul. Uning aytishicha, 父[chichi] 母[haha] kabi qavm-qarindoshlikka oid birliklar qavm-qarindoshlik terminlaridagi nisbiyligini yo'qotib atoqli ot vazifasida keladi. Bu qarindoshlar o'rtasidagi yuqori va quyi tabaqa munosabatlari bilan qarama-qarshi qo'yilib, o'zi hamda suhbatdoshni o'z ichiga oluvchi qarindoshlik tizimi ostida suhbat chog'ida uy yoki jamiyatdagi o'zaro bir-birining o'rni, mavqeyini tasdiqlash usulidir. Bir uyda yashovchi suhbatdosh oila a'zosini alohida individ sifatida ko'rmay, qavm-qarindoshlik deb nomlanuvchi tizimli iyerarxiyaga asoslanadi, "家[ie]-uy" da qanday mavqe, o'ringa ega shaxs ekanligi muhim unsur sifatidagi vazifani bajaradi. 祖父[sofu] *bobo*, 祖母[sobo] *buvi* 父[chichi] *ota* 母[haha] *ona* kabi har bir birliklar uchun umumiy bo'lgan 「家」[ie] – *uydagi* o'rni, mavqeyini tilda ifodalanishi sanaladi¹⁵⁸. Biz bu fikrga qo'shilamiz. Chunki yapon tilida so'zlovchi o'z otasi haqida bolasiga gapirganda yoki otasiga murojaat qilganda o'zining fokusidan qarab 「パパ」[papa] *dada* deb, yoki suhbatdoshi bo'lgan bola gap ketayotgan shaxsning nabirasi bo'lgani uchun uning fokusidan qarab 「お祖父さん」[ojiisan] *bobo* deb qo'llanadi va bunda tilga olinayotgan shaxsning uydagi mavqeyi, o'rni nazarda tutiladi.

¹⁵⁸ 鈴木孝夫 (1973) 「言葉と文化」 岩波書店. — P.158-178.

S.Kim T.Suzukining oykonim (grek.oikos – 家 uy) nazariyasi asosida oila a’zolari o’rtasidagi murojaat birliklari Yaponiyaning barcha davrlarida nafaqat hal qiluvchi omil, balki 家中心的 [ie chūshinteki] *uy markazda* bo’lgan til an’anasi bilan birga funksiyaga kirishib qo’llanilganini aytadi va quyidagi formulani keltiradi:

「地位・序列・年齢・子供」+「家中心的用法」→家内呼称

「Ijtimoiy mavqe, iyerarxiya, yosh, bola」+「Uy markaziy sifatda qo’llaniluv」→Uydagi murojaat birliklari¹⁵⁹

Demak, T.Suzuki keltirganidek, shaxs o’z fokusidan olib murojaat qilishi mumkin va bu egosentrik yondashuv sanaladi:

お母さん、お父さんは遅いね[okaasan, otousan va osoi ne] Oyijon, dadam kech qolyaptilar-a?

So’zlovchi qarindoshi bo’lmagan boshqa shaxsga murojaat qilayotganda uni o’ziga yaqin olib uning ijtimoiy vazifasi nuqtayi nazardan yondashsa bu allosentrik yondashuv sanaladi:

ママここにいらっしやい！¹⁶⁰[Mama koko ni irashshai] Oyisi bu yoqqa keling! (*ko’chada bolasini aylantirib yurgan ayolga nisbatan*)

Endi uyning eng kichik bolasi fokusidan yondashilgan tahlillar keltiriladi.

Uyda er xotiniga, ota-ona yoki qaynona qaynota qiziga yoki keliniga:

お母さん、幸子ちゃんの帽子はどこですか。¹⁶¹[Okaasan, Sachikochan no bōshi va doko desuka] Oyisi Sachikoning qalpog’i qayerda?

Ona katta o’g’liga:お兄ちゃんこれを忘れないように[Onichyan kore o wasurenai youni] *Akasi buni esingdan chiqarmagin.*

Ushbu misolda ona o’zining fokusidan qarab o’g’lim deb emas, shu bolaning uydagi roli aka bo’lganligi uchun *akasi* deya murojaat qilgan. Bu holat atash jarayonida ham kuzatiladi: お兄さんは強いね[Oniisan wa tsuyoi ne] akasi kuchli a?

¹⁵⁹ 金世朗 (2002) 「家族間の呼称表現における通時的的研究-子供中心的用法に着目して-」現代社会文化研究 №24. – P.284.

¹⁶⁰ 鈴木孝夫 (1998) 「言語文化学ノート」大修館書店. – P.199.

¹⁶¹ 鈴木孝夫 (1998) 「言語文化学ノート」大修館書店. – P.199.

Buvi eriga yoki o'g'liga murojaat qilganda o'z fokusini uydagi nabirasining fokusiga o'tkazadi:じいちゃん、夕飯ができたよ。[**Jiichan** yuhan ga dekita yo] **Bobosi** kechki ovqat tayyor.

Buvi o'g'liga:パパ、遅いよ[**Papa** osoi yo] **Dadasi**, kech qolib ketding a.

Qiz otasiga:お祖父さんはいつ帰りますか。[**Ojiisan** va itsu kaerimasuka] **Bobosi**, qachon qaytasiz?

Ona o'ziga ishora qilib bolaga: お母さんと絵本を見ましょう。[**Okaasan** to ehon o mimashō] **Oying** bilan rasmlı kitobni ko'rmaysanmi.

Quyidagi misolda esa ko'chadagi begona qizga qizim deb emas, opa deya murojaat qilingan. Ko'chada o'ynayotgan begona qizchaga:

お姉ちゃんどうして泣いていますか。おねちゃんの名前は？おじちゃんがお姉ちゃんのパパを捜そうか。[**Oneesan** va dōshite naite imasuka? **Onechan** no namae va? **Ojichan** ga onechan no papa o sagasoka?] **Opa** nega yig'layapti? **Qani** opaning ismi nima? **Amaking** dadangni qidirishga yordam bersinmi?

Bunda shu qizning uydagi eng kichik bolaning fokusidan, uning uydagi roli opa bo'lganligi uchun shunday murojaat shakli qo'llangan. Bundan tashqari, erkak qizning fokusidan o'zini amaki deb atagan. Aslida, bunda ham erkakning shu qizning uyining ichidagi fokusidan yondashuvi bo'lib, uy ichidan tashqaridagi begona erkak amaki hisoblangani uchun shunday qo'llanilgan.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, yapon tilida qarindosh-urug'chilikka oid murojaat birliklari uyda yashovchilarning uydagi roli, mavqeyi nuqtayi nazardan qo'llanar ekan. Begonalarga nisbatan qarindoshlik nomlari shu shaxsning uydagi mavqeyi hamda uyning eng kichik farzandi fokusidan qarab qo'llanilar ekan. T.Suzuki ushbu holatni 共感的同一化 (empathetic identification) - “*empatik tenglashtirish*” deb nomlab, so'zlovchi bolaning mavqeyiga o'zining mavqeyini tenglashtirmoqda deb izohlaydi ¹⁶². Empatiya – bu psixologiyada qo'llanuvchi atama bo'lib, u odamning o'zini boshqa shaxs o'rnida tasavvur qilish, boshqa birovning his-tuyg'ulari, istaklari, g'oyalari va harakatlarini refleks darajasida amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Suhbatdoshga nisbatan empatiyani ifodalash, uning nuqtayi nazaridan vaziyatni ko'rish, uning hissiy holatini

¹⁶² 鈴木孝夫(1998)「言語文化学ノート」大修館書店。 - P.199.

“tinglash” qobiliyatiga ega bo‘lishini anglatadi¹⁶³. To‘g‘ri bu o‘rinda empatik tenglashtirish holati kuzatilmoqda. Ammo yuqorida misollarda 2 ta makon: so‘zlovchi turgan makon va tinglovchi(yoki 3 shaxs) turgan makon mavjud bo‘lib, so‘zlovchi o‘zi turgan joyini empatik ravishda tinglovchi(yoki 3 shaxs) turgan joyga ko‘chirmoqda. Bundan tashqari, bu vaziyatda nafaqat joy, balki so‘zlovchining fokusi ham boshqa shaxsning ko‘rish nigohiga ko‘chmoqda. Demak, yuqoridagi holatda so‘zlovchi bola (tinglovchi yoki boshqa 3 shaxs) turgan makondagi joyga hissiy yaqinlashib, shu joydan turib bolaning nigohi bilan qavm-qarindoshlik birligini atash va to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun qo‘llamoqda.

Yapon tilida ertaklarida doimiy takrorlanuvchi boshlanish so‘zlari mavjud bo‘lib, bu o‘zbek tilida “*Qadim-qadimda chol bilan kampir yashagan ekan*” tarzida yangrasa, yapon tilida 「昔むかし、ある所に、おじいさんとおばあさんが住んでいました。...」[mukashi, mukashi, aru tokoroni **ojiisan** to **obaasan** ga sunde imashita.] *Qadim-qadimda bir joyda bobo bilan buvi yashagan ekan* tarzida yangrab, qarindoshlikka oid birlik qo‘llanadi. Bu ertaklarda bobo bilan buvi kambag‘al va farzandsiz bo‘lishiga qaramay, juda mehribon va oqko‘ngil insonlar sifatida gavdalantiriladi. Bunda ertaklarning deyarli ko‘pida ularning farzandi bo‘lmasligi va hatto bir oila emasligi holati ko‘rsatiladi. Ammo shunga qaramay ular おじいさん、おばあさん **bobo**, **buvi** deb ataladi va ular bir-birlarini shu tarzda chaqiradilar. Bu kabi qo‘llanuvda uydagi bola murojaat mezoni bo‘lmayapti. Bunda chol kampirning bir uyda birga hayot kechirishi tushuniladi. Ularning shu uydagi yoshi va mavqeyi jihatdan shunday tarzda atab qo‘llaniladi. Demak, ertaklardagi bosh qahramonlar おじいさん、おばあさん **bobo** bilan **buvi** birligining qo‘llanuvida ham 家- uy asosiy mezon sanaladi. Bundan tashqari, ertaklar bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchi bolaning fokusidan yondashiladi. Ertakni o‘qiyotgan bolaning fokusidan qaraganda bir uyda birga hayot kechiruvchi chol va kampir bola uchun おじいさん、おばあさん **bobo**, **buvi** sanaladi. Bunda hikoya qilib berayotgan boshqa joydagi shaxsning fokusi ham mavjudligi kuzatiladi. Aslida, bu o‘rinda ham hikoya qilayotgan shaxs o‘z fokusini o‘quvchi

¹⁶³Рахимова И.И., Рустамова М. “Эмпатия” атамаси ва унинг ўсмирлик давридаги хусусиятларини тушуниш.// Eurasian journal of law, finance and applied sciences. Volume 3, Issue 1. Innovative academy research support center. January 2023. — P.174.

bolaning fokusiga ko‘chirgan, vaziyatga yosh bolalarning fokusidan yondashilayotganini ko‘rish mumkin. Bundan T.Suzukining fokus ko‘chishi nazariyasi asosli ekanligi anglashiladi. Demak, ertaklarda qavm-qarindoshlik birliklari 3 ta fokusdan yondashib qo‘llanadi. Bunda qarindoshlarning bir uyda yashashi (bir oila bo‘lmasa ham) asosiy mezon bo‘lib, uy, o‘quvchi, hikoya qiluvchi nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘linadi.

Yapon tilida 母[haha] ona so‘zining semantik modellari va “家[ie]-uy” bilan bog‘liqligi

Ona obrazi ko‘p xalqlar ko‘z o‘ngida sodda, mehribon va g‘amxo‘r inson sifatidagi timsolda gavdalanadi. Ona hayot va muhabbat davomchisi, bolasiga bor mehrini berib g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxsdir. Ona va bola ittifoqi bir-biridan ajralmas jamiyatning kichkinagina bo‘g‘inidir. Rus tadqiqotchisi A.D.Palkin rus va yaponlarning til manzarasida ona obrazini assotsiativ maydonini qiyosiy o‘rganib chiqadi. U yaponlarda eng avvalo, ona deganda mehribon inson obrazi gavdalanishini ta’kidlaydi. Bu esa yapon madaniyatida ona an’anaviy uydagi barcha yumushlarni va bola tarbiyasini butunlay o‘z zimmasiga olishi bilan izohlanadi. A.D.Palkin yana yaponlarda ona o‘z farzandini o‘rab turgan iliqlik, mehr va samimiyat kabi tushunchalar bilan ham assotsiatsiylanishini ko‘rsatgan. Yaponlar ona deganda unga bog‘liq hissiyotlardan ko‘ra, onaning sifatiga e’tibor qaratadilar. A.D.Palkinning yaponlar orasida o‘tkazgan tadqiqotida Ona bilan uyning bog‘liqligi reaksiyasi kuchli bo‘lib, ona uy o‘chog‘ini asrovchi, uy xo‘jaligini yurituvchisi deb tushuniladi. Yaponlar ongida ona ko‘krak suti bilan boquvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi boshqa xalqlarda kam uchraydigan qiziqarli holatligini ta’kidlagan¹⁶⁴.

“Ona” (mother)ning ma’nosiga oid J.Lakoffning kognitiv-semantik nuqtayi nazardan qilgan tadqiqoti bor. U “Ona” (mother)ni ma’nosiga qarab tug‘ish modeli, tarbiya modeli, nikoh modeli hamda uy bekasi sifatidagi stereotiplar yig‘indisi “Ona”ning timsolini

¹⁶⁴ Палкин А. Д. Образ матери в языковой картине мира русских и японцев. // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2020. Т. 18, № 1. – С. 71–83.

yaratishini aytadi¹⁶⁵. Shu qatorda u “ona” ning ma’nolarini sharhlashda onalik stereotipi, ona ruhiy bosimga ko‘nikishiga oid stereotiplarini ham belgilash zarurati borligini ko‘rsatadi. Bunday holat yapon tilidagi 母[haha] **ona** ma’nolarida ham kuzatiladi. Yapon tilidagi 母[haha] **onaning** izohli lug‘atda 2 ta ma’nosi berilgan. 1. Ota-onaning ichida ayol jinsidagi kishi, bola tug‘ib, tarbiyalovchi ayol. O‘z onasi, asrab olgan ona, o‘gay ona. 2.Narsa-hodisalarni keltirib chiqaruvchi (tug‘diruvchi) asos¹⁶⁶

J.Lakoff¹⁶⁷ “mother”- ona konseptini tashkil qiluvchi modelni quyidagicha keltiradi:

1. Tug‘ish(dunyoga keltirish) modeli: ona insonga hayot bag‘ishlab tug‘gan, dunyoga keltirgan shaxs sifatida;

私はね、「人間は 1 人で生まれて 1 人で死んでいく」なんておこがましいと思うんです。だって、母親がいないと産まれないの。新生児は自分では寝返りも打てないし、排泄物も垂れ流し。[Watashi wa ne, ningen wa hitori de umarete hitori de shinde iku nante okogamashī to omoundesu. Datte, **hahaoya** ga inai to umarenai no. Shinseiji wa jibunde wa negaeri mo utenaishi, haisetsu-mono mo tarenagashi.] Men “Odam bir o‘zi tug‘iladi va yolg‘iz o‘zi o‘ladi” degan fikrni ahmoqona deb o‘ylayman. Axir ona bo‘lmasa tug‘ilib bo‘lmaydi-ku. Yangi chaqaloq bir o‘zi yordamsiz ag‘darila olmaydi ham.

2. Genetik model:genetik materialni yuzaga keltiradigan ayol jinsiga ega shaxs ona; 彼女は母親とそっくりだ。[Kanojyo va hahaoya to sokkurida.] U onasiga ikki tomchi suvdek o‘xshaydi.

3.Tarbiya modeli: bolaga g‘amxo‘rlik qilib, uni tarbiyalab o‘stirgan ayol bolaning onasi;

私はペア・カウン、10歳の女子です。孤児院に住んでいます。私はお母さんが誰なのか知りません。でも私には育ての母親がいます。このお母さんと一緒に暮らしてきて、私には心から安らぐことがきました。お母さんはすべての子供たちに安らぎを与えてくれます。¹⁶⁸

¹⁶⁵ Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987. – P.74-75.

¹⁶⁶ 松村 明 (2023)「国語辞書デジタル大辞泉」小学館 <https://dictionary.goo.ne.jp/jn/>

¹⁶⁷ Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987. – P.74-75.

¹⁶⁸ <http://kruosarikriey.web.infoseek.co.jp/firstlettersjp.html>

[Watashi va Pea Kaun 10 saino jyoshi desu. Kojiin ni sunde imasu. Watashi va okasanga darenanoka shirimasen. Demo watasi niva **sodateno hahaoyaga** imasu. Kono okaasan to issyoni kurashite kite, watashiniva kokoro kara yasuragugi koto ga kimashita. Okasan va subeteno kodomo tachini yasuragi o ataete kuremasu.] *Men Pea Kaun 10 yoshli qizman. Mehribonlik uyida yashayman. Men onam kimligini bilmayman. Ammo mening **boqqan onam** bor. Shu onam bilan yashab qalban xotirjamlikni his qildim. Ona har bir bolaga xotirjamlik beradi.*

育児で母親が家にいるのは理想的なこと。¹⁶⁹[Ikuji de **hahaoyaga** uchini iru no va risona koto] *Bola tarbiyasida **onaning** uyda bo‘lishi ayni muddao.*

4.Nikoh modeli: otaning xotini ona sanaladi;

父親と母親が、夫と妻が争っている。子どもたちが苦しんでいるのも無理はない。¹⁷⁰ [Chichi to **haha** ga, otto to tsumaga arasotte iru. Kodomotachi ga kurushinde irunomo muri va nai] *Ota-**ona**, er-xotin janjallashyapti. Bolalar bundan azoblanayotganiga e’tibor ham berishmayapti.*

5.Shajaraviy model: oilaning yaqin 1-avlodi ona sanaladi.

今日お迎え最後だったね。でもママ気にしないで。トンボと遊んだよ。僕と仲よしだって知ってた？ 母親が働いている孫の言葉です。¹⁷¹ [Kyo va omukae saigo dattane. Demo mama kini shinaide. Tonbo to asondayo. Bokuto nakayokushi date shitteta? **Hahaoyaga** hataraite iru mago no kotoba desu.] *“Bugungi kutib olishimiz oxirgisi bo‘ldi-ya. Ammo oyijon xavotir olmang Tonbo bilan o‘ynayman. Men bilan yaqin do‘st bo‘lib qolganini bilganmidingiz?” **Onasi** ishlaydigan nabiraning gaplari edi.*

J.Lakoffning fikricha yuqoridagi modellarning yig‘indisi “Ona” konseptini tashkil qiladi. Yanada batafsil sharhlanadigan bo‘lsa, quyidagilar “Ona”ning reprezentativ konseptini yaratadi:...Ona qaysiki hamisha ayol jinsiga ega bo‘ladi, farzandga hayot bag‘ishlab tug‘gan inson, shu farzand uning uchun jigargo‘shasi(tanasining yarmi), bolasiga genlarini o‘tkazuvchi shaxs, unga g‘amxo‘rlik qilib

¹⁶⁹<http://www.city.sendai.jp/kenkou/kodomo/sukoyaka3/3-3.html>

¹⁷⁰http://japan-lifeissues.net/writers/ron/ron_13commandsfrien-ja.html

¹⁷¹<http://tsukubawabecorpus.jp/headword/n.00690/#SS58>

tarbiyalovchi, otasiga turmushga chiqqan ayol, ona bu o‘zidan bir avlod katta shaxs hamda bolaning qonuniy vasiysi hisoblanadi¹⁷².

O‘zbek oilalarida ona uy yumushlari va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ayol sifatida gavdalanadi. Ya’ni uy bekasi-ona-stereotipi shaklidagi reprezentativ tushuncha kuchli. Yapon tilida ham xuddi shunday timsoldagi tushuncha mavjud. Biroq uy yumushlari va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi shaxs doim ham ayol kishi bo‘ladimi? Bu 21 asr uchun o‘rinli savol. N.Yamada yuqoridagi modellar bilan gey onani tushuntirib bo‘lmasligini ta’kidlaydi¹⁷³. Chunki tarbiya modelida ayol jinsli shaxs bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishi nazarda tutilgan. Shuning uchun ham N.Yamada bu modelni *ayol kishi yoki ayol kishi rolini bajaruvchi shaxs bola tarbiyalaydi...* tarzida aniqlik kiritilib, to‘g‘rilanishi kerakligini ta’kidlaydi¹⁷⁴. Bu fikr bugungi kunda jinsni o‘zgartirish, besoqolbozlik kabi tushunchalar mavjud jamiyat uchun ancha asosli. 6.Transgender ona modeli: Y.Banananing “キッチンKitchen”(“Oshxona”) nomli qissasida bosh qahramonlardan biri *Yuichining* onasi *Eriko* jinsini o‘zgartirgan transgender ayol tarzida tasvirlangan bo‘lib, u xotining o‘limidan so‘ng yosh yetim qolgan o‘g‘liga ona mehrini berish uchun ko‘rinishi va jinsini o‘zgartirgan. Asarda u juda go‘zal ayol va mehribon ona tarzida gavdalandirilgan. *Yuichi* uni ona sifatida qabul qiladi, buni *Yuichi* va *Mikagening* quyidagi dialogida tushunish mumkin:

Yuichi:「みかげさん、うちの母親ビビった？」

Mikage:「うんあんまりきれいなんだもの」

Yuichi:「だって、整形してるんだもの」

Mikage:「顔の作りが全然にてないと思ったわ。」

Yuichi:「しかもさあ、わかった。あの人男なんだよ。」

Mikage:「母親って、母親って言っていったじゃない。」

Yuichi:「実際君ならあれを父さんって呼べる？」¹⁷⁵

Yuichi: *Mikage bizning onamizni ko‘rdingmi?*

Mikage: *Ha, juda go‘zal ekanlar-a.*

Yuichi: *Ko‘rinishlarini o‘zgartirganlari uchun-da.*

¹⁷²Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987. — P.76.

¹⁷³山田伸明（1992）「母の意味とメタファー」国際関係学部紀要, 1992. — P.110.

¹⁷⁴O‘sha manba — P.110.

¹⁷⁵吉本ばなな(2002)「キッチン」新湖文庫. — P.20-21.

Mikage: Yuz tuzilishlaridan hech undayga o'xshamaydi?

Yuichi: Ha shunday ammo, sezdingmi? U aslida erkak kishi.

Mikage: Oyi, Oyi deb chaqirayotgandingku.

Yuichi: O'zi sen bo'lganingda bu holda dada deb chaqirarding-a?

Yuichi transgender onasini aslida otasi bo'lsa-da, uni 母親-[hahaoya] ona deb atayapti. Demak, yuqoridagi misoldan ayonki, transgender ona modelini kiritilishi asosli bo'ladi.

7.Mehr ulashish modeli: Lakoffning modeli va stereotiplarida hissiy emotsional ma'nolarni umuman qamrab olmagan. Masalan, o'zbeklarda onalik tushunchasi mavjud bo'lib, u hissiyot bilan bog'liq. *Onalarcha mehribon, onalarcha g'amxo'r, mushtipar ona* kabi hissiy bo'yoqdagi ona timsolini ifodalovchi birikmalar mavjud.

To'satdan vujudini qamragan onalik mehri g'olib kelib tortgan azobi ham esidan chiqdi. (P.Tursun "O'qituvchi")¹⁷⁶ Ko'pgina Yevropa tilshunoslari onalik deb ataluvchi jihatga urg'u beriluvchi onaning ma'nosi o'zida ijtimoiy-psixologik mazmunni mujassamlashtirishini ta'kidlaydilar. Demak, onalik tuyg'usi mehr ulashish modelini kiritishni taqozo etadi:

現代の育児システムは基本的に、母親の実態ではなく、母性神話のうえに成り立っている。母親は子どもに尽くし、やさしく接するのがあたりまえ、それができない母親は母性を欠いている、母親として失格、さらには人格破綻者として烙印を押されかねない。しかしすべての母親が子育てに向いているとはかぎらない。¹⁷⁷[Gendai no ikuji shisutemu wa kihontekini, **hahaoya** no jittai devanaku, **bosei** shinwa no ue ni naritatte iru. Hahaoya wa kodomo ni tsukushi, yasashiku sessuru noga atarimae, sore ga dekinai **hahaoya** wa bosei o kaite iru, hahaoya to shite shikkaku, sarani wa jinkaku hatan-sha to shite rakuin o osare kanenai. Shikashi subete no **hahaoya** ga kosodate ni muite iru to wa kagiranai.] *Zamonaviy farzand tarbiyasi tizimi asosan onalarning real holatiga emas, onalik miqlarining ustiga qurilgandir. Ona bolasiga bor kuchini berib, mehribonlik qilishi tabiiy hol, shuni qilolmagan onada onalik yetishmaydi, onalikka noloyiq, xonavayron shaxs sifatidagi tamg'a bosilishi mumkin. Ammo hamma onalar ham bola tarbiyasiga yaraydi deb bo'lmaydi.*

¹⁷⁶O'zbek tilining izohli lug'ati. T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – P.126.

¹⁷⁷ <http://tsukubawabecorpus.jp/headword/n.00296/#SS59>

なぜ**母親**との関係を思い出すことが大事かという、**母の愛**は「無償の愛」であり、母の愛を通じて「無償の愛」とはどういうものかがわかるからです。「無償の愛」とはすなわち、神の心です。(中丸薫著『闇の世界権力をくつがえす日本人の力』, 2004, 304)[Naze **hahaoya** to no kankei o omoidasu koto ga daiji ka to iu to, **haha no ai** va mushō no ai deari, haha no ai o tsūjite mushō no ai to wa dō iu mono ka ga wakarukaradesu. Mushō no ai to wa sunawachi,-shin no kokorodesu.] *Nega ona bilan munosabatlarimizni yodda tutish zarur, chunki **onaning mehri** “beminnat mehr” bo‘lib, bu mehr orqali “beminnat mehr” nima ekanligini tushuna olamiz. “Beminnat mehr” ya’ni tangrining qalbidir.*

8. Himoya qilish modeli: Onaning ma’nosi ijtimoiy-psixologik mazmunni mujassamlashtirishi uning kuchli shaxs ekanligida, farzandini har qanday xavf-xatardan himoyalay olishida namoyon bo‘ladi.女は弱しされど母は強し¹⁷⁸[Onna va yowashi saredo **haha** va tsuyoshi] *Ayol zaif bo‘lsa-da, **ona** kuchli.*

Ushbu yapon maqoli orqali onalik mehri tufayli bolasini har qanday xavf-xatardan himoya qilishga qodir ona haqida gap borayotganligini anglash mumkin.

女性には母性があつて一般的には子供を守ろうとする**母性**はすごいです。[jyosei niva bosei ga atte ippanteki niva kodomo o mamorou to suru bosei va sugoi desu.] *Ayollarda onalik hissi mavjudligi, umuman bolasini himoyalashga tayyor **onalik** hissi tahsinga sazovor.* Quyida bu modellarning metaforik qo‘llanishi ko‘riladi.

Tug‘ish (dunyoga keltirish) modeli

Tug‘ish modeliga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, “母[haha] **Ona**” ning metaforik birlik sifatida namoyon bo‘lishini 「必要は発明の母」 (zaruriyat kashfiyotning **onasi**) maqolida kuzatish mumkin. Bunda kashfiyot zarurat talab qilgandagina yuzaga keluvchi hodisa yoki zarurat kashfiyotning tug‘ilishiga sabab bo‘luvchi asos ekanligi tushuniladi. Bu vaziyatdagi “母- ona” “tug‘diruvchi asos”(yaratuvchi, dunyoga keltiruvchi) ma’nosini anglatadi. “母[haha]-ona”ning bu ma’noda qo‘llanishini 勤勉は成功の母なり。 *Tirishqoqlik muvaffaqiyatning **onasi**, **asosi**, 失敗は成功の母 **omadsizlik muvaffaqiyatning onasi*** kabi misollarda ham uchratish mumkin.

¹⁷⁸ 鈴木 棠三 [新編](1992)「故事ことわざ辞典 ハードカバー」- P.1639.

Onani narsa va jonzotlarga o‘xshatish holatlarini ham uchratish mumkin. Ayolni 子産み機械[koumi kikai] *bola tug‘uvchi mashinaga*, 代理母[dairihaha] *surrogat onani* 人間保育機-*inkubator odamga qiyoslanishini ko‘rish mumkin.*¹⁷⁹

いま山は、ダム、リゾートや道路建設で破壊されており、また森林に市場価値がないとして放置され、荒れ果てている。産みの母としての山は、ほとんど忘れられている。古来、日本人の「いのち」の源は山にあったのだと、いまこそ思い起こさねばならない。[Ima yama wa, damu, rizōto ya dōro kensetsu de hakaisarete ori, mata shinrin ni ichiba kachi ga nai to shite hōchisare, arehatete iru. Umino haha to shite no yama wa, hotondo wasure rarete iru. Korai, nihonjin no inochi no minamoto wa yama ni atta noda to, ima koso omoiokosaneba naranai.] *Hozir tog‘ damba, dam olish maskanlari, yangi yo‘llar qurilishi sabab buzib tashlanib, o‘rmonlar bozor uchun ahamiyatsiz deb e‘tiborsizlik bilan butunlay buzib tashlandi. Tuqqan onam kabi aziz bo‘lgan tog‘im deyarli unutib yuborildi. Qadimda yaponlarning “hayoti” manbasi tog‘ bo‘lganini, aynan hozir yodga olmasa bo‘lmaydi.*

3. Genetik irsiy model

Irsiy modelga oid metaforik misollar sanoqli bo‘lsa-da, shunga yaqin deb sanash mumkin bo‘lgan 2 ta misolni ko‘rib chiqamiz:

まもなく、父は再婚をし、私にはもう一人母ができました。一方、産みの母とは不定期に顔を合わせていました。結論から行くと、私にとってみれば、次第にもう一人の母の方が母親に近い存在になりました。[Mamonaku, chichi wa saikon o shi, watashiniva mōhitori_haha ga dekimashita. Ippō, umino haha to wa futeiki ni kao o awasete imashita. Ketsuron kara iku to, watashi ni totte mireba, shidaini mōhitori no haha no kata ga hahaoya ni chikai sonzai ni narimashita.] *Tez orada otam qayta uylanib, men yana bir onali bo‘ldim. Vaqti vaqti bilan o‘z tuqqan onam bilan uchrashib turardim. Xullas, gapning indallosini aytsam, men uchun yangi onam onadek yaqin bo‘lib qoldi.*

3. Tarbiya modeli

Tarbiya modeli mamlakat yoki ma’lum bir hudud “母- ona”ga qiyoslangan vaziyatlarda yuzaga keladi. Masalan, 母国[bokoku] *ona Vatan*. Yapon tilida onani keng makon sifatidagi hududlarga qiyoslash ko‘p uchraydi. Masalan, 母なる大地。[Haha naru daichi] *Ona zamin*. 母

¹⁷⁹ 山田伸明(1992)「母の意味とメタファー」国際関係学部紀要。 – P.113.

川[bosen]-*ona daryo*, 母国 [bokoku] – *ona Vatan*, 母校 [bokō]– *ona maktab*, 基地[kichi]-*ustun, tayanch*, 池[ike]-*hovuz*, 故郷[kokyō]-*Vatan*. Ushbu misollarda bizni o‘rab turgan, voyaga yetkazgan ma’nosidagi tarbiya modeli nazarda tutiladi.

母親を安全の基地として探索活動も活発になる時期です。[Hahaoya o anzen no kichi to shite tansaku katsudō mo kappatsu ni naru jikidesu.] *Onalar xavfsizlik tayanchi sifatida qidiruv faoliyatida ham faol bo‘ladigan davrlar bo‘ldi.*

すでに五歳の長男は親離れし始めている。私の気持ち次第で、どうにでもなる私という池を抜け出し、一人で泳ぎ、バッシュと手応えのある水しぶきをかける。¹⁸⁰

[Sudeni go sai no chyonan va oya hanareshi hajimete iru. Watashi no kimochi shidaide, dounidemo naru watashi to iu **ike** o nukidashi, hitori de oyogi, bashyu to tegotae no aru midzu shibuki o kakeru.] *5 yoshli o‘g‘lim ota-onadan mustaqil bo‘la boshladi, bunga nisbatan meni holatim qanday bo‘lganda ham men(ona) deb atalgan hovuzdan uzoqlashib, bir o‘zi suvga sho‘ng‘ib shalp-shalp suzib yuribdi.*

Demak, Ona birligi ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, turli xildagi joy nomlari bilan kelib shu nomlarning o‘ziga qanchalik yaqin, mehribon ekanligini, o‘z onasidek tarbiyalovchi, voyaga yetkazuvchi sifatida uni o‘ziga yaqin tutish ma’noviy bo‘yoqlarini beradi.

4. Nikoh modeli

卒業式の日であった。家に帰ると新しい母が家の中にいた。[Sotsugyoshiki no hi de atta. Ie ni kaeruto atarashi **haha** ga ie ni ita.] *Bitiruv marosimi kuni edi. Uyga qaytsam yangi oyim uyning ichida edi.*

Nikoh modeliga aloqador metaforik misollar juda kam. N.Yamadaning fikricha, bu onaga aloqador ushbu modelni belgilash zarurati yo‘qligini anglatmaydi. Chunki tug‘ish modeli haqida gapirilganda bevosita nikoh modeliga duch kelinadi. Shuning uchun ham bu modelni kiritish zarur, aks holda 継母[keibo] -o‘gay ona ning mavjudligini tushuntirib bo‘lmay qoladi¹⁸¹. Demak, yuqoridagilardan 母[haha]-ona metaforik qo‘llanuvida ayniqsa asosiy e’tibor tug‘ish modeli va tarbiya modelida qaratilishini ko‘rish mumkin. Onani boshqa narsa va jonzotlarga o‘xshatilishiga oid misollarni ham anchagina ekanligi oydinlashdi. Endi ona bilan bog‘liq stereotiplar tahlil qilinadi.

¹⁸⁰ 山田伸明(1992)「母の意味とメタファー」国際関係学部紀要。－P.113.

¹⁸¹ 山田伸明(1992)「母の意味とメタファー」国際関係学部紀要。－P.113.

Onalik bilan bog‘liq stereotiplar.

N.Yamada J.Lakoff keltirgan stereotiplardan tashqari belgilanishi zarur bo‘lgan yana bir stereotip ruhiy bosim ostida sharoitga ko‘nikuvchi ayol stereotipidir deydi. Bunda asosan ayol kishi bosim ostidaligi nazarda tutilsa-da, bu holatda aynan onaning erkin emasligi, bo‘ysundirish ma’nolari nazarda tutilgan. Onaning bu ma’nosida *母 ona* uyda o‘tirib bola tarbiyasiga e’tibor berishi kerak degan g‘oyaga ko‘nikishini tushunish mumkin¹⁸². Ya’ni bu vaziyatda onalik tamoyili erkaklar ishlab chiqqan mafkura asosida olinayotganligini yaqqol tushunish mumkin. Bu holat ayniqsa hozirgi islomiy davlatlarda odatiy holat sifatida qabul qilinadi. Ammo Yevropalik tadqiqotchilar ayol kishini bosim ostidagi jabrdiyda sifatida ta’kidlasalar-da, boshqalar buni ijobiy ma’noda tushunish kerakligini aytishadi. N.Yamadaning bu yondashuvi gender tengligi, ayolning jamiyatda o‘z o‘rniga ega ekanligi, ayol va erkak oilada teng ravishda boquvchi hisoblanuvchi bugungi Yaponiya jamiyati uchun ancha eskirgan. Yaponlarda ham uy an’ana va odatlariga qat’iy rioya qilinib, eski uy tizimi qoidalariga amal qiluvchi xonadonlar borligini rad etish mushkul. Bu kabi uylarda ona, ayol ma’lum tarzda erkinligi cheklangandek his qilish holatlari mavjud bo‘lsa-da, umumiy miqdorda olganda juda ozchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun bu o‘rinda bugungi yapon jamiyatida farzand dunyoga keltirib, ham bola tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ham ishlovchi ayol-onalari yetakchilik qiladi. Yaponiyaning Asahi gazetasining 2022-yil avgust sonida yaponlarda “ona sifatida odatiy hol” deb sanaluvchi mezonlari haddan ortiqchiligi chet elliklar tomonidan ta’kidlangan. Yaponiyada talab qilinadigan “Yaxshi ona” darajasi haddan ortiq yuqori bo‘lib, ovqatni o‘zlari tayyorlashlari, bolani ona suti bilan boqishlari talab qilinadi. Bola tarbiyasi va uy ishlari umuman uy bilan tashqaridagi hayotga hurmat bilan yondashib, to‘g‘ri amal qilishlari kerak. Tarbiya modeli bilan uy bekasi stereotipiga e’tibor qaratilsa, unda uy ishlarini qilish, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanish uchun uyga bog‘langan ayol ona sifatida olinayotganini tushunish mumkin¹⁸³. Quyida N.Yamada va J.Lakoffda keltirilmagan stereotiplar haqida tahlillar keltiriladi.

¹⁸² 山田伸明(1992)「母の意味とメタファー」国際関係学部紀要。- P.111-112.

¹⁸³ Абдухамидова Д.А. Япон тилида *母-хаха(она)* сўзи ва унинг семантик моделлари. // Илм сарчашмалари: илмий-назарий, методик журнал. Урганч давлат университети, 2021. – Б.138.

Aslida tarbiya modeli asosida onani nafaqat bolani tarbiyalab voyaga yetkazishi, balki unga ta'lim berilishi ham nazarda tutilishi kerak. Yaponlarda onaning bolasi bilan shug'ullanishi, ta'lim berishi masalasi stereotipga aylanib ulgurgan. Yaponiyada ijtimoiy hodisaga aylangan 教育ママ[kyōiku mama]- **ta'lim onasi stereotipi** farzandining ta'lim olishiga qattiq e'tibor beradigan shijoatli onalarni anglatadi. N.Xalmurzayeva *kyōiku mama* zamonaviy yapon jamiyatidagi stereotip shaxs bo'lib, bolasini tinimsiz ijtimoiy va jismoniy taraqqiyoti hamda hissiy farovonligi hisobiga o'qishga majbur qiladigan onani bildirishini yozadi¹⁸⁴. Dastlab 教育ママ – ta'lim onasi ijobiy ma'noda qo'llanuvchi ibora sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, bolaning doimiy ravishda bosim ostida ekanligi, bolada maktabdan qo'rqish-maktab fobiyasi paydo bo'lishiga hamda haddan ortiq stressga tushgan yoshlarning o'z joniga qasd qilish holatlarining oshishi jamiyatda ta'lim onalariga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirgan:なんでも許すことはいわば、放任教育。逆に干渉しすぎたら、まるで教育ママ。(安奈泉著 『1 ヶ月以内に「いいこと」がたくさん降ってくる法則』, 2005, 159)[Nan demo yurusu koto wa iwaba, hōnin kyōiku. Gyaku ni kanshō shi sugitara, marude kyōiku mama.] *Hamma narsaga ruxsat berish bu erkin ta'limdir. Aksincha haddan ortiq aralashaverish ta'lim onalari kabidir.* Demak, 教育ママ – ta'lim onasi ham ijobiy ham salbiy ma'noda qo'llanuvchi stereotipdir.

Ona bolasini qattiq sevib, uni baxtiga umid qiladigan, unga yaxshilik tilovchi inson sifatidagi timsol deyarli barcha xalqlarda keng tarqalgan konseptdir. Yaponlarda ham ona farzandining baxti va kamoli uchun doimo duodagi shaxs sanaladi. **Ona duo qiluvchi stereotipini** ham kiritilishi maqsadga muvofiq:

「さあ、お行きなさい。母はあなたのためにいつでも祈っています」クサヴェラを信仰の道に導き、祈りの心を植えつけてくれたのは、この母でした。(STV ラジオ編『ほっかいどう百年物語』, 2003, 281)[Sā, o iki nasai. Haha wa anata no tame ni itsu demo inotte imasu kusavuera o shinkō no michi ni michibiki, inori no kokoro o ue tsukete kureta no wa, kono hahadeshita] *Olg'a. Onang sen uchun doimo duoda bo'ladi. Kusaverani iymon yo'liga yetaklagan, qalbiga duo tuyg'usini singdirgan ham shu ona edi.*

¹⁸⁴ Халмурзаева Н.Т. Японияда таълим тарбия масалаларидаги стереотиплар. // Японшунослар халқаро форуми. Илмий тўплам. Т., 2021. – Б.303.

Yaponlarda ham ona uydagi ro‘zg‘orni yurituvchi eng muhim shaxsdir. Yaponiyaning liberal demokratik partiyasining “Xotin-qizlar huquqlari nizom” ning bir qismida onani “光-Yorug‘lik”ka o‘xshatilishi buning yaqqol misolidir:

婦人は母として民族の伝承者であり、家庭のかなめであり光である。[Fujin va haha tosite minzokuno desyosya de ari, kateino kaname deari hikari dearu.] *Ayol ona sifatida millatning merosxo‘ri bo‘lib, uyning negizini tashkil qiluvchi yorug‘likdir.*

Ushbu misolda ona uyning asos negizini tashkil qilib turuvchi nur-yorug‘likka qiyoslanyapti. Demak, uy asosi yorug‘ligi ona, u bo‘lmasa yorug‘lik yo‘qolib uy qorong‘i maskanga aylanadi degan ma‘noni anglash mumkin, ona bo‘lmasa jamiyatda tug‘ilish bo‘lmaydi, millat davom etmaydi. Onalikni gavdalantiruvchi 母[haha] –ona so‘zi umum qabul qilish oson tushuncha bo‘lib, uy a‘zolarini bir-biriga bog‘lab turuvchi asosiy o‘zak hisoblanadi. Shuning uchun **ona uydagi iliqlik, mehr-muhabbat manbai** stereotipi ham kiritilishi zarur. Bugungi yapon jamiyatida keng qo‘llanilayotgan va tez-tez quloqqa chalinadigan so‘z birikmasi 母の味[haha no aji], おふくろの味[ofukuro no aji] birliklari bo‘lib “onaning ta‘mi” ma‘nosini anglatadi. Yaponlar ona obrazida ozuqa beruvchi, o‘z qo‘li bilan mehrini qo‘shib tayyorlagan shirin taomi bilan farzandini to‘ydiruvchi shaxsni tasavvur qiladilar. Albatta bu shaxs tafakkurida uyda oshxonada onasi tayyorlagan ovqatning isi kelishi bilan assotsiatsiyalanib, uyda bir stol atrofida oila a‘zolarining shu shirin taom vaji bilan yig‘ilib birga ovqatlanishi sahnasi gavdalanadi.

母が作ってくれるからこそ、母の味なのだ。[haha ga tsukutte kureru karakoso, haha no aji da] Onam pishirib bergani uchun ham onaning ta‘mi mujassam.

Hatto Yaponiyada ovqatlanish joylari, restoranlarning reklama e‘lon taxtachalarida おふくろの味[ofukuro no aji] iborasi yozib qo‘yilib ko‘pchilikni mazali taomga e‘tiborini qaratmoqchi bo‘ladilar. Shu orqali odamlar tafakkurida shu yerda mazali taom borligi, shu yerdagi taomlar xuddi uyda onasi tayyorlagan taom kabi totli ekanligiga urg‘u beriladi. 母[haha] ona”ning ma‘nosiga qarab tug‘ish, tarbiyalash, nikoh, mehr ulashish, himoya modellari hamda uy bekasi, onalik, duo qiluvchi, ta‘lim onasi, uydagi iliqlik, mehr-muhabbat manbai stereotiplari

yig'indisi "ona"ning representativ timsolini yaratadi. Yapon tilida uy bekasi-ona-stereotipi shaklidagi representativ tushuncha kuchli.

Yapon tilida onani keng makon sifatidagi hududlarga qiyoslanadi. Bunda insonni o'rab turgan, voyaga yetkazgan kabi tarbiya modeli nazarda tutiladi, "kindik qoni to'kilgan muqaddas makon" ma'nosi ona orqali ifodalanadi. Demak, ona so'zi ko'chma ma'noda qo'llanib, turli joy nomlari bilan kelib, shu yerning o'ziga qanchalik yaqin, mehribon ekanligini, o'z onasidek tarbiyalovchi sifatida uni "o'ziga yaqin tutish" singari ifodalarini beradi. Ishda onaning metaforik ma'nolari ko'rib chiqilib, ona tug'ish va tarbiya mashinasi, tug'diruvchi asos, tayanch, hovuz, uyning negizini tashkil qiluvchi yorug'lik kabi xilma xil narsa va hodisalarga qiyoslanishi aniqlandi. Yapon tilida ona uyning yorug'ligiga qiyoslanib, bir uyning asos negizini tashkil qiladi. Ona uy a'zolarini bir-biriga bog'lab turuvchi asosiy o'zak hisoblanadi.

Tarbiya modeli bilan uy bekasi stereotiplarida uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga ko'nikkan ayol g'amxo'r ona sifatida olinayotganini tushunish mumkin. Onalik stereotipidan tashqari, yangi ona uydagi iliqlik manbai stereotipi tafakkurda uydagi iliq muhit bilan chambarchas bog'liq. Ana shunday an'anaviy ayol 母 [haha]-ona obrazi bilan "家[jie]-uy" chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi.

QARINDOSH URUG‘CHILIK BILAN BOG‘LIQ BIRLIKLARDA “家[IE]-UY” NING KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI

“家[ie]-uy” konseptining leksik sathda voqelanishi

Kognitiv tilshunoslik til tahlilini ma’lum bir konseptni turli lug‘atlar, konsept mujassamlashgan maqol, matal, frazeologik iboralar tahlili asosida to‘ldirib boradi. Aynan mazkur bobda ko‘rib chiqiladigan maqollar hamda so‘z birikmalar, shu millatning etnomadaniy jamiyatiga xos bo‘lgan konseptning ma’nosini va shu jamiyat a’zolari uchun uning ahamiyatini to‘liq anglashga yordam beradi.

Uy-inson tug‘ilib o‘sgan makon, shaxs sifatida shakllangan joy. “Uy” konsepti eng avvalo, inson qarindoshlari va yaqinlari timsolidagi mikrodunyo ko‘rinishida idrok qilinadigan kichik vatan bilan assotsiyatsiyanadi. Keyin esa shu asosida makrodunyo ko‘rinishida Vatan tushuniladi. Bu haqida D.S.Lixachyov shunday yozadi: “Insonning o‘z qadrdon o‘lkasiga muhabbati, o‘z madaniyati, o‘z qishlog‘i yoki shahri, o‘z tiliga mehr-muhabbati kichik narsalardan- o‘z oilasiga mehri, yashash uyiga muhabbati va maktabini qadrlashidan boshlanadi. Mana shu yaqinlariga mehr-muhabbat asta-sekin kengayib, o‘z yurtiga uning tarixiga, buguni va ertasiga, keyinchalik esa butun insoniyatga, madaniy qadriyatlarga muhabbat tuyg‘usini shakllanishida yetakchi omil bo‘ladi.”¹⁸⁵ Uy insonni qarindoshlari, oilasi, Vatani, millati bilan bog‘lovchi rishtadir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “uy”ning 5 ta ma’nosi berilgan. Bular: 1. Yashash uchun yoki turli tashkilot yoki muassasa joylashishi uchun mo‘ljallangan bino; 2. Yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi har bir xona; 3. Biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa; 4. Biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer; 5. Oila, xonadon sifatida ta’rif berilgan¹⁸⁶.

Yaponlarning an’anaviy “家[ie]-uy”i o‘z ichiga uy-ro‘zg‘or buyumlari, yer, uy (bino) va uy xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorligini qamrab

¹⁸⁵ Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка//Изв.АН.Серия литературы и языка. – М.,1993. – Т.52. №1. – С.39.

¹⁸⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2020 – B.271.

olgan edi¹⁸⁷. “家[ie]-uy” boshlig‘i oilaning yoshi katta erkagi, katta o‘g‘il hisoblanib, uy boshlig‘i nafaqagacha ba’zida o‘limiga qadar uyni boshqargan va o‘zidan keyin munosib avlodni o‘rnida qoldirgan. Yapon jamiyatida “家[ie]-uy” konsepti murakkab tuzilma bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Uy – uy egasi va oiladan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Yaponiya Fuqarolik Kodeksiga muvofiq, bitta ro‘yxatga olish kitobchasiga bitta uy ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Uy egasi uyning boshlig‘i, xo‘jayini sifatida ijtimoiy mavqega ega shaxs bo‘lib, uyning ro‘yxatga olish kitobchasida eng boshida uy asoschisi sifatida kiritiladi va uyning boshlig‘i sifatida mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oladi.

家[ie] iyeroglifi “tom ma’nosini bildiruvchi ⇨ belgisi hamda uni tagida og‘zini oldinga chiqarib turgan to‘ng‘iz ko‘rinishidagi jonzotga o‘xshatib olingan belgidan hosil bo‘lgan bo‘lib, ya’ni shu kabi tirik jonzotni qurbonlik qilinadigan muqaddas joy ma’nosini anglatgan, shu orqali 家[ie] iyeroglifi paydo bo‘lgan”- deya iyerogliflar etimologik lug‘atida ta’rif beriladi¹⁸⁸. 家[ie] oila hayot kechirish makoni bo‘lib, an’anaviy jamiyat tizimga ega birligi sifatida qarindoshlar guruhini nazarda tutadi. いへ[ie]ning kelib chiqishi「へ」「へつい」so‘ziga borib taqaladi, ya’ni「かまど」o‘choq ma’nosini anglatgan so‘zdan kelib chiqib, olovni birga qilib yashovchi guruhni bildirgan, bundan tashqari いへ[ie]dagi い uxlamoq「寝る」va へ eshik「戸」ni bildirib uxlash joyini anglatgan degan qarashlar ham mavjud¹⁸⁹. Yapon tilining izohli lug‘atida 家[ie] iyeroglifining 5 xil o‘qilishi mavjud. Bular: カ[ka] – xitoycha ケ[ke] istisno tarzida o‘qilishi va yaponcha o‘qilishi いえ[ie], や[ya], うち[uchi] kabilardir. 家[ie]ning izohli lug‘atda quyidagi ma’nolari keltirilgan:

1. Inson yashashi uchun mo‘ljallangan bino. Yashash joyi, uy.
2. Inson o‘zi yashayotgan bino uyi, o‘z uyi.
3. Er-xotin, ota-ona va farzandlar, aka-uka kabi yaqin qondoshlik aloqalariga ega kishilarning birgalikda hayot kechiruvchi kichik jamoasi.

¹⁸⁷ Campbell R. Changing ideas about family care for the elderly in Japan. // Journal of Cross-Cultural Gerontology. Kluwer academic publishers, 1993. – P. 119-135.

¹⁸⁸ 岡島昭浩 (2012)「漢字、漢和辞典」大阪大学 – P.268.

¹⁸⁹ 「ブリタニカ国際大百科事典 小項目事典」 (2023) [Elektron manba]

<https://kotobank.jp/word/%E5%AE%B6-29803>

4. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qondoshlik sifatidagi tuzilma, ularning an’anaviy obro‘si va mulki. Urug‘. Familiya.

5. a) Oilaviy jamoaning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi. Oilaning kelib chiqish tabaqasi, nasl nasabi, ijtimoiy mavqeyi, martabasi. b) Zodagon, asilzoda. v) Merosxo‘r, voris. 「家を継ぐ」- Uy vorisi.

6. Fuqarolik Kodeksida belgilangan uy tizimiga ko‘ra, uy xo‘jayinining umumiy boshqaruvi asosida oilani ro‘yxatga olish kitobchasidagi bir oila tarkibiga kiruvchi qarindoshlar guruhi.

7. Xotin, rafiq ma‘nosida.

8. Buddizm rohibi yashaydigan uy. ¹⁹⁰

Yuqoridagilar “家[ie]-uy” so‘zining o‘z ma‘nolari bo‘lib, u “bino”, “yashash joyi”, “oila”, “oilaviy guruh”ni, “biror urug‘ tegishlilik”ni, “merosxo‘r”, “ijtimoiy mavqe” kabi ma‘nolarni anglatishi ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, “家[ie]-uy” ko‘chma ma‘nolarda ham qo‘llanadi. Yaponiya milliy tilshunoslik institutining BCCWJ korpusida 家 iyeroglifi [uchi] o‘qilishida berilgan, bu so‘zga oid 69562 so‘z birikmasi uchraydi. Shundan eng ko‘pi uyga harakatni ifodalovchi 家に birikmasiga keltirilgan (12090 misol).

Yapon tadqiqotchisi H.Minashima “家[ie] ning 7 ta prototip va ko‘chma ma‘nolarini keltirgan ¹⁹¹. Quyida ushbu ma‘nolar ko‘rib chiqiladi.

1. Prototip bosh ma‘no “家屋 [kaoku]-uy” “Inson kundalik yashashi uchun, ayniqsa oila istiqomat qilishi uchun mo‘ljallangan bino”.

現在土地を購入し、家を建てているところです。[Genzai tochi o kōnyū shi, ie o tatete iru tokorodesu] *Hozir yer sotib olib uy qurmoqdaman.*

傾斜したところでは条件を十分に利用して家を建てる。[Keisha shita tokorode wa jōken o jūbun ni riyō shite **uchi** o tateru.] *Sharoitlardan to‘liq foydalanib qiyalikda uy quraman.*

2. “家庭 Uy-joy” Shaxsning yoki oilaning kundalik hayot kechirishi uchun mo‘ljallangan asosiy makon, uy-hovli: 長期入院している患者さんの中に、全く帰るイエがない人がいる。(皆島,p.47) [Chōki nyūin

¹⁹⁰ 松村 明 (2023) 「国語辞書デジタル大辞泉」小学館
<https://dictionary.goo.ne.jp/srch/jn/%E5%AE%B6/m1u/>

¹⁹¹ 皆島博 (2014) 「日英多義語の認知意味論的分析－「イエ」と“house”」// 福井大学教育地域科学部紀要。－P. 46-48.

shite iru kanja-san no naka ni, mattaku kaeru Ie ga nai hito ga iru] *Uzoq muddatdan beri davolanayotgan bemorlar ichida butunlay qaytishga uyi yo‘qlari ham bor.*

3. Hosila ma’no: “家族 oila” “Bir uyda yashab, birgalikda hayot kechiruvchi er-xotin, ota-ona va farzandlar, aka-uka kabi yaqin qondoshlik aloqalariga ega kishilarning kichik jamoasi”

うちの家は厳しくって許してもらえる範囲が狭いんです。[uchi no ie va kibishikutte yurushite moraeru hani ga semaindesu.] Bizning **uydagilar juda qattiqqo‘l, ruxsat olish imkoni deyarli yo‘q.**

4. Hosila ma’no: “家制度 Uy tizimi” “Eski fuqarolik kodeksiga ko‘ra uy boshlig‘ining qarindoshlari(uy xo‘jayini va oila)dan tashkil topgan oila sifatida uy daftoriga ro‘yxatga kiritilgan kishilar jamoasi”

明治民法の家制度によってきめられた結婚が中産階層以上のまともな結婚であり、「家」の存続のために仲人が家柄にふさわしい相手を紹介して見合いをさせるというプロセスがあった。(小松満貴子編著『ジェンダー・セクシュアリティ・制度』, 2003, 367)[Meiji minpō no ie seido ni yotte kimerareta kekkon ga chūsan kaisō ijiyō no matomona kekkondeari, ie no sonzoku no tame ni nakoudo ga iegara ni fusawashī aite o shōkai shite miai o sa seru to iu puroseshu ga atta.] *Meyji davri fuqarolik kodeksining Uy tizimiga asoslangan nikoh o‘rta va yuqori sinf vakillariga tegishli bo‘lib, “Uy” shajarasini davom etishi uchun sovchi uy kelib chiqish nasliga mos nomzodni topish, tanishuv uchrashuvini uyushtirish kabi jarayonlardan iborat edi.*

5. Hosila ma’no: “家督 oilaboshilik huquqi, merosxo‘r” “Uy tizimida avloddan avlodga o‘tib davom etib kelayotgan, uy xo‘jayini davom ettirishi kerak bo‘lgan martaba, huquq, majburiyat hamda shu oilaning mol-mulk, xususiy korxonasi kabilar yig‘indisi”:

「家を継ぎ、書院番についても兄は以前と変わりませんでした。でもある日、庭で木刀を振っている姿を見て、もしかしたら私は考えちがいをしているのでは、と思ったことがあるのです。(鈴木英治著『闇の剣』, 2002, 913) [Ie o tsugi, shoin-ban ni tsuite mo ani wa izen to kawarimasendeshita. Demo aru hi, niwa de bokutō o futte iru sugata o mite, moshika shitara watashi wa kangae chigai o shite iru node wa, to omotta koto ga aru nodesu.] *Uy vorisi bo‘lib, nashriyot uyida ishlayotgan bo‘lsa-da, akam hech o‘zgarmagan edi. Ammo bir kuni hovlida yog‘och qilichni o‘ynatayotganlarini ko‘rib ehtimol men adashayotgandirman deb o‘ylab qoldim.*

6. Hosila ma'no: “名家 mashhur nomdor uy” “avloddan avlodga o'tib davom etib kelayotgan, uzoq yillik an'analariga ega jamiyatdagi mavqeyi baland dovrug'i chiqqan oila” Zodagonlikni anglatuvchi, kelib chiqish zoti, nasli tozaligini bildiruvchi 家柄[iegara] ham uydagi shaxsga, oilaning a'zolariga ishora qiladi.

お夏は、孝太郎の子供達の素直な、そして自然なその礼儀作法、躾の良さを感じ取っていた。こんな家に生まれた母の血を引く自分を誇らしく思う。(加藤直著『雪原の夢』, 2003, 913)[O natsu wa, Kōtarō no kodomotachi no sunaona, soshite shizen'na sono reigi sahō, shitsuke no yo-sa o kanjitotte ita. Konna ie ni umareta haha no chiwohiku jibun o hokorashiku omou.] *Onatsu Kotaro bolalarining halol va odob-axloqli va tartib-intizomli ekanligini his qildi. Shunday xonadonda tug'ilgan onamning qoni tomirlarimda oqayotganidan faxrlanaman.*

7. Hosila ma'no: 家元 “oila shajarasi boshi” “avloddan avlodga bobokalonlardan nabiralargacha o'tib davom etib saqlanib kelayotgan hunarmandlik, biror hunarning ustasi bo'lgan uy-oila”

敬作はその寒村の百姓身分の家にうまれた。家は半農半商で、酒の小売りなどしていたらしい。(司馬遼太郎著『南伊予・西土佐の道』, 2005, 915)[Keisaku wa sono kanson no hyakushō mibun no ie ni umareta. Ie wa han'nō-han-shō de, sake no kouri nado shite itarashī.] *Keysaku sovuq qishloqda dehqon oilasida tug'ilgan. Oila yarim dehqon, yarim savdogar bo'lib, aftidan, sake savdosi bilan shug'ullangan.*

Yuqoridagi 1 dan 7 gacha bo'lgan ma'nolaridan ko'rinadiki 家[ie] ko'p ma'noli so'zdir. Bu ma'nolar o'rtasida ma'lum bog'liqlik bor. Shu bog'liqliklar haqida quyida keltiriladi.

① “家屋 Uy”→②“家庭 Uy-joy” metonimik ma'no kengayishi

家 [ie] “kishi yashashi uchun mo'ljallangan bino” bo'lishi bilan birga “er-xotin, ota-ona va farzandlar kabi yaqin qarindoshlik munosabatidagi kishilarning, oilaning birga uzoq hayot kechirish joyi” ma'nosiga ega tomoni ham bor. Mana shunday “oila hayotining tayanch punkti - joy” sifatidagi jihatiga e'tibor qaratilsa, bog'liqlik asosidagi metonimik ma'no kengayishi kuzatiladi. Uyni “yashashning tayanch punkti sifatida ko'ruvchi guruh - shaxs” jihatiga fokus qaratilsa bog'liqlik asosida metonimik ma'no ko'chishi bilan oila ifodalanmoqda. Bunday ma'no ko'chishi hodisalari frazeologik birliklar va maqollarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Quyida “家[ie]-uy” konsepti bilan bog‘liq so‘z birikmalari va frazeologizmlarda “家[ie]-uy” konseptining reprezentatsiyasi tahlil qilinadi. Avval “家[ie]-uy” konsepti bilan bog‘liq sinonimik birliklarni ko‘rib chiqiladi. 内 [uchi], 家屋 [kaoku], お宅[otaku], 家庭[katei], 一家 [ikka], 一戸 [ikko], 世帯[setai], 所帯[shotai], 内輪 [uchiva], 家内 [kanai], 戸[to] kabi leksemalar 家 uy” ning sinonimlari sanaladi. Shu birliklarga fe‘l yoki sifat qo‘shilishi natijasida so‘z birikmasi va iboralar yasalgan. 家庭[katei] 家 uy va uning ortidan 庭 “bog‘”, “hovli” ma’nosini beruvchi iyeroglifning qo‘shilishi natijasida yasalgan so‘z. Er-xotin, ota bola kabi qarindoshlik aloqasiga ega shaxslar birga yashovchi kichik guruh yoki ular birga yashaydigan joyni anglatadi. 家庭[katei] nutqda uy, oila o‘chog‘i haqida gapirganda qo‘llaniladi. 家庭[katei] farzandlar tarbiyalanadigan makondir 家庭教育[katei kyōiku] *uydagi tarbiya*, bejizga yaponlar 家庭環境は人間を創る[katei kankyo va ningen o tsukuru] “*Uydagi muhit insonni inson qiladi*” deb ta’kidlashmaydi.

家屋 [kaoku] inson yashashi uchun mo‘ljallangan joy. 家[ie], [uchi] o‘qilishidan tashqari [ya] o‘qilishiga ham ega bo‘lib, bunda “tom” ma’nosidagi ieroglif 屋 tarzida ham berilishi mumkin. 家/屋 [ya] ham yashash joyi uyni anglatadi. 家/屋 [ya] otga affiks morfema sifatida qo‘shilib ma’lum bir hunar yoki savdo bilan shug‘ullanuvchi kishilar guruhi yoki ularning uyi ma’nosini bildiradi: 菓子屋 [kashiya] *shirinlik savdo uyi kabi*.

“Uyga qaytmoq” ma’nosini beruvchi 家へ帰る iborasi [uchi e kaeru] tarzida yangraganda eng oddiy ma’noda ishdan, do‘kondan, sayrdan qaytmoq ma’nosini anglatadi. Ammo bu so‘z birikmasi [ie e kaeru] tarzida yangraganda o‘qish, ishlash uchun o‘z yurtidan chetga xorijga chiqib ketgan shaxsning o‘z uyiga (o‘z vataniga) qaytib kelishi yoki o‘z uyini tashlab chiqib ketgan erning uyga qaytishi kabi ma’nolar anglashiladi. Demak, 家 [uchi] keng ma’noda ona vatanni ham anglatadi. T.Gurevich¹⁹² 内 [uchi] ichkari 外 [soto] tashqari “o‘z-o‘zga” oppozitsiyasi shaxs atrofida kengayib borishini va maksimal darajada yaponlarga “o‘zinikilar” Yaponiya hisoblanishini yozadi. Bejizga yaponlar davlat so‘zini 国 mamlakat va 家 uy iyerogliflari bilan yoziluvchi 国家 [kokka] so‘zi bilan ifodalamaydilar. Chet el

¹⁹² Гуревич Т.М. Лингвокультурологический анализ концептосфера человек в японской языковой картине мира: Дисс. ... док. култ. – Москва, 2006. – С.102.

tushunchasi esa o‘zga begonani anglatuvchi 外tashqari iyeroglifining *mamlakat* so‘ziga qo‘shilishi natijasida 外国 [gaikoku] tarzida ifodalanadi.

世 “olam, davr, avlod” va 帯 “mintaqa” ma’nosini anglatuvchi iyeroglif morfemalari birikmasidan hosil bo‘lgan 世帯[setai] hamda 所 “joy” va 帯 “mintaqa” ma’nosini anglatuvchi iyeroglif morfemalari birikmasidan hosil bo‘lgan 所帯[shotai] so‘zlari *uy, uy xo‘jaligi* ma’nosini anglatadi. 家 [ie]ning sinonimlari 所帯, 世帯 bilan so‘z birikmalar yasaladi: 所帯を持つ *uy qilish, oila qurish*. 所帯[shotai] 世帯[setai] ga nisbatan qo‘llaniluv doirasi keng. Ammo 2 so‘zning qo‘llanuvida birmuncha farqlar bor. 所帯[shotai] da xo‘jalik yuritish ma’nosi ustunlik qiladi. 世帯[setai] hamda 所帯[shotai] so‘zlari alohida uy qilib chiqib, o‘z xo‘jaligini yuritishni hamda uy-joyi va moddiy hayoti birga bo‘lgan shaxslar yig‘indisini anglatadi. 世帯[setai] hamda 所帯[shotai] qarindosh bo‘lmagan yaqin munosabatdagi shaxslar guruhini ham anglatadi. Shu jihatdan bu so‘zlar o‘zbeklardagi *xonadon* tushunchasiga yaqindir. 内輪 [uchiwa] birligi ham 家内[kanai] ga yaqin ma’noda uyimdagilar, oiladagi yaqin insonlar davrasi ma’nosida qo‘llaniladi(外soto o‘zgalarga nisbatan, o‘z-o‘zga munosabati yaqqol ko‘zga tashlanadi). Demak, yapon tilida “*家 uy*” konsepti 内 [uchi], 家庭[katei], 一家 [ikka], 一戸 [ikko], 世帯[setai], 所帯[shotai], 内輪 [uchiva], 家内 [kanai] kabi leksemalar bilan reprezentatsiyalanadi.

Frazeologizm bu tuzilish jihatdan so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘lgan, umumlashib ma’no anglatadigan, leksik unsurlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan turg‘un birliklardir¹⁹³. O‘zbek tilida *oil qurmoq* ma’nosida *uy* so‘zi bilan *uy qilmoq, uyli bo‘lmoq, uylanmoq* kabi birikmalar keng qo‘llaniladi. Yapon tilida ham 家 uy iyeroglifi bilan *kamaeru* fe’li ishtirokida shu ma’nodagi birikmalar yasaladi: 一家 [ikka] uy iyeroglifi oldidan 一[ichi] bir raqami kelgan [ikka] so‘zi bir butun uyni, *butun bir oilaviy tizimni* anglatadi. 一家を構える[ikka o kamaeru] *uy qurmoq, uylanmoq*, 結婚して一家を構える [kekkonshite ikka o kamaeru] *to‘y qilib uylandim*. Yana uyning bir qismi 戸 eshik iyeroglifi orqali xuddi shu ma’no ifodalanadi: 一戸を構える[ikko o kamaeru] *bir eshik qurmoq - uylanmoq*. Bu birikmada

¹⁹³ Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т.,1991. – Б.210.

ma'no ko'chishining sinekdoxa usulini kuzatish mumkin: 一戸 [ikko] qism orqali 家 [ie] –uy butunning ifodalanishi. Xuddi shu ma'noda 一家を成す [ikka o nasu] *uyli bo'lmoq* birikmasi ham qo'llaniladi: 四十にして未だ家を成さない [yon jyū ni shite ima da ie o nasanai] *40 ga kirgan bo'lsa-da, hanuz bo'ydoq (uylanmagan)*. 家[ie] – uy butun sifatida geshtalt sanaladi. J.Lakoff oila, uy ijtimoiy uyushma sifatida qismlardan tashkil topgan butunlikni tashkil qilishini yozadi¹⁹⁴. Demak, yuqoridagi uylanish, oila qilish, turmush qurish ma'nosidagi iboralar 2 qism kelin va kuyovning bir ijtimoiy uyushmaga birlashishi natijasida butunlik bo'lgan 家[ie]-uyning hosil bo'lishi sifatida tushuniladi. Ularning ajrashishi esa butunlikning qismlarga bo'linib ketishi sifatida tushuniladi: Er-xotinlarning ajralishi haqida gapirganda 世帯を破った [setai o yabutta] “*Uyi buzildi*”, 所帯崩し [shotai kuzushi] “*Ajrashish, uyini buzish*” iboralarini qo'llaydilar. Bundan tashqari, 家を出る [ie o deru] yoki 家出する [iede suru] “*Oilasini tashlab uydan chiqib ketish*” ma'nosini butunning bo'linishini, ichkari fokusidan qaraganda tashqariga harakatni kuzatish mumkin.

Uy va ichkari iyerogliflari orqali yasalgan 家内[kanai] *xotin* ma'nosidan tashqari *uy ichi* hamda *oilani* ham anglatadi: *uydagilarni turli ko'ngilsizliklar, musibatlardan asra* ma'nosida 家内安全[kanai anzen] sintoizm urf-odatlariga ko'ra oila a'zolari, uyidagilar sog'lig'i, xavfsizligini tilovchi duo sifatida ham qo'llaniladi. Qadimda 家内安泰[kanai antai] ko'rinishida ifodalangan bo'lib, aslida bu ibora chuqur ma'noga ega. 家内 *uy, oila, xotinni* ifodalab ularning ortiqcha musibatlarsiz, tinch, xotirjam mustahkam kayfiyatda, hayotiy kuchga to'lib sog'lom yashayotganliklarini anglatadi. Bu iboraning antonimi sifatida *uydagi tartibsizlik, oila a'zolarining g'alayonini* anglatuvchi お家騒動 [o ie soudō] ni keltirish mumkin. Ushbu iboralarda aniq tushuncha bo'lgan “家[ie]-uy” orqali mavhum munosabatlar *oilalari, qarindoshlar guruhiga* ishora qilingan. Uyda oila yashashi jihatdan metonimiya asosida hosila ma'no yuzaga kelib, *uy* orqali qarindoshlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ifodalangan. Quyidagi frazeologizmda tashqari fokusidan yondashilib, er-xotinning uydagi munosabatlari

¹⁹⁴ Лакофф Дж. Женщина, огонь и опасные вещи: Что категории языка говорят нам о мышлении. I Пер. с англ. и. Б.Шатуновского. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С.357.

nazarda tutiladi: 内助の功[naijyo no kou] (soʻzma soʻz *ichkaridagi yordam samarasi*), *xotinning uydagi yordamining muvaffaqiyati* birikmasida er koʻchaga chiqib koʻngli xotirjam faoliyat yuritishi uchun xotin uyda uni qoʻllab-quvvatlasa, er muvaffaqiyatga erishadi degan mazmun yashiringan.

嫁に行く[yomeni iku] *turmushga chiqish* birligi soʻzma-soʻz *kelinlikka borish* tarzida ifodalanib, yapon tafakkurida kuzatuvchi uyning tashqarisidan turib shu fokusdan ichkariga harakatlanishni anglatadi, 嫁をとる[yome o toru] *kelin olish* birikmasida esa buning aksi kuzatuvchi uyning ichidagi fokusdan yondashayotganini kuzatish mumkin. “*Turmushga chiqmoq*” maʼnosini anglatuvchi 家に嫁ぐ[ie ni totsugu], 嫁入り[yomeiri] soʻzlarida ayol erkakning, kuyovning uyiga kirishi maʼno boʻyogʻi kuchli, faqat bu maʼno ushbu 2 soʻzda shakl jihatdan turlicha ifodalangan. 家に嫁ぐuy+ga +*turmushga chiqish* soʻzlari bilan 嫁入りkelin + *kirish* uyga kelin tushirish shaklidagi oʻziga xoslikka ega. Til egalari tafakkurida tashqaridan ichkariga harakatlanish tushunilib birikmalarda ichkari fokusidan yondashuvni kuzatish mumkin. Bu holat 婿入り[muko iri] *ichkuyov* birligida ham yaqqol koʻzga tashlanadi. Yaponiyaning 朝日新聞 Asahi gazetasi 2021-yil oʻtkazgan soʻrovnomasida 家に嫁ぐ[ie ni totsugu] birligi koʻp sonli aholi, ayniqsa ayollarda(67.2%) noqulaylik tugʻdiruvchi yoqimsiz soʻz sifatida koʻrsatilgan¹⁹⁵. Chunki bu birlik oʻzida eski uy sistemasiga bogʻliq stereotip tasavvurlar¹⁹⁶ni mujassamlashtirgan deb hisoblanadi.

¹⁹⁵ <https://www.asahi.com/opinion/forum/139/>

¹⁹⁶ 1898 yildagi Meyji Fuqarolik Kodeksi uyni tizim sifatida qabul qildi. Meyjining dastlabki davrida yaratilgan 戸籍[toseki] qarindoshlarni Uyga doimiy roʻyxatga qoʻyish tizimini tugatib, uy boshligʻi 戸主[toshu] ni xabarnomalar uchun masʼul shaxs qilish gʻoyasi tugʻildi. Muhokamalar chogʻida “Kaimei” guruhining baʼzi aʼzolari “Oilani roʻyxatga olish toʻgʻrisidagi qonun feodal davrda zarur boʻlgan boʻlishi mumkin, ammo bugungi siyosiy tizimda bu tizim ahamiyatini yoʻqotdi, undan hech qanday naf yoʻq” deya avloddan avlodga oʻtib shajaraviy davom etib kelayotgan, uyning oila aʼzolari roʻyxatga olingan Uy daftari 戸籍[toseki]ni bekor qilish tarafdori boʻlib chiqdilar. Bunga javoban hukumat vakillari “Oila boshligʻi uy uchun masʼul shaxs, keksalar va bolalarga gʻamxoʻrlik qiladi, oila odob-axloq meʼyorlarini asrovchi shaxs deb hisobladilar. Oila aʼzolari roʻyxatga olingan 戸籍[toseki] shu uy, uning aʼzolarini ijtimoiy mavqeyini belgilab beradi, shuning uchun uni bekor qilmaslik kerak” deb qarshi chiqdilar. Chunki 戸籍[toseki] ni shunchaki shaxsiy maʼlumotlarni roʻyxatga olish va notarial tasdiqlash tizimi emas” deb hisoblagandilar. Meydzi Fuqarolik Kodeksining uy tizimiga oid qismida Uy roʻyxat daftari 戸籍[toseki] tizimida uchrovchi oilaviy munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solinib, qonun bilan mustahkamlab qoʻyilgan. Ayol turmushga chiqqach, erining uyiga kiradi va qizlik familiyasidan voz kechib erining

O‘z uyidan chiqib erining uyiga kirish tasavvurida chuqur ma’no yashiringandi. Erining uy daftariga kirib, shu uyning an’analari-yu odatlariga amal qilishi, dinini o‘zgartirishi, shu uy davomchilari bo‘lgan voris farzandlarni dunyoga keltirishi, hatto shu uyning qabriga ko‘milishi kabi stereotip tasavvurlar ortida aslida ayolning erkinliklari cheklanishi bilan bog‘liq tafakkur yashiringandi.

1990-yillardan boshlab 嫁[yome] so‘zining qo‘llanishiga nisbatan noqulaylik his qilinishi haqida fikrlar bildiriladi. O‘zgalarga kelinini tanishtirganda 「これはうちの嫁」 [kore ga uchi no yome] *bu uyimizning kelinimiz* 「息子のお嫁さん」 [musuko no yomesan] *o‘g‘limning xotini* deyilishi turmushga chiqib, familiyasi o‘zgarib, shu uyning dini, kasb-kori, odatlari-yu an’analari, uy ro‘zg‘orini o‘rganishi, ko‘milganda ham shu uyning qabriga ko‘milishi kerak bo‘lgan ayolni anglatardi¹⁹⁷. Xuddi turmushga chiqqan uyiga butunlay singib ketib o‘z ota uyidan uzilib qolgandek tuyilishi bari uy tizimining o‘ziga xos ta’siri natijasidir va bu hanuz xalq tafakkurida sezilarli ta’sirga egaligini ko‘rsatadi. Ammo avvalgi dunyoqarashdan farqi endi yaponlar bu qarashlarni eskilik sarqiti deb qarar va bunga bog‘liq fikrlardan, uy tizimini eslatuvchi so‘z va birikmalardan noqulaylik his qilib boshlagandi.

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining uydan tashqaridagi jamoalarda qo‘llanishining o‘ziga xosligi

Ushbu faslda qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarning jamiyatda, jamoalarda qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi. Yapon jamiyati

uyidagi nomini oladi, ya’ni turmush o‘rtog‘ining familiyasiga o‘tadi. Tug‘ilgan farzand ham Otaning “Uydagi bolasi” sanaladi. Oilaning asosi endi hammasi uy bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq 1947 yildagi Kodeksga o‘zgartirishlar kiritilib, uy tizimi bekor qilinadi. Endi 戸籍 [toseki] butun bir shajara uchungina emas, balki yangi oila qurgan er-xotin ham alohida o‘zining 戸籍 [toseki] uy ro‘yxat daftarini ochishiga ruxsat beriladi. Lekin shunga qaramay, qonuniy jihatdan turmush qurgan ayol familiyasini o‘zgartirishi, kelin sifatida qabul qilinishi an’analari, xotin ishlashi uchun erining ruxsati zarurligi, moliyaviy boshqaruv erkakning qo‘lida bo‘lishi kabi odatlar saqlanib qoladi. Tizim bekor qilinganiga qaramay, uyda xotinning roli avvalgidek qolgan, ko‘p odatlar jamiyatda saqlanib qolgandi.

¹⁹⁷Abdukhmidova D. Dynamics of change of the concept of “家 ie-home” in the linguistic consciousness of the japanese people//International Journal Evaluation and Research in Education(IJERE). Institute of Advanced Engineering and Science. – 2023. ISSN: 2252-8822. – Vol 12. № 3. – P.203. (Scopus).

aslida xuddi bitta alohida “Uy” kabi tuzilish va xususiyatga egadir. T.Kavashimaning “Yapon jamiyatining oilaviy strukturasi” kitobida 「国鉄の一家」[kokutetsu no ikka] *temir yo ‘lchilar uyi*, ya’ni shu kasbni ota bobolari qilib farzandlari ham davom ettirayotgan oilaga nisbatan shu kasb egalari xonadoni ma’nosida qo‘llanishini ham kuzatish mumkin¹⁹⁸. Bunda “家[ie]-uy” so‘zi orqali kasbni davom ettirayotgan bir oila a’zolari tushuniladi. Yapon tilida「家の会社では」[uchi no kaishadeva] *bizning(uydagi) firmamizda* kabi boshqa xalqlar tilida uchramaydigan Yaponiyaning o‘zigagina xos bo‘lgan so‘z va iboralarini uchratish mumkin. Boshqa firma haqida gapirganda 「お宅では」[otakudeva] – *sizning uyingizda* (firmangizda ma’nosida) kabi qo‘llanuvidagi farqli jihatlari bo‘lib, o‘zi ishlayotgan korxona, shirkat, firmani yaponlar o‘z uyi sifatida qabul qilishi, boshqa firmani o‘zining mental makonidan tashqarida deb tasavvur qilishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, Ch.Nakane “Vertikal jamiyatdagi shaxslararo munosabatlar” nomli kitobida shu holatga to‘xtalib o‘tgan. Yaponlar o‘zlarini tanishtirayotganda kasbini aytmasdan, faoliyat olib borayotgan firmasi nomini aytib tanishtiradilar. Masalan, o‘zi ofis ishida ishlayotgani yoki san’atga aloqador ish bilan shug‘ullanilayotganini aytishmaydi¹⁹⁹. Shu kabi holatlar faoliyat olib borayotgan korxonasiga nisbatan insonlar tafakkurida o‘z “家[ie]-uy” obrazi, tasavvuri gavdalanishini, uyga qarab mo‘ljallanishidan dalolat beradi.

Yuqorida uy nafaqat boshpana ma’nosida ishlatilgan, balki sulolaga ishora qilib, ma’lum bir avlodni, uning a’zolari ijtimoiy mavqeyini ko‘rsatuvchi tizim sifatidagi tasavvurlarni o‘zida mujassamlashtirganini haqida ta’kidlangandi. 家–Uy” so‘zining nasldan naslga o‘tib kelayotgan familiya, merosxo‘r, oila guruhiga ishora qiluvchi ma’nolari hamda jamiyatda biror ish bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan oilaviy kasb vakillariga nisbatan ham ishlatiluvchi ma’nolari ustunlik qiladi. Demak, uyning boshpana ma’nosidan qarindoshlar, avlod va ajdodlar, bir turdagi kasbni muntazam bajaruvchi oila guruhi, o‘z ish joyi ma’nolarigacha kengayishini kuzatish mumkin. Yaponlarda “家–uy” ni shu tarzda tushunilishi yapon xalqining qadimdan shakllangan uy an’anasi tasavvurlari bilan bog‘liq deyish mumkin.

¹⁹⁸ 川島 武宜(2000)「日本社会の家族的構成」岩波書店. – P.119.

¹⁹⁹ 中根千枝(1967)「タテ社会の人間関係」講談社. – P.189.

Yapon tilida ijtimoiy munosabatlarda shaxs o'zi faoliyat ko'rsatadigan korxona yoki muassasani o'z uyi, kasbdoshlarni oila a'zosidek qabul qilishi, ishchining xo'jayinga sadoqati kabi munosabatlarda yapon milliy madaniyati va konfutsiylik axloq me'yori xususiyatlarining ta'siri kuzatiladi. 家[ie] institutining o'ziga xos xususiyati uning avloddan-avlodga o'tib uzviy davom etishida va qat'iy qoidalar asosida yagona jamoada yashovchi oila a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy qiziqishlarining umumiyligidadir deb ta'kidlaydi T.Gurevich²⁰⁰. Shunday jamiyatning har bir a'zosining butun hayoti va faoliyati yagona maqsadga yo'nalgan, ya'ni shu uy yoki muassasa, guruh a'zolarining bir-birlarini qo'llab-quvvatlashi, munosabatlarning mustahkamlanishi va keyinchalik jamoa a'zolarining qiziqishlari shaxsiy tusga aylanishi bilan izohlanadi. Ammo T.Gurevich bu o'rinda makon sifatidagi uy bog'liqlik asosida unga tegishli shaxslar jamoasini yoki buning aksini bildirishini e'tibordan chetda qoldirgan. Demak, yaponlar uchun うち[uchi] nafaqat o'z oilasi yashaydigan uyini anglatadi, balki jamiyatda shaxs o'ziga tegishli obyektlarga, har kuni faoliyat yuritadigan joyiga nisbatan ham qo'llanadi. Bunda yaponlar doimiy ish joyini o'ziga mental yaqin deb tushungani bois, uni o'z uyiga o'xshatish tafakkuri yashiringan bo'lib, metafora asosida hosila ma'no yuzaga kelmoqda. Binobarin, bunda ham ichkari tashqaridagi munosabatga qarama-qarshi qo'yiladi. O'zi faoliyat yuritayotgan joyini mijozlarga (tashqaridagi o'zgalarga) nisbatan – うち[uchi] *uyimiz* deya ishlatilishida ichkari fokusidan yondashuv kuzatiladi. So'zlovchi o'ziga psixologik yaqin hisoblagan shaxsni うち[uchi] deb qabul qilib, o'zga shaxsning jamoasi haqida gapirganda, ichkari fokusidan tashqariga ishora qiladi va hurmat uslubiga ega お宅[otaku] *uyingiz* birligini ishlatadi. Shu o'rinda お宅 birligining lug'atdagi 5 ta ma'nosi keltiriladi:

1. Suhbatdosh yoki 3 shaxsni hurmat qilib, uning uyi yashash joyi haqida gapirganda: 「先生のお宅を伺う」 *Ustozning uylariga boraman.*

2. Suhbatdosh yoki 3 shaxsni uyidagi oila a'zolarini hurmat qilib ishlatiluvchi so'z: 「お宅は人数が多いからにぎやかでしょうね」
Uyingizdagilar ko'pchilik bo'lgani uchun shovqin a?

²⁰⁰ Гуревич Т.М. Лингвокультурологический анализ концептосфера человек в японской языковой картине мира: Дисс. ...док. култ. – Москва, 2006. – С.107-108.

3. Suhbatdoshning erini hurmat qilib ishlatiluvchi soʻz: 「お宅はどこ
ちらへお勤めですの」 *Xoʻjayiningiz qayerda ishlaydilar?*

4. Suhbatdoshga tegishli korxona yoki guruhga hurmat yuzasidan
ishlatiladi: 「お宅の景気はどうですか」 *Ishxonangiz(uyingiz)ning ishlari
qanday ketyapti?*

5. Biror jarayonga haddan ortiq berilib ketib, shu sohada batafsil
bilimga ega shaxs: 「アニメお宅」 *Anime muxlisi*²⁰¹

お宅 [otaku]ning yuqoridagi 4 maʼnosi oʻzga shaxsga 外
tashqaridagilarga hurmat yuzasidan qoʻllanishidir. Yuqoridagilardan
koʻrinadiki うち[uchi] ichkaridagi munosabatni tashqariga nisbatan, お
宅[otaku] ichkari nigohi bilan tashqarini tasvirlanishi boʻlib, oʻzga
shaxsga murojaat qilinganda yoki u haqida gapirilganda qoʻllaniladi: そ
のお宅にも3歳と1歳(男2人)の子供がいるので、時々顔を合わせる時にはそ
れなりに仲良くしていますが、毎日の朝の騒音が家にとって迷惑でイライラしま
す。(Yahoo!知恵袋, 2005, 子育て、出産) [Sono otaku ni mo 3-sai to 1-
saino kodomo ga iru node, tokidoki kao o awaseru tokini va sorenari ni
nakayoku shite imasuga, mainichi no asa no sōon ga ie ni totte
meiwakude iraira shimasu.]Bu **uyda** 3 yosh va 1 yoshli yosh bolalar
boʻlib, baʼzida yuz koʻrishganda **erkalatib turamanu**, ammo ularning
har tonggi shovqini **uydagilarimizni bezovta qilib, asabiylashtiradi**.

Demak, yaponlar ichkari hamda tashqari munosabatlarida うち
[uchi] uyga qarab moʻljallanadilar. Yaponlarda makonga qarab moʻljallanish
olish tafakkuri qarindosh-urugʻchilik bilan bogʻliq birliklarning
jamiyatda boshqa shaxslarga nisbatan qoʻllanuvda ham aks etadi. Bu
hodisa ijtimoiy munosabatlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. 親[oya] *ota-
ona* va 会社[kaisha] *korxona* soʻzlari birikuvidan hosil boʻlgan qoʻshma
soʻz 親会社[oyagaisha] aksiya egasi sifatida kompaniyaga asos solib,
bir necha sanoat korxonalarini tarmoq sifatida oʻzida birlashtirib ularni
boshqaradigan asos *bosh korxona* maʼnosini anglatadi, bunga nisbatan
bosh korxona tomonidan boshqariladigan u bilan umumiyqisodiy
asosga ega, uning bir tarmogʻi sifatidagi filial, *kichik korxona* 子会社
[kogaisha] (子 *bola*) va 会社[kaisha] *korxona* soʻzlari birikuvidan hosil
boʻlgan qoʻshma soʻz), bitta kapital tarmogʻiga tegishli umumiy

²⁰¹松村明(2020)「デジタル大辞泉」小学館
<https://dictionary.goo.ne.jp/word/%E5%BE%A1%E5%AE%85/>

xususiyatlarga ega 2 ta korxona 姉妹会社[shimaikaisha] 姉妹[shimai] *opa-singil* va 会社[kaisha] *korxona* soʻzlari birikuvidan hosil boʻlgan qoʻshma soʻzlar qoʻllaniladi. 親[oya] va 団体[dantai] *guruh, uyushma* soʻzlari birikuvidan hosil boʻlgan qoʻshma soʻz 親団体[oyadantai] - *bosh tashkilot* boʻlim va filiallarga nisbatan qoʻllanuvchi soʻz boʻlib, bu kabi nominativ birliklar yaponlar tafakkurida jamiyatdagi muassasalar butun bir 家[ie] - uy sifatida tushunilishi, unga tegishli korxona va shu korxonaning aʼzolari bir uyning aʼzolaridek qabul qilinishini, shuning uchun ular qarindosh-urugʻchilikka oid birliklari bilan ifodalanishida namoyon boʻladi. Maʼlum guruh boshligʻini (masalan, mafiya) 親分[oyabun] *xoʻjayin* yoki 親父[oyaji] *ota* deyilishi, bunga nisbatan *dastyor*, yordamchi maʼnosida 子分[kobun] soʻzi, *aka-ukalik* munosabatlarini anglatuvchi 兄弟分[kyōdaibun] birligining guruh aʼzolariga nisbatan ishlatilishida qarindoshdek juda yaqin munosabatlar nazarda tutiladi. Bunda uyning ichi fokusidan yondashuvni kuzatish mumkin. Yapon tilida ota maʼnosini bildiruvchi おやじ[oyaji] birligi maʼlum guruh, korxona yoki ishlab chiqarish sohasining martabasi ulugʻ, nufuzi baland shaxsini ifodalash uchun ishlatiladi: その会社の状態は、現場を見ればよくわかることは、一般によく知られたことである。そして事実として、中小零細企業のおやじさん(社長)達が日本経済を本当の意味で支えている。 [Sono kaisha no jōtai wa, genba o mireba yoku wakaruru koto wa, ippan ni yoku shira reta kotode aru. Soshite jijitsu to shite, chūshō reesai kigyō no **oyajisan** (shachō)tachi ga nipponkeizai o hontō no imi de sasaete iru.] *Maʼlumki, korxonaning bugungi holatini faoliyat olib borayotgan joyiga qarab osongina bilib olish mumkin. Darhaqiqat, kichik va oʻrta biznesning ota (prezident)lari yapon iqtisodiyotini tom maʼnoda qoʻllab-quvvatlamodalar.*

Yuqoridagi misolda kuzatuvchi oʻzi ishtirok etmagan holda ichkari fokusidan おやじさん deya qoʻllamoqda. Sanoat korxonasi rahbari yoki korporatsiya va hatto oddiy kompaniya prezidentini xodimlar oʻzaro hurmat nuqtayi nazardan 親父[oyaji] *ota* deb atashi, bunga nisbatan shu guruh ichidagi boshliqqa nisbatan mavqeyi past shu jamoa aʼzosi “shogird, yordamchi” maʼnosida 子分[kobun] *bola* soʻzining mavjudligi iyerarxik munosabatlar nafaqat uy-oila doirasida, balki ishlab chiqarishdagi munosabatlarga ham tarqalganligidan, qavm-qarindoshlikka oid birliklar maʼnosi kengayganligidan dalolat beradi. Yapon milliy sporti sumo dunyosida ham ancha mohir, *tajribaga ega*

ustoz vazifasini bajaruvchi, *boshliq* sifatidagi shaxs 親方 [oyakata] deb ataladi. Demak, qavm-qarindoshlik birliklari bir guruhning a'zolari uchun ham qo'llaniladi.

お母さん[okaasan], ママ[mama] *ona*, お上さん[okamisan] *rafiqa* kabi birliklar uydagi ona va uy bekasi, xotin ma'nosini, oiladagi mavqeni anglatishidan tashqari, jamiyatda turli ma'nolarda qo'llanilib, ma'nosi kengayib boradi. Savdo bilan shug'ullanuvchi do'kon, xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari o'rtasida, geysa uylarida shu yerning hurmati baland boshliqlariga nisbatan ham qavm-qarindoshlikka oid birliklar qo'llanadi. Masalan, geysa uylari, qahvaxona, restoran, sake barlari ayol xo'jayini お母さん *okaasan* yoki ママ *mama* deb ataladi. Bunda shu shaxslarning boshqalarga nisbatan shu tashkilotda "alohida hurmati, o'rni borligi", "o'ziga yaqin olish" ifodalarini namoyon etadi.

舞は以前、一度椎名に連れてきてもらったそうだ。それからちょくちょく一人でこの店に来ているようで、店のママともすっかり打ち解けた感じにいる。(小川竜生著『沸点』, 2001, 913) [Mai wa izen, ichido Shīna ni tsurete kite moratta sōda. Sorekara wa chokuchoku hitori de kono mise ni kite iru yō de, **mise no mama** tomo sukkari uchitoketa kanji de iru.] *Maini avval Shinani bu yerga olib kelgan. Shundan keyin u tez-tez yolg'iz o'zi bu qahvaxonaga kelar, qahvaxona bekasi (onasi) bilan ancha yaqin bo'lib ketgandi.*

Bunda 店のママ[mise no mama] xizmat ko'rsatish obyekti egasi sifatida mas'uliyatli shaxs sifatida tushuniladi. Ammo quyidagi misol nega aynan geysa uylari, ovqatlanish joylari, restoran, sake barlari ayol xo'jayiniga nisbatan お母さん[okaasan] yoki ママ[mama] – ona birligi ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Bu misolda xizmat ko'rsatish obyekti xodimlari tomonidan psixologik yaqin olinib, xodimlar tomonidan o'zaro [mama] deb ataluvchi shaxs haqida gap ketadi. Bu vaziyatda so'zlovchi o'z fokusini xodimlarning fokusiga ko'chirgan holda gapirmoqda. Bunda so'zlovchi xizmat ko'rsatish obyekti qahvaxonani kichik jamoaga ega uy deb tasavvur qilishi bilan bog'liq.

横須賀で降りると、足は自然にドブ板通りに向かいました。ドブ板通りにある『パラダイス』というバーのママが、以前「困った時はいつでもいいから、うちへおいで」と言っていたことを思い出したからです。(なかにし礼著『夜盗』, 2003, 913) [Yokosuka de oriru to, ashi wa shizen ni dobu-ban-dōri ni mukaimashita. Dobu-ban-dōri ni aru "paradaisu" to iu **bā no mama** ga,

izen “komatta toki wa itsu demo iikara, **uchi** e oide” to itteta koto o omoidashitakaradesu.] *Yokusuke bekatida tushganimda, oyoqlarim o‘z-o‘zidan Dobu ban ko‘chasiga yo‘naldi. Dobu ban ko‘chasida “Paradise” nomli bar bo‘lib, bar bekasi avval ko‘rishganimizda “siqilgan paytlaringda qachon bo‘lsa ham biznikiga (uyimizga) kelaver” deganini eslab boraverdim.*

Yuqoridagi misoldan ayonki, mijozlarga xizmat ko‘rsatish obyekti bo‘lmish geyssha uylari, ovqatlanish joylari, restoran, sake barlari shu yerning xodimlari uchun ularning uyi, hamkasblari ichkaridagilar hisoblanadi. Mijozlar esa tafakkurda tashqaridagi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, bar bekasi *uyimizga kel* deganda tashqari fokusidan turib ichkarini, bar ichini nazarda tutmoqda, so‘zlovchi esa barning ichi fokusidan bardagi hurmati baland boshliq ayolni [mama] qarindoshlik birligi bilan atamoqda. Shuning uchun ular o‘z faoliyat yuritayotgan joyini mijozlarga(tashqaridagi o‘zgalarga) nisbatan *うち* [uchi] – *uyimiz* deb ataydilar. Bunda yapon madaniyatining o‘ziga xos milliy nigohi aks etadi. Bunda 家 ning ma’nosi metonimiya asosida ko‘chib qo‘llanilmoqda. Shuning uchun geyssha uylari, ovqatlanish joylari, restoran, sake barlari shu yerda faoliyat yuritayotganlar uchun nafaqat ularning ish joyi, balki oilasi kabi qadrli uyi hisoblanadi. O‘z-o‘zidan ayon bo‘ladiki, korxona, tashkilot yoki xizmat ko‘rsatish shahobchasi *boshlig‘i, xo‘jayini* 亭主[teishu] yoki 主人[shujin] sanaladi va お母さん[okaasan] yoki ママ[mama], *agar xo‘jayin erkak kishi bo‘lsa* 親父[oyaji] kabi qarindoshlikni anglatuvchi birliklar qo‘llaniladi. Bu korxona egasiga uyning boshlig‘i sifatida o‘ziga yaqin olish ottenkalarini ifodalaydi. Shuning uchun ham obyekt tashqarisidagi o‘zgalar ham 店のママ[mise no mama], バーのママ[bā no mama] deganda shu yerning bekasini nazarda tutadilar. Shu o‘rinda ママ[mama] yapon leksikasida o‘zlashma qatlam sanaladi va asosan Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar va Yevropa madaniyatiga oid so‘zlar bilan birga ishlatiladi. Yapon tilidagi restoran, bar, mehmonxona kabi so‘zlar uchun o‘zlashma so‘zlar qo‘llangani hamda g‘arb uslubini yodga solgani uchun bu obyektlar va ularning bekalari o‘zlashma so‘z ママ[mama] orqali beriladi. Ammo bu holat sof yapon madaniyatiga tegishli 芸妓[geisha] *geyssha*, 置屋[okiya] *geyssha uyi* 茶屋[chaya] *choy do‘kon uyi*, 旅館[ryōkan](*yapon uslubidagi mehmonxona*), milliy tipdagi oshxona, xizmat ko‘rsatish obyektlari bekasiga nisbatan お母さん

[okaasan] hamda お上さん(女将さん) [okamisan] kabi o‘z qatlam tub yapon so‘zlari qo‘llaniladi. お茶 choy marosimida shu marosimni tashkil qilib, mehmonlarga choy tarqatuvchi ayol お母さん[okaasan] yoki 女亭主[onna teishu] *ayol xo‘jayin* deyiladi, agar erkak kishi bo‘lsa 亭主[teishu] bo‘ladi.

Bundan tashqari, 兄貴[aniki] birligi mavjud bo‘lib, u 兄[ani] *aka* so‘ziga ~貴[ki] hurmat suffiksi shaxslararo munosabatlarni va shaxslar guruhini bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, ijtimoiy mavqe, daraja, maqom, kelib chiqishi yuqori tabaqadan ekanligini anglatadi. Qarindoshlik nomlariga qo‘shilib uydagi yoshi kattalarga nisbatan hurmat va mehr tuyg‘usini ifodalovchi qo‘shimcha uslubiy bo‘yoqqa ega ma’nosi uning konnotativ ma’nosi hisoblanadi. Bu birlik jamiyatda asosan yoshlar o‘rtasida, korxona ishchilari orasida, mafiya guruh a‘zolari orasida ham atash ham murojaat birligi sifatida ishlatiladi va shu guruh ichida ta’siri kuchli bo‘lgan shaxs, boshqa a‘zolarga nisbatan yoshi katta, mavqei yuqori boshchi, boshliq *aka* ma’nosini anglatadi. Ijtimoiy hayotda guruhlar orasida qarindosh bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanuvchi bu ma’nosi 兄貴[aniki] birligining ma’no ko‘chishi asosida yuzaga kelgan. Buning ortida esa korxona yoki ma’lum guruhni shu yerda faoliyat olib borayotgan shaxslar tomonidan uyidek tasavvur qilishiga oid tafakkur yashiringan.

Bundan tashqari, 国の親[kuni no oya], 国の父[kuni no chichi] *yurtboshi*, 母国[bokoku] birikmalari orqali butun mamlakat 家[ie]-o‘z uyi sifatida tushunilib, uning a‘zolari qavm-qarindoshlikka oid birliklar vositasida ifodalanayotganini tushunish mumkin. Demak, qavm-qarindoshlikka oid birliklar shaxsning uyidagi oilaviy munosabatlarni anglatibgina qolmasdan, ishxona va jamiyatning turli sohalaridagi ijtimoiy iyerarxik munosabatlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Qarindoshlik birliklari ma’nosi esa oiladagi munosabatlardan ishxonadagi o‘zaro munosabatlargacha tarqalib, qo‘llaniluv doirasiga kengayib boradi. Suhbatdoshning o‘zgarishiga qarab, hamda so‘zlovchi suhbatdoshini uyning ichidagi o‘ziga psixologik yaqin shaxs deb hisoblashi yoki o‘zga uydan tashqaridagi shaxs deb hisoblashiga qarab fokus ko‘chadi va til birliklari shunga qarab tanlanadi.

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq yapon maqollarida “家[ie]-uy” konseptining reprezentatsiyasi

“Aslini olganimizda, inson ongida voqelikning o‘zi emas, balki uning obrazi gavdalanadi va shu obraz tilda o‘z ifodasini topadi”²⁰² deb yozadi Sh.Safarov. Belgilar (masalan, so‘z va mental tasavvurlar) tashqi dunyodagi narsalar bilan aloqasi orqali o‘z ma’nosiga ega bo‘ladi. Hamma ma’nolar shunday xarakterga ega. Tashqi dunyoga bog‘liq belgi simvollar tashqi voqelikning ichki reprezentatsiyasini o‘zida ifodalaydi²⁰³. Ushbu faslda 家[ie] haqidagi milliy-madaniy, mental stereotiplarni aniqlash maqsadida tahlil uchun maqollardan foydalaniladi. Maqollar asosida 家[ie] yaponlar tafakkurida qanday obrazlarni ifodalashi, ya’ni uning ichki reprezentatsiyasi aniqlanadi.

Maqollar asrlar mobaynida shakllangan xalq donishmandligi mahsuli bo‘lib, shu xalqning dunyoqarashi, ma’naviy qiyofasini, hayotga bo‘lgan qarashlarini o‘zida aks ettiruvchi maslahat yoki pand-nasihat ko‘rinishidagi tugallangan fikrdir. Maqollarda millat taqdiri, xalqning milliy xarakteri, madaniy qadriyatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Maqollar hayotiy haqiqatni emotsional–stilistik bo‘yoqlar bilan obrazli aks ettirib, unda turli o‘xshatish metaforalar, voqea hodisalar bilan bog‘liq jarayonlar metonimiyalar orqali tasvirlanadi. Ushbu faslda 15000 maqolni o‘zida jamlagan maqollar lug‘ati²⁰⁴ asosida tahlil olib boriladi. Lug‘atdan qarindoshlik va “家[ie]-uy” ga aloqador 1000 ta maqol borligi aniqlandi. Shundan 180 tasi qarindosh-urug‘chilik bilan uyning bog‘liqligini ifodalovchi maqollardir. Bundan tashqari, 48 ta erkak birligi ishtirokidagi maqol, 137 ta ayol, 21ta ayol va erkakka tegishli maqol mavjud bo‘lib, ular ham qarindoshlik ma’nosini anglatgani bois tahlilga tortildi. Quyida uy-ro‘zg‘or hayotiga oid aniq tushunchalardan ramziy va ma’naviy tushunchalargacha bo‘lgan mavhum tushunchalar asosida maqollarni ma’noviy guruhlariga ajratib tahlil qilinadi. Bu guruhlar “家[ie]-uy” konseptining yangi belgilarini ochishda konsept atrofidagi madaniy bilimlar strukturasini, freymdagi mavhum modellarni tasvirlashga

²⁰² Сафаров Ш. Семантика. – Т.: ЎзМЭ, 2013 – Б.29.

²⁰³ Лакофф Дж. Женщина, огонь и опасные вещи. Языке славянской культуры, 2004. – С.163.

²⁰⁴ 尚学図書 (1986) 「故事ことわざ辞典」小学館 - 1639 p.

yordam beradi. Freym-konseptning bir qancha mavhumlashgan sxemalaridir. Bu mavzuviy bo‘g‘in va qatlamlar iyerarxiyasidir. “家[ie]-uy” konsepti freymi obrazlardan tashkil topgan aniq bo‘g‘inlar (makon, o‘choq, xo‘jayin, uy bekasi) ko‘rinishida gavdalanadi. Sodda unsurlar, tor ma’noli konsept obrazlar freym strukturasining ichiga kiritiladi, ammo 主人[shujin] kabi murakkab, ma’nosi boy konsept obraz o‘zi yirik bo‘g‘inni tashkil qiladi va ko‘p qatlamli bo‘lib, bir qancha obrazlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

“家[ie]-uy”-makon. “家[ie]-yashash joyi sifatida makondir. Uy ichkari makonga nisbatan tashqarining mavjudligi, bu makonga kirish va chiqish imkoni borligi, uning keng va torligi, makon ostonasidan o‘tish, xotin bola-chaqa saqlanadigan makon sifatida konseptuallashadi. 内[uchi] 家[uchi] haqida gapirilganda bu ikki so‘z omonim emas, bir so‘zning ma’nolari ekanligi va bunda iyeroglif ikkilamchi ahamiyatga egaligi yuqorida keltirilgandi. 内 iyeroglifi bilan yoziluvchi so‘z 家 iyeroglifi bilan yoziluvchi [uchi]ning ayni o‘zi. 内面[uchizura] “*uyidagi yaqinlariga bo‘lgan munosabat*”, 内孫[uchimago] (*so‘zma-so‘z. ichkaridagi nabira*) *uyidagi o‘g‘ildan tug‘ilgan nabira* kabi so‘zlarda 内[uchi] 家 uyni anglatishini ko‘rish mumkin. Bu maqol va iboralarda ham o‘z aksini topgan. 福は内鬼は外[fuku va uchi, oni va soto] “*baxt uyga, shaytonlar tashqariga*”, 内裸でも外錦[uchi hadakademo soto nishiki] “*uyda bechorahol yalang yursang ham tashqariga kimxob kiy*”, 内弁慶外すばり[uchi benkei soto subari] “*Uyda kerilsa-da, ko‘chada qo‘rqoq*” kabi maqollarda 内 iyeroglifi bilan berilgan so‘z aslida uy ma’nosini bildiradi. Birinchi maqolda uyning tashqarisidan turib fokus ichkariga qaratilganini ko‘rish mumkin. Keyingi maqollarda uyning ichkarisidagi fokus tashqariga ko‘chayotganini kuzatish mumkin.

Insonning o‘z uyichalik aziz makon yo‘q 我が家にまさるところはない [waga ie ni masaru tokoro va nai] Uy qo‘rg‘on insonni himoya qiluvchi makon u mustahkamlik va inson uzoq umr yashaydigan makoni 男子は家を出ずれば七人の敵あり [danshi va ie o izureba shichinin no teki ari] “*uydan chiqqan er kishini 7 dushman kutib oladi*” yoki xuddi shu ma’noda 敷居をまたげば七人のてきあり [shikii o matakeba shichinin no teki ari] “*uy ostonasidan o‘tsang 7 dushman*” maqoli ham qo‘llaniladi. Bunda 敷居[shikii] ostona uyning bir qismi sifatida geshtalt sanaladi, sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘chmoqda. Yaponlarda “*uying kichik*

bo'lsa ham ko'ngiling keng bo'lsin" deyiladi: 家は狭かれ心は広かれ[ie a semakare kokoro va hirokare]. Uyni uy qiluvchi unda yashovchi odamdir: 住めば都 [sume ba miyako] "*yashasang poytaxt bo'ladi*". Keyingi maqolda ham kuzatuvchi uyning tashqari fokusidan yondashayapti va u bir vaqtning o'zida ichkaridagi (mamlakat) fokusidan yondashmoqda. "*Mamlakat, davlat oila va xonadonlarda tartib va tinchlik-xotirjamlik bo'lgandan keyingina taraqqiy etadi*": 国を治る本は、家を整うるにあり [kuni o osamuru moto va, ie o totonouru ni ari]. Demak, har bir uyning tinchligi mamlakat mustahkamligi poydevoridir. "Vatan ostonadan boshlanadi" deyishlari bejizga emas. Yapon maqollarida uy oila yashaydigan makon assotsiatsiyasi kuchli, uy vatanga qiyoslanadi.: 妻子を置く所が故郷 [saishi wo oku tokoro va kokkyo] "*Xotin va bola-chaqalar qoldiriladigan joy vatan*" 妻子 [saishi] xotin, bola-chaqani anglatuvchi so'z, demak, xotin bola-chaqa, oila qayerda bo'lsa kishining uyi o'sha yer bo'ladi. Bu maqolda kuzatuvchi vatandan tashqarida turib hodisani baholamoqda va tashqari fokusidan xotin bola-chaqa yashaydigan makon ichkariga ishora qilyapti.

“家[ie]-uy”-qurilma. Bu jihati uning qurilma sifatida tushunilishi, ichki qurilmalarining mavjudligi, uning mustahkamligiga oid birliklar bilan bog'liq. Qadim-qadimdan yaponlar buddaviylik ibodatxonalariga borib butlarga sig'inishgan. Keyinchalik o'z uylarida ham butlar uchun alohida joy ajratishgan. Shuning uchun har bir uyda but qo'yilgan tokcha hamda buddaviylik mehrobi uchun alohida joyi bo'lgan. Ajdodlar shu butlar uyni hamda uning davomchilari avlodlar xavfsizligini ta'minlashiga ishonishgan. Ko'pincha bir “家[ie]-uy”da 1)qabr 2) but qo'yilgan tokcha 3) buddaviylik mehrobi 4) o'choq kabi 4 narsa muqaddaslik namunasi sifatida mavjud bo'lgan²⁰⁵. Shulardan birinchisi uyning tashqarisida, 2) 3) 4) esa uyning ichida joylashgan. Yaponlarning an'anaviy uyidagi eng asosiy qurilma 釜戸 [kamado] o'choqdir. Har bir uyning tarixi qurilishidan boshlanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yaponlarning uy qurilishi, tuzilishi va undagi moslamalari unda yashovchi odamlar munosabatlarini ramziy ifodalaydi. O'ziga xos yapon arxitektura namunasi ikki yoqqa

²⁰⁵ 竹田聰洲(1974)「日本の『家』とその信仰」社会科学、同志社大学人文科学研究
所。－ P.11-12.

suriladigan eshik yoki deraza, yashash joyi ichki makonni bir biridan ajratib turuvchi *to'siq pardevor* 襖[fusuma] hamda 障子[shyōji], uy ichidagi pol qoplamasi *tatami-bo'yra* kabilar shular jumlasidandir. Bunday o'ziga xoslikni quyidagi maqolda ko'rish mumkin: 壁に耳あり 障子に目あり[Kabe ni mimi ari, shyōji ni me ari] “*Devorning qulog'i, suriladigan eshikning ko'zi bor*”. Suriladigan eshik 障子[shyōji]ning ko'zi borligi uning yog'och romga oqish yapon qog'ozi *vashini* yopishtirib, biriktirib yasalgani bilan bog'liq. Bu maqolda ham ichkari fokusidan qarab tashqaridagi begona shaxslarga ishora qilinyapti.

Uy qurish oson ish emas. Buni quyidagi maqoldan ham bilish mumkin: 腹の立つように家蔵建たぬ [hara no tatsu yoni ie kura tatanu] “*Jahl chiqarishchalik uy, ombor qurish oson emas*” hayotda birovni jahlini chiqarish oson, ammo uy yoki oddiy omborxona qurishga yetarli pul to'plash oson bo'lmaydi. 家を道端に作れば三年成らず[ie omichibata ni tsukureba sannen narazu] “*Yo'l chetiga uy qursang, aralashuvchi odamlar ko'pidan ish bitmaydi*”. Bu maqolda ko'cha chetiga qurilgan uy metafora bo'lib birovni gapiga birma-bir quloq soluvchi odam hech bir ishini bitirolmaydi ma'nosini anglatadi. Katta mashaqqat evaziga qurilgan uyni sotish qoralanadi. 家を売れば釘の価 [ie o ureba kugi no atai] “*Uy sotilsa mix narxida bo'ladi*”

Yaponlar uyning qurilishiga katta e'tibor qaratganlar 家は夏向き女房は所帯向き [ie va natsumuki nyōbō va shotaimuki] (so'zma-so'z. Uyning yozga qaragani, xotinning uyga qaragani) “*Uyning qurilishida yozda salqin bo'lishini hisobga olgan yaxshi, xotinni esa uy xo'jaligini yuritishga mohirini olgan yaxshi*”. Bu maqolda ham kuzatuvchi tashqarida turib shu fokusdan uyni qaysi tarafga qurilishi kerakligini baholamoqda va bir vaqtda uy ichi fokusidan ayolning uy yumushlariga ustasini tanlash kerakligi uqtiriladi. Bundan tashqari, yaponlarda uyning ko'rinishi chiroyli yoki mustahkamligidan ko'ra uning ichidagi shaxslarning kuchli va ishonchli shaxs ekanligi afzalroq ekanligi aytiladi: 家は弱かれ主は強かれ [ie va yowakare nushi va tsuyokare] *uyning qurilishi faqirona bo'lsa-da, uy xo'jayini kuchli ishonchli bo'lgani ma'qul*. Bu maqolda ham birinchi qismda tashqari fokusidan, ikkinchi qismda esa ichkari fokusidan oila boshining kuchli bo'lishi nazarda tutilmoqda. Yashash joyidagi muhit inson ruhiyatiga katta ta'sir o'tkazadi: 居は氣を移す [kyo wa ki o utsusu] “*Yashash joyi kayfiyat o'tkazadi*”. Demak, uy yashash joyi, insonning qanday muhitda

yashayotgani uning kayfiyatiga ta'sir qiladi. Bu maqolda ichkari fokusidan tashqari fokusiga ko'chishni kuzatish mumkin.

Uy tiriklik. Bu uy uning egalari bilan mavjudligida namoyon bo'ladi.

1. Murakkab konsept-obraz “主人[shujin] xo'jayin”

Uyning tarixi u yerda xo'jayinning paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Yaponlar avval shaxs o'z xulq-atvori, yurish-turishini tartibga keltirishi va shundan keyingina uy qilishi kerakligini uqtiradi 身修まりて後家齊う [mi osamarite nochi ie totonou] “*Avval o'zingni tartibga sol, keyin uyingni*”. Maqollarda avval o'choq qurilib keyin xotin olinishi kerakligi ta'kidlanadi: へっついより女房[hettsui yori nyōbō] (so'zmaso'z pechdan ko'ra xotin) “*Uy qurmay xotin olmoqchi*” deya kinoya tarzida ishlatilib, bunda pech uyni ramziy ifodalaydi. Bu maqollarda fokus ichkaridan tashqariga harakatlanmoqda. Keyingi maqolda esa kuzatuvchi tashqaridan turib erkakning uy tashqarisini, ayol uy ichini yuritishini ta'kidlamoqda. “*Erkak uy quradi, ayol uy o'chog'i oilani yaratadi*”: 男は家を作り、女は家庭を作る [otoko va ie o tsukuru, onna va katei o tsukuru].

Uyning obro'si - Bunda uyda yaxshi va yomon munosabatlar taqqoslanadi va uy obro'si aynan uning a'zolari qanday inson ekanligi bilan aniqlanadi: 家は一代名は末代 [ie va ichidai mei va matsudai] “*Uy bir avlod yashaydi nom abadiy*” bu maqolda uy aslida uning a'zosi bo'lgan shaxsni oilani ifodalamoqda. Shaxsning o'zi, uning ijtimoiy o'rni bir avlod bilan tugab bitishi mumkin, ammo qilgan yaxshi yoki yomon ishlariga qarab uy, undagi insonning obro'si, nomi uning o'limidan keyin ham uzoq davr saqlanib qoladi. Kuzatuvchi tashqari fokusidan turib uy obro'si ichkaridagi ijtimoiy munosabatlarga bog'liqligini ta'kidlamoqda. Tashqari nigohidan baholanayotgan quyidagi maqolda uning a'zolari qandayligini uyning tashqi ko'rinishidan bilish mumkinligi aytiladi: 尊い寺は門から知れる [tattoi tera wa mon kara shireru] “*Muqaddas ibodatxona darvozasidan ma'lum*”. 門 darvoza uyning bo'lagi sifatida geshtalt bo'lib, u aslida unda yashovchi odamlarni ifodalamoqda. Ma'no ko'chishining metonimiya usuli qo'llanilgan. Ko'pgina maqollarda uyning tabaqasi baland, nomdor, asilzoda nasldan bo'lishidan ko'ra uydagi baxt, undagi to'kin-sochinlik muhimligi uqtiriladi: 家柄より芋がら [iegara yori imogara] “*tabaqasi baland uying bo'lgandan, shirin kartoshkang*

bo'lgani ma'qul". 家持より金持ち [ie mochi yori kane mochi] "*Nomdor uydan ko'ra pul*", 家の高いより床のが高いが良い [ie no takai yori yuka no takai ga yoi] "*Uyning balandidan ko'ra polning baland bo'lgani yaxshi*". Uyning balandligi uyning obro'sini, yuqori tabaqaliligini anglatayotgan bo'lsa, uyning poli oila a'zolarining uyda baxtli yashashini anglatmoqda. Bu o'rinda ham metonimiya asosida ma'no ko'chishi kuzatilib uyning qismlari qarindoshlar guruhiga ishora qilmoqda. Bu maqollarda ham tashqari fokusidan ichkari fokusiga ko'chishni kuzatish mumkin. 家の中は円満だ [Ie no naka wa enmanda] "*Uy ichi tinch*", uydagi tinch-totuvlik, xotirjamlikni anglatadi. Albatta bu o'rinda ham 家の中 *uyning ichi* oila a'zolari bo'lgan qarindoshlarning o'zaro totuvlikda xotirjam va bekam-u ko'stlikda yashayotganini anglatadi. 大きな家には大きな風 [Ookina ieniva ookina kaze] "*Katta uyda kuchli shamol esadi*". Ushbu maqolda uy unda yashovchi kishilarni metonimiya asosida ifodalamoqda. Uy qanchalik boy, nomdor katta oila bo'lsa, shunga yarasha shamol esishi kuchli bo'lib oila a'zolarining qiyinchiliklari ko'p bo'lishini anglatmoqda. Duch kelinuvchi turli qiyinchiliklar metafora bilan kuchli shamolga qiyoslangan. Bu maqolda kuzatuvchi ichkarida ishtirokchi sifatida tashqari fokusidan yondashib ushbu maqolni qo'llaydi.

Uyda xo'jayinning hukmronligi bunda uydagi boshliq xo'jayin, ya'ni er bo'lib u barcha mas'uliyatni bo'yniga olishini anglatadi. Buni ushbu quyidagi maqollar orqali anglash mumkin: Mamlakatni boshqarish, uy xonadonlarda xotirjamlik bo'lishi uchun shunga mos ishonchli shaxs bo'lishi kerak: 国を治め家を安んずることは人を得ればなり [kuni o osame ie o anzuru koto wa hito o ereba nari]. 亭主関白の位 [teishyu kanpaku no kurai] – "*Xo'jayin uyda boshliq kabidir*". 関白 [kanpaku] aslida Heyan davrida imperatorning bosh maslahatchisi lavozimi hisoblanib, maqolda metafora sifatida er uyda imperatorning bosh maslahatchisi kabi boshliqdir deb qiyoslanib qo'llanmoqda. Demak, imperatorning bosh maslahatchisi bo'lgani kabi er uyning ichida mutlaq avtoritet hukmronlikni qo'lga olib harakat qilishi kerak degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, xuddi davlatni boshqarish qiyin bo'lgani kabi uyni boshqarish ham katta qobiliyat va anchagina mahoratni talab qiladi. Uyda erkakning mutloq hukmronligini anglatuvchi, har qanday holatda ham xo'jayinning gapi hal qiluvchi ekanligini ko'rsatuvchi 亭主の好きな赤絵帽子 [teishu no sukina akae

bōshi] “*Uy xo‘jayini yoqtiradigan qizil bosh kiyim*” maqolida asli qora bosh kiyim kiyish odat bo‘lsa-da, xo‘jayin qizil bosh kiyim kiyishni yoqtirsa, bu bilan shamol teskarisiga aylansa-da, oila a‘zolari unga ko‘nishlari kerakligini bildiradi. Bundan tashqari, uyda otaning gapi hal qiluvchi, oila a‘zolari esa unga ergashishlari va undan hayiqish kerakligini anglatuvchi 地震雷火事親父[jishin, kaminari, kaji, oyaji] “*Zilzila, momaqaldiraq, yong‘in va ota*” matalida ham hayotda eng qo‘rqinchli narsalarni ketma-ketlikda keltirilsa ota 3 o‘rinda turishini va uning gapi uyda qonun tarzida qabul qilinishini anglatadi.

Inson yolg‘iz yasholmaydi, jufti bo‘lgandagina oilaviy baxtni his etadi.一人口は食えぬが二人口は食える [Hitoriguchi ga kuenu ga futariguchi va kueru] so‘zma-so‘z, “*Bitta og‘iz yeya olmaydi, ikkita og‘iz bo‘lsa yeya oladi*”. Bunda ma‘no ko‘chishining metonimiya usulidan foydalanilgan inson tana a‘zosi bo‘lak butunni insonni ifodalamoqda. Bunda kuzatuvchi tashqari fokusidan olib ichkaridagi munosabatlarning samarasi uyning butunligini ta‘minlovchi er-xotinning juftlikda yashashida ekanligini bildirmoqchi. Yapon maqollarining ko‘pida xotin, ayol kishining uyni boshqarishi qoralanadi va ayol uyda bosh bo‘la olmasligi ta‘kidlanadi:おなごの横座は百になってもない。[Onnago no yokoza va hyakuni nattemo nai] “*Ayolning uy to‘ridagi joyi yuz yil o‘tsa ham yo‘q*”. Xotin boshqargan uyda baxtsizlik bo‘lishi aytiladi:妻が続べる家では悪魔が召使い[tsuma ga suberu ie deva akuma ga meshitsukai] “*Xotin boshqaradigan uyda yovuz iblislar xizmatkor bo‘ladi*”. Bundan ko‘rinadiki, uyda hukmronlik qiluvchi shaxs faqat erkakdir. Bunda kuzatuvchi uyning ichi fokusidan hodisalarga baho bermoqda.

Mas’uliyat. Uy xo‘jayinining mas’uliyati eng ahamiyatga ega xususiyatdir. *Mamlakat tinchligi, uyning xotirjamligi uchun qayg‘uruvchi, shunga munosib shaxs bo‘lishi kerak* 国を治め家を安んずることは人を得ればなり[kuni o osame ie o anzuru kotova hito o urebanairi]. Uyning yemirilib zavol topishi xo‘jayinning beparvoligi hamda mas’uliyatsizligi sabab yuz beradi:家は必ず自ら破る、然して後人これを破る。[Ie va kanarazu mizukara yaburu, shikōshite nochihito kore yaburu]. Demak, uyning taraqqiyotida asosiy mas’uliyat uydagi erkak kishiga yuklatiladi. “*Mamlakatni boshqarishning asosi har bir uydagi vaziyat barqarorligidadir.*”: 国を治むる本は、家を斉うるにあり[ie o

osamuru moto va ie o totonouru ni aru], 修身齐家治国平天下[shushin seikachi koku hei tenka]. Shuning uchun maqollarda o‘z uyida tinchlik o‘rnata olmagan odam mamlakatni ham boshqara olmasligi aytiladi. 一門数竈[ichimon suuso] *bir darvozada bir necha o‘choq*, bir uyda yashasa-da, o‘chog‘ini ya’ni ro‘zg‘orini alohida qilgan oilalarga kesatig mazmunda aytilgan matalda 一門 *darvoza* metonimiya orqali uyni 竈 *o‘choq* esa ro‘zg‘or yurituvchi oila, qarindoshlar guruhini ifodalamoqda. Demak, 主人[shujin], 亭主[teishyu] – “*xo‘jayin*” konsept-obrazi “家[ie]-uy” konsepti ma’nosini chuqurroq anglashga yordam beradi. Uy xo‘jayini o‘z qo‘lida butun uydagi hukmronlikni mujassamlashtiribgina qolmay, uydagi hayotni jonlantirib turadi.

Aka-ukalar uyning himoyachisi 兄弟牆^{せめ} 閤げどもそとに侮りを防ぐ [keitei kaki ni semegedomo soto ni anadori o fusegu] “*Aka-ukalar uyda urushsa-da, ko‘chada odamlar oldida bir-birini qo‘llab-quvvatlab himoya qiladi*”. Bu maqolda 牆 [kaki] tashqari ko‘cha bilan uyni ajratib turadigan *devor*, *panjarani* anglatadi. Uy devor, panjara so‘zi orqali sinekdoxa asosida ifodalanmoqda. Demak, ko‘cha bilan uyni ajratib turadigan devor yoki panjara ham uyning bo‘lagi sifatida geshtalt sanaladi. Aka-ukalar esa uyda janjallashsalar-da, ko‘chada birlashib harakat qiladi. Ahil o‘sgan aka-ukalar ham o‘sib alohida uy qilib, xotin bola chaqasiga mehri oshib, uydan uzoqlashgani sabab aka-ukalar o‘rtasida masofa paydo bo‘ladi. Shuning uchun 兄弟は他人の始まり [kyodai va tannin no hajimari] “*aka-ukalar begonalashuvning boshlanishi*” deyiladi. Bunda ham kuzatuvchining fokusi ichkaridan tashqariga qarab ko‘chishini kuzatish mumkin. Bu maqolda o‘zinikini begona toifasiga kiritish holati kuzatiladi.

2. Murakkab konsept-obraz – Uy bekasi 主婦 *xotin*.

女房は山の神百石の位 [nyōbō va yama no kamihiakkoku no kurai] “*Xotin uy bekasi sifatida tog‘larni boshqaruvchi iloh kabi*” uy uchun nihoyatda muhim shaxs. Umuman olganda, xotinning uyga bog‘liqligi borligini ko‘pgina maqollarda kuzatish mumkin: 家にはなくてならぬものは上がり框と女房 [ie niva nakute naranu mono va agari kamachi to nyōbō] “*Uyda bo‘lishi zarur narsa ostona va xotin*”. Yapon uylarida kiraverishi oyoq kiyim yechishga mo‘ljallangan joy va bir pog‘ona ko‘tarilib dahliz orqali uyga kiriladi. Mana shu oyoq kiyimni yechib dahlizga ko‘tarilish uyga kiraverish joyi 上がり框 ostona hisoblanadi. 家

に女房なきは火のない炉のごとし[ie ni nyōbō naki va hi no nai ro no gotoshi] “*Uyda xotinning yo‘qligi olovsiz o‘choq kabidir*”, olovsiz o‘choq metafora bo‘lib, 火 [hi] ramziy ravishda uyda ayol kishi xotinni anglatmoqda. Uyda uy bekasining yo‘qligi olovsiz o‘choq, to‘sinsiz uyga qiyoslanadi. Bu maqollarda kuzatuvchi fokusi ichkariga qaratilgan bo‘lsa, keyingi maqolda kuzatuvchi uyga tashqaridan turib shu fokusdan yondashmoqda. To‘sinsiz uy qulaganidek xotinsiz uy qurilmaydi: 家に女房なきは梁のなきと同じ[ie ni nyōbō naki va utsubari no naki to onaji] “*Xotinsiz uy to‘sinsiz uy kabidir*”. 女房は一家の鍵 [nyōbō va ikka o kagi] “*Xotin uyning kaliti*”, 女房は家の道具[nyōbō va ie no dōgu] *xotin uyning zarur ashyosi*, 女房は家の宝[nyōbō va ie no tama] *xotin uydagi qimmatbaho tosh*, yuqoridagilarda xotin uyning kaliti, quroli, qimmatbaho toshi kabilarga qiyoslanadi. Ayniqsa, *xotin uyning katta qora ustuni* 大黒柱 ga qiyoslanib metaforik qo‘llanishida 女房は家の大黒柱 uy geshtalt bo‘lib qora ustun uning bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ustunsiz uy buzilib tushganidek, xotinsiz oila uy-ro‘zg‘or ham bo‘lmaydi.

Yosh xotin qadrlanadi: 女房と畳は新しい方がよい[nyōbō to tatami va atarashi houga yoi] “*Xotin va bo‘yraning yangisi yaxshi*”²⁰⁶. Ammo maqollarda antonimiya ham kuzatiladi: 女房と鍋釜は古いほどよい[nyōbō to nabekama va furui hodo yoi] “*Xotin va kastryul qancha eski bo‘lsa shuncha yaxshi*” 女房と味噌は古いほどよい[nyōbō to miso va furui hodo yoi] “*Xotin va miso* ²⁰⁷ *eskirgani sari totli*” bunda er-xotin munosabatlari yillar o‘tgan sayin bir-biriga ko‘nikib va bir-birini qadrlay boshlashi nazarda tutiladi.

Yaxshi xotin – uyga yaxshi 良妻賢母[ryōsai kenbo] “*yaxshi xotin aqlli ona*” ma’nosidagi ushbu birikma eri va bolalari tomonidan yaxshi xotin, yaxshi ona deb hisoblanuvchi, erini qo‘llab-quvvatlab, bolalariga yaxshi ta’lim va tarbiya beruvchi ideal ayol timsolini o‘zida mujassamlashtiradi. Turmushga chiqqan uyli ayolning namuna

²⁰⁶ *Tatami* - bo‘yra – tozalangan qamish cho‘pidan to‘qilgan to‘shama. Qamish, nay, luq, g‘arov poyalarini ma’lum uzunlikda zich qilib terib ko‘ndalangiga ip, tasma yoki qamish poyasini o‘tkazib bog‘lab qilingan to‘shama.

²⁰⁷ *Miso* – Yapon oshxonasining an’anaviy ziravori. Bu – soya loviyasini tuz va koji (*Aspergillus oryzae* qo‘ziqorini) va ba‘zan guruch, arpa, dengiz o‘tlari yoki boshqa masalliqlar bilan achitish natijasida hosil bo‘lgan quyuc pasta. Rangi oqdan jigarranggacha, deyarli qora ranggacha o‘zgarishi mumkin. U ko‘plab yapon taomlari va miso sho‘rvasining asosi hisoblanadi.

ko‘zgusi sifatida ushbu birlik ko‘p qo‘llaniladi: 家貧しくして良妻を思う[ie mazushikushite ryosai o omou] “*Uyda kambag‘allik boshlansa yaxshi xotin haqida qayg‘uriladi*”. “*Yaxshi xotin va sog‘liq erkakning eng katta boyligidir*”:良妻と健康は男の最上の富である [ryōsai to kenkō va otoko no saijyonō tomi dearu]. “*Erni er qiladigan xotin*”:良妻は夫を良夫にする[ryosai va otto o ryofu ni suru]. Yaponlar “*xotinni oshxonadan olish kerak*”ligini uqtiradilar: 女房は台所から貰え [nyōbō va daidokoro kara morae], bunda *asilzoda ayolga emas, uy-ro‘zg‘orni unumli yuritadigan ayolga uylanish kerakligi* nazarda tutiladi. Maqollarda kambag‘allikda birga bo‘lgan ayol qadrlanishi kerakligi ta’kidlanadi. 糟糠の妻は堂より下さず[sōkō no tsuma va dō yori kudasazu] so‘zma-so‘z, “*Faqirona yemak(guruch kepagi)dagi xotin ibodatxonadan quvilmaydi*”. Maqolning chuqur ma’nosi bor. Kambag‘allik paytida qiyinchilikni birga yenggan xotinni uydan quvilmaydi. 堂[dō] bu yerda mehmonxonani anglatmoqda, mehmonxona esa uyning bir qismi bo‘lgani holda yashash joyi uy nazarda tutilmoqda. Bunda kuzatuvchi uyning ichkarisi fokusidan yondashib, ichkaridan tashqariga harakatlanishga ishora qilmoqda. Bunda faqirona yemak guruch kepagi faqirona hayotni metafora orqali ifodalamoqda. Umuman yaponlar tafakkurida 糟糠の妻 iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yomon er bilan assotsiatsiyalanadi. Ya’ni faqirlik paytida birga qiyinchiliklarni yenggan xotin muvaffaqiyatga erishib martaba va obro‘ ko‘tarilganda haydab chiqarilmasligi kerak degan mazmunda erkak kishiga pand-nasihat sifatida qo‘llaniladi. Bu maqolning paydo bo‘lishi Xitoyga borib taqaladi. Maqollar lug‘atida xitoychada “*odam martabasi ko‘tarilsa sheriklarini almashtiradi, boyisa xotinini almashtiradi*” naqlidan kelib chiqqanligi yoziladi²⁰⁸.

Yomon xotin. Yapon maqollarida ham “*erni er qiladigan xotin bo‘ladi*” deb ta’kidlanadi: 布は緯から男は妻から[nuno wa nuki kara otoko va tsuma kara] “*Mato ipdan erkak xotindan*”. 内に怨女無く、外に曠夫なし[uchi ni enjo naku soto ni kōfu nashi] “*Uyda tana malomat va jahl qiladigan ayol bo‘lmasa, ko‘chada xotinsiz erlar ham bo‘lmaydi*”. Bu maqolda ham kuzatuvchining fokusi ichkaridan tashqariga ko‘chmoqda. “*Yomon xotin bir asrlik unumsizlikdir*”:悪妻は百年の不作 [akusai va hyakunen no fusaku] 悪妻はこの世の地獄の始め[akusai va

²⁰⁸ 尚学図書 (1986) 「故事ことわざ辞典」 小学館. – P.746.

kono yo no jigoku no hajime] “*Yomon xotin bu dunyoda jahannamning boshlanishi*”. Maqol xotin tanlashda juda ehtiyotkor bo‘lish lozimligini, aks holda yomon xotin butun hayotni do‘zaxga aylantirishi mumkinligini uqtiradi. Yapon maqollarida uyning buzilishi ayol kishi sabab yuz berishi ta’kidlanadi 家の乱れは女から[ie no midare va onna kara] 悪妻は家の破滅[akusai va ie no hametsu] bu maqolda yomon xotin uyning tanazzulga uchrashiga sabab bo‘lishi, yomon xotin tufayli nafaqat erkak, balki bola va nabira, butun avlod aziyat chekishi mumkinligi uqtiriladi. Ushbu maqolda bino ma’nosidagi 家 metonimiya asosida oilani anglatmoqda. Bu maqollarda kuzatuvchi tashqarida turibdi va ichkari fokusidan yondashayotganini til birliklari orqali anglash mumkin. Ammo keyingi maqolda yaqqol ichkari fokusdan yondashilgan. “*Mamlakatni odil boshqarmoqchi bo‘lsang yovuz vazirni quvish kerak, uyda tartib o‘rnatmoqchi bo‘lsang yomon xotinni haydash lozim*”: 国を治むるには佞臣を去り、家を治めむるには佞婦を去るべし[kuni o osamuru niwa neishin o sari, ie o osamuru niwa neifu o].

Uyda kim xo‘jayin? O‘ziga xos tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi yapon maqollarida ham genderga oid qiziq dunyoqarash yashiringan. Quyida shu haqida fikr yuritiladi. Maqollar uyda erning ham, xotinning ham birdek xo‘jayin bo‘lishi muhimligini tan oladi. Shunday bo‘lsa-da, ko‘pgina yapon maqollarida ijtimoiy institut sifatidagi uyda emas, xo‘jalik yuritish obyekti sifatidagi uyda ayol mavqeyining nisbatan quyi ekanligi bilan bog‘liq konnotatsiyasi seziladi. 「男は外女は内」[otoko wa soto onna wa uchi] *erkak ko‘chaniki ayol uyniki* falsafasi yapon jamiyatida hanuz o‘z kuchini yo‘qotmagan. Yaponlar nazdida uyni ayol boshqarsa bu uy uzoqqa bormaydi: 雌鳥歌えば家滅ぶ[mendori utaeba ie horobu] so‘zma-so‘z *tovuq qo‘shiq aytsa, uy buziladi*. Bunda metonimiya orqali hosila ma’no yuzaga kelib uy buzilishi oila buzilishini bildirmoqda. Demak, yaponlar tafakkurida uy katak bilan ham assotsiatsiyalanadi. Er ko‘chani, xotin uyni boshqaradi 夫は外を治め、妻はうちを治める[otoko wa soto o osame, tsuma va uchi o osameru], 男は内を言わず、女は外を言わず。[otoko va uchi o iwazu, onna va soto o iwazu] *erkak uyini gapirmaydi, ayol tashqarini gapirmaydi*, ya’ni er uydagi munosabatlarini ko‘chada gapirmaydi, ayol esa erining ko‘chadagi ishlariga aralashmaydi maqolida ichkari tashqari oppozitsiyasi ko‘zga tashlanadi. Bu ijtimoiy to‘liq bo‘lmagan ayol haqidagi umumiy tasavvurlarni vujudga keltirganki, quyidagi

maqollardan shunday ifoda yaqqol anglashiladi. Ayol kishi uyda necha yil o'tsa ham xo'jayin o'rni egallay olmaydi おなごの横座は百になつてもない。[onnago no yokoza wa hyakuni nattemo nai] “Ayolning uy to'ridagi joyi yuz yil o'tsa ham yo'q”. 横座 [yokoza]- O'choqning ichkari tomoni to'g'risida joylashgan uyning xo'jayini o'tiradigan to'ri joyi. Ko'rinadiki, yapon odatiga ko'ra uy xo'jayini faqat erkak kishi bo'ladi, xotin yuz yil yashasa ham xo'jayinlik mavqeyini ololmaydi. 女は三界にも家無し[onna va sangai nimo ie nashi] “Ayol kishining bu keng dunyoning hech qayerida xotirjam yashovchi uyi yo'q”ligini anglatadi. 三界[sangai] buddaviylikda tiriklik hamda o'lim tushunchalariga bog'liq 3 borliqni, ya'ni butun dunyoni anglatadi²⁰⁹, ba'zi manbalarda o'tmish, bugun va kelajakni anglatadi deya beriladi²¹⁰. Aslida 3 borliq tushunchasi metafora hisoblanib, ayol kishi turmushga chiqqungacha otasiga bo'ysunib uning uyida yashashi, kelin bo'lganida eriga, qariganda farzandiga bo'ysunishini ko'rsatuvchi 3 dunyoda ham xotirjam yashovchi maskani, o'z uyi yo'qligini anglatadi. Demak, ayol birligi qizni, kelin hamda onani bildirmoqda. Yana shunga o'xshash 女に五章三従あり[onna ni go shyō san jyū ari] maqolida ham ayolning doimo kimgadir tobeligi, erki o'z qo'lida emasligiga oid qarashlar yotadi. 「三従」 ayol amal qilishi shart 3 ta yo'lni ifodalaydi. Buddizm dinida aytilganidek uyda otasiga bo'ysunishi, kelin bo'lganida eriga, erining o'limidan keyin farzandiga bo'ysunishini anglatuvchi 3 turdagi bo'ysunish tartibini anglatadi. Bu qarashlardan ayol haq-huquqlari qadimdan quyi qo'yilganini anglash mumkin.

Uy-ijtimoiy munosabatlar. Unda yaxshi va yomon munosabatlar qarama qarshi qo'yiladi. **Uydagi xotirjamlik** 女房に惚れて家内安全 [nyōbōni horete kanai anzen] “Xotiniga oshiq bo'lib uyi xotirjam” yuqorida ta'kidlaganimizdek, 家内安全 uy, oila, undagi qarindoshlar, xotinni ifodalab ularning ortiqcha musibatlarsiz, tinch, xotirjam,

²⁰⁹ Buddizm dunyosida hayot va o'limga taalluqli qiyinchiliklarga to'la borliqni 3 turga bo'lishadi: birinchisi xohish-istaklar dunyosi, ikkinchisi rangli dunyo va rangsiz borliq. Xohish-istaklar dunyosi eng quyi pog'onada joylashgan bo'lib, yeb-ichish, uxlash kabi istaklar bilan yashovchi borliq, rangli borliq moddiylikka asoslanib bu xohish-istaklardan uzoqlashgan mavjudotlar yashovchi makonni va eng yuqori pog'ona rangsiz borliq bo'lib, moddiylikdan butunlay uzoqlashgan yuqori ruhiy olamni anglatadi.

²¹⁰ 日本大百科全書(ニッポニカ) (2022) 小学館

<https://kotobank.jp/word/%E4%B8%89%E7%95%8C-70355>

barqarorlikdagi hayotini, qarindoshlarning hayotiy kuchga to‘lib sog‘lom yashayotganliklarini anglatadi. Agar erkak xotinini sevib e‘zozlasa xotin xotirjam, hech narsadan xavotirlanmay ko‘ngli tinch bo‘ladi, erkak ham uydagilaridan xavfsiramay tinch bo‘ladi. Shunga bog‘liq ravishda er-xotin urishmay uy ichida ham tinchlik hukm suradi. Uy ichi tinch bo‘lsa oila ham hech qanday zarar ko‘rmay ko‘ngil xotirjam bo‘ladi degan chuqur ma‘noni bildiradi. Xotirjamlik ma‘nosini anglatuvchi 「安」 belgisi aslida *uy* iyeroglifining tom qismi 「宀 (家)」 bilan tagida 「女」 *ayol* iyeroglifi qo‘yilishi natijasida vujudga kelgan bo‘lib²¹¹, uyda ayol borligi ko‘ngil xotirjam ekanligini anglatadi. Uyning xotirjamligi ham hayot xotirjamligi ham ayolning ko‘ngli tinch yashayotganligiga bog‘liq.

Kambag‘al bo‘lsa-da, erkin va baxtli uyni anglatuvchi 我が家樂の釜盥 [waga ieraku no kama tarai] (so‘zma-so‘z. *baxtli uyimizning doshqozon tog‘orasi*) maqolida 釜盥 *doshqozon o‘rniga tog‘ora* birikmasi kambag‘al uyni ramziy ifodalamoqda. Doshqozon va tog‘ora uyning qurol, vositasi sifatida bo‘laklaridir. Bundan anglash mumkinki, yaponlarda ham boylikdan ko‘ra baxt va quvonch muhimroqdir. Bunda ichkari fokusidan qaralayotgan bo‘lsa, keyingi maqolda tashqari fokusidan qarab ichkariga ishora qilinmoqda. Xotirjamlik hukm surgan uyga nochorlik, qashshoqlik kirolmaydi: 家内和合張り札には貧乏神が寄りつけぬ [kanai wagou no hari fuda niwa binbōkamiga yoritsukenu] so‘zma-so‘z. *tinch-totuv uy deb yozib qo‘yilgan taxtachaga kambag‘allik xudolari yaqinlasholmaydi*. 張り札 [harifuda] ko‘zga ko‘rinadigan qilib qog‘oz yoki yog‘och taxtachaga e‘lon qilinishi kerak bo‘lgan hodisani yozib, osib qo‘yishga yoki uydagi yaxshilik alomati bor joyga qo‘yishga mo‘ljallangan yorliq, taxtacha. Biror niyatni tilab uni ibodatxonadan beriladigan qog‘oz yoki yog‘och taxtachaga yozib, uyning yaxshilik alomati bor burchagiga qo‘yish buddaviylik odatlari bilan bog‘liq²¹². Tinch-totuv uy deb yozib qo‘yilgan taxtacha 家内和合張り札 uyga qo‘yiladigan anjom sanaladi. Bu anjom bo‘lak sifatida

²¹¹ 日本大百科全書(ニッポニカ) (2022) 小学館 <https://kotobank.jp/word/%E5%AE%89-685369>

²¹² Абдухамидова Д. Япон тилида “家 ie –Уй” билан боғлиқ тушунчаларни шаклланишида буддизмнинг таъсири. // О‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda buddaviylik obidalarining o‘rni: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T., 2022. – B.230-236.

butunni ifodalamoqda. Bunda sinekdoxa usuli orqali ma'no ko'chib ushbu taxtacha butun boshli uyni totuv yashayotgan qarindoshlar guruhi oilani ifodalamoqda. Xuddi shu ma'noda sinonim maqolni uchratish mumkin. Uydagi qarindoshlarning bir biri bilan kelishib, murosa qilib, o'zaro qo'llab-quvvatlab yashashi uyning ravnaq topishidan dalolatdir: 家内和睦福神のまつり[kanai waboku wa fukujin no matsuri] so'zma-so'z. *uydagi murosa baxt xudolarining bayrami*. Xalqimizda quvonch kulgi arimaydigan uyda baraka bo'ladi deyishadi. Yaponlarda ham kulgan uyga baxt kiradi deyiladi: 笑う門には福来る[warau kado niwa fuku kitaru] so'zma-so'z, "*kulgan darvozaga baxt keladi*", maqolda 門[kado] darvoza uyni ifodalamoqda. 笑う門[warau kado] kulgan darvoza aslida metonimiya asosidagi ma'no ko'chishi bo'lib, uyning a'zolari bo'lgan oilani ifodalab qarindoshlar guruhiga ishora qilmoqda. Bunda kuzatuvchi tashqarida turib ichkari fokusidan hodisani bayon qilmoqda.

Uydagi kelishmovchiliklar uydan baraka ketishini anglatadi: 夫婦喧嘩は貧乏の種蒔き [fūfu genka va binbō no tanemaki] so'zma-so'z *er-xotinning urushi kambag'allik urug'ining sochilishi*, doimiy er-xotin janjallashadigan uyda er ko'ngilxushlikka, xotin behuda pul sarflashga beriladi va oqibatda uydan baraka ketib, kambag'allik boshlanadi. Er-xotinning urushi kuchli g'arb shamoliga qiyoslanadi, *tez esib kechga yaqin tinadi*: 西風と夫婦喧嘩は夕限り[nishi kaze to fūfu genka va yūkagiri]. 相撲に負けて妻の面張る[sumō ni makete tsuma no tsuraharu] "*Sumoda yutqazib xotin yuziga shapaloq uradi*". Ko'chada ishi yurishmagan erkak, uyda xotinidan alimini olib yuziga shapaloq tushiradi ma'nosidagi maqolda ham kuzatuvchi ham tashqari ham ichkari fokusidan olib vaziyatga yondashmoqda. Uyda yetishmovchilik, kambag'allik boshlansa oilada mehr muhabbat yo'qoladi: 貧乏は戸口から入ると愛は窓から逃げ出す[binbō va toguchi kara hairu to ai va mado kara nigedasu] "*Kambag'allik eshikdan kirib kelsa, mehr oynadan qochadi*". Sinekdoxa usuli orqali eshik va oyna butun uyni ifodalamoqda. Bu maqolda yaqqol uyning ichkarisidagi fokusdan oiladagi munosabatlar ifodalanmoqda. Bunda avval fokus tashqaridan ichkariga harakatlanib, keyin esa ichkaridan tashqariga ko'chmoqda.

Uyning buzilishi. Ko'p maqollarda uy hamda davlatning yemirilishi uning tashqarisidan emas uyning ichidan boshlanishi ta'kidlanadi: 家を破る鼠は家から出る[ie o yaburu nezumi va ie kara deru] "*Uyni*

yemiruvchi sichqon uydan chiqadi". Ayniqsa, *uyning yemirilib buzilishiga ayol kishi sabab bo'lishi kuchli ta'kidlanadi*:家の乱れは女から[ie no midare wa onna kara] "*uy, kambag'al ahvolga kelganda yaxshi xotin haqida o'ylanadi, mamlakat yemirilayotganda yaxshi rahnamo haqida bosh qotiriladi*":家貧しくして良妻を思い、国乱れては良相を思う[ie mazushikushite ryosai o omou, kuni midarete wa ryōshō o omou]. Ushbu maqollarda metonimiya yo'li orqali ma'no ko'chib, 家 uy unda yashovchi oilani ifodalab uning a'zolariga ishora qilmoqda.

Uy-avlod davomiyligi. Bu bolalarga bo'lgan munosabat, farzand tarbiyasiga bog'liq bo'lib bolaning yaxshi va yomon tarbiyasiga qarab uy gullab yashnaydi yoki yemirilib, yo'q bo'lib ketadi. Demak, bola uyning davomiyligini belgilashi nazarda tutiladi. Qadimdan 3 farzandi bor uylar risoladagidek oila sifatida ko'rilgan 負わず借らずに子三人 [owazu karazuni ko san nin]. Yaponlarda bola er-xotin munosabatini mustahkamlovchi shaxs sanaladi. Bejizga 子は鎧[kō va kasugai] *bola halqa biriktirgich* yoki 子は夫婦の鎧[kō va fūfu no kasugai] *bola er-xotinning halqa biriktirgichi* deyilmagan. Bunda 鎧[kasugai] halqa shaklidagi ikki yog'ochni biriktirib turuvchi mix bo'lib, metafora sanaladi, farzand er-xotinni biriktirib turuvchi halqa biriktirgichga qiyoslanmoqda. Ikki yog'ochni biriktirib turuvchi halqa uy qurishda foydalaniladi. Demak, 鎧[kasugai] vosita, qurol sifatida uyning bo'lagi hisoblanadi. U geshtalt sifatidagi uyning butunligini ta'minlovchi vositadir, oilani mustahkamlovchi ne'matdir. Bu maqolda bo'lak 鎧[kasugai] orqali butun 家 uy anglashiladi.

Bola tarbiyasi. Bola uyda o'rganganlarini ko'chada yuzaga chiqaradi, ya'ni "Qush inida ko'rganini qiladi":内の習いは外で出る [uchi no narai wa soto de deru] "*Uydagi tarbiya ko'chada ko'zga tashlanadi*", 内で掃除せぬ馬は外で毛を振る [uchide souji senu uma wa soto de ke o furu] so'zma-so'z, "*Uyda xo'jayini tozalamagan ot ko'chada yungini qoqadi*", ya'ni uyda tarbiyalanmagan bola ko'chada o'zini tutishidan bilinadi. Metafora orqali uyda parvarishlanmagan ot uyda tarbiyalanmagan bolaga qiyoslanmoqda. Yuqoridagi maqollarda ham yaqqol uy ichi va tashqarisi munosabatini kuzatish mumkin. Bunda uy ichi fokusidan uy tashqarisi fokusiga ko'chish kuzatiladi. Yaponlarda bolani ona tomondan haddan ortiq erkalatilishi qoralanadi: 母育ちは内弁慶の意味[haha sodachi wa uchi benkei] "Onasining erkasi uyda soxta botir" Onasi erkalatib o'stirgan bola uyida kerilsa-da,

tashqarida irodasiz, keraksiz odamga aylanadi. Bu maqolda ham yaqqol uyning ichidagi munosabatlar tashqaridagi boshqa begonalar bilan munosabatga qarama-qarshi qo'yilmoqda.

Farzand uy, avlod davomchisi sifatida uyning gullab yashnashiga yoki uning tanazzuliga sabab bo'ladi 家に諫むる子あればその家必ず正し [ie ni isamuru ko areba sono ie kanarazu tadashi], 父に諫むる子あればその家必ず繁栄す [chichi ni isamuru ko areba sono ie kanarazu haneisuru] “*uyda kattalarni xato, kamchiliklarini ko'rsatib, adolatsizlik qilishdan qaytarib turuvchi fozil farzand bo'lsa shu uy ravnaq topadi*”. Bunday oqil farzandning yo'qligi uyning tanazzulidir 家に諫子なければその家必ず滅ぶ [ie ni kanshi nakereba sono ie kanarazu horobu]. Bunda bola avlod davomchisi sifatida 家 [ie] uy bilan metonimiya asosida bog'langan. 家貧しくて孝子顕る [ie mazushikute koushi arawaru] *uy kambag'allashsa fozil farzand paydo bo'ladi*. Uyda nochorlik boshlansa ota-onaning qiyinchiligini tushungan farzand ularga yordamlashib ishlaydi va natijada ota-onaga munosib fozil farzand haqida hamma biladi. Demak, farzand uyning kemtigini yamovchi, uyni butun qiluvchi shaxsdir. Bularning barida uyning ichkarisidagi fokusdan yondashuv ko'zga tashlanadi. “*Ota-bola munosabatlarida ishonch bo'lmagan taqdirda uy ishlari baroridan kelmaydi*”: 父子信あらざるときは家道睦まじからず [fushi makoto arazaru toki va, kadou mutsu majikarazu]. Bolalar ota-onaning o'z aksini ko'rsatuvchi ko'zgudir 子は親の映す鏡 [ko va oya no utsusu kagami] *bolaga qarab uning ota-onasi kimligini bilasan* 子を見れば親が分かる [ko o mireba oyaga wakaruru]. 積悪の家には必ず余殃あり [sekiaku no ie niva kanarazu yoō ari] *bir necha davr mobaynida odamlarga yomonlik qilib kelgan oilaga ota-bobolar qilgan xatolar jazosi sifatida uyning avlodlari farzand va nabiralargacha musibat, baxtsizlik yog'iladi*. Metonimiya asosida uy qarindoshlar guruhi farzand va nabiralarni ifodalamoqda. 内孫より外孫 [uchi mago yori soto mago] *uydagi nabiradan tashqaridagi nabira*, qizning bolasi ham o'g'ilning bolasi ham birdek nabira hisoblanadi. Ammo uyidagi kelindan tug'ilgan nabiradan, qizidan tug'ilgan nabira aziz ekanligini bildiradi. Shunga qaramay, qiz farzanddan bo'lgan nabira uydan tashqarida bo'lganligi hamda, boshqa uyda yashagani sabab begona sanaladi: 外孫飼うより犬の子を飼え [sotomago kau yori inu no ko o kae] *qizdan bo'lgan nabirani boqqandan it bolasini*

boq. Bunda o‘z va o‘zga uyning ichi uyning tashqarisi munosabati qarindoshlik munosabatlarini anglatmoqda.

Uydagi kelgindi odamlar. Kuyov. Maqollar kuyov qilganda ijtimoiy tabaqasi baland, zodagon, boy xonadondan qilishni, kelin olganda esa o‘zidan quyi tabaqadagi uydan olishga chorlaydi: 婿は座敷からもらえ嫁は庭からもらえ[muko va zashiki kara morae yome va niva kara morae] “*kuyov qilganda mehmonxonadan, kelin qilganda hovlidan ol*”, bu maqolda metafora bor. 座敷[zashiki]-uyning mehmonxonasi bo‘lib tabaqasi baland, zodagon, boy xonadonni ifodalamoqda, 庭[niva]-uydan tashqarida joylashgan hovli quyi tabaqadagi uyga qiyoslanmoqda. Metafora bizga aniqroq domen haqidagi konseptual strukturani mavhum bo‘lgan nishon domenga eksport qilish, tashish imkonini beradi. Demak, ayni maqolda mavhum tushuncha sifatidagi kelib chiqish zoti, tabaqaning yuqori hamda quyi ekanligi aniq tushuncha bo‘lgan mehmonxona va hovli orqali ifodalanmoqda.

Yapon maqollarida ichkuyovning uydagi roli ancha quyi qo‘yilib, ayoli undan yuqori ekanligi seziladi. Yaponlar *yetarlicha mablag‘i bo‘lsa, ichkuyov bo‘lmay* alohida uyda o‘z ro‘zg‘orini tebratishga undaydilar: 小糠三合あるならば入り婿すな[konuka sangou aru naraba irimuko suna]. Kuyov uyga kirishi, ya‘ni ichkuyov bo‘lishi uyda kambag‘allikning boshlanishidan dalolatdir: 婿取り三代後家三代[mukodori sandai, goke tori sandai] “*Uch avlod ichkuyov qilsang uyda uch avlod kambag‘allik hukm suradi*”. 婿取り天井なし[mukodori tenjyō nashi] (so‘zma-so‘z. ichkuyov shiftsiz) - “*Ichkuyovi bor uyning shifti bo‘lmaydi*”. 入り婿は火を焚く[irimuko va hi o taku]- “*Ichkuyov olov yoqadi*”. Ayonki, yaponlar tasavvurida ichkuyov uyga baxtsizlik keltiradigan, uyning butunligini buzuvchi xavf sifatida ko‘riladi.

Kelin yapon tilida uyga begona sifatida kiruvchi kelgindi shaxs. Buni shu so‘zning 嫁 iyeroglifidan ham, turli so‘z birikmalaridan ham anglash mumkin. Bu haqida yuqorida 2 va 3 bo‘limda tahlil qilindi. Shu jihatdan kelinni uyda xush ko‘rilmasligi ottenkasi seziladi. *Kelin yomon, nabira shirin* 嫁は憎い孫はかわいい[yome va nikui, mago va kawai], ammo u uyni qo‘llab-quvvatlovchi shaxs sifatida uydagi asosiy shaxsdir. *Kelin uyning ustuni* 嫁は大黒柱[yome va dai kuro hashira]. Maqollarda kelin asosan ijobiy obrazda gavdalanadi. 嫁と厠は遠いほど良い Uy

hojatxonasi joylashuvi uydan qancha uzoq bo'lsa shuncha yaxshi, kelin olganda o'z uyidan qancha uzoqda bo'lsa shuncha yaxshi. Kelin hamda xotinni oshxonadan olish kerakligini uqtiradilar. “*Asrandi bolasi bor uyda shamol to'lgini to'xtamas*”, ya'ni uyda xotirjamlik bo'lmaydi: 連れ子の家には波風絶えず [tsureko no ie niva name kaze taezu]. Bu maqolda ham kuzatuvchi tashqari fokusidan hodisani bayon qilmoqda.

Demak, “家[ie]-uy” bilan makon namoyon qilinadi. Uydagi shaxs uni ko'rkamlashtirib yashashiga qarab 都[miyako] *poytaxt* sifatida, katta makon sifatida 国境[kokkyo] - *Vatan* tushuniladi.

“家[ie]-uy” oila bilan namoyon qilinadi. 敷居[shikii]-*ostona* uyni, 門[mon]-*darvoza* oila a'zolarini, 床[yuka]-*pol* uydagilarni metonimik ifodalaydi.

“家[ie]-uy” yaqin qarindoshlar guruhini bildiradi. Uyning qism va bo'laklari metafora, metonimiya, sinekdoxa ma'no ko'chish usuli orqali oila va qarindosh-urug'chilik munosabatlariga, qarindoshlar guruhiga yoki aniq bir shaxsga ishora qiladi. Buni o'ziga xos yashash joyi madaniyatini ko'rsatuvchi 横座[yokoza]- *uyning to'ri* uyning xo'jayinini, 釜戸[kamado], 炉の火[ro no hi] - *o'choqdagi olov*, 上がり框[agarikamachi]-*ostona*, 梁[utsubari]-*to'sin*, 畳[tatami]-*bo'yra*, 台所[daidokoro]-*oshxona* osh-ovqatga usta xotinni, kelinni, 大黒柱[daikurobashira]- *baland qora ustun* otani, xotinni, 窯壺[kamatarai]-*doshqozon* o'rnida tog'ora, 天井なし[tenjyo nashi]-*shiftsizlik* kambag'al, nochor uyni metaforik o'xshatish orqali nomlaydi.

“家[ie]-uy” tabaqani ifodalaydi. 座敷[zashiki]-*mehmonxona* tabaqasi yuqori zodagon oilani, 庭[niwa]-*hovli* oddiy o'rta tabaqa oilani, 牆[kaki]-*panjara* uy ichini ma'no ko'chishining sinekdoxa usulida ataydi.

“家[ie]-uy” – avlodning davomiyligi assotsiatsiyasi qarindosh-urug'chilik birliklari farzand va nabiraga bog'liqlikda anglanadi: 家は一人名は末代, 積悪の家には必ず余殃あり kabi.

“家[ie]-uy” – ijtimoiy munosabatlarni uydagi yaxshi va yomon munosabatlar, ziddiyatlar, xotirjamlik kabilar o'zida aks ettiradi. Bu o'rinda 大きい風- *kuchli shamol* uydagi oila a'zolariga bog'liq tashvishlarni bildiradi. Zoonimlarga o'xshatish orqali qarindosh-urug'chilik munosabatlari ifodalanadi. 雌鳥[mendori]- *tovuq* xotinga, 鼠[nezumi]- *sichqon* uyni ichidan yemiruvchi a'zosiga, 馬[uma]-*ot* tarbiyasiz bolaga qiyoslanadi.

“家[ie]-uy” – **modda**. Bu obrazda uy, qarindoshlar biron-bir moddaga, uyga tegishli buyumga qiyoslanadi. 鍵-kalit, 宝-qimmatbaho tosh, 鍋窯-kastryul, みそ[miso]-soya donlarining qaynab maromiga yetishidan hosil bo‘lgan quyuq massa xotinga, ota-onaning aksini ko‘rsatuvchi 鏡-oyna farzandga qiyos qilinadi. 張り札-taxtacha uy oilani sinekdoxa yo‘li orqali ifodalaydi.

“家[ie]-uy” **qurilma sifatida reprezentatsiyalanadi**. Erkak xo‘jayin sifatida uyning ustuni. Bunda ota, er imperatorning bosh maslahatchisi kabi uyda hal qiluvchi qarorni aytuvchi xo‘jayin maqomida, uyning butunligini ta‘minlovchi qora ustun sifatida namoyon bo‘ladi. Xotin 女房 [nyōbō] uyning qimmatbaho va qadrli narsasi. Bunda 鍵-kalit, 宝-qimmatbaho tosh, 鍋窯-kastryul, みそ[miso], 畳[tatami]ga qiyoslanadi. Xotin 女房 [nyōbō] hamda 嫁 [yome] kelin uyning eng zaruriy qurilmasi. Buni quyidagi metaforik birliklardan anglash mumkin: 炉の火[ro]-o‘choqdagi olov, 上がり框[agarikamachi]-dahliz, 梁[utsubari]-to‘sin, 畳[tatami]-bo‘yra 大黒柱[daikurobashira]-baland qora ustun. Bola - biriktirgich. Bola - uydagi munosabatlarni mustahkamlovchi shaxs. Bola uyning umr davomiyligi. Bolaning yaxshi va yomon tarbiyaga egaligi uyning davomiyligini belgilaydi. 男 [otoko] erkak so‘zi erni, 女[onna] ayol so‘zi xotinni ifodalaydi.

Statistik tahlil umumiy maqollarning 6,2 %ini uy ishtirok etgan hamda qarindoshlikka oid maqollar tashkil qilishini ko‘rsatdi. Ulardan qarindosh-urug‘chilikka oid birliklar bilan 家 ning bog‘liqligini ko‘rsatuvchi maqollar saralash usuli orqali yig‘ib olindi va ular 21,5% ni tashkil qildi. Konseptual tahlil maqollarning 53.3% ida “家[ie]-uy” yaqin qarindoshlarni ifodalashini ko‘rsatdi, bundan tashqari, uy-makon reprezentatsiyasi 17.2% ni, uy-oila reprezentatsiyasi 16.6 %ni, uy-tabqa assotsiatsiyasi 7.2%ni, uy-qurilma reprezentatsiyasi 5.5% ni tashkil qilishini ko‘rsatdi. Demak, yapon olamning lisoniy manzarasida makon sifatidagi aniq tushuncha bo‘lgan uy nishonda qavm-qarindoshlik birliklari, ijtimoiy munosabatlarni anglatadi.

XULOSA

Qarindosh urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarida “家[ie]-uy” konseptining kognitiv-semantik xususiyatlarini o‘rganishda quyidagi xulosalarga kelindi:

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarda “家[ie]-uy” konseptining ahamiyati antropologik, sotsiologik jihatdan o‘rganilib, shaxsning o‘ziga hamda jamoaga qarab mo‘ljallash nazariyalari asosida qavm-qarindoshlik birliklari ijtimoiy mavqe bildiruvchi tushunchalar sifatida tavsiflanadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarda qavm-qarindoshlik birliklari kishilik olmoshlari sifatida so‘zlovchi, tinglovchi va 3-shaxs fokusidan tavsiflanadi. “家[ie]” qavm-qarindoshlik birliklarining umumiy asosini tashkil qilishi haqidagi qarashlar asosida oykosentrik yondashuv ishlab chiqilgan. Shunga qaramay, yaponshunoslikda qavm-qarindoshlikka oid birliklar “家[ie]-uy” konseptidan alohida o‘rganilgan, shuning uchun “家[ie]”ning semantik xususiyatlari borasida tadqiqini kutayotgan ishlar mavjud.

“家[ie]-uy” konsepti mohiyatini ochishda freym tahlilidan foydalanish ayni konseptga oid sistematik bilimlar strukturasini tuzish imkonini berdi. Tadqiqotda konseptni freym orqali o‘rganishda mo‘ljallash strukturasini, konseptual metafora, figura-fon, fokus kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanilgan va bu yondashuvlar o‘zaro uzviy aloqador. Freym tahlilida konsept strukturasidagi bilimning ma’lum tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatish, shu qismga diqqat-e’tiborni qaratish orqali til birliklari ma’nosi aniqlandi. Lisoniy birliklarni freym semantikasi nuqtayi nazardan o‘rganishda fokus yondashuvi bilimning har bir qismini batafsil va aniq o‘rganish imkonini berdi.

Yapon xalqining lisoniy tafakkurida “家[ie]-uy” tushunchasi tadrijiy ravishda o‘zgarib borgan. Dastlab “家[ie]-uy” Edo davrida patriarxat tizim sifatida shakllangan, keyinchalik u jamoaviylikni anglatuvchi an’anaga aylangan, “家[ie]-uy” unda yashovchilarning hayotining kafolati sifatida uyiga nisbatan g‘urur-iftixorni ifodalagan. G‘arb madaniyatining ta’sirida bu tushunchani bildirish uchun o‘zlashmalardan ham foydalanilgan. “家[ie]” nafaqat yashash joyi, balki tizim sifatida avloddan avlodga o‘tuvchi nomni ham anglatgan. “家[ie]” strukturaviy model asosida jamiyat a’zolarini ijtimoiy kelib chiqishiga qarab tabaqalashtiruvchi tizim sifatida nasl-nasabni ko‘rsatuvchi, ayol va erkak tengsizligini o‘zida aks ettiruvchi

stereotipga aylangan. Hozirda uy tizimiga oid stereotip tafakkur saqlanib qolgan. Shu tafakkur asosida shakllangan qarindosh-urug'chilikka oid til birliklarining qo'llanishi hozir noqulay bo'lib qolgan. “家[ie]-uy” obrazi hamda qarindosh-urug'chilikka oid birliklar o'zida genderologik tushunchalarini ham aks ettiradi.

Qarindoshlikka oid iyerogliflarning kelib chiqishi yapon madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan “uy tizimi”ga oid tasavvurlarga borib taqaladi va bu birliklarning aksariyati uy xonalarining nomlanishidan kelib chiqqan. Qarindosh-urug'chilik bilan bog'liq birliklar tug'ishgan qondoshlik aloqalari, yon shajara qarindoshlik aloqalari, nikohdan keyingi qavm-qarindoshlik birliklariga ajratib tizimlashtirildi va umumiy 40 ta birlik tahlilga tortildi. Tahlillar natijasiga ko'ra, “家[ie]-uy” konsepti bilan bog'liq qarindosh-urug'chilik birliklarining nominativ maydonida ichkari va tashqari oppozitsiyasi belgi, ma'no va munosabat shakllariga ta'sir ko'rsatadi.

Yapon tilida “家[uchi]-uy” qavm-qarindoshlik so'zlari ma'nosida yoki buning aksi qarindoshlikka oid so'zlar uy ma'nosida qo'llanadi. Qavm-qarindoshlikka oid birliklar ma'nolarini yoritishda makon va kuzatuvchi nigohi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Yapon tilida qarindoshlikka oid birliklarni ifodalashda subektning nuqtayi nazariga ahamiyat beriladi. Shu bois qavm-qarindoshlikka oid birliklarni tanlashda 3 omil asos bo'ladi: a) so'zlovchining turgan o'rni; b) kimning nigohi bilan qaralayotgani; d) so'z borayotgan shaxsning shu makondagi mavqeyi.

Yapon tafakkurida suhbatdoshning o'ziga ham biologik, ham psixologik yaqin- uzoqligi, o'ziniki yoki o'zga shaxsligi, ichki va tashqi munosabatlar makon asosida belgilanadi. Qarindosh-urug'chilikka oid birliklarining uyda qo'llanishida so'zlovchi o'zining nigohini uydagi eng kichik bolaning nigohiga ko'chirish orqali, murojaat qilganida shu shaxsning uydagi o'rini va ta'siridan kelib chiqib qarindoshlik birliklarini qo'llaydi. Yoshi katta shaxslarni bu tarzda atash, nomlash va murojaat qilish hodisasining mohiyatida, aslida, uyning eng kichik a'zosi bola ekanligi va shunga asoslangan milliy nigoh yotadi. Jamoa doirasida qo'llaniluvda esa begona makon hisoblangan ish joyi – o'zlashtirilgan joy, o'ziga tegishli makon sifatida qabul qilinadi, shuning uchun guruh doirasida, xizmat ko'rsatish obektlarida, ishxonada birga ishlovchi shaxslar oilaga o'xshatiladi. Qarindosh-

urug'chilikka oid til birliklari jamoaga nisbatan qo'llanganda ham so'zlovchi o'zining nuqtayi nazaridan ifodalashi yoki o'zi turgan joyni empatik ravishda boshqa obyektga ko'chirishi, o'zining nuqtayi nazarini shu obyektga faoliyat yurituvchi xodimlar fokusiga ko'chirishi mumkin.

Yapon tilida uy bekasi – ona stereotipi shaklidagi reprezentativ tushuncha faol va bu timsolni nafaqat ayol jinsidagi kishi, balki erkak jinsli kishi ham yarata oladi. Yapon tilida 母[haha] onaning metafora asosida qo'llanishi, kindik qoni to'kilgan muqaddas makon, keng hududlarga, uyning yorug'ligiga qiyoslanishi “家[ie]-uy” konseptiga bog'liqlikni ko'rsatdi. Onaning uyda mehr ulashish, farzandini tashqi ta'sirlardan himoyalovchi sifatidagi himoya qilish modellari hamda onalik bilan bog'liq uy bekasi, ruhiy bosim ostida sharoitga ko'nikuvchi ayol, ta'lim onasi, ona uydagi iliqlik, mehr-muhabbat manbayi stereotiplari “家[ie]-uy” konsepti bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi.

“家[ie]-uy” konsepti leksik sathda makon sifatidagi uyga qarab mo'ljallanish asosida verballashadi. “家 uy” konsepti bilan bog'liq til birliklari ishtirokidagi birikmalarda oila sifatida bir butunlikni tashkil qilish ma'nosi kelining uyga kirib kelish harakatini anglatadi, butunlikning bo'linishi esa uyning buzilishi ma'nosida o'sha kelining uydan ketish harakati orqali ifodalanadi. うち[uchi] *uyim* va お宅[otaku] *uyingiz* so'zlarida kuzatuvchi nigohida 2 ta makon ifodalanadi. So'zlovchi suhbatdoshga empatik (ruhan) yaqinlashganda uning makoniga o'tib, tashqari fokusidan o'z makonini ko'radi. Fokusdagi bunday ichki-tashqi munosabat ba'zan o'z-o'zga munosabatini anglatishi ham mumkin. O'zgaga hurmat yuzasidan *men* olmoshi o'rnida うち[uchi]ning qo'llanishi yaponlarning muloqotda o'zini old planga qo'ymasligi, ko'zga tashlanmaslikka intilishi kabi madaniy o'ziga xosliklar bilan bog'liq. Shu tufayli うち[uchi] qarindosh-urug'chilikka oid til birliklari bilan qo'llanganda, shaxsning o'zini anglatadi. Ko'rinadiki, hozirda うち[uchi] individual xususiyatli bo'lib qolgan.

“家[ie]-uy” konseptining freym strukturasi tuzildi va kognitiv modeli yaratildi. U 2 modelni o'z ichiga oladi. I Uy – qarindoshlar guruhi va oilaning, II uy – jamoaning modelidir. Tadqiqot natijalari uy – qarindoshlar guruhi va oila metonimik model ekanligini, uy – jamoa esa metaforik model ekanligini ko'rsatdi. Bu 2 model strukturasi

murakkabligi, o'z ichiga bo'g'in va qatlamlarni qamrab olishi, modellar tuzilishida ijtimoiy munosabatlar yetakchilik qilishini ma'lum qildi. Bunda uyning makon sifatida umumiyligi, yopiqligi, himoyalanganligi, xotirjamlik makoni ekanligi, ishonchliligi, chegaralanganligi kabi funksiyalari uy – oila hamda uy – jamoa modellarida ham namoyon bo'ladi. “家[ie]-uy” konseptida aniq tushuncha orqali mavhum tushunchaga o'tiladi. Qavm-qarindoshlik bilan bog'liq maqollarning konseptual tahlili butunlik ko'rinishidagi uy uning qismini ifodalashini, xususan, metonimik tarzda unga tegishli guruh oilani yoki alohida shaxsni ifodalashini ko'rsatdi. “家[ie]-uy” makon, bino, oila, avlodlar va an'analar davomiyligi, tabaqa, yaqin qarindoshlar, ijtimoiy munosabatlar, narsa-buyum singari moddiy-ma'naviy tushunchalar bilan assotsiatsiyalanadi.

Shaxsning “家[ie]-uy” ichida yoki uning tashqarisida ekanligiga qarab, qarindoshlikka oid birliklarning ma'nosi va munosabat shakli belgilanadi. Yaponlar ichkari va tashqari, o'z va o'zga, tanish va notanishlik munosabatiga o'ta sezgir xalq bo'lib, suhbatdoshi o'ziga nisbatan “ichkaridagi shaxs”mi yoki “tashqaridagi shaxs”mi, shuni aniq anglagan holda til birliklarini qo'llaydilar. Yapon tilida o'ziga yaqin bo'lgan shaxslarni bildiradigan so'zlar ichki-tashqi oppozitsiyasi asosida farqlanadi. Kontekst, vaziyat hamda suhbatdoshning ijtimoiy holati 家[uchi] sifatida tanlanayotgan shaxs tushunchasini o'zgartirishi mumkin. Fokusning o'zgarishiga qarab qavm-qarindoshlikka oid til birliklarining tanlanishi 家 [uchi] - uyning dinamik jarayonligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI
Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

1. Abdirasulov B.A. Konseptning lisoniy voqelanish jarayoni. // “Science and education” ilmiy jurnali. – 2020. 1-son, 9-nashr. – B. 296-301.
2. Abduazizov A. Tilshunoslikning istiqbollari. // Filologiya masalalari. – T., 2011. – №3. – B.22-25.
3. Абдухамидова Д. Япон тилида “家 ie –Уй” билан боғлиқ тушунчаларни шаклланишида буддизмнинг таъсири. // О‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda buddaviylik obidalarining o‘rni: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T., 2022. – B.230-236..
4. Abduxamidova D.A. Yapon tilida 母 -xaxa(ona) so‘zi va uning semantik modellari. // Ilm sarchashmalari: ilmiy-nazariy, metodik jurnal. Urganch davlat universiteti, 2021. – B.134-140.
5. Абдухамидова Д. Значение “家-иэ-дом” в системе имен родства в японском языке. // О‘zMU xabarlari, 2022. № 1. – 201-205 с.
6. Абдухамидова Д.А. Япон ва ўзбек тилларида қариндош-уруғчиликни ифодаловчи лексик бирликларни системалаштиришга оид. // “Шарқшунослик” илмий журнали. ТошДШУ, 2020. 2-сон. – Б.156-168.
7. Агзамова Д.Б. “Хотира” концептининг умумий ва ўзига хос хусусиятлари. Филол.фанлари номзоди ... дисс. – Т., 2012. – 164 б.
8. Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов о современными направлениями лингвистики. // Филологиянинг долзарб масалалари: Маъруза тезислари. – Т., 2008. – С.56.
9. Бахронова Д. Антропозооморфизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. Монография. – Т.: Фан ва технология, 2018. – 255 б.
10. Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/сўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира. Дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 2010. – 153 с.
11. Даулетмуратова З.У. Қорақалпоқ тилида қариндошлик атамалари. Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Нукус, 2010. – 20 б.

- 12.Ибрагимов Ю.М. Ареалная терминология родства и некоторые вопросы этнического формирования узбеков Южного Приаралья. / Материалы международной конференции “Устойчивое развитие Южного Приаралья”. – Нукус, “Илим” – 2011.– С.117-118.
- 13.Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол.фанлари док. ...дисс. – Т., 1999. – 266 б.
- 14.Исмоилов И.А. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари. Монография. – Т.: Фан, 1966. – 156 б.
- 15.Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. – Т.: Fan, 1977. В.176.
- 16.Madaminova R.Y. The kinship terms of the Uzbek and Karakalpak nations (on the example of Uzbek dialects of Karakalpakstan)//Eurasian scientific Herald. – 2022.Vol.8. – P.35-37.
- 17.Маматов А.Е. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари: проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212-220.
- 18.Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991. – 274 б.
- 19.Махмудов Н.Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. №5. – Б.3-16.
- 20.Менглиев Б., Холмонова З. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Т., 2016. – 145 с.
- 21.Мулекова Л.Р. Термины родства в функции обращения в японском языке//Бюллетень науки и практики. – 2022. №2. – Б.330-334.
- 22.Нарзиева М. Ўзбек тилида шахсни ёш жиҳатдан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби. Филол.фанлари номзоди ...дисс. – Бухоро, 1992. – 131 б.
- 23.Рахимова И.И., Рустамова М. “Эмпатия” атамаси ва унинг ўсмирлик давридаги хусусиятларини тушуниш//Eurasian journal of law, finance and applied sciences. Innovative academy research support center, january 2023. Volume 3, Issue 1. – P.174-177.
- 24.Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Филол.

- фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) дисс. – Бухоро, 2019. – 187 б.
25. Саидова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. Филол.фанлари номзоди ... дисс. – Т. 1995. – 130 б.
 26. Saidova M. Singil termini haqida. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2000. №5. – В.61.
 27. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006. – 92 б.
 28. Сафаров Ш. Семантика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – 344 б.
 29. Халмурзаева Н.Т. Японияда таълим тарбия масалаларидаги стереотиплар. // Японшунослар халқаро форуми. Илмий тўплам. – Т., 2021. – Б.303-309.
 30. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол.фанлари док. ...дисс.автореф. – Т., 2015 – Б. 102.
 31. Худайбердиева Л. Будикова М. Тилнинг аташ ва гносеологик вазибаларидаги ўзаро муносабатлар.// Сўз санъати хақаро журнали. – Т., 2020. – №1, 3 жилд. – Б.25-31.
 32. Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультрема атамалари хусусида. // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. –Т., 2011. –Б.49-55.
 33. Abdukhamidova D. The semantic development of the word Ie “home” in Japanese. // Asian Journal of multidimensional research (AJMR). – India, 2021. Vol 10, Issue 5. – 557-562 p.
 34. Abdukhamidova D. Dynamics of change of the concept of “家 ie-home” in the linguistic consciousness of the japanese people. // International Journal Evaluation and Research in Education(IJERE). Institute of Advanced Engineering and Science. ISSN: 2252-8822. – 2023. – Vol 12. № 3. – P.199-204. (Scopus).
 35. Alpatov V.M. Words of kinship in Japanese. / Kinship in Altaic world: proceedings of the 48th Permanent international Altaistic conference. Moscow 10-15 July, 2005. – P.7-13.
 36. Асколдов С.А. Концепт и слова. // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста:Анталогия. / Под.общ.ред. В.П.Нерознака – М.:Academia, 1997. – С.267-279.

37. Bachnik J.M. Recruitment strategies for household secession: Rethinking Japanese household organization. *Man.*, 18: – 1983. – P.160-182.
38. Beardsley R.K., Hall J.W. and Ward R.E. *Village Japan*. – Chicago: University of Chicago Press, 1959. – 498 p.
39. Befu H., Norbeck E. Japanese usages of terms of relationship. // *Southwestern Journal of Anthropology*, 14. The University of Chicago Press, 1958. – P.66-86.
40. Бенвенист Е. *Общая лингвистика*. – М.: URSS, 2010. – 448 с.
41. Бодуэн де Куртенэ И.А. *Избранные труды по общему языкознанию*. – М.: АН СССР, 1963. – 382 с.
42. Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики. // *Вопросы когнитивной лингвистики*, 2004. – №1. – С.18-36.
43. Валеева Д.Р. Репрезентация концепта “Дом” в русской языковой картине мира: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Казан, 2010. – 20 с.
44. Воркачев, С. Г. Лингвокультурология, языковая личность: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании. // *Филологические науки*. – 2001. – №1. – С.64-72.
45. Vicenta G. *Ethnography in ancient Japan: a theoretical essay about Kinship*// *Ido movement for culture. Journal of Martial arts Anthropology*. – 2016. – Vol.16, no.2. – P.20-31.
46. Глозман Б.Г. Лингвокультурный аспект изучения фразеологических единиц, репрезентирующих концепт “Дом” в русском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Оренбург, 2010. – 239 с.
47. Гуревич Т.М. Лингвокультурологический анализ концептосферы человек в японской языковой картине мира: Дисс. ...док. култ. – Москва, 2006. – 330 с.
48. Дуксова Н.А. Сопоставительный системный анализ лексики семантического поля “Дом/жилье” на материале английского и русского языков: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006. – 26 с.
49. Жалилова Н. Ўзбек тилида қон-қариндошлиқ терминларининг пайдо бўлиш даврига кўра типологияси. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRK LAD)*. – Туркия, 2018. – Volume 2, Issue 1, – Б.468-472

- 50.Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Монография. – Волгоград: Перемена, 2002.– 476 с.
- 51.Kitaoji H. The structure of the Japanese family. // American anthropologist. The Australian national university, 1971. –1036 p.
- 52.Козырева О.А. Когнитивные аспекты исследования лингвокультурологического поля: на материале поля “дом/жилье”: Дисс. ...канд.филол. наук. – М., 2006. – 237 с.
- 53.Корнилов О.А. Языковые картина мира как производные национальных менталитетов. М.:ЧеРо, 2003. –345 с.
- 54.Campbell R. (1993) Changing ideas about family care for the elderly in Japan. // Journal of Cross-Cultural Gerontology. Kluwer academic publishers. – P.119-135.
- 55.Cornell J.B. A Japanese Mountain Community. Two Japanese villages: Matsunagi. Ann Arbor:University of Michigan Press, 2004 – P.113-232.
- 56.Лакофф Дж. Женщина, огонь и опасные вещи. И.Б.Шатуновский. Пер. на рус. яз., Языки славянской культуры, 2004. – 774 с.
- 57.Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987. – 605 p.
- 58.Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. University of Chicago Press, 2003. – 242 p.
- 59.Langacker R.W. Reference-Point Constructions. // Cognitive Linguistics, 1993. – № 4. – P.1-38.
- 60.Ли Ли Фразеология в русской языковой картине мира на примере концепта “дом” с позиции носителя китайского языка и культуры: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006. – 19 с.
- 61.Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка. // Известия РАН. Серия литературы и языка. – М.,1993. – Т.52, №1. – С.147-165.
- 62.Мамедгасанова А.А. Концепты “дом”, “семья”, “очаг” как особенности национальной ментальности. // Языковая личность в дискурсе: Полифония структур и культур: Материалы международной научно-практической конференции. – М. – Тверь, 2005. – С. 21-55.
- 63.Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 169 с.
- 64.Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику: учебное пособие. – М., 2004. – 296 с.

65. Norbeck E., Benu H. Informal fictive kinship in Japan. // *American Anthropologist*, 60: University of California, Berkeley, 1958. – P.102-117.
66. Палкин А. Д. Образ матери в языковой картине мира русских и японцев. // *Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация*. – 2020. – Т. 18, № 1. – С. 71–83.
67. Patrycja D. K. Japanese kinship terms of address and reference - selected approaches. 2014. – 30-39 p.
68. Пименова М.В. Предисловие./ Введение в когнитивную лингвистику. – Кемерово, 2004. – 208 с.
69. Покровская Л. А. Термины родства в тюркских языках. // *Историческое развитие лексики тюркских языков*. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 11-81.
70. Потураева Е.А. Метафорические обозначения концепта “Дом” в русской языковой картине мира. – Томск, 2011. – С. 58-73.
71. Севортян Е.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1974. – 206 с.
72. Солохина А.С. Концепт “свобода” в английской и русской лингвокультурах. Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 2004. – 191 с.
73. Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике. – М., 1990. – 206 с.
74. Степанов Ю.С. Концепт, 2010 [Электронный ресурс] <http://es-dejavu.ru/c/Concept.html>
75. Sullivan, K. Frames and constructions in metaphoric language. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2013 –184 p.
76. Тимощенко С.А. Лексико-семантическая экспликация концепта “Дом” в русской фразеологии и художественных текстах: Дисс. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 226 с.
77. Тиунова О.В. Вербальная манифестация ментального образования дом по данным словарей и обращения к носителям языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тверь, 2019. – 19 с.
78. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания. // *Новое в зарубежной лингвистике. Когнитивные аспекты языка*. – М.: Прогресс, 1988. – Вып. 23. – 52-92 с.
79. Fillmore C.J., Baker C.F. Frame semantics for text understanding. / *Proceedings of WordNet and Other Lexical Resources Workshop, NAACL*, 2001. – P.52-92.

80. Fisher J.L. Words for Self and Others in Some Japanese Families. // American Anthropologist, 1964, 66 (6). – P.115-126.
81. Фролова Е.Л. Термины родства в функции обозначения супругов японской семьей. // Вестник НГУ. Серия: История, филология. – Том 11, выпуск 4: – 2012. – С.129-139.
82. Цинцус В.И. К этимологии алтайских терминов родства. // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. – Махачкала, 1985. – 104 с.
83. Halnazarov M. (2017) 「親族における呼称についてーウズベク語と日本語との対照的観点からー」日本語、日本語学研究第7号. – 97-109 p.
84. Halnazarov M. (2019) 「親族語を中心としたウズベク語の呼称についてー日本語と対照的観点からー」博士学位論文、東京外国語大学. – 330 p.
85. アザム セペフリバディ(2011)「現代日本語における家族から呼ばれるときの呼称」一橋大学国際教育センター紀要第2号 – P.57-71.
86. アザム セペフリバディ(2013)「日本語における自称表現」//日本語/日本語教育研究、第4号. – P.109-128.
87. デイウイッド・リー (2006) (訳: 宮浦国江)「実例で学ぶ認知言語学」大修館 [David Lee “Cognitive linguistics: An introduction. Oxford University Press, 2001] – 306 p.
88. 上 杉 富 之「「イエ中心」から「自己中心」へー新潟県横根力言の親族語彙の特徴とその通時的変化ー」『民俗学研究』56-1、日本民族学会 – P.67-91.
89. 中村桃子(2022)「言葉は関係を作る一家族、パートナーの呼び方」中村桃子さんに聞く//女性の広場」2022年7月号 – P.63-68.
90. 中根千枝(1967)「タテ社会の人間関係」講談社. – 189 p.
91. 児玉徳美 (2002) 「意味論の対象と方法」くろしお出版 – 277 p.
92. 劉柏林 (2001) 「中日親族呼称について」『言語と文化』愛知大学 No.5. – 61-78 p.
93. 吉本ばなな(2002)「キッチン」短編集、新潮文庫 – 60 p.
94. 国広哲弥(1990)「呼称の諸問題」『日本語学』明治書院 vol.9. – P.4-9.
95. 大江三郎(1975)『日英語の比較研究: 主観性をめぐって』南雲堂 – 294 p.
96. 奥津文夫 (2005) 「日英語対応語義範囲のズレと文化的背景一家族内の人間関係を示す語を中心に」和洋女子大学紀要、人文系編, 第38集. – P.11-23.
97. 宮崎清孝・上野直樹(1985)『視点』東京大学出版会、認知科学選書、 – P.53-54.

98. 寄藤昂(2006)「家族内における両親の自称・相互呼称における非対称性—アンケート調査の結果から」//日本語ジェンダー学会誌6号 – P.11-19.
99. 寺沢正晴(2002)「日本人の精神構造」東京, 晃洋書房. – 202 c.
100. 小島衛(2019)「日本語親族名称の前提条件—テクノミーとオイコミー」成城大学 – 16 p.
101. 小森由里 (2002)「日本語教育における親族語彙—初級日本語教科書の分析—」ICU 比較文化 34. – P.73-93.
102. 小森由里 (2013)「親族間で用いられる他称詞の運用—話題の人物を捉える視点と表現形式—」社会言語科学, 16 (1), –Vol.16, No.1. – 109-126 p.
103. 小森由里 (2020)「他称詞としての指示し—親族の実例より—」社会言語科学. 第23巻第1号. – P.258-273.
104. 尾崎喜光(2018)「現代日本語における親族呼称の時代変化と加齢変化」ノートルダム清心女子大学紀要. 外国語・外国文学. 編, 文化学編 Vol. 42 No. 1. – P.53-77.
105. 山梨正明(2008)「概念化と意味の世界—認知意味論のアプローチ—」研究者. – 301 p.
106. 山田伸明(1992)「母の意味とメタファー」国際関係学部紀要. – 109-127 p.
107. 川島 武宜(2000)「日本社会の家族的構成」岩波書店.– 249 p.
108. 平松希望(2010)「一人称と家族呼称—日本語人称代名詞の現在を日本語教育実践へ取り入れる—」 – 67-80 p.
109. 広田照幸(2002)「家族の概念—明治前期の家族と親族」教育開発研究所. – p.18-19.
110. 新見吉治 (1948)「家の概念と日本古代の家族研究」ジャーナル オープンアクセス.15 巻 1 号. – 13-44 p.
111. 有賀喜左衛門(1970)「家族と家」「有賀喜左衛門著作集 IX」未来社. – P.17-51.
112. 朝日新聞「富んでいるのは 20 代女性だけ？理想の家庭都の調査「他世代はマイホーム型」」東京 1981 年 4 月 16 日朝刊 – 30 p.
113. 朝日新聞「[ことばのファイル]実家 父や母が待つ、ふるさと」東京朝刊、解説、13 頁。2003.08.16. –13 p.
114. 朝日新聞「家を持つとは借家とは『我が家のイメージは家屋ではなく住んでいる人』」東京朝刊 1996.4.27
115. 朝日新聞「家庭と女性」1981年3月4日東京朝刊11版 –15 p.

116. 木透(2007)「モンゴルと日本のことわざにおける性差について」『民俗学におけるジェンダー研究と近代家族』『文学部論集』第91号。－P.73-84.
117. 柴田 (1978)「日本方言の語彙:親族名称とその他」東京、三省堂。－616 p.
118. 森田良行 (2002)「日本語文法の発想」ひつじ書房－376 p.
119. 水本光美 (2017)「他人の配偶者の新呼称を探るアンケート調査—『ご主人』、『奥さん』から『夫さん』『妻さん』への移行の可能性」日本語とジェンダー第17号。－13-30 p.
120. 渡辺友左 (1967)「社会構造と言語の関係についての基礎的研究 1 親族語彙と社会構造」国立国語研究所論集3「言葉の研究」－104 p.
121. 渡辺友左 (1968)「社会構造の言語の関係についての基礎的研究—親族ごと社会構造—」(1)国立国語研究所－101 p.
122. 渡辺友左 (1979)「各地方言親族語彙の言語社会学研究(1)」国立国語研究所報告64。－308 p.
123. 渡辺友左 (1967)「福島方部方言の親族語と形容詞の語彙体系—福島北部調査報告」国立国語研究所論集3「言葉の研究」3。－P.89-176.
124. 渡辺欣雄 (1982)『親族の社会人類学』, 現代の文化人類学 (3), 東京, 至文堂、47 巻 4 号－P.168-178.
125. 澤田治美 (1993)『視点と主観性—日英語助動詞の分析—』ひつじ書房。－334 p.
126. 皆島 (2013)「日英多義語の認知意味論的分析—『イエ』と “house”」福井大学教育地域科学部紀要。－P.43-57.
127. 竹内利美 (1954)「親族呼称」日本民俗学協会(編)『日本民族辞典』第2巻 735－737 頁 東京:誠文堂－P.9-18.
128. 竹田聰洲(1974)「日本の『家』とその信仰」社会科学16、同志社大学人文科学研究所。－24 p.
129. 緒方隆文 (2015)「呼称のカテゴリー分析—自称詞、対称詞、他称詞—」//筑紫女学園大学・筑紫女学園大学短期大学部。－P.1-13.
130. 藤井洋子 (2011)「日本語の親族呼称・人称詞に見る自己と他者の位置づけ—相互行為の「場」における文化的自己観の考察—」日本女子大学紀要、文学部 60。－P.73-86.
131. 藤加奈子 (2017)「親族名称の他称用法に関する現代中日対照比較 : “她妈”が「妻」となるときとは」信州大学人文学部－P.155-173.
132. 読売新聞「(フォーラム)嫁、主人、家はいま:2 結婚したら」朝刊オピニオン 2021 年 09 月 12 日－P.22-23.

133. 金世朗(2002)「家族の呼称表現における通時的研究:子供中心的用法に着目して」現代社会文化研究, No. 24: – P.269-286.
 134. 金田一 春彦(2005)「日本語の特質」日本語放送出版協会 – 252 p.
 135. 鈴木孝夫(1967)「トルコ語の親族用語に関する二、三の覚え書」//言語学会 – P.1-15.
 136. 鈴木孝夫(1973)「言葉と文化」東京、岩波書店– 206 p.
 137. 鈴木孝夫 (1998)「言語文化学ノート」大修館書店 – 207 p.
 138. 長谷部 陽一郎(2012)「内からの視点と外からの視点:認知言語学に基づく英語教育に関する試論」同志社大学グローバルコミュニケーション学会 – P.1-27.
 139. 陳露 (1998)「親族語彙に見られる待遇意識—現代日中両語の対照研究から—」千葉大学大学院社会文化科学研究科 – 114 p.
 140. 陳露 (2001)「現代日中両言語における親族呼称の対照研究」『千葉大学社会文化科学研究』5. – P.21-31.
 141. 高山純子 (2020)「21 世紀の家族へ「第 4 版」家族の戦後体制の見方・超え方」お茶の水女子大学 ジェンダー研究第 23 号. – P.256-268
 142. 鷺山真澄(1993)「親族名称の分析について」自然言語処理 – P.1-7.
 143. 鹿野政直(1989)「婦人・女性・おんな」岩波書店. – 227 p.
- Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**
144. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2020. 5 tom. – 645 b.
 145. Севортян Е.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1974. – 363 с.
 146. 「世界大百科事典 第2版」(1998)株式会社平凡社、東京 – 700 p.
 147. 『広漢和辞典上巻』(1981)大修館書店 –1303 p.
 148. 北原保雄 (2002)「明鏡国語辞典」東京：大修館書店 –1813 p.
 149. 北原保雄 (2010)「明鏡国語辞典」大修館書店 – 1937 p.
 150. 鈴木 棠三[新編](1992)「故事ことわざ辞典 ハードカバー」小学館 – 1639 p.
 151. Namiki T.(1981)「国語大辞典」小学館, 13 巻+別巻
 152. 岡島昭浩 (2012)「漢字、漢和辞典」大阪大学 – 268 p.
 153. 野晋、正人浜西(1981)「類語新辞典」角川書店 – 932 p.
 154. 尚学図書(1986)「故事ことわざ辞典」小学館 – 1277 p.

Internet manbalari

155. 日本大百科全書（ニッポニカ）（2022）小学館
<https://kotobank.jp/dictionary/nipponica/160/>
156. 松村 明（2023）「国語辞書デジタル大辞泉」小学館
<https://dictionary.goo.ne.jp/jn/>
157. 「ブリタニカ国際大百科事典 小項目事典」（2023）Britannica Japan Co., Ltd. <https://kotobank.jp/dictionary/britannica/162/>
158. 源由来辞典 <https://gogen-yurai.jp/okusama/>
159. http://japan-lifeissues.net/writers/ron/ron_13commandsfrien-ja.html
160. <http://kruosarikriey.web.infoseek.co.jp/firstlettersjp.html>
161. <http://tsukubawabecorpus.jp/headword/n.00296/#SS59>
162. <http://tsukubawabecorpus.jp/headword/n.00690/#SS58>
163. https://dictionary.goo.ne.jp/word/%E5%86%85_%28%E3%81%86%E3%81%A1%29/
164. 結果発表 // 嫁、主人、家... あなたはどう思いますか？
<https://www.asahi.com/opinion/forum/139/>
165. 内からの視点と外からの視点：認知言語学に基づく英語教育に関する試論 <http://doi.org/10.14988/pa.2017.0000013130>
166. <https://course.ccs.neu.edu/csg224/resources/framenet/framenet.pdf>

ILOVALAR

1-ILOVA

Yapon tilidagi nikohdan keyingi qavm-qarindoshlik birliklarini pogʻonaviy tizimlashtirish

	Toʻgʻridan-toʻgʻri qarindoshlik aloqasi		Yondosh qarindoshlik aloqasi	
	erkak	ayol	erkak	ayol
-2	義祖父[gisofu]	義祖母[gisobo]	義祖父母の兄: 義伯父 義祖父母の弟: 義叔父	義祖父母の姉:義 伯母 義祖父母の妹: 義叔母
-1	舅 [shūto]、義 父[gifu]	姑 [shūto]、義 母[gibo]		
0	配偶者[haigusha]			
	夫[otto]	妻[tsuma]	義兄-姉の夫、 配偶者の兄 義弟-妹の夫。 配偶者の弟	義姉：兄の妻、 配偶者の姉 義妹：弟の妻、 配偶者の妹
			姉の夫：姉婿 妹の夫：妹婿	兄嫁：兄の妻 弟嫁：弟の妻
			小舅：配偶者の 兄弟 小姑：配偶者の 姉妹	
1	義子[youshi]			
	娘婿 [musume muko]	女婿[jyosei]	義甥 [gisei]	義姪[gitetsu]

Yapon tilidagi nikohdan keyingi qavm-qarindoshlik birliklarini tizimlashtirish

	Yapon tilida Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik nomlari	Tarjimasi	Yapon tilidagi qarindosh-urug'chilik nomlarining ma'nolari
1.	夫婦 [fu:fu]	Er-xotin	Turmush qurgan ayol va erkak
2.	配偶者 [haigusha]	Er-xotin, turmush o'rtoq	Er-xotinning biriga nisbatan ikkinchisini ko'rsatuvchi termin
3.	夫 [otto]	Er	Turmush qurgan erkak
4.	主人 [shujin]	Xo'jayin, er	Xotin boshqalarga nisbatan o'zini eri haqida gapirganda ishlatiluvchi so'z.
5.	妻 [tsuma]	Xotin	Turmush qurgan ayol
6.	家内 [kanai]	Xotin	Er boshqalarga nisbatan o'zini xotini haqida gapirganda ishlatiluvchi so'z.
7.	奥さん	Rafiqa	O'zgalarni arfiqasiga nisbatan hurmat yuzasidan qo'llanuvchi so'z
8.	婿 [muko]	Kuyov	Qizinig eri sifatida hisoblanuvchi erkak
9.	嫁 [yome]	Kelin	O'g'ilning xotini
10.	舅 [shuto] 義父 [gifu]	Qaynota	Er yoki xotinning otasi
13.	姑 [shutome] 義母 [gibo]	Qaynona	Er yoki xotinning onasi
14.	義兄 [gikei]	Pochcha, qaynog'a	Opaning eri; er yoki xotinning akasi
15.	義弟 [gitei]	Kuyov, qaynini	Singilning eri; er yoki xotinning ukasi
16.	義姉 [gishi]	Kelinoyi, qaynopa	Akaning xotini, er yoki xotinning opasi
17.	義妹 [gimai]	Kelin, qaynsingil	Ukaning xotini, er yoki xotinning singlisi

18.	兄嫁[aniyome]	Kelinoyi	Akaning xotini
19.	義理の叔父 [giri no oji]	Pochcha	Ota-onaning opa-singillarining eri; er va xotinning ota-onasining aka-ukalari; er va xotinning ota-onasining opa-singillarining eri
20.	義理の伯母 [giri no oba]	Kelinoyi, opoqi	Ota-onaning aka-ukalarining xotini; er va xotinning ota-onasining opa-singillari; er va xotinning ota-onasining aka-ukalarining xotini

MUNDARIJA

KIRISH	3
YAPON LISONIY TAFAKKURIDA “家[IE]-UY”	
KONSEPTINING ILMIY TAVSIFI	5
Konseptning freym strukturasini o‘rganishdagi zamonaviy yondashuvlar.....	5
Yapon tilidagi qarindosh-urug‘chilikka oid birliklarning o‘rganilishi	16
Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq birliklarni “家[ie]-uy” konseptida freym semantikasi nuqtayi nazardan o‘rganishda fokusning ahamiyati.....	23
Yapon xalqining lisoniy tafakkurida “家[ie]-uy” tushunchasining tadrijiy o‘zgarishi	35
YAPON TILIDA “家[IE]-UY” KONSEPTI BILAN BOG‘LIQ QARINDOSH-URUG‘CHILIK BIRLIKLARINING NOMINATIV MAYDONI VA QO‘LLANISHI.....	45
Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining semantik maydonida ichkari va tashqari oppozitsiyasi	45
Yapon tilida nikohdan keyin shakllangan qavm-qarindoshlikka oid til birliklari semantikasi.....	62
Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining qo‘llanishida so‘zlovchi nigohining ko‘chishi	68
Yapon tilida 母[haha] <i>ona</i> so‘zining semantik modellari va “家[ie]-uy” bilan bog‘liqligi.....	81
QARINDOSH-URUG‘CHILIK BILAN BOG‘LIQ BIRLIKLARDA “家[IE]-UY” KONSEPTINING KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI.....	92
“家[ie]-uy” konseptining leksik sathda voqelanishi.....	92
Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq til birliklarining uydan tashqaridagi jamoalarda qo‘llanishining o‘ziga xosligi	102
Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq yapon maqollarida “家[ie]-uy” konseptining reprezentatsiyasi	110
XULOSA.....	129
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	133
Ilovalar	144

Abduxamidova, Dilafruz.

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq yaponcha birliklarda “家-uy”
konsepti: monografiya / D.Abduxamidova. – Toshkent:2024. – 146-bet.

УДК 811.521(075.4)

ББК 81.2

A 13

ABDUXAMIDOVA DILAFRUZ ABDUXABIROVNA

**QARINDOSH-URUG‘CHILIK BILAN BOG‘LIQ
YAPONCHA BIRLIKLARDA “家-UY” KONSEPTI**

Monografiya

Mas’ul muharrir:

Omonov Qudratulla Sharipovich
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Safarov Shaxriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor
Xalmurzayeva Nodira Tashmurzayevna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dosent

*Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4-sonli majlisi bayoni asosida
nashrga tavsiya etilgan.*

Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2024
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 9,25 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma №
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024